

SIRDARYO VILOYATI HOKIMLIGI

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA
MA'RIFAT MARKAZI
SIRDARYO VILOYAT BO'LIMI**

**MAHALLALARDA
MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI
TASHKIL ETISH YUZASIDAN
TAVSIYA**

QO'LLANMA

**UO‘K
KBK**

Mahallalarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish yuzasidan tavsiya qo‘llanma. / –Toshkent: 2024-y. 388 b.

Mazkur qo‘llanma korxona va tashkilotlarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish yuzasidan tavsiyaviy ahamiyatga ega. Mazkur qo‘llanmada Prezident farmon va qarorlari, ish faoliyatda foydalanish, tashkilot va korxonalarda ma’naviyat xonalarini jihozlash bo‘yicha eng zarur ko‘rsatmalar belgilab berilgan.

Mas’ul muharrir:

Bekzod Ismatov – Sirdaryo viloyati hokimining o‘rribosari,
Ma’naviyat va ma’rifat kengashi raisi o‘rribosari

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Murodjon Xaitov – Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Sirdaryo viloyat bo‘limi rahbari.

Ravshanbek Maxmudov – Guliston davlat universiteti professori.

Taqrizchi:

Furqat Jo‘raqulov – Siyosiy fanlari doktori, professor.

ISBN

© Sirdaryo viloyati hokimligi

© Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Sirdaryo viloyat bo‘limi

KIRISH

*Bugungi ma'naviyat barcha
sohalardan o'n qadam oldinda
yurishi kerak.*

Shavkat Mirziyoyev

Muhtaram Prezidentimizning 2023-yil 22-dekabr kungi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi yig'ilishida 9 ta ustuvor yo'nalish asosida vazifalarni belgilab berdilar.

Davlat rahbarining "Bugun ma'naviyat barcha sohalardan o'n qadam oldindan yurishi kerak" – degan fikrlari korxona va tashkilotlar, barcha darajadagi rahbarlar oldiga katta vazifa va mas'uliyat yuklaydi. Bu borada "Bundan keyin rahbarlarga baho berishda ularning ma'naviyat va ma'rifat sohasiga berayotgan e'tiboriga qaraladi" – degan qat'iy mezon belgilangani ham yuqorida fikrlarni tasdiqlaydi.

Bugungi kunda korxona va tashkilotlarda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tartibga solish, davlat xizmatchilarini vatanni sevish, daxldorlik hissini uyg'otish, ajdodlarimizga muvofiq bo'lishlari har qachongidan ham muhimroqdir. Buning uchun albatta idoralarda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari, "Ma'rifat soat"larining o'rni beqiyosdir.

Shu maqsadda mazkur qo'llanmada tashkilot va korxonalarini umumiy ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini ochib beradigan barcha jihatlarga alohida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, xodimlarning bilimni oshirish, ularning ma'naviy kamol topishlari, o'z ustida ishlashlari uchun tavsiyaviy badiiy adabiyotlar, matbuot nashrlarining ham ro'yxati berilgan.



Shu o‘rinda yana bir asosiy jihatga to‘xtalib o‘tish zarur deb hisoblaymiz. Ayrim korxona va tashkilotlarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarga mas’ul uchun shtat birligi ajratilmagan. Bu degani ma’naviy-ma’rifiy sohani o‘z holiga tashlab qo‘yishga asos bo‘lmaydi. Islohotlarning barcha darajada aholiga yetkazish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, Yangi O‘zbekiston g‘oyalarini keng yoyishda soha uchun mas’ul xodimni doimiy biriktirish, uning namunali ishlashi uchun barcha zarur shart-sharoit bilan ta’minlash birinchi rahbarlarning asosiy vazifasiga aylanishi kerak.

Qo‘llanma mahallalarning korxona va tashkilotlar, ta’lim muassasalari va boshqa tashkilotlar bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish uchun tavsiya etiladi.

MA'NAVIYAT MASALASI – HAYOT MAMOT MASALASI

*“Mahalla xalq bilan davlat o‘rtasidagi ko‘pri
bo‘lishi kerak. Odamlarning quvonchu tashvishidan
doimo xabardor bo‘lish mahallaning asosiy
vazifasidir”.*

Shavkat Mirziyoyev

Mahalla — insoniyat yaralibdiki, uning ma’naviy yuksalishiga beshik bo‘lgan, dunyoning barcha taraqqiyot bosqichlariga guvoh bo‘lgan, bag‘rida ham olis o‘tmish, ham bugungi tamaddun jarayonlarini namoyon etgan, tarixi bir necha ming yillik tarixga borib taqaladi.

Mahalla kichik ma’muriy hudud bo‘lishi bilan birga, turmush tarzi, qadriyatlar, an’analalar, urf-odatlar umumiyligi bilan bog‘langan kishilar jamoasi birligidir.

Mahalla tizimi jamiyatimizning eng muhim va tayanch bo‘g‘ini hisoblanadi.

Mahalla – xalq bilan mamlakat o‘rtasidagi ishonch ko‘prigi sifatida xizmat qiladigan, insonni jamiyatning bir qismi bo‘lishga o‘rgatadigan, uni bag‘rikenglik va xalqparvarlik ruhida tarbiyalaydigan makondir.

Mahallalarning o‘ziga xos nomlari bizga tarixdan so‘zlaydi. Chunki ularda xalqimizning uzoq va shonli tarixi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, madaniy merosi aks etadi.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan mana shunday buyuk qadriyatlar maskani bo‘lmish mahallalarga katta e’tibor berilmoqda. Sharqqa xos madaniyatni o‘zida jamlagan mahallalarimiz nufuzini oshirish, mahalla orqali yurtimiz rivoji uchun xizmat qilish burchimizdir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida “Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakat ayylanishi kerak” mavzusida nutq so‘zladilar va unda

barchamiz uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan mahalla tizimiga ham daxldor bo‘lgan bir nechta ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Jumladan, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek “Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur’atlari misli ko‘rilmagan darajada shiddatli tus olmoqda. Ayni vaqtida azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda. Ilgari o‘z maqsad va manfaatlarini, asosan, diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tgan bir paytda, “G‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yoshlarimizning tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryapti-mi?” - degan savollar har birimizni jiddiy o‘ylantirishi va tashvishga solishi lozim.

“Agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “o‘zbekistonlik”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart” - degan so‘zleri barchamizga, har bir mahalla raisiga ham taalluqli hisoblanadi.

Kengash yig‘ilishi davomida Muhtaram Prezidentimizning mahalla raislari, faollar, nuroniyalar, xotin-qizlar va yoshlarga qilgan quyidagi murojaati alohida e’tiborga molik:

“Azizlarim, tarbiyasi izdan chiqqan nopol kimsalardan ogoh bo‘laylik!

Farzandlarimizni ularning buzg‘unchi ta’siridan asraylik!

Kelajagimizni yovuz kuchlar qo‘liga berib qo‘yishga aslo haqqimiz yo‘q.

Agar barchamiz birgalikda qat’iy harakat qilsak, jamiyatimizda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni mustahkamlashga albatta qodirmiz.

Yangi O‘zbekistonda qonun ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar bo‘lishi shart. Va albatta shunday bo‘ladi”.

Shuningdek, Prezidentimiz sohaga oid oxirgi uchta videoselektor yig‘ilishlarida mahalla raislari haqiqiy

ma’naviyatchi bo‘lishlari, ular birinchi galda ma’naviyat va ma’rifat bilan shug‘ullanishlari zarurligi to‘g‘risida alohida ta’kidlab o‘tdilar. Shundan kelib chiqib bugungi kunda mahalla raisi bir vaqtning o‘zida jamoatchilik asosida mahalla Ma’naviyat va ma’rifat kengashi raisi ham hisoblanadi. Mahalladagi hokim yordamchilari Kengash raisi o‘rnbosari, yoshlar yetakchilari Kengash mas’ul kotibi, mahallaning qolgan xodimlari va mahalla hududida joylashgan barcha korxona, tashkilot, muassasa rahbarlari, ko‘cha boshilar, uy boshilar Kengash a’zolari hisoblanadilar.

Mahalla raisi Kengash raisi ekan, buning uchun, avvalo, mahalla raisining gap-so‘zi, yurish-turishi, oilasi, hamma jihatdan aholiga ibrat bo‘lishi kerak.

Shu maqsadda, Sirdaryo viloyati hokimligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi bilan hamkorlikda “Mahallalarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish yuzasidan tavsiya qo‘llanma” ishlab chiqildi.

Qo‘llanmada, mahallalaring tarixiy ildizlaridan tortib, hozirgi kundagi asosiy vazifalari, davlat ramzları to‘g‘risida ma’lumotlar, ma’naviyat xonasi yoki burchagi, milliy qadriyatlar burchagini qanday jihozlash, hujjatlarni yuritish bo‘yicha tavsiyalar, sohaga oid farmon va qarorlar o‘rin olgan.

Qo‘llanmadan foydalanish jarayonida, qabul qilinayotgan qaror yoki farmonlarning tub mohiyati xalqimizning yaxshi sharoitlarda yashashi, har bir insonning rivojlanishi uchun foydali bo‘lishiga qaratilganligiga amin bo‘lasiz.

Zero, zamon shiddat bilan o‘zgarmoqda. Mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan yagona institutga aylantirishimiz zarur. Bugungi kundagi asosiy muammolarga yechim topmoqchi bo‘lsak, eng avvalo mahallalarga katta e’tibor qaratishimiz zarur. Bunga esa barchamiz birdek mas’ulmiz..

**Akmaljon Maxmudaliyev,
Sirdaryo viloyati hokimi,
Ma’naviyat va ma’rifat kengashi raisi.**

I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT RAMZLARI



DAVLAT BAYROG'I

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonun 1991-yil 18-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida qabul qilingan.

Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi.

1. Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzi. Timsollar tilida bu – yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi ham moviy rangda edi.

2. Bayroqdagi oq rang – muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang – poklik, beg'uborlik, soflikni, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsoli.

3. Yashil rang – tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

4. Qizil chiziqlar – vujudimizda jo‘sib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi.

5. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog‘liq. Ayni paytda u qo‘lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzi ham.

6. Yulduzlar barcha uchun ruhoniyligi, ilohiy timsol sanalgan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘idagi 12-yulduz tasviri ham tarixiy an'analarimiz, qadimgi yilnomamizga bevosita aloqador. Bizning o‘n ikki yulduzga bo‘lgan e’tiborimiz O‘zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida nujum ilmi taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi.

Davlat bayrog‘imizdagi 12-yulduz tasvirini o‘zbek xalqi madaniyatining qadimiyligi, uning komillikka, o‘z tuprog‘ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.



DAVLAT GERBI

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida”gi Qonun 1992-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda so‘l tomonida bug‘doy boshoqlari, o‘ng tomonida ochilgan paxta chanoqlari suvratni tushirilgan chambardan iborat.

Gerbning yuqori qismida respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug‘ ramzidir.

Gerbning markazida himmat, oljanoblik va fidoyilik timsoli bo‘lgan afsonaviy Humo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo‘lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi.

Gerbning pastki qismida respublika Davlat bayrog‘ini ifoda etuvchi chambar lentasining bandiga “O‘zbekiston” deb yozib qo‘yilgan.

DAVLAT MADHIYASI

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat gimni to‘g‘risida”gi Qonun 1992-yil 10-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI Sessiyasida qabul qilingan.

Davlat madhiyasining so‘zi O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov qalamiga mansub, musiqasini esa bastakor Mutual (Mutavakkil) Burhonov bastalagan.

Abdulla Oripov so‘zi, Mutual Burhonov musiqasi

Serquyosh hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘s sh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iyemoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘s sh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor!

O'ZBEKISTON TARIXI VA BUGUNI

O'zbekiston hududi insoniyat taraqqiyoti paydo bo'lgan va rivojlangan o'choqlardan biri hisoblanadi, uning davlatchilik tarixi qariyb 3000 yillik davrni o'z ichiga oladi. Yodgorliklar hududi bo'lmish Selengur, Ko'lbuluoq va Teshiktoshdagi arxeologik topilmalar shundan dalolat beradiki, O'zbekiston hududida o'troqlashgan aholining vujudga kelish bundan bir necha yuz ming yil avval sodir bo'lgan.

ENEOLIT VA BRONZA DAVRI

O'rta Osiyoda dehqonchilik madaniyatining paydo bo'lishi eramizdan avvalgi 3-2 ming yilliklarga to'g'ri keladi. Eramizdan avvalgi 3 ming yillikning ikkinchi yarmi, 2 ming yillikning birinchi yarmida Amudaryoning yuqori qismida aholi punktlari paydo bo'lgan edi. Bu yerlik aholi Badaxshon yoqutini (lazurit) ishlab chiqish va sotish ishlarida ishtirok etardi. Shuningdek ular bilan Hindistondagi Xarapp madaniyati o'rtasida o'sha davrdayoq aloqalar mavjud bo'lgan. Eramizdan avvalgi 2 ming yillikda hind-eron (oriylar) qabilalarining O'rta Osiyo hududi va unga tutashgan sahrolar orqali janubda Hindiston, janubiy-sharqda Midiya va Fors davlati, sharqda Sharqiy Turkiston sari migratsiyasi yuz bergen.

Dehqonlarning qadimiy maskanlaridan bo'lgan Zarafshon vohasidagi Zamonbobo hududida uy hayvonlarining suyaklari, bug'doy va arpa donlari, toshdan yasalgan dehqonchilik uskunlari topilgan. Panjikentdan uncha uzoq bo'Imagan Sarazm qishlog'i atrofida eneolit va bronza davriga oid dehqonchilik maskani topilgan bo'lib, uning hududi 90 gektardan ziyodroq maydonni qamrab oladi. Qadimiy dehqonchilik maskanlari Surxondaryoda - Sopollitepa va Jarqo'tonda ham topilgan. Xorazm hududida topilgan va bronza davriga oid bo'lgan arxeologik yodgorliklar Tozabog'yobsoy dehqonchilik madaniyati nomini olgan. Ko'kcha, Qavat-3 dehqonchilik maskanlari 2 ming yillikning

o‘rtalarida vujudga kelgan. Bu yerda qadimiy kanallar mavjud bo‘lgani aniqlangan. Eramizdan avvalgi 1 ming yillikning boshlarida Xorazmda sun’iy sug‘orish texnikasi rivoj topishi asnosida Amirobod madaniyati shakllangan. Shu tariqa Farg‘ona vodiysi aholisi ham asta-sekinlik bilan o‘troq turmush tarziga o‘tib, dehqonchilik bilan shug‘ullana boshlaydi. Xususan, eramizdan avvalgi 2 ming yillikning yakuni va 1 ming yillikning boshida Farg‘ona vodiysida Chust dehqonchilik madaniyati paydo bo‘lgan. 1 ming yillikning boshlarida Samarqand, Mary, Yerqo‘rg‘on, Axsikent, Xiva kabi shaharlar vujudga keladi. Shuningdek, ushbu davrda zardushtiylikning Avesto kitobi va qahramonlik eposlari paydo bo‘ldi.

QADIMGI BAQTRIYA PODSHOLIGI

O‘rta Osiyodagi qadimiy davlatchilik tuzilmalaridan biri Qadimgi Baqtriya davlatidir. Qadimiy manbalar shundan dalolat beradiki, eramizdan avvalgi VIII asrda yirik Baqtriya podsholigi mavjud bo‘lgan. Avestoda uning nomi Baxdi, Bihistun yodgorliklarida Baktrish, antik davr adabiyotlarida Baktriana sifatida qayd etilgan. Qadimgi Baqtriya bilan o‘sha davr dunyosining boshqa davlatlari – Ossuriya, Yangi Vavilon, Midiya, Hindiston knyazligi o‘rtasida aloqalar mavjud bo‘lgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Ossuriya hukmronligi (gegemonligi) qaror topgan eramizdan avvalgi IX-VII asrlarda ossuriyaliklar Baqtriyaga hujum qilishgan. Bu harakat tarixda Ossuriya yurishi nomi bilan ma’lum. Bu yurishning asosiy sababi Baqtriya lazuriti ustidan nazorat o‘rnatishga qaratilgan edi.

Eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Qadimgi Baqtriya podsholigi hududiga Surxon, Qashqadaryo va Zarafshon vohalari, Marg‘iyona va Sug‘d yerlari kirgan. Baqtriyalik ustalar tomonidan tilla, tosh va bronzadan yasalgan turli mahsulotlar Xitoy, Fors davlati va Yevropada juda mashhur bo‘lgan. Baqtrianing yirik shaharlari Qiziltepa, Yer-Qo‘rg‘on, Uzunqir va Afrosiyob

hududlarida joylashgan. O'sha davrda Baqtriyaga tashrif buyurgan sayyoh e'tiborini uylar, hunarmandlarning ustaxonalari va xo'jalik binolari uzra bo'y cho'zib turgan salobatli minoralar tortishi tabiiy edi. Kursiy Rufning yozishicha, "Baqtrianing tabiatи boy va turli-tuman. Ayrim joylarda daraxtlar va toklar o'ta sermahsul hosil beradi, hosildor yerlar ko'plab buloqlardan suv ichadi. Yumshoq yerlarga bug'doy ekiladi, qolgani esa chorva uchun yaylovlardir".

QADIMGI XORAZM

O'rta Osiyoning ikki daryo oraliq'idagi yerlari qadimdan Xorazm nazorati ostida bo'lган. Xorazmnинг nomi Avestoda Xvariazm, Bihistun yozmalarida Xvarazmish, Arrian va Strabonning tarixiy kitoblarida Xorasmiya sifatida keltiriladi. VIII asrda arab istilochilari tomonidan vayron etilgan Xorazm madaniyati tarixi eramizdan avvalgi 1292-yillarga borib taqaladi. Xorazm butun mintaqasi uchun Avestoning muqaddas yeri, qadimiy madaniyat markazi sanalgan. Eramizdan avvalgi VII-VI asrlardayoq Xorazm hududida davlatchilik tuzilmalari mavjud edi. Arxeologik ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning ikkinchi choragidayoq Amudaryo daryosiga tutashgan kuchli irrigatsiya tizimi mavjud bo'lgan. Xorazmda yirik kanallarni tashkil etish uchun markazlashgan kuchli boshqaruв kerak bo'lgani tabiiy. Eramizdan avvalgi VI asrning o'rtalarida Xorazm Fors podsholigi tomonidan bosib olingan. Forsiyalar Xorazmdan turli qimmatbaho toshlarni, zargarlik va kulolchilik mahsulotlarini tashib ketgan. Eng yaxshi ustalar ham Fors podsholari saroyiga olib ketilgan. Eramizdan avvalgi V-IV asrlarda Xorazm Fors podsholigidan ozod bo'lib, o'z mustaqilligini qayta tiklaydi. Eramizdan avvalgi IV-III asrlarda Xorazm yozuvi paydo bo'lgan. Xon qarorgohi – Tuproq qal'a, qadimiy maqbara va rasadxona Qo'y-Qirilgan qal'a ham o'sha davrlardayoq mavjud bo'lgan. Grek manbalarining

shohidlik berishicha, eramizdan avvalgi 329-328-yillarda Xorazm xoni Farisman yunonistonlik Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) bilan tinchlik bitimi tuzgan.

ISKANDAR ZULQARNAYNNING O'RTA OSIYOGA YURISHI

Eramizdan avvalgi 334-yilda Iskandar Zulqarnayn Osiyoga yurish boshladi. U Kichik Osiyo, Suriya, Finikiya, Misr va Eronni zabit etib, 329-yilning bahorida Hindikush tog‘ini kesib o‘tib O‘rtal Osiyoga hujum qildi. Baqtriya va So‘g‘diyona hukmdori Bess (u podsho maqomini va Artakserks nomini olgan) Zulqarnaynga qarshi turish befoyda ekanini anglaydi. Iskandar Zulqarnayn Baqtriya qal’alarini birin-ketin bosib olar ekan, Maroqandda o‘z garnizonini qoldirib, Sirdaryo tomonga - saklar yeriga yuradi. Ammo yo‘lda u mahalliy aholi tomonidan misli ko‘rilmagan qarshilikka duch keladi. Ikki tomon kuchlarining o‘zarot to‘qnashuvlarining birida Iskandar Zulqarnayn og‘ir yarador bo‘ladi. Yunonlar ta’biri bilan aytganda “daryo bo‘yida yashovchi varvarlar” Zulqarnayn garnizoniga katta talafot yetkazadi.

Ayni shu vaqtning o‘zida Spitamen boshchiligidagi so‘g‘dlar ham Iskandar qo‘sishinlariga qarshi bosh ko‘taradi. So‘g‘dlarga baqtriyaliklar ham kelib qo‘shiladi.

Spitamen Iskandarga qarshi keskin kurashdi va uning garnizonini Maroqandda to‘xtatib qo‘ydi. Makedoniya garnizoni Sirdaryo bo‘yida zudlik bilan qal’a bunyod etishga kirishadi. Bu qal’a Olis Aleksandriya nomini olgan. Iskandar Zulqarnayn saklar bilan sulh tuzishga erishadi. Keyin esa asosiy kuchini Spitamenga qarshi tashlaydi. Ammo 329-328-yillar davomida yunon-makedon qo‘sishinlari tomonidan So‘g‘d hududida amalga oshirilgan beshafqat aksiyalar Iskandar Zulqarnayn kutgan natijani bermaydi. Ikki yillik samarasiz va omadsiz harakatlardan keyin u o‘z taktikasini o‘zgartiradi. Ayni xususda Kursiy Ruf shunday yozadi: “Iskandar o‘ziga bo‘ysunishga qarshilik ko‘rsatganlarga

turli shahar va yerlarni tortiq etdi”. Shu usul bilan Iskandar Zulqarnayn mahalliy zodagonlarni o‘ziga qaratishga muvaffaq bo‘ldi va ularning ko‘magida baqtriya va so‘g‘diylardan tarkib topgan harbiy contingent tuzdi. 328-yilning kuzida Iskandar bilan Spitamen o‘rtasida hal qiluvchi jang bo‘ldi. Spitamen bu jangni boy beradi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, jangni boy bergen Spitamen o‘z ittifoqchilari tomonidan qatl etilgan.

Hisor tog‘laridagi Xoriyon va Oksariat qal’alarini o‘ziga bo‘ysindirgan Iskandar Oksariatning qizi Raxshonaga (Roksana, Ravshanak) uylanadi va shu tariqa mahalliy elitaga qarindosh bo‘ladi. Iskandar o‘z tomoniga o‘tgan so‘g‘diylardan birini (ayrim ma’lumotlarga ko‘ra uning ismi Oropiy bo‘lgan) So‘g‘d podshosi etib tayinlaydi. Shu tariqa uning O‘rta Osiyo ustidan hukmronligi o‘rnatalidi. 327-yilning yozida esa u Hindikush tog‘i orqali Hindiston sari yurishini boshlaydi.

SALAVKIYLAR DAVLATI

Spitamennenning o‘limi va Iskandarning so‘g‘d-baqtriya hukmdorlari bilan tuzgan sulhi natijasida 327-yilda O‘rta Osiyo Iskandar Zulqarnayn davlati tasarrufiga o‘tadi. Mahalliy elitalarning harbiy contingentni Iskandar Zulqarnayn armiyasiga qo‘shiladi. 323-yilda Iskandar Zulqarnaynning o‘limi haqdagi xabarni eshitgan So‘g‘d va Baqtriyadagi grek kelgindilari 20 ming kishidan iborat piyoda askar va 3 ming nafar otliqni yig‘ib o‘z vatanlariga qaytishga otlandi. Ammo ularni to‘xtatish uchun Iskandarning Safdoshi sarkarda Perdik yetib keladi va qochishga shaylangan askarlarni quolsizlantirib, jazolaydi. O‘z vatanlariga qaytishga shaylangan grek askarlariga xayrixohlik bildirgan So‘g‘d hukmdori (strapi) o‘z lavozimidan ozod etildi. Uning o‘rniga makedoniyalik Filipp o‘tiradi. Ma’lum muddat u har ikki straplilikni - So‘g‘diyona va Baqtriyani boshqarib turdi. 315-yildan keyin mahalliy xalq orasidan tayinlangan straplarning hammasi greklar va makedoniyaliklar bilan almashtirildi. Faqat

Oksariat (Iskandarning qaynotasi) va Atropat (Perdikning qaynotasi) o‘z lavozimida qoldiriladi. 312-yilda Iskandar sarkardalaridan biri - Salavk Vaviloniyaga ega bo‘ldi. Tez orada u o‘z yerlarini Sirdaryo va Hind daryolari qadar kengaytirdi. Uning o‘g‘li Antiox I (Salavk bilan Spitamenning qizi Apama nikohidan tug‘ilgan) esa Iskandarning Osiyodagi hududlarining katta qismiga egalik qilgan. O‘rta Osiyo hududida ikkita straplilik vujudga keldi. Unga So‘g‘diyona, Baqtriya va Marg‘iyona kirdi. Xorazm salavkaylarga bo‘ysunmagan.

Ahmoniyarning so‘nggi vakili va Iskandar davrida ham Xorazm o‘z mustaqilligiga ega bo‘lgan. Salavk va Antiox O‘rta Osiyoda o‘z pozitsiyalarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratgan. Ko‘plab qal‘a va shaharlar barpo etilgan va ular asosan greklar bilan to‘la bo‘lgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Salavk 75 ta shahar qudirgan. Eng olis shaharlardan biri Yaksart ortida joylashgan Antioxiya shahri bo‘lgan. Taxminlarga ko‘ra, mazkur shahar hozirgi Toshkent viloyati hududida yoki Farg‘ona vodiysida joylashgan. Eramizdan avvalgi III asrning 60-yillariga qadar Baqtryada salavkiylarning zarbxonasi saqlanib qolgan. Bu zarbxonada oltin va kumush tangalar zarb etilgan.

Salavkiy hukmdorlaridan biri Antiox II ning davrida (eramizdan avvalgi 261-247-yillar) uning Baqtryadagi strapi Diodot salavkiy tangalar asosida o‘z tangalarini zarb qilgan. Bu uning salavkiylar hukmronligida qandaydir muxtoriyatga ega bo‘lganidan dalolatdir. Baqtriya, So‘g‘diyona va O‘rta Osiyodagi boshqa viloyatlarning iqtisodiy hayoti Salavkiylar davlatining g‘arbiy viloyatlaridagidan ancha farq qilgan.

YUNON-BAQTRIYA PODSHOLIGI

Eramizdan avvalgi 256-yilda Parfiya, Baqtriya va So‘g‘diyona Salavkiylar davlatidan ajralib chiqdi. Baqtriya strapi Diodot o‘zini shoh deb e’lon qildi va mintaqada gegemonlik uchun kurash boshladi. Bunga javoban,

Arshaxidlar Parfiyada hokimiyatni qo‘lga kiritdi. So‘g‘diyona esa Baqtriya hukmronligi ostiga o‘tdi. Eramizdan avvalgi 230-yilda So‘g‘diyona strapi Yevtidem Diodotning vorisini taxtdan ag‘dardi. Yunon-Baqtriya bilan Parfiya o‘rtasida savdo yo‘llarini nazorat qilish borasida doimiy urushlar bo‘lib turgan. Eramizdan avvalgi 209-208-yillarda salavkiy hukmdori Buyuk Antiox III Salavkiylar sultanatini qayta tiklash uchun sharqqa yurish boshlaydi. 207-yilda u Parfiyani mag‘lubiyatga uchratib, Yunon-Baqtriyaga qarshi harbiy yurish qiladi. Antiox qo‘shinlari Yevtidem ustidan g‘alaba qozonadi va Yunon-Baqtriya poytaxti Baqtrani qamal qiladi. Qamal ikki yil davom etgan. Nihoyat Yevtidem Antiox bilan tinchlik sulhini tuzishga erishadi. O‘z navbatida u Antioxga o‘zining barcha jangchi fillarini topshiradi. Yevtidemning o‘g‘li Demetriy esa salavkiylar malikasiga uylanadi. Magnesiya jangida rimliklar tomonidan salavkiylarga qattiq talafot yetkazilishi natijasida Yunon-Baqtriya podsholigi salavkiylarning ittifoqchilar bo‘lgan janubiy knyazliklarni o‘ziga bo‘ysundirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Eramizdan avvalgi 187-yilda otasi Yevtidemning vorisi Demetriy Araxosiyani zabit etadi va Hindiston sari yo‘l oladi.

Demetriy Shimoliy Hindistonda o‘z qo‘shinlari bilan ancha muddat qolib ketadi. Bundan foydalangan uning sarkardalaridan biri - Yevkradit 171-yilda Baqtra hokimiyatini qo‘lga kiritadi. Yevkraditning podshohligitarixda “behisob shaharlarpodshohligi” degan nom olgan. Xitoy manbalarida yozilishicha, eramizdan avvalgi 165-yilda Yettisoya (Semirechya) yuechjilarning qadami tekkan. Ular Sirdaryo orqali Amudaryo sohillari tomon yo‘l olgan. Ular Baqtriyani egallahsga ham muvaffaq bo‘lgan. 155-yilda Yevkradit navbatdagi yurishlarning birida o‘z o‘g‘li tomonidan o‘ldiriladi. Xuddi shu davrlarda Yunon-Hind podshohligi tashkil topgan edi. 141-128-yillar Yunon-Baqtriya podshohligining tanazzulga yuz tutish davri bo‘ldi. Taxminlarga ko‘ra, yuechjilar Baqtriyani qo‘lga kiritgandan so‘ng shoh Geliokl Paropamisada yoki Araxosiyada hokimiyatni saqlab qolgan. O‘rta Osiyo ikki

yuz yil ellinlar dunyosining bir qismi bo‘ldi. Bu davr O‘rta Osiyo tarixida jiddiy iz qoldirgan. So‘g‘d va Baqtriya ellin-makedon harbiy guruuhlariga tayangan strapiyalarga aylandi. Hirot, Marv kabi yangidan-yangi shaharlar vujudga keldi. Mintaqada yunon standartlari bo‘yicha tangalar zerb etildi. Mintaqaga yunon xudolari panteoni, yunon adabiyoti va teatri kirib keldi. Mahalliy va yunon madaniyatining o‘zaro sintezi sodir bo‘ldi.

KANGYUY

Xitoy tarixchisi Si Ma-syan o‘z kundaliklarida “yu-echjilarnikiga o‘xhash an’ana va urf odatlarga” ega bo‘lgan ko‘chmanchi Kangyuy yoki Kandzyuy va Kangxa davlatlari ha-qida ma’lumot beradi. Antik davr tarixchilarasi asarlarida Kangxa davlati tilga olimmagan, ammo Avesto va Maxabxarata kitoblarida saklar va toxarlar bilan bir qatorda kankilar to‘g‘risida ham atroficha ma’lumot berilgan. Ancha keyingi Xitoy xronikalarida Amudaryo shimolida joylashgan Buxoro, Shahrisabz, Kattaqo‘rg‘on atroflari, Toshkent vohasi hamda Xorazmning shimoliy qismidan iborat barcha davlatlar Kangyuy davlatiga qaram bo‘lganligi aytildi. Xitoy manbaalarida keltirilishicha Kangyuy davlati rahbarlari “Chao-vu” deb nomlanganlar. Umuman “djabgu” bo‘lishi ham ehtimoldan holi emas, chunki xitoy transkriptlarida bu aynan ana shunday talaffuz qilinadi.

Eramizdan avvalgi II asrning ikkinchi yarmi - eramizdagI I asrlerida Kangyuy davlatining qudrati o‘z cho‘qqisiga chiqdi. Davlatning janubiy o‘lkalarida yuechjilar, shimolida esa xunlar ta’siri kuchli bo‘lgan Kangyuy davlatining qisqa muddatli tanglik davri Baktriyada yuechjilar qirolligining kuchsizlanishi bilan nihoyasiga yetdi. Eramizdan avvalgi II-I asrlarda Kangyuy davlatida o‘z tangalarini zerb etish hamda pul almashinuvini yo‘lga qo‘yishga bo‘lgan urinishlar kuzatildi. Ushbu jarayonda Grek-Baqtriya hukmronligi vaqtida amal qilgan tangalardan nusxa sifatida foydalanilgan. Kangyuy moddiy

madaniy taraqqiyot darajasi Xorazm, xususan shaharning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan Janbas-qal‘a hududida amalga oshirilgan qazuv ishlari natijalarida namoyon bo‘ladi. 200x170 hajmdagi qal‘a balandligi 10-11 metrlik xom g‘ishtdan qilingan devor bilan o‘ralgan. Darvozadan qal‘a markazi sari keng ko‘cha yotqazilgan. Ko‘cha oxirida qurbanlik keltirish uchun aylana shaklidagi metall supaga ega bo‘lgan muqaddas olov saqlash binosi qoldiqlari qazib ochilgan. Kangyuy davrida odamlar turli dinlarga mansub bo‘lgan: zardushtiylik, Anaxita oqimi, ot siymosida namoyon bo‘lgan Mitra oqimi.

Ushbu davrda Kangyuy madaniyati bilan bog‘liq harbiy texnika sohasida erishilgan eng muhim muvaffaqiyatlardan biri bu keyinchalik keng tarqalgan taktik uslublar bo‘ldi: masalan, janglarda aslahalar bilan himoyalangan otlar vasovut kiygan chavandozlar safining jiqlashtirilgan holda tuzilishi. Chavandozlar kamon, nayza va qilich bilan qurollanganlar. Kangyuuning Kushon imperiyasi tarkibida bo‘lganligi hali ham noma'lum. Xitoy manbaalariga asosan Kangyuy eramiz boshida ham o‘z mustaqilligini saqlab qolgan hamda yansay (aorslar-alanlar) va boshqa qabilalar ustidan hukmronlik qilgan.

KUSHONLAR DAVLATI

Yuechjilarning eramizdan avvalgi II asr o‘rtalarida Grek-Baqtriya davlatiga bostirib kirishi ushbu davlatni tamomila tugatilishiga olib keldi. Yuechjilarning dastlabki mulklari shimoliy Baqtriya hududlarida bo‘ldi (zamonaviy O‘zbekistonning janubiy hududlari va Tojikiston). Kushon davlati eramizning I asri birinchi yarmida yuechjilar davlati amirliklaridan biri Kushonning yuksalishi oqibatida yuzaga keldi. Kushon xitoychada Guyshuan deb talaffuz qilinib, yuechjey qabilalaridan birining nomi bo‘lish ehtimoli bor. Davlat asoschisi yabg‘u (amir) bo‘lgan. Keyinchalik podshoh Kudjula Kadfiz hukmronligi ostida kushonlar hozirgi Afg‘oniston va Pokistonning katta qismini bosib oldilar. Uning merosxo‘ri Vime Tok hukmronligi davrida kushon mulklariga

Hindistonning katta bir qismi qo'shildi. Kushon davlatining gullab-yashnashi Kanishka hukmronligi davriga to'g'ri keldi (taxminan eramizning 78-123-yillari). O'sha davrda poytaxt Baqtriyadan Peshovorga ko'chirildi, mamlakat sarhadlari esa Hindiston va Xo'tongacha bo'lgan o'lkalarni qamrab oldi. Markaziy Osiyoda Kushon davlatining chegaralari hozirgi O'zbekiston janubidagi Hisor tog' tizmalari cho'qqilaridan o'tgan. O'sha yerdagi baland tog' daralarida (Darband) mustahkam chegara inshootlari qad ko'tardi. O'sha davrlarda davlat sarhadlarida yangidan-yangi shaharlar qad ko'tardi, Hindiston, Xitoy va Rim imperiyasi bilan savdo munosabatlari o'rnatildi. Pompeyda olib borilgan qazish ishlari mobaynida kushon tangalari hamda kushon ustasi tomonidan suyakdan yasalgan figuralar topildi. Kushon davrida me'morchilik yuksak rivojlandi. Ayniqsa saroylar va ibodatxonalar qurilishiga katta e'tibor qaratildi. Kushon hukmdorlarining Xolchayondagi saroyida va eski Termiz va Dalvarzindagi budda ibodatxonalarida yuqori badiiy did bilan ishlangan devor chizgilari va haykaltaroshlik namunalari yaxshi saqlanib qolgan.

Xolchayon, Dalvarzin va Ayritomda olib borilgan qazish ishlari davomida kushon ustalarining yuksak mahoratidan dalolat beruvchi bronza idishlar, muhtasham shag'amsupalar, ko'zgular hamda zargarlik mahsulotlari topilgan. Dehqonchilik imperiya iqtisodiyotining tayanchi bo'lgan. Yer hosildorligini oshirish maqsadida turli o'g'itlardan keng foydalanilgan. Tog' oldi hududlari va cho'llar chorvachilik maqsadlarida foydalanilgan.

Termizda olib borilgan qazuv ishlari davomida oramiy tili asosida yozilgan xatlar topilgan. Kushon kursiv xati o'zining o'tkir burchakli, kvadrat va aylana shaklidagi harflari bilan ajralib turar hamda o'sha davrlarda juda keng tarqalgan edi. Kanishka davrida Kushon davlatiga buddizm kirib keladi va tez orada davlat diniga aylanadi. Ammo shu bilan birga zardushtiylik va mahalliy O'rta Osiyo, Hindiston, Eron, Yunoniston va Misr xalqlari dinlari

ham o‘z kuchini yo‘qotmaydi. Kushon davlati eramizning III asri birinchi yarmining oxirida barham topdi. Baqtriya va Toxariston maxsus mulk huquqi ostida Sosoniylar imperiyasi tarkibiga qo‘shildi. Ushbu imperiya sosoniy podshohlar xonadoni a’zolari tomonidan boshqarilib, ular kushonshoh tituliga egalik qilgan.

EFTALIYLAR DAVLATI

Eftaliylar davlati parchalanib ketgan Kushon davlati hududining bir qismida tashkil topgan. Aholisining asosiy qismi dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan, qolgani esa ko‘chmanchi chorvachilik hayot tarzini davom ettirgan. Eftaliylar to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar yozma manbalarda 457-yildan buyon, ya’ni ularning podshosi Vaxshunvar Chag‘aniyon, Toxariston va Badaxshonni o‘ziga bo‘ysundirganidan so‘ng qayd etila boshlagan. Turli manbalarda Eron sosoniylar davlati bilan eftaliylar o‘rtasidagi bo‘lib o‘tgan jang-u jadallarning yorqin, biroq bir-biriga zid manzarasi tasvirlangan. Sosoniylar podshosi Peroz eftaliylar davlatining tobora kengayishidan xavfsirab, ularga qarshi harbiy harakatlar boshlab yuboradi, biroq asirga tushib qoladi. Sosoniylar podshosi yordam so‘rab Vizantiyaga murojaat qiladi va ko‘chmanchilar xuruji bu davlat uchun ham tahdid ekanini uqtiradi. Vizantiya hukmdori tovon to‘lab, Perozni tutqunlikdan xolos etadi.

Peroz eftaliylarga Tolqon chegara shahrini topshirishni va’da qiladi, biroq o‘z va’dasini ustidan chiqmay, ikkinchi marta harbiy yurish uyushtiradi. Peroz bu safar ham mag‘lubiyatga uchraydi va eftaliylarga o‘zining go‘dak o‘g‘lini tutqun etib qoldiradi hamda ikki yil davomida katta tovon to‘lab turadi. 484-yili Peroz o‘zining uchinchi harbiy yurishini amalga oshiradi. Bu gal u o‘z qo‘shini bilan birga eftaliylar tayyorlagan maxsus bo‘ri o‘rasiga tushib qolib halok bo‘ladi. Eftaliylar Peroz qo‘shinini batamom tor-mor qilgach, Eron xalqi zimmasiga katta miqdorda o‘lpon to‘lash majburiyatini yuklatadilar hamda Marv shahrini ishg‘ol

etadilar. So‘ngra ular Kobul vodiysi va Panjobni egallahadi, Qoroshor, Kuchu, Qashqar va Xotanni istilo qilishadi. Shu tariqa ular Markaziy Osiyo, sharqiy Eron, Hindistonning shimoliy qismi va Sharqiy Turkistonni o‘z ichiga olgan yagona qudratli davlat barpo etadilar. O‘z bolaligini eftaliylar qo‘l ostida tutqunlikda o‘tkazgan Peroz o‘g‘li Kavade zamonida Eron eftaliylarga o‘lpon to‘lashda davom etgan. Vizantiyalik tarixchi Prokopiyaning qayd etishicha, eftaliylar “yagona podsho tomonidan boshqarilgan va o‘zaro hamda qo‘shti davlatlar bilan bo‘lgan munosabatlarda vizantiyaliklar va forslardan qolishmagan holdaadolat mezoniga amal qilishgan”. “Ipak yo‘li” egalari bo‘lgan eftaliylar xalqaro savdoda faol ishtirok etishgan. Ular Eron, Vizantiya, Hindiston va Xitoy bilan savdo-sotiq qilishgan. Eftaliylarning Peroz askarlariga qarshi urushiga oid epik rivoyatlar “Shohnoma” asarida keltirilgan. Asarning eftaliylar podshohi Gatferd haqidagi hikoyatida eftaliylarning turkiy xalqlarga qarshi kurashi aks etgan. Akademik V.Bartoldning taxmin qilishicha, Gatferd timsolida Vizantiya manbalarida keltirilgan tarixiy shaxs - Katulfni ko‘rish mumkin. Katulf podsho tomonidan o‘z xotiniga yetkazilgan haqorat uchun intiqom bahonasida Eronga qochgan va o‘z mamlakatini turkiylarga sotgan. Eftaliylar ko‘plab xalqlarni siyosiy jihatdan birlashtirishgan va bu hol mazkur davlat tarkibida ko‘pgina diniy yo‘nalishlar va mashablar mayjud bo‘lganini izohlaydi. Zoroastrizm mahalliy mazhablar - Anaita, Siyavusha, Mitra bilan o‘zaro birlashib ketgan. Buddizm ham keng tarqalgan.

TURK XOQONLIGI

VI asr o‘rtalarida Oltoydagi turkiy qabilalar qo‘shti qabilalar bilan o‘zaro birlashib “mo‘g‘il davrigacha bo‘lgan eng qudratli ko‘chmanchilar davlati” - Turk xoqonligiga asos solgan. Ikki aka-uka, To‘min va Istemni ulkan davlatni boshqarishgan. To‘min xoqonlikning sharqiy qismidagi o‘ziga qaram yerkarni kengaytirgan bir paytda, uning ukasi Istemni davlatning g‘arbiy

qismidagi Yettisuv va Sharqiy Turkistonning tutashgan hududlari qabilalarini o‘zaro birlashtirgan. Davlatning G‘arb tomon kengayishi uning eftaliylar davlati yerlari bilan to‘qnashuviga sabab bo‘lgan. 563-567-yillarda turkiylar eftaliylar davlatini tor-mor qilishgan va Amudaryo bo‘yida Eron sosoniylari bilan to‘qnash kelishgan. Turkiylar va Eron eftaliylar qiyofasida umumiy dushmanqa qarshi kurashgan paytda ular o‘zaro do‘stona munosabatda bo‘lganlar va hatto, shahanshoh Xusrov Anushervan turkiy malikaga uylangan. Turkiylar eftaliylarni tor-mor keltirgandan so‘ng esa, ular bilan Eron o‘rtasida o‘zaro mojaro yuzaga kelgan. Turkiylarning muhim savdo yo‘llariga egalik qilishga bo‘lgan intilishlari Eron bilan munosabatlarning keskinlashuviga olib kelgan. Istemining savdo masalalari bo‘yicha elchilarining Eronga tashrifi muvaffaqiyatsiz tugagan, ikkinchi va so‘nggi elchilik a’zolari esa zaharlanganlar. Shundan so‘ng turkiylar Vizantiya bilan ittifoqchilikda Eronga qarshi urush boshlashga qaror qilishadi. 568-569-yillarda Maniak boshchiligidagi Istanbulga birinchi elchilik tashrifi muvaffaqiyatli yakunlanadi.

Vizantiya bilan Eron o‘rtasidagi o‘zaro urush, ularning xoqonlikka nisbatan e’tiborini chalg‘itgan holda, turkiylarning yarimko‘chmanchi davlatining shiddatli darajada yuksalishiga imkoniyat yaratgan. Turkiylar ichki ixtiroflar oqibatida zaiflashgan Xitoya bir necha marta muvaffaqiyatli yurishni amalga oshirib, shoyi matolaridan iborat katta yillik o‘lpon olishga erishgan. 588-yili turkiylar hukmdori Qora Churin Vizantiya va hazarlar bilan ittifoqchilikda Eronga hujum qiladi, biroq mag‘lubiyatga uchraydi va sosoniylar sarkardasi Bahrom Chubin tomonidan o‘ldiriladi. Bu mag‘lubiyat xoqonlikning tanazzulga yuz tutishi va VI asrning 80-yillarida sharqiy va g‘arbiy o‘lkalarga ajralib ketishiga sabab bo‘ladi. VII asrning birinchi yarmida g‘arbiy xoqonlik hayotida yuksalish kuzatiladi. Uning chegaralari Inda sohillarigacha yetgan. Xitoy va Eron bilan savdo munosabatlari keng rivojlangan. Savdo karvonlari

Marv-Chorjo‘y-Buxoro-Samarqand-Choch-Talas-Suyab yo‘nalishi bo‘ylab Sharqiy Turkiston vohalarigacha cho‘zilgan. Butun yo‘l davomida karvonlar ularning jadal safarlariga imkon bergen sug‘d mulkiy hududlariga duch kelishgan. Taxminan, 630-yili turkiylarning yaqin qadargacha ittifoqchilar bo‘lgan xitoylar ularni qaqqhatqich mag‘lubiyatga uchratadi. VI asr oxirida g‘arbdan yangi qudratli dushman - Markaziy Osiyoni o‘z tasarrufiga bo‘ysundirgan arablar bosib kela boshladi. G‘arbiy turk xoqonligi Yettisuv o‘lkasi turgeshlar tasarrufiga o‘tgandan so‘ng 704-yili batamom parchalanib ketgan.

SO‘G‘D

IV-VIII asrlarda so‘g‘dlar Uzoq Sharq, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqalari savdosida asosiy vositachi bo‘lganlar va butun Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab muntazam xalqaro karvon savdosini tashkil etganlar. So‘g‘d bu davrlarda bekliklar va erkin shaharlar hamdo‘stligidan iborat bo‘lgan va ular orasida Samarqand, Maymurg‘, Kesh, Naxshab, Ishtixon, Kushaniya, Buxoro, Amul va Andxoy ajralib turgan. Xitoygacha bo‘lgan butun yo‘l bo‘ylab, janubdagagi Xotan va Sharqiy Turkiston orqali Lob Nor va Yettisuv shimoligacha so‘g‘d mulkiy hududlari tarkib topgan va ular XII asrgacha mavjud bo‘lgan. So‘g‘dlarning Turkiston va Xitoydagi eng yirik mulklari ularning alohida jamoalar bo‘lib yashagan Kucha, Chanan, Lanchjou, Dunxuan, Loyan kabi shaharlarda mavjud bo‘lgan. 4-asrda Dunxuanning o‘zida so‘g‘d jamoasi taxminan 1000 kishidan iborat bo‘lgan. Samarqandning sharqiy darvozalari “Xitoy” nomi bilan ataladi. Xalqaro savdo aloqalari Samarqand, Paykend va boshqa yirik shaharlardagi boy so‘g‘d uylari tomonidan nazorat qilinar edi.

Ular o‘z vositachilarini orqali kreditlar berishgan, savdo kelishuvlarini boshqarishgan.

Tan sulolasi tarixida qayd etilishicha, Kan hukmdorligida “yangi tug‘ilgan o‘g‘il chaqaloq shirinso‘z bo‘lishi hamda pulni mahkam ushlashi uchun uning tiliga tosh asal, kaftlariga

esa yelim surtilgan...Yigirma yoshga to‘lgan erkak qo‘sni o‘lkalarga jo‘nab ketgan va qaysi joyda manfaat ko‘rsa, o‘sha yerga borgan”. Olis safarlar, Xitoy, Hindiston, Eron, Turkiya xalq hunarmandchiligi va an’analari bilan tanishuv orqali G‘arb va Sharq yutuqlarini o‘zida mujassam etgan noyob va ochiq so‘g‘d madaniyati shakllangan. So‘g‘d hunarmandchiligi markazi va savdo yo‘llari - Samarqand, Panjikent, Paykent, Buxoro va Varaxshi xavfsizligini ta’minlash ehtiyoji kuchli davlatlar bilan ittifoq tuzishga qaratilgan siyosiy yo‘nalishni belgilab bergen. VI asrda So‘g‘d Eftaliylar davlati, keyinchalik Turk xoqonligi tarkibiga kirgan, 630-yildan buyon esa Xitoyning Tan sulolasi hukmdorligini tan olgan. Xoqonlik yuksalishi davrida so‘g‘dlar turkiylarning Xitoydan o‘lpon sifatida olgan shoyi bilan savdo qilish imkoniyatiga ega bo‘lishgan. VI asrning 70-yillarida turkiy hukmdorlar buyrug‘i bilan so‘g‘d savdogari Maniax savdo kafolatlari yuzasidan muzokaralarni avvaliga Eron Shahanshohi, so‘ngra Vizantiya imperatori bilan olib borgan.

O‘rta asrlarda so‘g‘d tili Buyuk ipak yo‘lidagi asosiy muloqot tiliga aylangan. Buddistlar, nasroniyalar, manixeylar o‘zlarining diniy matnlarini so‘g‘d tiliga tarjima qilishgan. Bunda ular o‘zlarining yozma an’analardan foydalanishgan: buddistlardan hind alifbosi, manixeylardan arameys bosmasi, nasroniy-suriyaliklardan dastlabki umumiyl maktubot, nestoriyan va yakovitlardan diniy e’tiqod alifbolarini o‘zlashtirishgan. Biroq ular aramey bosmasiga asoslangan va keyinchalik uyg‘urlar tomonidan foydalanilgan ilk so‘g‘d yozuvi o‘rnini egallay olmadidi. Mazkur yozuv namunalari bilan Dunxuandagi mulkiy hududlardan yo‘llangan “qo‘hna maktublar” va Zarafshon vodiysidagi Mug tog‘ida topilgan hujjatlar yordamida tanishish mumkin. VIII asr boshida So‘g‘d Qutayba ibn Muslimning musulmon qo‘snidan mag‘lubiyatga uchraydi va xalifalikka bo‘lingan holda islom dinining jug‘rofiy-siyosiy makonida qudratli savdo-hunarmandchilik markazi bo‘lib qoladi.

ARAB ISTILOSI

VII asrda murosasiz qabilalararo urushlardan so‘ng kichik Madina shahri arab qabilalarning siyosiy birlashuv markaziga aylandi. O‘z kuchlarini qo‘shti vohalar va shaharlar tomon yo‘naltirgan ko‘chmanchi qabilalar sardorlari Madina atrofida tezkorlik bilan birlashadilar. Arablar birin-ketin g‘alaba qozonib tezda Suriya, Falastin, Eronni zabit etadilar, 651-yili esa ular Marvga yetib kelib, uni jangsziz ishg‘ol etadilar. Arablarning g‘alabalari ularning asl kuchidan ko‘ra ko‘proq bosib olingan mamlakatlarning zaifligi va parokandaligi bilan izohlanadi. 674-yili xalifa Muaviya tomonidan yo‘llangan Ubaydulloh ibn Ziyod chamasi birinchi bo‘lib Amudaryoni kechib o‘tgan. U Poykandni qurshovga olib, ishg‘ol etadi. Buxoro qirolichasi ustidan g‘alaba qozonib, u shahardan katta o‘lja qurol-yarog‘, kiyim-kechak, oltin, kumush va ko‘plab asirlar olib ketadi. So‘g‘d hukmdorlari Kesha va Neseifa buxoroliklarga yordam berishga qaror qilishadi, ammo, Narshohining hikoya qilishicha, arab qo‘shtini so‘g‘dlarni dahshatga solgani bois, ular jang maydonini tark etishadi. Arab tarixchisi Belazurining so‘zlariga qaraganda, Buxoro asirlari qullarga aylantirilgan. Erksevar buxoroliklar o‘z taqdirlariga tan berishni istamadilar. Ular Said ibn Usmon saroyiga bostirib kirib, uni o‘ldirishadi. 704-yili Xurosonning noibi etib, Qutayba ibn Muslim tayinlanadi. U Movarounnahr, ya’ni Amudaryoning o‘ng sohilidagi o‘lkalarni to‘liq bosib olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. 705-706-yillarda u Balx, Poykandni ishg‘ol etadi, ammo Bog‘dis Nizoq Tarxun boshchiligidagi so‘g‘dlar va turkiylarning keskin qarshiligiga duch keladi va chekinishga majbur bo‘ladi.

709-yili Qutayba burilish yasashga erishadi. Tarxun tor-mor keltirilib, qatl qilinadi, Buxoro katta qiyinchiliklarsiz ishg‘ol etiladi. Ko‘p o‘tmay Qutayba Shuman, Nasaf va Keshni egallab oladi. Arablarning So‘g‘d yuragi Samarqandga hujum qilishi uchun barcha imkoniyatlar muhayyo tuyulgan edi, biroq Qutayba salkam ikki yilgacha Xorazmdagi yumushlar bilan

ovora bo‘ladi. 711-yili Qutayba xorazmshohga taxtni qayta egallashda ko‘maklashadi va Xorazm Xalifatga tobe bo‘lib qoladi. 712-yili Qutayba Samarqandga yurish qiladi. Samarqand hokimi Gurek unga keskin qarshilik ko‘rsatadi. Arab qo‘shini qamalga mo‘ljallangan otish va devor buzish qurollaridan foydalanadi. Murosasiz jangdan so‘ng Qutayba nihoyat shaharni ishg‘ol etadi va Samarqand aholisiga og‘ir o‘lpon to‘lash majburiyatini yuklatadi. Qutayba o‘z harbiy yurishlarini davom ettirib, Xo‘jand va Farg‘onani zabit etadi, Shoshga qarshi urushadi, biroq uning bu hamlasi Shosh hukmdori turkiy Bahodir tudun tomonidan daf etiladi. 715-yili xalifa Validning o‘limidan voqif bo‘lgan Qutayba qo‘zg‘alon ko‘taradi, ammo Farg‘onada o‘z yaqinlaridan biri tomonidan o‘ldiriladi.

SOMONIYLAR DAVLATI

IX asrning 20-yillarida Movarounnahrda Asad ibn Somon va uning o‘g‘illari xalifatga sodiqliklari bilan namoyon bo‘lgan. ko‘targan Rafi ibn Lays qo‘zg‘alonini bostirishga erishdilar. Ularning bobosi Somon Farg‘onaning dehqon oilasidan chiqqan (uning Bal yoki Termez viloyatlaridanligi haqida farazlar ham mavjud). Xalif al-Ma’munga sadoqatli xizmatlari evaziga Xuroson noibi Xasan ibn Abbad (819-821-yy.) Asad ibn Somon o‘g‘illarini muhim viloyatlar va shaharlarning hokimi etib tayinlaydi. Nuhga - Samarqand, Ahmadga - Farg‘ona, Yahyoga - Shosh va Ustrushon, Ilyosga - Xirot tuhfa etiladi. Nuh oila sardori bo‘lgan, uning o‘limidan so‘ng bu vakolat - Ahmad ibn Asadga o‘tgan. Ahmad davrida somoniylar xalifat va tohiriylardan muxtoriyat olishga erishadilar. Ahmad ibn Asad oilasi somoniylarning barcha hududlarini o‘ziga bo‘ysundirib, Movarounnahrda ulkan davlat barpo etadi. Ahmad siyosati Samarqandda hukmronlik qilgan uning o‘g‘li Nasr tomonidan davom ettiriladi. Somoniylarning ta’sirini inobatga olib, xalif Mutadim 875-yili poytaxti Samarqand bo‘lgan Movarounnahr

boshqaruvini butunlay Nasr ibn Ahmad (875-892-yy.) ixtiyoriga topshiradi. 874-yildan buyon Buxoroni boshqargan Nasr ukasi Ismoil (892-907-yy.)

892-yili Movarounnahr amiri bo‘ladi. 900-yili Ismoil Somoni Balx yonida bo‘lgan jangda Saffarid Amr ibn Leysni mag‘lubiyatga uchratadi. Natijada Xuroson, keyinchalik esa Siston somoniylar davlati tarkibiga qo‘shib olinadi. Xuroson 999-yilga qadar Nishapurdag‘i somoniylar noibi tomonidan boshqarilgan. Ahmad ibn Ismoil (907-914-yy.) o‘z otasi Ismoil davlatiga vorislik qiladi. X asrning 30-40-yillarida somoniylar Nasr II (914-943) hukmronligi davrida davlatda karmatlar ta’limoti keng tarqaladi va unga qarshi uning o‘g‘li Nuh I (943-954) kurash olib boradi. Somoniylar davrida Movarounnahrda hunarmandchilik, qurilish va madaniyat gullab-yashnaydi. Karvon savdosi muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Buyuk ipak yo‘li qayta jonlanib, uning yangi shahobchalari paydo bo‘ladi. Shaharlar yangidan quriladi. To‘quvchilik, kulolchilik, mischilik, duradgorchilikning yangi markazlari yuzaga keladi. Shaharlar ichida karvonsaroylar, masjidlar va madrasalar bунyod etiladi. O’sha davrda buyuk qomusshunos olimlar al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Abu Nasr Farobi, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Sharshohiy va boshqalar yashab ijod etgan. 945-yildan buyon Xurosonda betinim notinchliklar boshlanadi. Somoniylar Abdul-Malik ibn Nux (954-961) va uning ukasi Mansur (961-976), o‘g‘li Mansur - Nux II (976-977), Nux II o‘g‘li - Abdul-Malik II (997-999) zamonida davlat asta-sekin zaiflasha boshlaydi. 999-yili Somoniylar Movarounnahrni turk hukmdorlari - qoraxoniylarga boy beradilar va shu tariqa Somoniylar davlati tugatildi. Sominiyarning so‘nggi hukmdori Abdul-Malik II ning ukasi al-Muntasir 1005-yili o‘ldirilgan.

QORAXONIYLAR DAVLATI

X asr oxirida Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida “podshoh yang‘ma” yoki “Elikxon” boshchiligidagi qoraxoniylar davlati tashkil topadi. Bu davlat tarkibiga turli turkiy millatlar - qorluqlar, chigillar, arg‘ular, yang‘malar va boshqa xalqlar kirgan bo‘lib, ular 960-yilga qadar islom dinini qabul qilganlar. 992-yili Elikxon Bug‘ra boshchiligidagi qoraxoniylar qo‘smini Movarounnahr hududiga bostirib kiradi. Qoraxoniylar g‘alabasiga Bug‘raxon bilan Xurosonning somoniy hokimi Abuali Simjur o‘rtasida tuzilgan xufiyona ittifoq hamda lashkarboshi Foiqning sotqinligi sabab bo‘lgan. Natijada qoraxoniylar Buxoroni jangsiz ishg‘ol etadilar, amir Nuh esa Chorjo‘yga qochishga majbur bo‘ladi. Ammo Bug‘raxon kasallanib, o‘z vatani Koshg‘arga ketayotganda vafot etadi. Qoraxoniylar Buxorodan katta o‘lja bilan qaytadilar. Qoraxoniylarning yangi yo‘lboshchisi bo‘lgan Elikxon Nasr Buxoroga qayta hujum uyuştiradi. 995-996-yillarda Nuh II Sabuh Tegin madadi bilan qoraxoniylar hujumini daf etadi. 999-yili qoraxoniylar Buxoroni yana ishg‘ol etib, amir Abdul Malik II va podshoh oilasini asirga oladilar.

Bu hol Movarounnahrda hokimiyat qoraxoniylar foydasiga uzil-kesil hal bo‘lishiga olib keladi. Qoraxoniylar davlati Koshg‘ardan Amudaryogacha cho‘zilgan Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Shosh, Farg‘ona va qadimgi So‘g‘d yerlarini o‘z ichiga olgan. 1005-yilgacha somoniylarning so‘nggi vakili al-Muntasir qoraxoniylar bilan muvaffaqiyatli kurashgan, biroq raqibning ko‘psonli qo‘smini pirovard g‘alabani ta’minlagan. Bog‘dod xalifi fatvosi bilan Elikxon Nasr ibn Ali Movarounnahrda o‘z hukmronligini o‘rnatdi. Movarounnahrni zabit etgach qoraxoniylar dehqonlar tabaqasini yakson etdilar va ularning yerlari va suvlarini davlat tasarrufiga topshirganlar. Elikxon Nasr 1012-yili vafot etgach, uning davlatiga ukasi Ali Tegin vorislik qiladi. Qoraxoniylar Amudaryo vodiysi yerlari uchun g‘aznaviylar davlatiga qarshi muntazam urushlar olib borishadi,

XI asr oxirida esa saljuqlarning kuchaygan davlatiga tobe bo‘lib qolishadi. Elikxon poytaxti dastlab Uzgenda joylashgan, so‘ngra Samarqandga ko‘chirilgan. Buxoro ham Samarqandga tobe bo‘lgan. Qoraxoniylar Samarqandda, Buxoroda, Binkentda ko‘plab binokorlik ishlarini amalga oshirishgan, saroylar, masjidlar va madrasalar bunyod etishgan, musulmon dini nufuzini saqlash va mustahkamlashga hissa qo‘shishgan.

XORAZMSHOHLAR DAVLATI

XI asr va XII asrning birinchi yarmida Xorazm saljuqlar davlati (g‘aznaviyilar davlati xarobalarida XI asrda tashkil topgan) tarkibiga kirgan. Xorazmnинг XI asrdagi yuksalishi turkiylar sulolasiga mansub xorazmshohlar siyosati bilan uзви bog‘liq. Mazkur sulolaga saljuq amirining tashtdori Anushtegin asos solgan. Sulton hammomchilari mahkamasining sardori bo‘lgan Anushtegin Malikshoh (1072-1092-yy.) saroyida yuksak martabaga erishgan. U rahbarlik qilgan mahkama zimmasiga Xorazmni boshqarish ham yuklangan. Qayta tiklangan xorazmshoh mansabiga sazovor bo‘lgan Anushtegin nabirasi Otsiz Xorazm mustaqilligi yo‘lida astoydil harakat qilgan. Xorazmshoh Otsiz (1127-1156-yy.) saljuq sultoni Sanjarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borgan. U mug‘ombir diplomat va qat‘iy sarkarda bo‘lib, mustaqil tashqi siyosat yuritadi. Chunonchi, u o‘z hukmdori Sanjarning ruxsatisiz qipchoqlar va turkmanlarga qarshi urush boshlaydi.

XII asrning boshida O‘rtta Osiyoni sharq tomonidan yangi istilochilar - qoraxitoylar bosib oladilar. Sulton Sanjar o‘zining yaqin qarindoshi bo‘lgan samarqandlik qoraxoniylar xoni Mahmudga yordamga keladi. Qoraxitoylarga qarshi Samarqand yaqinida bo‘lib o‘tgan jang Sanjarning to‘la mag‘lubiyati bilan yakunlanadi. Xorazmshoh Otsiz Sanjarning mag‘lubiyatidan ustalik bilan foydalanib 1141-yili Marvni ishg‘ol etadi, 1142-yili esa Nishopurga yaqinlashadi. 1156-yili Otsiz vafot etadi

va uning o‘g‘li Elarslon (1156-1172-yy.) xorazmiylar davlatini mustahkamlashni davom ettirib, Dixistonni tevarak-atrofdagi yerlarga qo‘sib oladi. Uning o‘g‘li Tekesh (1172-1200-yy.) 1187-yili Nishopurni, 1192-yili esa Marvni bosib oladi.

1194-yili g‘arbiy saljuqlar sultonini qaqqhatqich mag‘lubiyatga uchratib, Eronning butun sharqi qismini egallab oladi. 1195-yili Tekesh abbosiy xalifa qo‘sishini tor-mor qilib, Iroqqa bostirib kiradi. O‘z mamlakati hududlarini ikki karra kengaytirgan va qudratli davlat barpo etgan xorazmshoh Tekeshni Xorazmning eng iste’dodli hukmdori deb e’tirof etish mumkin. Uning siyosati kamchiliklaridan biri qipchoq harbiy aristokratiyasiga ko‘rsatilgan homiylik bo‘lgan. Qipchoqlar Tekesh rafiqasi xayriohligidan foydalanib davlat ishlariga ko‘proq ta’sir ko‘rsatishga intilgan. Turkiy “qo‘mondonlar”ning davlat ishlariga o‘zboshimcha aralashuvi keyinchalik Tekesh o‘g‘li Muhammad zamonida Xorazm davlatining parchalanishiga sabab bo‘lgan.

CHINGIZXONNING O‘RTA OSIYO ISTILOSI

1215-yili Chingizzon shimoliy Xitoyda erishilgan g‘alabalarni mustahkamlab, o‘z e’tiborini g‘arb tomon qaratadi. 1219-yili u Jебenoyonga Sharqiy Turkiston va Yettisuvni ishg‘ol etishni buyuradi. Chingizzon armiyasi kuchluq davlatini tor-mor keltirib Movarounnahrga bostirib kiradi. Samarqandni mustahkamlash uchun katta xiroj yig‘iladi, biroq bu mablag‘lar isrof qilinadi, shahar devorlari esa mustahkamlanmaydi. 1219-yili Chingizzon katta va mustahkam qal‘a bo‘lgan O‘trorga yurish qiladi. O‘z kuchlarini ikkiga ajratib, ulardan birini O‘tror qurshovi uchun qoldiradi, qolganiga o‘g‘li Juchini boshliq etib Signak, Uzgen, Jenda va so‘ngra Urganchni zabt etish maqsadida safarbar etadi. 5 ming kishilik askar Sirdaryo bo‘ylab Benaket va Xo‘jand shaharlariga yuborilgan. Chingizzonning o‘zi esa asosiy kuchlar bilan suvsiz dashtlar bo‘ylab qisqa yo‘l orqali Buxoro

tomon yo‘l oladi. 1220-yilning fevralida Buxoro ishg‘ol etiladi. Chingizzon shaharni o‘z askarlariga talon-taroj qilish uchun topshiradi.

Buxoroning ayanchli taqdiri haqidagi mash‘um xabar tez orada butun Movarounnahrga yoyiladi. Aholi qo‘rquv va tahlikaga tushadi. Xorazmshoh Muhammad qo‘rqoqlik bilan qochishga hozirlilik ko‘radi. Samarqand himoyachilariga boshchilik qilgan turk To‘g‘ayxon Chingizzon xizmatiga o‘tishga umid qilib shaharni topshiradi. Mo‘g‘illar shaharga bostirib kirib qirg‘inbarot uyuştiradilar. Samarqand aholisining faqat to‘rtdan bir qismi omon qoladi. 1220-yilning aprelida mo‘g‘illar Xo‘jandni ishg‘ol etadilar. Sirdaryo yaqinida ular Benakentni zabit etadilar. Xo‘jand hukmdori Temur Malik mo‘g‘illarga qarshi mardonavor kurash olib boradi. U o‘zining kam sonli askarlari bilan yo‘l-yo‘lakay jang qilib Urganchga yetib keladi. 1220-yilning yoziga qadar Movarounnahrning sharqiy va markaziy qismi mo‘g‘illar tomonidan bosib olinadi. Xorazmshoh qochadi. U Kaspiy dengizining janubiy qirg‘og‘idagi orolda vafot etadi. Urganchda Temur Malik qisqa vaqt davomida xalq lashkarlariga boshchilik qiladi. U dushmanqa qarshi muvaffaqiyatli kurash olib boradi. 1220-yilning kuzida Chingizzon hamla bilan Termezni ishg‘ol etadi. 1221-yilning qishida Urgench qamali boshlanadi. Shahar aholisi dushmanqa qahramonlarcha qarshilik ko‘rsatadi. Urgench taslim bo‘lishidan avval Balx va Marv shaharlari zabit etiladi. 1221-yilning yoziga qadar butun Markaziy Osiyo hududi mo‘g‘illar tasarrufiga o‘tadi. Chingizzon vafotidan so‘ng mo‘g‘il imperiyasining merosxo‘rlar o‘rtasidagi taqsimoti natijasida Movarounnahr Chingizzon o‘g‘li Chig‘atoy ulusi deb e’tirof etiladi. Chig‘atoy saroyi uchun o‘lpon yig‘ish vazifasi mahalliy savdogar Mahmud Yalvochga ishonib topshiriladi.

AMIR TEMUR DAVLATI

XIV asr o‘rtalarida barlos beki o‘g‘li Temur Tarag‘ay buyuk siyosiy arbob sifatida tarix sahnasida namoyon bo‘ladi. Nufuzli turk amiri Qazag‘on nabirasi - Samarqand hukmdori Xusayn bilan ittifoqchilikda Temur Movarounnahrni birlashtirish va uni mo‘g‘il bosqinidan ozod qilish uchun kurash boshlaydi. Biroq ko‘p o‘tmay ular o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashadi. 1370-yili Amir Temur Xusayn qo‘sшинини tor-mor qilgach, Movarounnahr amiri deb e’lon qilinadi.

1372-1388-yillar davomida Amir Temur Xorazmga besh marta yurish qiladi va uning o‘ziga to‘la tobe bo‘lishiga erishadi. Shundan so‘ng u Eron, Iroq, Kavkaz, Suriya, turkiyaga harbiy yurishlarni boshlaydi. Natijada ulkan imperiya barpo etiladi. Biroq Temur davlati qudratiga Jo‘chi ulusi tarkibidagi Oltin o‘rda va Oq o‘rda doimo raxna solib turadi.

1379-yili Amir Temur To‘xtamishning Oq o‘rda taxtiga ko‘tarilishiga yordam beradi. Biroq Mamay ustidan qozonilgan g‘alabadan so‘ng, To‘xtamish Oltin o‘rdadagi oliy hokimiyatni egallab oladi va Temur tasarrufidagi yerlarga hamla qila boshlaydi. Bunga javoban Amir Temur To‘xtamishni 1391-yili Qunduzchi va 1395-yili Shimoliy Kavkazdagi Terek daryosi vodiysida qaqshatqich mag‘lubiyatga uchratadi. Natijada To‘xtamish kuchlari shunchalar zaiflashdiki, Temur uchun Volgabo‘yiga, Oltin o‘rda poytaxti - Saroy Berkka to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘l ochiladi. Shahar ishg‘ol etiladi.

1398-1399-yillarda mashhur hind yurishi amalga oshirilib, u yurtdan katta o‘lja olib kelinadi. 1400-yili Amir Temur turk sultonı Boyazid I va Misr sultonı Farajga qarshi urush boshlaydi. 1402-yili Anqara yaqinida usmon sultonı uzil-kesil tor-mor qilinadi va bu hol Istanbulni usmonli turklar tomonidan istilo etilishini 50-yilga kechiktiradi. 1404-yil boshida Temur o‘zining 200 ming lashkarlik qo‘sшини bilan Xitoya yurishga hozirlilik ko‘radi. Biroq 1405-yilning 18 fevralida Temurning O‘trorda

vafot etishi tufayli bu yurish amalga oshmay qoldi.

Amir Temur hukmronligi davrida ulkan imperiyaning markazi bo‘lgan Movarounnahrda iqtisod, savdo va madaniyat yuksak darajada ravnaq etadi. Temuriylar uyg‘onishi davri bo‘lmish XIV-XV asr Markaziy Osiyo tarixidagi “oltin asr”, deb ataladi. Bu asr jahonga mashhur olimlar, buyuk shoirlar va rassomlarni tuhfa etdi. Isfaxoniy o‘zining “Buxorolik mehmon” kitobida Samarqandda paxtachilikning rivojlanishi hamda paxta tolasi va shoyi matolarining ishlab chiqarilishi haqida bayon etgan. Temur dunyo savdogarlar tufayli obod bo‘ladi, deb hisoblagan va binobarin yangi yo‘llar, savdo inshootlarini bunyod etish uchun katta mablag‘lar sarf etgan. Aynan Temur zamonida Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari, Yevropaning olis yurtlari - Ispaniya, Fransiya va Angliya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlar kengaygan.

TEMURIYLAR DAVLATI (1405-1450)

Amir Temur vafotidan so‘ng besh yil mobaynida Movarounnahrda xonliklararo va sulolalar o‘rtasida urishlar davom etgan. 1409-yili Temur o‘g‘li Shohruh (1376-1447) o‘z ukasining o‘g‘li - Halilsultonni yengib, rasman yagona temuriylar davlatining hukmdoriga aylanadi. Ammo amalda esa bu imperiya ikki alohida davlatga ajralgan edi. Shohruh markazi Xirot bo‘lgan Xurosonni boshqargan, poytaxti Samarqand bo‘lgan Movarounnahr esa uning o‘g‘li Mirzo Ulug‘bek (1394-1449) tasarrufiga o‘tgan. Bu ikki davlat kichik feodal yerlari birlashmasidan tashkil topgan bo‘lib, ular katta hokimiyatga da’vogar temuriylar tomonidan boshqarilgan. Eron hukmdori etib tayinlangan Shohruh nabirasi Sulton Muhammad mustaqil siyosat yurita boshlagani tufayli shaxsan Shohruh ko‘psonli qo‘sish yordami bilan mamlakatda tartib o‘rnatishga majbur bo‘ladi. U quyisi Sirdaryodagi voqealar jarayonini diqqat bilan kuzatib turadi, zotan bu yurtdan turib dashti qipchoqlik o‘zbeklar

Xorazmga tez-tez hamla uyuştırishadi. 1419-yili u Barakni qo'llab-quvvatlab, uni ko'chmanchi o'zbeklar ulusi xoni bo'lishiga yordam beradi. Ulug'bek yordami bilan xon Shermuhammad uzoq nizolardan so'ng Mo'g'iliston taxtini egallaydi, biroq ko'p o'tmay Ulug'bek o'z noiblariga qarshi urishishga majbur bo'ladi.

1425-yili Ulug'bek mo'g'illarni tor-mor qiladi. 1427-yili Barak bilan munosabatlar yomonlashgach, u quyi Sirdaryoga yurish uyuştıradi, ammo natijada qaqshatqich mag'lubiyatga uchraydi. 1447-yili Shohruh o'limidan so'ng Ulug'bek Xirov va Xurosonni zabit etishga urinib ko'radi, biroq buning uddasidan chiqqa olmaydi. 1448-yili u o'g'li Abdullatif bilan Xirovga yana yurish qiladi va bu safar shaharni ishg'ol etadi.

Xurosonni zabit etishga xurosonlik amirlar isyonini hamda xon Abdulkayr boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklarning Movarounnahrga bostirib kirishiga monelik qiladi. 1449-yili Abdullatifning otasiga qarshi fitnasi Ulug'bekning o'limi bilan tugaydi va Abdullatif taxtga o'tiradi. Ammo zodagonlar va xalq tomonidan nafratlangan Abdullatif fitna natijasida 1450-yilning 8-mayida o'ldiriladi. Hokimiyat temuriy Abdulla ixtiyoriga o'tadi va u Ulug'bek siyosatini tiklashga intiladi.

TEMURIYLAR DAVLATI (1451-1507)

Turk zodagonlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan temuriy Abdullaga qarshi Xo'ja Ahror (1404-1490) boshchiligidagi naqshbandiy tariqati yordamiga suyangan Buxoro amirlari taxtga o'z nomzodlarini ilgari suradilar. Bu talabgor Amir Temur o'g'li Mironshoh nabirasi Abusaid (1451-1468) edi. Abusaid ko'chmanchi o'zbeklar xoni Abulxayrni ittifoq tuzishga ko'ndiradi. 1451-yili yozida Samarqand yaqinida hal qiluvchi jang bo'lib o'tadi. Bu jangda ko'chmanchi o'zbeklar g'olib chiqishadi, Abdulla qo'shini parokanda bo'ladi, uning o'zi esa o'ldiriladi. Abusaid Samarqand va Movarounnahrda hokimiyatni egallaydi. Xo'ja Ahror uning yaqin maslahatchisi etib tayinlanadi. Abu Said

Xurosonni ishg‘ol eta olmaydi, zero Xirot taxtiga 1452-yildan to umrining oxirigacha, ya’ni 1457-yilga qadar Shohruh nabirasi Abulqosim Bobur egalik qilgan. Ikki hukmdor o‘rtasidagi munosabatlar adovatli bo‘lgan. 1457-yili Abusaid Hirot taxtini egallab oladi va vaqtinchalik ikki davlatni o‘zaro birlashtirishga erishadi.

1468-yili Abusaid Eronni zabit etish uchun safarga otlanadi, biroq undan qaytib kelmaydi. Sulton Xusayin (1469-1506) fursatdan foydalanib Hirot hokimiyatini egallab oladi. Abusaid o‘g‘illari hokimiyat uchun kurashdan voz kechib Movarounnahrga jo‘nab ketishadi. XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr siyosiy parokandalik davrini boshidan kechiradi. 1469-yildan 1494-yilgacha Samarqandda Abusaid o‘g‘li Sulton Ahmad (amalda hokimiyat Xo‘ja Ahror va naqshbandiy tariqati tasarrufi ostida bo‘lgan), Buxoroda - Sulton Alimirza, Farg‘onada esa Zahiriddin Muhammad Bobur hukmdorlik qiladi. Aynan Bobur Shayboniyxon boshchiligidagi ko‘chmanchi o‘zbeklarning bosqiniga astoydil qarshilik ko‘rsatadi. 1497-yili Bobur boshqargan andijonliklar qo‘smini Samarqandni ishg‘ol etadi. 1501-yilning bahorida Bobur Shayboniyxon bilan jang qilish uchun Samarqandni tark etadi, biroq Kuxak daryosi yaqinidagi jangda mag‘lubiyatga uchraydi. Bobur Movarounnahrni tark etib Kobulga ketishga majbur bo‘ladi. Shayboniyxon Movarounnahr va Xurosonga jadallik bilan hujum boshlaydi. 1501-1506-yillar davomida u Samarqand, Toshkent, Kat va Buldumsoz, Urgench, Balxni bosib oladi. Keksayib kuchdan qolgan Sulton Xusayin Shayboniyxonga jiddiy qarshilik ko‘rsata olmaydi. Xorazm Shayboniyxon tomonidan egallab olingandan so‘nggina Sulton Xusayin yurish uyuştirishga qaror qiladi, ammo uning boshlanishida vafot etadi. Hirotda uning o‘rniga ikki voris - o‘g‘illari Badi az-Zamin va Muzaffar Xusayin tayinlanadi. Ular o‘rtasidagi ixtiloflar Hirotning tushkunlikka yuz tutishini tezlashtirdi. 1507-yili Shayboniyxon Hirotni ishg‘ol etdi.

SHAYBONIYLAR DAVLATI

Shayboniylar davlatining poytaxti dastavval Samarqand bo‘ldi. Ubaydullaxon (1533-1539-yy.) hukmdorligi davrida murakkab harbiy-siyosiy vaziyatga qaramasdan fan va madaniyat rivojiga katta e’tibor berilgan. Ubaydullaxon o‘ta savodli inson bo‘lgan, u Qur’oni Karimni mohirona qiroat qilib, turkiy tildagi sharhlar bilan ta’minlagan, shuningdek, usta sozanda va iqtidori xonanda bo‘lgan. Abdullaxon II (1557-1598-yy.) nomi bilan yagona kuchli davlat barpo etish harakati boshlangan. U 1557-yil Buxoroni zabit etadi, 1561-yil bu yerga poytaxt ko‘chiriladi va davlat Buxoro xonligi nomi bilan yurita boshlanadi. Abdullaxon II hukmdorligi davrida bunyodkorlik ishlari quloch otadi-Karmanada Zarafshon daryosi ustiga ko‘prik quriladi, Balx va Buxoroda ko‘p sonli madrasalar qad rostlaydi. Xon imom Abubakr Saadiy maqbarasi atrofida masjid, madrasa, turar joy binosi va boshqa imoratlardan tashkil topgan majmuani bunyod etadi.

1598-yilda Abdullaxon vafot etgach yagona o‘zbek davlatini yaratish umidi ham so‘nadi. Shayboniylar sulolasining so‘nggi vakili Pirmuhammad o‘rtamiyona shaxs bo‘lib, joylardagi hukmdorlar o‘rtasida siyosiy ta’sir kuchiga ega emas edi. Natijada yuzaga kelgan boshboshdoqlikka barham bera olmay, u tez orada o‘zaro janjallarda qurban bo‘ladi. Buxoro xonligining ichki va tashqi dushmanlari markaziy hokimiyat inqirozi va mamlakatdagi parokandalikdan zudlik bilan foydalanib qolishdi. Janubda Eron shohi Abbas Sabzavor, Mashhad va Hirotni egallab oldi, Balx hokimligiga o‘z gumashtasi Muhammad Ibrohimni tayinladi. Qozoq sultonlari yirik hududlardan biri Toshkentni zabit etishdi. Xorazm yana mustaqillikka ega bo‘ldi. “Butun davlatda tartibsizlik va boshboshdoqlik yuzaga keldi, hech kim boshqa birovga bo‘ysunishni istamasdi”, - deb yozgan edi o‘sha yillar haqidagi Muhammad Yusuf Munshiy. O‘zaro nizolar va urushlar oqibatida Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari tashkil topdi.

XIVA XONLIGI

1505-yil Shayboniyxon qo'shinlari Xorazmni egallab oladi. Lekin 1512-yilga kelib xonlik hokimiyati ko'chmanchi o'zbeklarning boshqa urug'i(shajaras) rahbari Ilbarsxon qo'liga o'tadi. Shu vaqtdan boshlab Xiva xonligi yuzaga keladi, uning poytaxti turli yillarda Vazir, Qo'hna Urganch va Xiva shaharlari bo'lgan. Xonlik tarkibiga Xorazmdan tashqari Mang'ishloq, Balxan tog'lari, Dehiston, O'zboy (Uzboy) va O'rta Xuroson hududlari kirgan. Buxoro xonligi bilan O'rta Osiyoda hukmronlik huquqi yo'lidagi kurashda Xiva askarlari Qorako'l, Chorjo'y, Vardanzini xarobazorga aylantirdi va Karmanagacha yetib keldi. 1662-yil Xiva xoni Abulg'ozi navbatdagi jangdan so'ng Buxoro xoni Abulaziz bilan sulh tuzdi. Lekin uning o'g'li Anushaxon (1663-1687-yy.) davrida Buxoroga hujumlar yana davom ettirildi. 1685-yil xivaliklar Samarqandni egallab olishga muvaffaq bo'lishdi. Lekin G'ijduvon yonida Anushaxon mag'lubiyatga uchradi va Samarqandni tashlab chiqishga majbur bo'ldi. Ko'p o'tmasdan Buxoro xoni Anushaxonga qarshi fitna uyuştirdi, unda Anushaning o'g'li Ernak (Ereng) ham ishtirok etdi. 1687-yil Anusha hibsga olinib, ko'zi ko'r qilindi. 1668-yil Buxoro xoni Subhonquli Xorazmni o'ziga bo'ysundirdi va uning hukmdori etib Shohniyozni tayinladi- keyinchalik u xonlik unvonini qabul qildi. Shohniyoz xonlik hokimiyatini mustahkamlash va Buxoroga tobelikdan xalos bo'lishga intildi. Shu maqsadda 1700-yil Buxorodan yashirin holda Petr I ga elchi jo'natib, qo'l ostidagi xalqi bilan o'zini Rossiya fuqaroligiga qabul qilishni so'radi. Xon Arab Muhammad (1702-1714-yy.) ham Rossiya ko'magiga umid qilgan ko'rindi. Sherg'ozixon (1715-1728-yy.) hukmronligi davrida feodal fitnalari davlatni bo'lak-bo'lakka ajratib tashlagan.

1717-yil Xiva xonligi Rossiya davlatining A.Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi harbiy ekspeditsiyasi hujumini bartaraf etishga muvaffaq bo'lgan. Sherg'ozidan so'ng xonlik taxtiga Ilbars (1728-1740-yy.) o'tirdi. Eron shohining



Afg'oniston va Hindistonga qilgan yurishidan foydalangan Ilbars Xurosonga hujum qildi. Ushbu voqea, shuningdek Xiva tomonidan Eron hukmronligining rad etilishi va Buxoroni harbiy jihatdan qo'llab quvvatlanishi Nodirshohni Xorazmga yurish qilishga undadi. Hazorasp yonida Ilbars mag'lub bo'ldi. To'rt kunlik qamaldan so'ng Nodirshoh poytaxtni zabit etdi. Xiva armiyasining katta qismi Nodirshoh qo'shirlari tarkibiga kiritildi. Xivada Nodirshoh vakili va Eron harbiy garnizoni qoldirildi. Lekin xonlikning shimoliy qismida Eron hukmronligi kuchga ega emas edi. Bu yerda orolliklar orasida 1730-1732-yillarda Rossiya fuqaroligini qabul qilgan Kichik qozoq ulusi xoni Abul Xayrning o'g'li Nuralining mavqeいi baland edi. 1741-yil xivaliklar Eronqa qarshi bosh ko'tarishdi. Xiva qo'zg'olonchilar tomonidan ozod etildi hamda vakil va garnizon yo'q qilindi. Xonlik taxtini Nurali egalladi. Bu voqealardan xabar topgan Nodirshoh o'g'li Nurullomirzoga Xorazmga qarshi yurishni buyuradi. Nuralini taxtga ko'targan Xiva korchalonlari Marvga bo'yin egib borishadi. Ularning iltimosiga ko'ra Nodir Xiva xonligiga Ilbarsning o'g'li Abu Muhammadni tayinlaydi.

XVIII asrning 40-yillarida Xivada bir necha xon almashdi.

QO'QON XONLIGI

XVIII asr boshida Ashtarxoniylar xonligida hukm surgan siyosiy inqiroz sharoitida Farg'ona Buxorodan ajralib chiqadi. Markazi Qo'qonda joylashgan mustaqil davlatga dastavval hojalar, keyin Ming xonlar sulolasiga hukmronlik qila boshlaydi. Xonlik o'z tarkibiga Namangan, Qo'qon, Andijon va Marg'ilon viloyatlarini kiritdi. Birinchi hukmdor etib o'zbeklarning Ming qabilasidan Shohruhbiy e'lon qilindi. 1721/22-yillar Shohruh amirlarning ba'zi guruhlari o'rtasidagi nizolar oqibatida halok bo'ladi. Uning o'g'li Abdurahimbiy (1721/17-1733-yy.) Xo'jand va Andijonni xonlikka qo'shib oldi, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzaxni ishg'ol qildi. Uning akasi Abdukarim

(1733-1747/48-yy.) hukmronligi davrida O'sh zabt etildi. Keyingi yigirma yillik hukmdorlarning tez-tez almashib turishi bilan ajralib turadi. 1770-yil Qo'qon zodagonlari Norbo'tani (1770-1800-yy.) hukmdor deb e'lon qilishdi. U Chust, Namangan va Xo'jand hukmdorlarining ajralib chiqishga bo'lgan harakatlarini bosishga muvaffaq bo'ldi. Norbo'tabiy Toshkentga ham qo'shin yuboradi, lekin shaharni bo'ysindira olmaydi. Norbo'tabiy davrida nisbatan siyosiy osoyishtalikka erishildi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy taraqqiyotga yo'l ochdi. Sug'orish tizimi kengaytirildi, yangi madrasalar, jumladan, Mir madrasasi bunyod etildi. Norbo'tanining o'g'li Olimbek (1800-1809-yy.). Qo'qonning siyosiy mavqeini sezilarli tarzda ko'tardi. Olimxon hokimiyatni markazlashtirishga bo'lgan harakatlarida o'zi tog'li tojiklardan tashkil qilgan yollanma qo'shinga suyandi. U Toshkent va Farg'onani bo'ysundirdi, O'rategaga bir necha marta yurish qildi. Uyushtirilgan suiqasd oqibatida Olimxon o'ldiriladi va taxtga uning akasi Umarxon (1809-1822-yy.) ko'tariladi. U Buxoro amiri Haydar bilan shartnoma tuzdi va Sirdaryoning quyi oqimigacha bo'lgan yerkarni saltanatiga qo'shib oldi. Toshkent, Buxoro va Xiva yo'llari kesishgan joyda u Oqmachit istehkomini bunyod qildi. "Musulmonlar amiri"-”amir ul muslimin” unvonining sohibi bo'lmish Umarxon o'z nomidagi tangalarni zarb etgan. Uning hukmdorligi chog'ida Qo'qonda ham Buxoro xonligidagi kabi ma'muriy tizim joriy etilgan. Umarxonning merosxo'ri etib uning 12-yoshli o'g'li Muhammad Ali (Madali) (1822-1842-yy.) tayinlandi. Madali hukmronligini otasi zamonida ham unga yoqmagan kishilarni qatl qilishdan boshladi. U Sharqiy Turkiston va Qashqarga bir necha muvaffaqiyatli yurishlarni amalga oshirdi, Oloy tog' tizmasi ortidagi tojiklarni bo'ysundirishga erishdi. Uni tilyog'lamachilar "g'ozi"(e'tiqod yo'lidagi kurashchi) deb atashsa-da ruhoniylar dinni bulg'agan va xudodan qaytgan kishi, deya hisoblashar edi. Xon g'animlari Buxoro amiriga shikoyat yo'lladilar. 1840-yil amir elchisi orqali Qo'qonga otasining xotini

bilan nikoh tuzganligi uchun Madalixonni kofir deb e'lon qilgan fatvoni jo'natdi. Shundan so'ng Madalixon Buxoroga qarshi urush harakatlarini boshladi, biroq mag'lubiyatga uchragach, o'zining Buxoro tobeligini tan oldi va amirlik foydasiga Xo'janddan voz kechdi. 1842-yil amir Nasrullo Qo'qonni zabit etib, xonlikni Buxoroga qo'shib oldi. Madalixon qatl etildi va tez orada Toshkent ham qo'lga kiritildi.

BUXORO AMIRLIGI

1758-yil Rahimbiy vafotidan so'ng mang'itlar amirlik taxtiga uning amakisi Miyonko'l hokimi Doniyorbiy (1758-1785-yy.) nomzodini surishadi. Lekin u qat'iy markaziy hokimiyatni saqlab qololmadi. Mang'itlarning tarafdarlari va g'animplari o'rtasidagi o'zaro janjallar, joylardagi hokimlarning mustaqillikka bo'lgan intilishlari o'n yillarga cho'zilib ketdi. 1784-yil Doniyorbiyning bo'shligidan norozi bo'lgan Buxoro ahli qo'zg'olon ko'tardi va amir hokimiyatni o'g'li Shohmurodga (1785-1800-yy.) topshirdi. Shohmurod yangiliklarni Arkda saroj ahli guvohligida ikkita yirik amaldor – Davlat qushbegi va Nizomiddin qozikalonni qatl etishdan boshladi. Shundan so'ng Shohmurod Buxoro ahliga ularni bir necha soliqdan ozod etuvchi imtiyozli hujjatni tantanali tarzda topshirdi. Hujjatning matni tosh lavhada kesilgan bo'lib, u katta jome' masjidining ayvoniga o'rnatildi.

Shohmurod "jo'l" ("jul") deb nomlangan va urush holatida qo'shin saqlash maqsadida foydalaniладиган yangi soliq turini joriy qildi. Hokimiyatni o'z qo'lida jamlab olgach, u xonlik unvonidan voz kechdi va amirlik darajasida qoldi.

Taxtga esa Shohmurod Chingizzon avlodlaridan bo'lgan Donishmandchini, keyinroq esa Abulg'ozini ko'tardi, lekin ular amalda hokimiyatga ega emasdilar. 1785-yil Shohmurod pul islohotini o'tkazdi hamda 0,7 misqollik (3,36 g) to'la qimmatli kumush tangalar va bir xil shakldagi oltin tangalarni zarb etishni

yo‘lga qo‘ydi. U sud mahkamasiga ham shaxsan rahbarlik qildi. Shohmurod Buxoro amirligi tarkibiga Amudaryoning chap sohilidagi hududlarni, jumladan, Balx va Marvni qaytardi. 1786-yil u Karmanada xalq qo‘zg‘olonini bostirdi, keyin Shahrisabz va Xo‘jandga muvaffaqiyatli yurishlarni amalgalashdi. Shohmurod afg‘on hukmdori Temurshohdan ustun kelib, asosan o‘zbeklar va tojiklar yashaydigan janubiy Turkistonni o‘z qaramog‘ida saqlab qolishga erishdi. Amir Haydar (1800-1826-yy.) otasidan so‘ng taxtga o‘tirgan vaqtida butun Mavorounnahr uning hukmiga bo‘ysunar edi. Haydarning taxtga ko‘tarilishi ommaviy qo‘zg‘olonlar va qatllar bilan to‘g‘ri keldi. 1800-yil Marv turkmanlari bosh ko‘tarishdi. Ichki janjallarga ko‘p o‘tmasdan Qo‘qon bilan O‘ratepa uchun urush qo‘sildi. Haydar ushbu shaharni tasarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. Amir Haydar davrida siyosiy tizim yakka hokimiyatchilik tomon intilayotgan markazlashgan monarxiyadan tashkil topgan edi. Amirga 4 ming kishigacha yetadigan byurokratik mahkama xizmat qilardi. Armiyaning miqdori oshdi. Faqat Buxoroning o‘zida 12 ming harbiydan iborat qo‘sish turardi. Ahmad Donishning yozib qoldirishicha, Amir Haydar boshqaruv vaqtiga “har 3-6 oyda yuzaga keladigan to‘xtovsiz feudal urushlar davri” deya baho berish mumkin. Haydardan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Nasrullo (1826-1860-yy.) o‘tirdi.

Unga hokimiyat sari yo‘l ochish maqsadida akalari Husayn va Umar o‘ldirildi. Armiya va ruhoniylarga suyangan Nasrullo zodagonlarni jilovlash maqsadida feudal tarqoqlikka qarshi qat’-iy kurash olib bordi. Hukmronligining birinchi oyida u har kuni 50-60 tadan kishini qatl qildi. Nasrullo shu paytgacha amirlik tarkibiga faqat nomigagina kirgan viloyatlarni birlashtirishga erishdi. Viloyatlarni boshqarishga o‘ziga mute’ bo‘lgan “naslnasabsiz” kishilarni tayinladi. Nasrullo amirligi chog‘ida Xiva va Qo‘qon xonliklari bilan Mary, Chorjo‘y, O‘ratepa, Xo‘jand kabi chegarada joylashgan alohida hududlar uchun bo‘lgan tinimsiz

urushlar davom etib turdi. Shahrisabz va Kitob hukmdorlarining qarshiligi, ayniqsa kuchli bo'ldi. Bir necha harbiy yurishlardan so'ng 1853-yilga kelib ular Buxoroga bo'yundirildi. Amirlik tarkibiga faqat Zarafshon daryosining o'rta va quyi oqimidagi vohagina barqaror kirgan edi.

O'ZBEKISTON XX ASRNING 20-40-YILLARIDA

1924-yili O'zbekiston respublikalardan biri sifatida Sovet Ittifoqi tarkibiga kirdi. 1927-yilning martida O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. O'sha yillari xalq xo'jaligi va madaniyatni rivojlantirishda respublikalararo boshqaruv organlari - O'rta Osiyo iqtisodiy kengashi (1923-y.) Qisqa vaqt ichida respublikada fuqarolar urushining ayanchli oqibatlari bartaraf etildi. Sanoat jadal sur'atlarda rivojlandi. Mashinasozlik, metallni qayta ishlash va energiya sohalarida eng salmoqli o'zgarishlar yuz berdi. 1928-yildan 1942-yilgacha bo'lgan davrda 515 ta sanoat korxonasi va elektrostansiya ishga tushirildi. Ular orasida Chirchiq elektrokimyo kombinati, Toshkent qishloq xo'jaligi zavodi, Quvasoy sement va ohak zavodi, Toshtekstilkombinati va boshqalar bor edi. 1925-1929-yillarda yer-suv islohoti amalga oshirildi. Qishloq xo'jaligi va irrigatsiya butunlay qayta ta'mirlandi, yangi kanallar va suv omborlari qurib bitirildi. 1941-yilga kelib O'zbekiston aholisining savodxonlik darajasi 95 % ni tashkil etdi. Turkiston davlat universiteti (1920) oliy ta'limning yirik markaziga aylandi. 20-yillarning oxiriga kelib tarkibida mingdan ziyyod ilmiy xodimlar mavjud o'nlab ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyat ko'rsatar edi.

1930-yildan boshlab Toshkent O'zbekiston poytaxtiga aylandi.

1937-yilning fevralida O'zSSRning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Yangi konstitutsiyaga muvofiq Y.Oxunboboyev va F.Xo'jayev rahbarligida respublika boshqaruv organlariga saylovlar bo'lib o'tdi. Respublikaning kundalik hayoti, butun

SSSRdagi ahvol singari, Stalin shaxsiga sig‘inishning avj olishi hamda totalitar boshqaruv usullarining kuchayishi shiori ostida o‘tdi. O‘zbekistondagi ommaviy qatag‘onlik taniqli partiya va davlat arboblarining hibsga olinishidan boshlandi. Siyosiy boshqaruv organlari F. Xo‘jaev, A. Ikromov, D. Manjar va boshqalarga nisbatan qalbaki ayblovlar bilan jinoiy ish qo‘zg‘adi. 1937-yilning avgust-sentyabr oylarida yuzlab kishilar, shu jumladan, O‘zbekiston kompartiyasi rahbarlari S. Boltaboev, I. Xudoyqulov, A. Sexer, M. Shermuxamedov, M. Usmonov va boshqalar hibsga olindi. 1938-yilning bahoriga qadar obkom, shaharkom, raykom partiyalari kotiblarining 60% dan ziyodi qatag‘on qilindi.

O‘ZBEKISTON URUSH YILLARIDA (1941-1945-YY.)

1941-yilning 22-iyunida Germaniya hujum qilmaslik to‘g‘risidagi bitimni buzib Sovet Ittifoqiga qo‘qqisdan hamla uyushtirdi. 23-iyun kuniyog Toshkentda ko‘pming kishilik yig‘in bo‘lib o‘tdi. Unda toshkentliklar front va front ortida butun sa‘y-harakatlarini fashizm ustidan g‘alaba uchun safarbar etishga tayyorliklarini bildirishdi. Urushning dastlabki oylarida O‘zbekistonda frontga jo‘nab ketish to‘g‘risida 32 mingdan ziyod ariza berildi. 1941-yilning noyabriga qadar respublikada 14 ta milliy brigada - 9 ta alohida o‘qchi va 5 ta otliq brigada tuzildi. 1941-1943-yillari O‘zbekiston urush tufayli Rossiya, Ukraina va Belarussiyadan evakuatsiya qilingan 1 million qochoq, shu jumladan 200 ming bolani o‘z bag‘riga qabul qildi. Harbiy holat front ortini mustahkamlash uchun favqulodda choralarни ko‘rishni taqozo etardi. O‘zbekistonga yuzdan ziyod sanoat korxonalari ko‘chirildi. Ular orasida Leningrad to‘qimachilik mashinalari zavodi, Tashselmash, “Krasny Aksay”, Stalingrad kimyoviy kombinati, Moskvaning “Pod’emnik”, “Elektrostanok” zavodlari va boshqa ko‘plab korxonalar bor edi. 1941-yilning oxiriga kelib evakuatsiya qilingan 50 dan ziyod korxona ishga tushirildi.

1942-yilning o‘rtalarida O‘zbekistonga ko‘chirilgan barcha korxonalar to‘la quvvatda ishlab, front uchun harbiy texnika, o‘qdorilar, kiyim-aslahalar yetkazib bera boshladi. Respublikaning sanoat korxonalari ham urushning dastlabki kunlaridan oq mudofaa mahsulotlarini ishlab chiqarishga qayta moslashtirildi.

Jumladan, Tashselmash, parovoz remont zavodi, Chirchiq elektroximiya va boshqalar. 1941-1945 urush yillari davomida O‘zbekistonda 280 ta ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi. 1943-yilda umumiyligi ishlab chiqarish hajmi respublikaning xalq xo‘jaligida 75% ga oshdi. 1942-yilning kuzidan Bekobod metallurgiya zavodining qurilishi boshlandi. Aniqlangan volfram, molibden va mis zaxiralari asosida rangli metallurgiya sohasi tarkib topdi. Olmaliq mis konidan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. 1940-1943-yillar davomida yangi elektrostansiyalar qurilishining hisobiga elektroenergiya ishlab chiqarish 3,5 barobarga ortdi. 1941-yildan 1945-yilgacha sanoatning hamma sohalarini qamrab oluvchi 280 ta yangi korxona qurib bitkazildi. O‘zbekiston mamlakatning asosiy harbiy salohiyat markazidan biriga aylandi. Frontga 2000 dan ortiq samolyot, 1,7 ming dan ortiq aviamotor, shuncha minamet, 22 million minalar, 560 ming snaryad, millonga yaqin granatalar, 330 ming parashyutlar, 5 ta bronopoezd, 100 ming km dan oshiq turli xildagi simlar jo‘natildi.

O‘zbekistonga 22 ta ilmiy-tekshirish instituti, 16 ta oliy talim muassasalari, 2 ta kutubxona ko‘chirib keltirildi. 1943-yilning 4 noyabrida Fanlar Akademiyasining tantanali ochilishi bo‘lib o‘tdi. Uning birinchi Prezidenti etib T.N. Qoriniyozov saylandi. 1944-yilning oxiriga kelib Fanlar Akademiyasining tarkibiga 22 ta ilmiy muassasalar kirar edi. 1943-yilga kelib esa respublikada 41 ta oliy talim muassasalari faoliyat yuritgan, jumladan 12 tasi ko‘chirib keltirilgan, 52 tasi o‘rta maxsus bilim yurtlari edi.

Urush yillari davrida ularda 20 mingdan ortiq mutaxassislar tayyorlandi. Milliondan ortiq o‘zbekistonliklar urush frontlarida jang qilganlar. O‘nlab milliy jangovor tuzilmalar tashkil etildi.

Ulardan ko‘pchiligi ordenlar bilan taqdirlandi va gvardiya unvonlarini oldilar. O‘zbekistonlik jangchilar Brest qal’asining (D.Abdullaev, T.Aliev, Isaev, Yusupov, Laenkov F, U. Ataev va boshqalar.) Kiev, Smolensk, Odessa, Sevastopol va boshqa shaharlarning himoyasida mardonovor qatnashganlar.

O‘ZBEKISTON 1945-1991-YILLARDA

Urushdan keyingi davrda O‘zbekistonda rivojlangan transport va energo tizimlari bilan ta’minlangan ko‘ptarmoqli sanoatning yuksalish jarayoni davom etdi. Shaharlar ilmiy va madaniy markazlarga aylanib borardi. 1947-yilda O‘zbekiston Davlat katta akademik teatri, 1964-yilda Samarqandda opera va balet teatri ochiladi. Qishloq xo‘jaligida jadal usullar qo‘llanilib mexanizatsiyalashtirildi. 1984-yilga kelib 4175 ming ga ekin maydonlari o‘zlashtirildi, ulardan 2056 ming ga paxta dalalari edi. Respublikani urushdan keyingi davrlarda, turli yillarda U.Yusupov, A.Niyozov N.Muhiddinov, Sh.Rashidov boshqardi.

80-yillarda SSSR siyosiy va mafkuraviy inqirozga duch keldi. Markazdan qochish hollari kuchayib bormoqda edi. SSSR hududida yashovchi xalqlar bu vaqtga kelib iqtisodiy va o‘z milliy anglashining shunday darajasiga yetdiki, endi ittifoqdan iqtisodiy, davlat va siyosiy qaramlik xar bir respublikaning bundan keyingi ravnaqini orqaga tortuvchi holatga aylanib qolgandi. Kutilayotgan istiqbol uchun esa yangi sharoitlar kerak edi.

YANGI O‘ZBEKISTON

Keyingi yillarda mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy sohalar, madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini rivojlantirish bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi.

Xususan, ushbu yo‘nalishdagi ishlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasi, Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi. Respublika

Ma’naviyat va ma’rifat markazi tizimidagi xodimlar soni ikki karra oshirildi va ularni moddiy rag‘batlantirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirish uchun 2024-yildan boshlab har yili 100 milliard so‘mdan mablag‘ ajratiladi.

2023-yilda Toshkent shahrida “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya yuqori saviyada o‘tkazildi.

Buyuk ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosini xalqimizga yanada kengroq tanishtirish maqsadida Buxoro shahridagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi barpo etilmoqda, “Jadid” deb nomlangan yangi gazeta va uning elektron versiyasi tashkil qilindi.

Keyingi yillarda milliy ma’naviyatimizning ajralmas qismi bo‘lganmadaniyat, adabiyotvasan’at, ommaviyaxborotvositalarini rivojlantirish bo‘yicha ham keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingani, 15-aprel sanasi O‘zbekistonda Madaniyat va san’at xodimlari kuni etib belgilangani soha rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Milliy an’analarimizni asrab-avaylash va boyitish maqsadida Maqom, Baxshichilik va Askiya san’ati markazlari tashkil etildi. Shuningdek, “Bahor” raqs ansamblı, Davlat filarmoniyasi, Davlat simfonik orkestri kabi 20 dan ortiq muassasalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

O‘tgan davrda 11 ta yangi muzey, 2 ta teatr, 28 ta bolalar musiqa va san’at maktabi, 5 ta oliygoh, jumladan, yangi avlod jurnalistlarini tayyorlashda O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi.

Madaniyat va san’at sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hajmi 2017-yilga nisbatan 5 baravarga ko‘payib, 2023-yilda bu maqsadlar uchun 712 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi.

Xalqimizning boy va betakror madaniy merosini dunyoga targ‘ib etish maqsadida “Maqom”, “Baxshichilik”, Hunarmandchilik, “Lazgi” kabi xalqaro festivallar tashkil qilindi. Shu bilan birga, 24 ta xorijiy mamlakatda “O‘zbekiston madaniyati kunlari” yuqori saviyada o‘tkazildi. 2023-yilda Toshkent shahrida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOYning 30-yillik yubileyi yuqori saviyada tashkil etildi.

Bir asrdan ziyod tarix va an’analarga ega bo‘lgan o‘zbek kino san’atini rivojlantirish bo‘yicha ham salmoqli natijalarga erishilmoqda. Xususan, buyuk sarkarda va davlat arboblarimiz, ulug‘ allomalar, madaniyat namoyandalarimiz haqida tarixiy filmlar yaratilmoqda. Qariyb chorak asrdan keyin Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tikladik. 2021-yildan buyon har yili jahonning 50 dan ortiq mamlakatidan yuzlab kino ijodkorlar O‘zbekistonga tashrif buyurmoqda. Milliy filmlar yaratish uchun davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘lar hajmi ham tobora ortib bormoqda.

Zamonaviy adabiyotimizni rivojlantirish maqsadida poytaxtimizda Adiblar xiyoboni, Yozuvchilar uyushmasining muhtasham binosi, yangi ijod uylari barpo etildi. Samarali ijod qilayotgan adiblarimiz imtiyozli asosda yangi uy-joylar bilan ta’minlandi. Iste’dodli yosh ijodkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida Zomin seminari qayta tiklanib, ularning birinchi kitoblari katta tirajlarda nashr etilmoqda.

Birinchi marta nashr etilgan 100 jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari”, 30 jilddan iborat “Mustaqillik davri navoiyshunosligi”, “Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari”, “Mard askarga sovg‘a” singari adabiy majmualar ma’naviy hayotimizda muhim voqeа bo‘ldi.

IL.BOB. PREZIDENT MA'RUZALARI VA KITOBLARI

**MA'NAVİYAT HAYOTIMIZDA YANGI KUCH,
YANGI HARAKATGA AYLANISHI KERAK
Assalomu alaykum, hurmatli Kengash a'zolari!
Muhtaram vatandoshlar!**

Bugun Siz, azizlar bilan g'oyat muhim masalalarni muhokama qilish va ular yuzasidan zarur yechimlar topish uchun yig'ildik.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining yig'ilishida Oliy Majlis hamda Vazirlar Mahkamasi rahbarlari, hurmatli deputat va senatorlar, vazirlar, hokimlar bilan birga milliy ma'naviyatimiz faollari, madaniyat, adabiyot va san'at sohasi vakillari ham ishtirok etmoqda.

Barchangizga ayon, yurtimizda ushbu Kengash **raisi Prezident** hisoblanadi.

Hududlarda esa **birinchi rahbarlar bu masala uchun mas'ul** etib belgilangan.

Nima uchun shunday yo'l tutdik?

Chunki ilm-fan, ta'lif va tarbiya, ma'naviyat biz uchun ustuvor masaladir.

Albatta, Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini **barpo etish uchun** avvalo uning **mustahkam iqtisodiy, moddiy-texnik asoslarini yaratish kerak**.

Bugun shu yo'lda xalqimiz bilan birligida amalga oshirayotgan ishlarmizda barchangiz faol ishtirok etmoqdasiiz.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda iqtisodiyotni chinakam bozor munosabatlari asosida tashkil etayapmiz. Barcha soha va tarmoqlarda davlat ishtiroki kamaytirilib, **xususiy mulk va investitsiyalarga, davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga** keng yo'l ochilmoqda.

Tadbirkorlar, fermer va klasterlar uchun qulay sharoitlar yaratib berayapmiz. O‘zbekistonda “**majburiy mehnat**”, “**bo-lalar mehnati**”ga butunlay chek qo‘yildi. “**Davlat buyurtmasi**” degan tizimni ham optimal holatga keltirayapmiz.

Barcha sohalarga raqamlashtirish, “**yashil**” va innovatsion texnologiyalar jadal kirib bormoqda.

Yurtimizda yangi-yangi zamonaviy sanoat va energetika majmualari, avtomobil va temir yo‘llar, texnopark va “**ay-ti**” parklar, “**aqli**” va elektron boshqaruv tizimlari barpo etilmoqda.

Shahar va qishloqlarimiz, butun mamlakatimiz qiyofasi tubdan o‘zgarmoqda.

Qisqa muddatda **maktab**, **maktabgacha ta’lim**, **oliy ta’lim**, **sport va turizm** sohalarini rivojlantirish bo‘yicha ulkan qadamlar qo‘ydik.

Tibbiyot sohasida ham chuqur islohotlar olib borilmoqda.

Aholini **zamonaviy uy-joylar bilan ta’minlash** borasida ilgari tasavvur qilib bo‘lmaydigan natijalar qo‘lga kiritilmoqda.

E’tibor qiling, bu yil ijtimoiy sohaga eng ko‘p – **134 trillion** so‘m mablag‘ ajratildi.

Bu – **2016**-yilga solishtirganda **5,6 barobar** ziyod demakdir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan “**O‘zbekiston – ijtimoiy davlat**” degan qoidaning amaliy hayotimizdagи tasdig‘ini birgina ana shu misolda ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Bu ishlar dastlabki qadamlar bo‘lib, kelgusida yanada kengayib boradi.

Xabaringiz bor, bu yil “**O‘zbekiston – 2030**” strategiyasi ni qabul qildik. Bu muhim hujjatda o‘z oldimizga aniq maqsadlar qo‘yib, **marrani baland oldik**.

Ushbu strategiyaga muvofiq, **2030**-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini **2 barobar** oshirib, **160 milliard** dollarga, aholi

jon boshiga daromad miqdorini esa o‘rtacha 4 ming dollarga yetkazishni reja qilganmiz.

Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur’atlari misli ko‘rilmagan darajada shiddatli tus olmoqda. Ayni vaqtida **azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar** tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda.

Ilgari o‘z maqsad va manfaatlarini asosan diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi **ochiqchasiga bosim o‘tkazish, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tganiga hammamiz guvohmiz.**

Afsuski, bunday keng ko‘lamli va o‘ta ziddiyatli jarayon-larning ta’siri Markaziy Osiyo mintaqasi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan mamlakatimizni ham chetlab o‘tmayapti.

Ana shunday g‘oyat murakkab va tahlikali vaziyatda O‘zbekistonning milliy manfaatlariga javob beradigan to‘g‘ri yo‘lni topish albatta oson bo‘lmayapti.

Biz dunyodagi uzoq-yaqin barcha davlatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishga harakat qilayapmiz.

Tarixdan ma’lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan **millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli zi-yolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari** jasorat bilan maydonga chiqqanlar.

XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma’rifat uchun kurashga chorlagan **jadid bobolarimizni** eslaylik.

Yaqinda “**Milliy tiklanish**” gazetasida O‘zbekiston xalq shoiri **Iqbol Mirzoning “Jadidlar”** degan she’rini o‘qib qoldim. Hurmatli shoirimiz “**Jadidlar yetishmayapti, jadidlar**”, deb, bugungi kunda ko‘pchilik xalqimizni, jumladan, **meni ham qiy-nayotgan savollarga** javob izlagan.

Chindan ham, mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi **g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar** suv bilan havodek zarur.

Lekin ularni kim tarbiyalaydi? Albatta, o‘zimiz tarix saboqlari, zamon talablari asosida tarbiyalashimiz zarur.

Yaqinda poytaxtimizda o‘tkazilgan “**Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g“oyalari”** mavzusidagi konfrensiya jahon ilm-fan va madaniy jamoatchiligi o‘rtasida katta qiziqish va e’tibor uyg‘otganidan barchangiz xabardorsiz.

Bu ishlarni yanada kengaytirish va yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida alohida Prezident qarori qabul qilinadi.

Jumladan, **Buxorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi** bunyod etiladi.

Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan **huquqiy demokratik davlat** va **fuqarolik jamiyat** uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiydir.

Chunki ularning g‘oya va dasturlari **Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi** bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir.

Ana shu ishlarimizni davom ettirish maqsadida **Yozuvchilar uyushmasi, Fanlar akademiyasi, Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Milliy mass-mediani qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, “Shahidlar xotirasi” jamg‘armasi** hamda jamoatchilik vakillarining **“Jadid”** nomli yangi gazeta va uning **elektron versiyasini** tashkil etish haqidagi tashabbusini biz albatta qo‘llab-quvvatlaymiz.

Aziz do‘stlar!

O‘zimizga bir savol berib ko‘raylik: biz bugungi keskin sharoitda **g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi?**

Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob berayaptimi?

Mana, bugun **ma’naviy-ma’rifiy sohada** masala qanday o‘tkir va ko‘ndalang bo‘lib turibdi.

Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug‘ dunyoda

“O‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, **bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi.**

Albatta, biz dunyo miqyosidagi iqtisodiy inqiroz va pandemiya ta’siriga qaramasdan, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Bu borada **2017-yil 3-avgustda** ijodkor ziyolilar bilan uch-rashuv hamda **2021-yil 19-yanvardagi** Kengash yig‘ilishidagi muloqotlar davomida sizlar bilan ko‘plab masalalar bo‘yicha aniq yechimlarni topgan edik.

Bu haqda gapirganda, **Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasi** hamda **Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti** tashkil etilganini aytish o‘rnlidir.

Respublika **Ma’naviyat va ma’rifat markazi** tizimidagi xodimlar soni **ikki karra** oshirildi, ularni **moddiy rag‘batlantirish** choralar ko‘rildi.

Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash uchun har yili **45 milliard** so‘mdan mablag‘ ajratayapmiz.

Markaz tegishli vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar bilan birgalikda joylarda ko‘plab tadbirlar o‘tkazmoqda. Xususan, **“Ma’rifat ularshib”** va **“Kitob karvonı”** aksiyalari doirasida **200 mingga yaqin** nomdag‘i kitoblar aholiga bepul tarqatildi.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, uning hududiy bo‘lmalari tomonidan **11 mingdan ortiq** media mahsulotlari tayyorlandi.

Bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirish uchun **2024-yildan** boshlab har yili **100 milliard** so‘mdan mablag‘ ajratiladi.

Milliy ma’naviyatimizning ajralmas qismi bo‘lgan **ma-daniyat, adabiyot va san’at, ommaviy axborot vositalarini** rivojlantirish bo‘yicha ham katta ishlarni amalga oshirdik.

Ayniqsa, “**Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari** to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilganimiz, **15-aprel** sanasini **Madaniyat va san‘at xodimlari kuni** etib belgilaganimiz soha rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Milliy an‘analarimizni asrab-avaylash va boyitish maqsadida **Maqom, Baxshichilik** va **Askiya san‘ati markazlari** tashkil etildi.

Shuningdek, “**Bahor**” raqs ansamblı, **Davlat filarmoniyasi, Davlat simfonik orkestri** kabi **20 dan ortiq** muassasalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

O‘tgan davrda **11 ta yangi muzey, 2 ta teatr, 28 ta bolalar musiqa va san‘at maktabi, 5 ta oliygoh**, jumladan, yangi avlod jurnalistlarini tayyorlashda **O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti** tashkil etildi.

Shu o‘rinda muhim bir raqamga e’tibor berishingizni so‘rayman. **Madaniyat va san‘at** sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hajmi **2017-yilga** nisbatan **5 karra** oshib, **2023-yilda** bu maqsadlar uchun **712 milliard** so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi.

Biz boy va betakror madaniy merosimizni dunyoga targ‘ib etish bo‘yicha **alohida tizim** yaratdik.

Mamlakatimizda muntazam o‘tkazib kelinayotgan **“Maqom”, “Baxshichilik”, Hunarmandchilik, “Lazgi”** kabi xalqaro festivallar shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Bu boradagi katta ishlarimizdan yana biri – **24 ta xorijiy mamlakatda, jumladan, qo‘shni davlatlarda ham “O‘zbekiston madaniyati kunlari”** yuqori saviyada o‘tkazildi.

Ayniqsa, **Fransiya, Germaniya, Xitoy, Saudiya Arabiston** kabi davlatlarda namoyish etilgan **milliy madaniyatimizning noyob namunalari** dunyo jamoatchiligini hayratga solgani va ular O‘zbekistonni o‘zlari uchun yangitdan kashf etgani barchamizni quvontiradi.

Bu ishlarni albatta davom ettiramiz va kelgusida **Italiya,**

Buyuk Britaniya, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklarida ham ana shunday ko‘rgazmalar tashkil qilinadi.

Keyingi yillarda **YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga** yana **9 ta milliy merosimiz namunasini**, **Buxoro shahri “Ijodkor shaharlar tarmog‘i”ga** kiritilganini ta’kidlash lozim.

Shu yil **sentabr oyida** YUNESKO Bosh qarorgohida bu-yuk bobomiz **Abu Rayhon Beruniy tavalludi** xalqaro miqyosda keng nishonlangani ham muhim voqeа bo‘ldi.

Xalqaro maydonda **madaniy diplomatiyamizning o‘rni** tobora ortib bormoqda.

Xabaringiz bor, YUNESKO Bosh konferensiyasi sessiyalari qariyb **40-yildan buyon** faqat **Parijda** o‘tkaziladi.

2025-yilda esa bu konferensiyaning sessiyasini **birinchchi marta** boshqa shaharda, ya’ni, **Samarqandda** o‘tkazish belgilandi. Ushbu nufuzli anjumanga Tashkilotga a’zo barcha davlatlardan vakillar tashrif buyuradi. Hech shubhasiz, bu – **O‘zbekiston uchun katta ishonch, ayni paytda mas’uliyat hamdir.**

Shu sababli bu yirik xalqaro tadbirga hozirdan puxta tay-yorgarlik ko‘rishni boshlashimiz kerak.

Bu yil Toshkent shahrida **Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti** – **TURKSOYning 30-yillik yubileyi** yuqori saviyada o‘tkazildi.

Bir asrdan ziyod tarix va an’analarga ega bo‘lgan **o‘zbek kino san’ati** ham taraqqiyot yo‘liga chiqib bormoqda. Eng muhimi, xalqimizga manzur bo‘ladigan kino asarlari paydo bo‘layapti.

Buyuk sarkarda va davlat arboblarimiz, ulug‘ allo-malar, madaniyat namoyandalarimiz haqida **tarixiy filmlar** yaratilmoqda.

Qariyb chorak asrdan keyin **Toshkent xalqaro kinofestivalini** qayta tikladik.

2021-yildan buyon har yili jahonning **50 dan ortiq mamlakatidan yuzlab kino ijodkorlar O‘zbekistonga tashrif buyurmoqda.**

Alisher Navoiy nomidagi kino saroyi zamonaviy qiyofaga ega bo‘ldi, yangi “**Renessans**” kino uyi barpo etildi.

Milliy filmlar yaratish uchun davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘lar hajmi ham tobora ortib bormoqda.

Aziz do‘sstar!

Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini, ezgu g‘oyalarni tarannum etishda o‘zbek adabiyoti boshqa madaniyat sohalari uchun hamisha mustahkam zamin bo‘lib kelgan.

Biz zamonaviy adabiyotimizni rivojlantirish maqsadida poytaxtimizda **Adiblar xiyobonini, Yozuvchilar uyushmasining muhtasham binosini barpo etdik.** O‘lkamizning bahavo hududlarida yangi **ijod uylarini** qurdik. Samarali ijod qilayotgan adiblarimiz **imtiyozli asosda yangi uy-joylar bilan ta’milandi.**

Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini moddiy qo‘llab-quvvatlash uchun har yili qariyb **25 milliard** so‘m ajratilmoqda.

Yosh iste’dod egalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida **Zomin seminari qayta tiklandi. Navqiron shoir va yozuvchilarning birinchi kitoblari** katta tirajlarda nashr etilmoqda.

Atoqli ijodkorlarimizning **tavallud sanalarini** keng nishonlash yaxshi an'anaga aylandi.

Birinchi marta nashr etilgan **100 jiddlik “Turkiy adabiyot durdonalari”, 30 jilddan iborat “Mustaqillik davri navoiyshunosligi”, “Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari”, “Mard as-karga sovg‘a”** singari adabiy majmualar ma’naviy hayotimizda muhim voqeа bo‘ldi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilar!

Biz bu yig‘ilishga **uzoq** tayyorgarlik ko‘rdik.

Milliy ma’naviyatimiz va madaniyatimizni rivojlantirish bo‘yicha **taniqli olimlar, shoir va adiblar, san’atkorlar, ras-som va jurnalistlar, ekspert va mutaxassislar** fikrlarini oldik.

Mening topshirig‘imga binoan Vazirlar Mahkamasi **Bosh vazir A.Aripov** rahbarligida bu masalalarni sinchiklab o‘rganib chiqdi.

Tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari, madaniyat sohasi faollari bilan alohida yig‘ilish ham o‘tkazildi. **Ko‘pgina masalalar o‘sha majlisning o‘zida hal qilindi va yana ba’zi muammolar ham aniqlandi.**

Men bugungi majlis uchun tayyorlangan barcha tahliliy materiallar bilan batafsil tanishib chiqdim.

Shu asosda eng muhim vazifalarga qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Avvalo, ma’naviyat va madaniyat sohasidagi ishlarimiz uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladigan **milliy g‘oyamizni** rivojlantirish bo‘yicha alohida **dasturiy hujjat** ishlab chiqishi-miz lozim.

Bu jarayonda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz talablari hisobga olinishi zarur. Mana, biz Asosiy qonunimizdagи fundamental prinsiplardan kelib chiqib, **Dunyoviy davlat konsepsiya-sini** ishlab chiqayapmiz.

Nima uchun bunga zarurat tug‘ilmoxqda?

O‘zingiz ko‘ryapsiz, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan chetdan, ba’zan, hatto, mamlakatimizning o‘zida ham Konstitutsiya va qonunlarimizga zid pozitsiyalar ilgari surilmoqda.

Ba’zi guruuhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi va ulardan ustun qo‘yish holatlari kuchaymoqda.

Diniy e’tiqod niqobi ostida yoshlarni ma’rifatga emas, **jaholatga undayotgan kishilar** paydo bo‘lmoqda.

Ko‘p xotinlik, ayol kishi ishlamasdan uyda o‘tirishi, o‘qimasligi kerak, dunyoviy qadriyatlar harom, degan soxta “da’vat”lar yangramoqda.

Ulug‘ ma’rifatparvar **Ibrat domlaning: “Millatni kim isloh etar? Ulamo g‘ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur”,** degan hikmatli so‘zlarida chuqur ma’no bor.

Fursatdan foydalaniib, men muhtaram ulamolarimiz, din peshvolarini inson qadrini ulug‘lash, tinchlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan islohotlarimizda **faol bo‘lishga, o‘zlarining ma’naviy fazilatlari bilan boshqalarga o‘rnak ko‘rsatishga chaqiraman.**

Ma’lumki, keyingi yillarda haj, umra ziyoratlariga keng yo‘l ochilayapti. Minglab fuqarolar mana shunday qutlug‘ ziyratlarga borib kelayotganiga hammamiz guvohmiz.

Bu borada ilgari ham aytgan bir fikrimni takrorlamoqchiman: hajga, umraga borib kelgan har bir yurtdoshimiz **ma’naviyat targ‘ibotchisi bo‘lishi**, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerak. Afsuski, hamma joyda ham shunday bo‘lmayapti. Ziyorat bahona o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, manmanlikka berilish kabi bizga yarashmaydigan xunuk holatlar ko‘zga tashlanyapti. Bular albat-ta barchamizni o‘ylantirishi kerak.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi, xususan, **muftiy hazratlari, hurmatli shayx Nuriddin Xoliqnazarovning** diniy ma’rifat sohasida olib borayotgan sa’y-harakatlarini barchamiz qo‘llab-quvvatlaymiz.

Xabaringiz bor, keyingi paytda **korrupsiya va jinoyat-chilikka qarshi kurashish** bo‘yicha tezkor tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zini “**ko‘cha**” deb ataydigan jinoiy guruqlar bo‘ladimi, korrupsiyaga berilgan mansabdar shaxslar bo‘ladimi, kim qonunga bepisand qarab, davlat va jamiyatga zarar yetkazadigan bo‘lsa, biz bunga hech qachon jim qarab turolmaymiz.

Ko‘chalarimiz, mahallalarimiz, hayotimiz tom ma’noda tinch va toza, jinoyatdan xoli bo‘lishi kerak.

Shu munosabat bilan mahalla faollari, hurmatli ayollarimiz va muhtaram nuroniylarimizga, ayniqsa, katta orzu-umidlar bilan hayotga kirib kelayotgan yoshlarimizga murojaat qilib aytmoqchiman.

Azizlarim, tarbiyasi izdan chiqqan noplak kimsalardan ogoh bo‘laylik!

Farzandlarimizni ularning buzg‘unchi ta’siridan asraylik!

Kelajagimizni yovuz kuchlar qo‘liga berib qo‘yishga aslo haqqimiz yo‘q.

Agar barchamiz birgalikda qat’iy harakat qilsak, jamiyatimizda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni mustahkamlashga albatta qodirmiz.

Yangi O‘zbekistonda qonun ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar bo‘lishi shart. Va albatta shunday bo‘ladi.

Ikkinchidan, madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda hokimlarning mas’uliyatini keskin oshirishimiz zarur.

Hududlar rahbarlari bir haqiqatni bilib olsin: sizlarning faoliyattingizga ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan **ishlar sifati va samarasiga** qarab baho beriladi.

Shu yil **noyabr oyida** mening topshirig‘im bilan marказдан borgan mas’ul shaxslar ishtirokida **14 ta** hududda Ma’naviyat va ma’rifat kengashlarining yig‘ilishlari o’tkazildi.

Afsuski, aksariyat hokimlar o‘zlarini rahbarlik qilayotgan hududdagi ma’naviy tarbiya ishlarni o‘z holiga tashlab qo‘yan.

Masalan, **Andijon viloyati Xonobod shahri hokimi Tojiboyevning respublika ishchi guruhiga ochiqdan-ochiq “Ma’naviyat men uchun oxirgi o‘rindagi masala”** deganini qanday tushunish mumkin?!

Yana bir misol, 2021-2023 – yillarda 195 ta tuman va shaharda Ma’naviyat va ma’rifat maskanini barpo etish bo‘yicha manzilli ro‘yxatni tasdiqlagan edik.

Bu borada **Sirdaryo** viloyatida **11 ta, Surxondaryo** viloyatida **15 ta** maskanning barchasi foydalanishga topshirilib, Prezident qarori ijrosi to‘liq bajarilganini qayd etish lozim. Lekin, **ayrim joylarda bu ishlar oxiriga yetkazilmagan.**

Misol uchun, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (**Orinbayev**), Buxoro (**Zaripov**), Toshkent (**Mirzayev**), Andijon (**Abdurahmonov**), Jizzax (**Soliyev**) viloyatlari va Toshkent shahri (**Umurzaqov**)da qaror ijrosi to‘liq bajarilmaganini qanday izohlash mumkin?

Bosh vazir A.Aripov Iqtisodiyot va moliya vaziri J.Qo‘chqorov, Q.Quranboyev hududlar rahbarlari bilan birgalikda bir oy muddatda har bir tumanda Ma’naviyat maskani qurish va uning ta’minoti bilan bog‘liq muammolarni chuqur o‘rganib, ularni reja-jadval asosida ishga tushirish choralarini ko‘rsin.

Ta’kidlab aytmoqchiman: bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o’n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!

Shu maqsadda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan **mutlaqo yangi bosqichga** ko‘tarishimiz lozim.

Yaqinda **Surxondaryo** viloyatida bo‘lgan uchrashuvda ziylolarimiz tomonidan bildirilgan taklif asosida hududlarda faoliyat olib borayotgan **4 ta** sektorga qo‘srimcha ravishda **ma’naviyat sektorini** tashkil etamiz.

Ta’kidlash kerakki, ma’naviyat sektori mahalliy davlat hokimiyyati hamda joylardagi **Ma’naviyat va ma’rifat kengashlarining ishchi tuzilmasi** sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Ushbu sektor faoliyati uchun ma’naviyat va ma’rifat kengashlari rahbarlari, ya’ni **hokimlar shaxsan mas’ul va javobgar bo‘ladi.**

Biz bu tashabbusni kelgusi yili **Surxondaryo viloyatida** sinovdan o'tkazamiz.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (**Hojimatov**) **10 kun muddatda** ma'naviyat sektorining **tashkiliy tuzilmasi** va Nizomini ishlab chiqsin.

2024-yil yanvardan boshlab **respublika seminarini** o'tkazib, **mart oyiga qadar Surxondaryo viloyatida** ushbu sektor faoliyatini **to'liq ta'minlasin**.

Uchinchidan, yoshlarimizni **milliy va umumbashariy g'oyalar asosida** kamol toptirishda **madaniyat sohasi**, xususan, teatr san'atining katta o'rni bor.

Hozirgi kunda mamlakatimizda **40 ta** teatr faoliyat ko'r-satmoqda. Har yili **40 ta** yangi spektaklga davlat buyurtmasi berilmoqda. Buning uchun shu yilning o'zida **15 milliard** so'm ajratildi.

Joriy yilda **teatr va kino dramaturgiyasini** rivojlantirish maqsadida respublika "Nigoh" ijodiy seminari o'tkazildi.

Lekin joylarda madaniyat maskanlari, xususan, teatrlarning ahvoli qanday, hokimlarimiz ularning holidan xabardormi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Agar hozir "Qani, oxirgi bir oyda qaysi teatrga bordingiz, qanday yangi kitob o'qidingiz?", deb so'rasam, o'ylaymanki, aksariyat rahbarlar xijolat bo'lib qolishi mumkin.

Holbuki, **rahbar-yetakchilar ijtimoiy dunyoqarash, madaniy saviya bo'yicha boshqalarga o'rnak bo'lishlari** kerak.

Shu maqsadda, barcha korxona va muassasalarda oyning bir kunini "**Teatr kuni**" deb e'lon qilib, xodimlarning teatrlarga borishini yo'lga qo'ysak, o'ylaymanki, har tomonlama foydali bo'ladi.

Mening o'zim Madaniyat vazirimizga, yaxshi spektakl bo'lsa, vaqt topib, teatrga albatta boraman, deb bir necha marta aytganman. Lekin negadir hozircha ulardan aniq bir taklif bo'lmayapti.

Teatr san'atini rivojlantirish bo'yicha Madaniyat vazirligiga (**O.Nazarbekov**) **bir oy muddatda dastur** ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish vazifasi topshiriladi.

Ushbu dasturda quyidagilar ko'zda tutilsin:

- tarixiy va zamonaviy mavzular bo'yicha **20 ta eng yaxshi pyesa** uchun **ijodiy buyurtma** berish orqali, **dramaturglarga 50 million so'mdan qalam haqi** to'lash tizimini joriy etish;

- **50** nafar ijodiy va yordamchi xodimlarning rivojlangan davlatlar teatrlarida mahorat oshirishini yo'lga qo'yish;

- **yosh rejissyorlarni** qo'llab-quvvatlash uchun **Mannon Uyg'ur nomidagi mukofot** ta'sis etish va g'oliblarni munosib taqdirlash.

Bunga qo'shimcha ravishda **besh yillik dasturga** binoan teatrlar to'liq ta'mirlanib, eng ilg'or texnologiyalar asosida modernizatsiya qilinadi.

Bu ishlarga **Bosh vazir A.Aripov** mas'ul etib belgilanadi.

To'rtinchidan, madaniy dam olish tizimini takomillashtirish, aholining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda mavjud **837 ta madaniyat markazining faoliyati** juda muhim.

So'nggi yillarda yurtimizda **43 ta** madaniyat markazi yangidan qurildi, **344 ta** madaniyat markazida ta'mirlash va jihozlash ishlari amalga oshirildi.

Bugungi kunda madaniyat markazlarida **4 mingga yaqin to'garak** faoliyat ko'rsatmoqda, ularda **120 mingdan ortiq** yoshlar shug'ullanmoqda.

Masalan, **Farg'onona shahar** madaniyat markazidagi **81 ta to'garakka 1000 ga yaqin farzandlarimiz** qamrab olingani e'tiborga loyiq.

Afsuski, hamma joyda ham markazlar faoliyati samarali yo'lga qo'yilmagan.

Respublika bo'yicha **167 ta** madaniyat markazi o'z binosiga ega emas, **283 ta** bino avariya holatida, jami **8 mingta** musiqa anjomiga ehtiyoj mavjud. Oqibatda **4 mingta** mahallada yashayotgan aholi madaniy xizmatlardan foydalana olmayapti.

Endi, bu tizimni tubdan o‘zgartiramiz. Ya’ni, **joylarda-gi madaniyat markazlari uchun hokimlar bevosita javob beradi.**

Kelgusi yildan **har bir tumanda** sahnali zal, kutubxona, kinozal va to‘garak xonalari mavjud bo‘lgan **1 tadan madaniyat markazi** faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Joylardagi **600 dan ziyod** badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo‘yicha dastur qabul qilib, bunga **100 milliard so‘m** yo‘naltiramiz.

Beshinchidan, maqom va baxshichilik san’atini rivojlantirish, mavjud ijro va ijodiy maktablarni, bu boradagi an’analarni ilmiy asosda o‘rganish va qayta tiklash ishlarini yanada kuchaytiramiz.

Hozirgacha **120 ta** maqom, baxshichilik dostonlari, xalq kuyi va qo‘shiqlari “**oltin fond**”ga yozib olindi.

Maqom san’atini rivojlantirish, uni qorong‘ulikdan yorug‘likka olib chiqish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatayotgan san’atkorlarimizga har qancha rahmat aytsak, arziyi.

Xalq og‘zaki ijodi durdonalarini keng targ‘ib etib kelayotgan **baxshilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash** ham e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Madaniyat vazirligi (**O.Nazarbekov**)ga san’atimizning “**oltin fond**”iga kiritilgan mumtoz va estrada musiqa asarlarini, folklor namunalarini raqamlashtirib, **Internetda keng targ‘ib etish** choralarini ko‘rish topshiriladi.

Kuni kecha **nomoddiy madaniy merosni muhofaza qiliш, ilmiy o‘rganish va targ‘ib etishga doir** muhim bir qarorni imzoladim.

Unda jumladan **Madaniyatshunoslik** va nomoddiy madaniy meros institutini tashkil etish, “**Alpomish**” va “**Go‘ro‘g‘li**” dostonlari hamda **Farg‘ona – Toshkent, Xorazm, Buxoro** maqom yo‘llaridagi musiqa asarlarini ilmiy tadqiq etishga **28 ta** maqsadli grant ajratish bo‘yicha vazifalar aniq belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, mamlakatimiz fondlarida saqlanayotgan **3 mingdan ziyod doston, maqom va folklor** asarlarini zamona-
viy formatga o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Yana bir muhim yangilik – maqom, katta ashula, bax-
shichilik, atlas va adres, kulolchilik va zargarlik kabi 12 ta
noyob madaniy meros namunalari bo‘yicha an’analarni davom
ettiradigan maktablar yaratiladi.

Oltinchidan, milliy madaniyatimiz rivojida muhim o‘ringa
ega bo‘lgan **musiqa va raqs san’atini** ravnaq toptirishga qaratil-
gan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Jumladan, “**Bahor” raqs ansamblini bino** bilan ta’mi-
lash bo‘yicha O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi
bildirgan taklifni qo‘llab-quvvatlaymiz. Bundan buyon “Bahor”
jamoasi ilgari Filarmoniya joylashgan mashhur san’at saroyida
faoliyat yuritadi.

Taniqli ashula va raqs ansambllarining xorijga **gastrol**
safarlarini ko‘paytiriladi.

Musiqa va raqs san’ati masalalarini ilmiy o‘rganish, sohada
ilmiy kadrlarni ko‘paytirish maqsadida **ilmiy tadqiqotlar uchun**
grantlar joriy qilinadi.

Shuningdek, **Toshkent davlat sirkisi** binosini ta’mirdan
chiqarish bo‘yicha ham chora-tadbirlar ko‘riladi.

Bu masala bo‘yicha Bosh vazir A.Aripov 1 oy muddat-
da qaror loyihasini kiritinsin.

Yettingidan, xalqaro maydonda o‘zbek madaniy dip-
lomatiyasini rivojlantirish, boy madaniy merosimizni xalqi-
mizga va **xorijiy sayyoohlarga keng tanishtirish** ishlarni yangi
bosqichga ko‘taramiz.

Kelgusi yili Toshkentda **jahon kreativ iqtisodiyotiga ba-**
g‘ishlangan konferensiyanı, Nukusda esa “**Orol madaniyati**”
xalqaro ilmiy anjumanini o‘tkazamiz.

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha **alohida**
qonun qabul qilish ham kun tartibidagi dolzarb masaladir.

Buxoroning tarixiy hududida **2025-yilda** ilk bor **xalqaro tasviriy san'at anjumani** o'tkaziladi.

YUNESKO mezonlari asosida bu qadimiy shaharning **master va menejment rejalarini** ishlab chiqamiz.

Umuman olganda, **2024-yildan** boshlab yurtimizda **madaniyat va san'at festivallari** va boshqa tadbirlarni yangicha yondashuvlar asosida tashkil etamiz.

Barcha festivallarimiz tom ma'noda **O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzini yuksaltirish** va yurtdoshlari-mizning madaniy saviyasini oshirishga xizmat qilishi lozim.

Yana bir masala. Muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha yetti yillik dastur qabul qilinadi.

Eksponatlarni saqlash va muhofaza qilish bo'yicha **barcha muzeylar zamonaviy uskunalar bilan jihozlanadi** va eng noyob eksponatlar markirovka qilinadi.

Innovatsion texnologiyalar asosida **Tarix muzeyi** hamda **San'at muzeyining zamonaviy yangi binolari** barpo etiladi.

Temuriylar tarixi hamda **Tabiat muzeylarining ekspozitsiyasi** yangilanadi. **Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi** kapital ta'mirlanadi.

Bundan tashqari, muzeylarimizda, xususan, **Islom sivilizatsiyasi markazida Birinchi va Ikkinchi Renessans, davlatchilik tarixi** va buyuk allomalar faoliyati bo'yicha **yangi ekspozitsiyalar** tashkil qilinadi.

Fransiya davlati bilan hamkorlikda **Milliy restavratsiya markazi** faoliyatini yo'lga qo'yamiz. Bugungi kunga qadar xorijiy restavratorlar bilan birga **238 ta** madaniy boylik restavratsiya qilindi.

Muqaddas kitob – Usmon Qur'oni sahifalari ham **kon-servatsiya va restavratsiya** qilinadi.

Yurtimizning ko'hna tarixiga bag'ishlangan **18 ta** arxeologiya yodgorligini **ochiq osmon ostidagi muzeyga** aylantiramiz.

Shuningdek, **Samarqandda Sohibqiron Amir Temur**

bog'lari qayta tiklanadi, “**Buyuk ipak yo'li**” muzeyini barpo etamiz va **Bibixonim** majmuasini restavratsiya qilamiz.

Sakkizinchidan, kino sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar davom ettiriladi.

Hozirgi vaqtida “**Tirik tarix**” seriyasida Vatanimizning shonli o't mishiga bag'ishlangan **50 ta badiiy film** yaratish bo'yicha **farmon loyihasi** tayyorlanmoqda.

Shu asosda tarixiy filmlar yaratish dasturi ishlab chiqiladi. Bu dastur ijrosiga nafaqat mahalliy, balki **xorijiy ijodkorlar, kinokompaniyalar** hamda **investorlar** jalb etiladi.

Butun dunyoda kino **nafaqat ijod, balki iqtisodiyot tarmog'i hamdir**. Ushbu ikki yo'nalish o'zaro uyg'un rivojlanishi uchun tegishli ishlarni amalgalash kerak.

B.Zaripov, E.Turdimov, Z.Mirzayev ikki hafta muddatda o'z viloyatlarida “**erkin iqtisodiy kinohududlar**” barpo etish bo'yicha loyihalarni boshlasin.

Vazirlar Mahkamasi (A.Aripov), **Kinematografiya agentligi** (F.Abduxoliquov) tegishli vazirlik va hokimliklar bilan birgalikda 1 oy muddatda yuqorida ko'rsatilgan barcha masalalarini hal qilish bo'yicha qaror loyihasini kiritsin.

Unda, jumladan, buyuk ajoddolarimizning ibratlari hayot yo'li haqida ko'p qismli animatsion filmlar yaratish nazarda tutilsin. Keyinchalik ushbu filmlar qahramonlarini o'ynichoqlar, o'quv daftarlari va boshqa mahsulotlarda aks ettirib, farzandlarimiz ongiga singdirishimiz lozim.

Hozirgi vaqtida dunyo media olamida tele va kino seriallar jadal rivojlanmoqda. Dastlab ko'ngilochar va maishiy mavzularda paydo bo'lgan seriallar bugungi kunga kelib, turli davlat va millatlarning muayyan maqsadlarini targ'ib etish vositasiga aylanib bormoqda.

Savol tug'iladi: xalqimiz televizorni eng ko'p ko'radigan paytlarda, ya'ni, “praym-taym” vaqtida xorijiy serialarga katta o'rin berayotganimiz qanchalik to'g'ri?

Albatta, bularning barchasi oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Jumladan, milliy seriallar ishlab chiqarish bo‘yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish, bu yo‘nalishda ijodkorlarimizni qo‘llab-quvvatlash lozim.

Aynan shu yo‘l bilan milliy seriallarimizni g‘oyaviy-badiiy va texnik jihatdan jozibali, hamma qiziqib ko‘radigan darajaga yetkazish mumkin.

Shu maqsadda “Milliy seriallar ishlab chiqarish konsepsiysi”ni yaratish zarur. Unda, avvalambor, mahalliy ijodkorlarimizga, xususan, ijrochi san’atkorlar, dramaturg va rejissyorlarimiz uchun zamonaviy sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratish o‘rinli bo‘ladi, deb o‘layman.

Buning uchun “IT park” kabi erkin iqtisodiy zona – “Cinema park” tashkil qilish lozim.

Shu munosabat bilan Bosh vazir A.Aripov “Cinema Park” uchun davlat-xususiy sheriklik asosida Toshkent viloyati hududidan 50 hektar yer maydoni ajratish bo‘yicha taklif kirlitsin.

Vazirlar Mahkamasi (Aripov), O.Abdurahmonov, K.Allamjonov 1 oy muddatda “Milliy seriallar ishlab chiqarish konsepsiysi” loyihasini tayyorlab kirlitsin.

To‘qqizinchidan, tasviriy va amaliy san’at sohasini yanada rivojlantirish uchun alohida dastur qabul qilamiz.

Jumladan:

- Markaziy ko‘rgazmalar zali jahon standartlari asosida rekonstruksiya qilinadi va jihozlanadi;

- Chilonzordagi Badiiy fond hududida zamonaviy galereya binosi quriladi hamda **40 ta** ijodiy ustaxonadan iborat **Yosh rassomlar markazi** tashkil etiladi.

Tanlov asosida **20 nafar** iste’dodli yosh rassom va haykaltarosh, san’atshunos va muzeishunoslar xorijiy mamla-katlarga stajirovkaga yuboriladi.

Xattotlik va miniatyura san’ati ta’limini amaliyot bilan bog‘lash maqsadida milliy usulda qog‘oz tayyorlash bo‘yicha o‘quv ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etiladi.

Yana bir muhim masala – madaniyat va san’at sohasida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha **jiddiy o‘zgarish qilishimiz shart**.

Ayni vaqtida respublikamizdagi **323 ta** musiqa va san’at maktabida **14 mingdan** ortiq **o‘qituvchi** va **konsert-meyster** faoliyat yuritmoqda.

Lekin, ularning **oylik ish haqi miqdori umumta’lim maktablari** pedagoglarining maoshidan **1,5 barobar kam**.

Ota-onalar tomonidan to‘lanadigan pullar maktablarning **moddiy-texnik bazasini rivojlantirish** va o‘quvchilarining ijobiy tanlovlarda ishtirokini ta’minlash uchun yetmaydi.

O‘tgan **10 oyda** shunday to‘lovdan tushgan **61 milliard** so‘mning **40 foizi** yoki **25 milliard** so‘mi kommunal xarajatlarga sarflangan.

Qo‘chqorov, Nazarbekov ikki hafta muddatda:

- musiqa va san’at maktablari **muallimlarining oyligini oshirish**;

- ushbu maktablarning communal xarajatlarini byudjetdan qoplash bo‘yicha taklif kirtsin.

Umuman olganda, madaniyat va san’at, kutubxona va muzeylar sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarning **oyliklarini bosqichma-bosqich oshirish** yuzasidan zarur choralar ko‘riladi.

Jumladan, ularning ish haqi 2024-yil 1-apreldan **20 foizza**, 2025-yil 1-yanvardan yana **15 foizgacha** bo‘lgan miqdorda oshiriladi.

Buning uchun davlat byudjetidan 2024-yilda qo‘srimcha ravishda **150 milliard so‘m**, 2025-yilda esa **200 milliard so‘m** mablag‘ yo‘naltiriladi.

Shu bilan birga, madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun yangi yilda qo‘srimcha ravishda **100 milliard so‘m** ajratiladi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Keyingi paytda mamlakatimizda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Ana shu ishlarimizning davomi sifatida umumta’lim maktablarida o‘zbek tilini o‘qitish samarasini oshirish masalasiga bundan buyon ham alohida e’tibor qaratamiz.

Hech shubhasiz, “**O‘zbek tili va adabiyoti**” fani o‘qituvchilari ham xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan boshqa fan o‘qituvchilaridan kam bo‘lмаган miqdorda qo‘sishimcha haq bilan ta’minlanishi kerak. Bu albatta adolatdan bo‘ladi.

Shu maqsadda milliy sertifikatga ega bo‘lgan “O‘zbek tili va adabiyoti” fani o‘qituvchilariga kelgusi o‘quv yilidan boshlab **50 foiz ustama** to‘lanadi. Bu maqsadlar uchun 2024-yilda qo‘sishimcha **10 milliard so‘m** 2025-yilda esa **30 milliard so‘m** ajratiladi.

Shuningdek, boshqa tillarda ta’lim olgan **hamyurtlarimizni** davlat tilini o‘rganishga rag‘batlantirish bo‘yicha ham alohida mexanizmlar joriy etiladi. Xususan, ular bu borada maxsus sertifikatga ega bo‘lsa, **o‘qish xarajatlari davlat tomonidan qoplab** beriladi.

Bundan tashqari, o‘zbek tilidan **boshqa tillarga ixtisoslashgan maktablarda davlat tilini o‘qitish soatlari ko‘paytiriladi**.

O‘zbek tili bo‘yicha ham xalqaro fan olimpiadasini o‘tkazamiz. Olimpiadaning g‘olib va sovrindorlari pul mukofoti bilan taqdirlanadi. Shuningdek, ular mamlakatimiz **oliygohlarining** o‘zbek tili filologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha **davlat granti asosida o‘qishga qabul** qilinadi.

Hurmatli do'stlar!

Jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha boshlagan ishlarimiz davom ettiriladi. Kelgusi yildan milliy va **jahon adabiyotining eng sara namunalarini ko'pming nusxalarda chop etish** va barcha kutubxonalarga yetkazib berish choralari ko'rildi.

Shu bilan birga, har yili eng yaxshi badiiy asarlar yaratish, tarjima qilish uchun ijodiy buyurtmalar berilib, **muallif va tarjimonlarga munosib qalam haqi to'lanadi**.

Yaqinda "**Yoshlar uchun – ming kitob**" loyihasini amalga oshirish bo'yicha alohida qaror qabul qildik.

Unga ko'ra, kelgusi yildan boshlab farzandlarimizga rag'-bat beradigan eng mashhur **ilmiy-ommabop kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilib**, mакtab va kutubxonalarga **bepul tarqatish** yo'lga qo'yildi.

Albatta, bilimdon, zukko olimlarimiz, dunyo madaniyatiga juda katta hissa qo'shayotgan vatandoshlarimiz ko'p. Lekin, afsuski, ular bolalar olamiga yaqin emas.

Vaholanki, dunyoga mashhur olimlarning ko'pchiligi bolalarga atab kitoblar ham yozishgan.

Masalan, **Albert Eynshteyn** o'zining murakkab nazariyasini bolalar uchun maxsus sharhlab, alohida kitob chiqargani ma'lum.

Biz **Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino** deb ko'p gapiramiz. Ammo bolalarimiz ularning qaysi asarini o'qiy oladi?

Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi deymiz, lekin ularning bolalik davrini kim biladi?

Demak, ana shunday allomalarimizning yoshligi haqida kitoblar yozish, yozganda ham bolalarbop qilib yozish kerak.

Fursatdan foydalanib, men o'z sohasida ilmiy maktab yaratgan hurmatli olimlarimizni adiblar va noshirlar bilan hamkorlikda bolalar uchun qiziqarli va sermazmun kitoblar yaratishga chaqiraman.

Bu ishlarni rag‘batlantirish, yangi bosqichga ko‘tarish uchun kelgusi yili mamlakatimizda Xalqaro bolalar adabiyoti ko‘rgazmasini tashkil etamiz.

Yurtimizda kitobxonlik, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, turli yo‘nalish va mavzudagi adabiyotlarni chop etishni ko‘paytirish uchun nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, moddiy-texnik baza-sini mustahkamlash zarur. Shu maqsadda ushbu korxonalar **5-yilga soliqlardan ozod qilinadi**. Shuningdek, ularga imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Albatta, bu zalda o‘tirgan adiblarimiz tarjima san’atining naqadar mashaqqatli ish ekanini yaxshi biladilar. Mana shunday mas’uliyatli mehnatni munosib rag‘batlantirish uchun **ulug‘ shoir va tarjimon Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni** ta’sis etsak, nima deysizlar?

So‘nggi yillarda kutubxonalar faoliyatini rivojlantirishga katta e’tibor berayapmiz.

Ayniqsa, Respublika **bolalar kutubxonasi rekonstruksiya qilinganidan so‘ng bu yerda yangi ma’rifiy hayot boshlandi**, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Mening neveralarim ham shu maskanga katta qiziqish bilan borayapti.

Bu ezgu ishlarimizni davom ettirib, kelgusi yilda **Samarqanddagi bolalar kutubxonasini rekonstruksiya qilamiz**.

Hududlardagi boshqa bolalar kutubxonalarini ham **bosqichma-bosqich** bolajonlarimizning sevimli maskaniga aylantiramiz.

So‘nggi paytlarda **o‘z hisobidan kutubxona barpo etayotgan tashabbuskor insonlar ko‘payib borayotgani** barchamizni mamnun etadi.

Tasavvur qiling, **100 dan** ziyod yurtdoshimiz bunday xayrli ishga qo‘l urgan.

Masalan, Marhamat tumanida tadbirkor **Qobiljon Obidov** **50 mingdan** ziyod kitob fondiga ega, **uch qavatli zamonaviy**

kutubxona tashkil etgan, bu ziyo maskanida **300 mingta** elektron kitob ham mavjud.

Mana shunday insonlar jadidlarning munosib davomchilari, bugungi kun qahramonlari emasmi?

U kishi davlatimizning nufuzli ordeni bilan taqdirlangani ham shundan dalolat beradi.

Biz barchaga ibrat bo‘layotgan bunday yurtdoshlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaymiz.

Asad Xodjayev 1 oy muddatda xususiy kutubxona tashkil etgan aholi vakillari va tadbirkorlarni rag‘batlantirish bo‘yicha **qaror loyihasini** kiritсин.

Bugungi kunda mamlakatimizda **Internet adabiyotini rivojlantirish** ham muhimdir.

Shu maqsadda **internetda “O‘zbek madaniyati” portalini yaratib**, uning tarkibida **Adabiyot, Kino, Tarix, San’at, Folklor portali** kabi platformalarni tashkil etish va doimiy faoliyat yuritishini ta’minlash zarur.

Buning uchun **Shermatov, Abduhalimov, Xodjayev, Sirojiddin Saidov, Hojimatovlar** mas’ul va javobgar etib belgilanadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi **2-yilda** ko‘plab xorijiy mamlakatlarda **yurtimiz olim va ijodkorlarining 150 ga yaqin kitoblari**, folklorimiz namunalari nashr etilgan.

Ayni vaqtida **adabiyotimiz xazinasida dunyoga namoyish etishga arziydigan** asarlar ko‘p.

Bu yo‘nalishda ham ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yib, **chet ellik noshir** va **tarjimonlar** bilan mustahkam hamkorlik o‘rnatish maqsadida **Sirojiddin Saidov, Behzod Yo‘ldoshev** (Fanlar akademiyasi), **Asad Xodjayev** alohida dastur ishlab chiqishi lozim.

Qadrli yurtdoshlar!

Ma'lumki, ko'plab xorijiy davlatlarda **mesenatlik harakati** keng yoyilgan.

Bunday ezgu tajriba bizning hayotimizga ham kirib kela-yotganini albatta olqishlash kerak.

Ma'lumki, **2017-yildagi uchrashuvimizdan so'ng ijodiy tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 70 ga yaqin "Do'stlar klubi"** tashkil etilgan edi.

Qisqa muddatda bu yo'nalishda **85 milliard so'm homiylik yordami** ko'rsatilgan.

Afsuski, keyingi vaqtarda "**Do'stlar klubi**" faoliyati ba'zi yo'nalishlar bo'yicha to'xtab qoldi.

Bosh vazirning menga bergen axborotiga ko'ra, yuqorida zikr etilgan yig'ilishda bu masala ham atroficha muhokama qilinib, **tegishli chora-tadbirlar ko'rilib**.

Shundan so'ng homiylar tomonidan **madaniyat muassasalarini faoliyatini qo'llab-quvvatlash** uchun **38,5 milliard so'm mablag'** o'tkazib berilgan.

Fursatdan foydalanib, madaniyat va san'atimizning sadoqatli do'stlari bo'lgan ushbu tashkilotlarga, ularning mehnat jamoalariga sizlarning nomingizdan, o'z nomimdan tashakkur bildiraman.

Endi bu tajribani doimiy ishlaydigan tizimga aylantirish zarur.

Hozirgi vaqtida matbuot nashrlarining obunasi bilan bog'liq ayrim **muammolar mavjudligini bilamiz**.

2022-yil 27-iyundagi Prezident qarorida byudjet tashkilotlariga "**kutubxona fondi**" xarajatlari orqali davriy bosma nashrlar, ularning **elektron shakli va elektron ommaviy axborot vositalariga** obuna bo'lish uchun mablag' yo'naltirishga ruxsat beriladi, deb ko'rsatilgan.

Demak, **masalaning aniq yechimi bor**. Faqat buni amalga oshirishimiz kerak.

Muhtaram do'stlar!

Albatta, bugungi uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslar **faqat ma'naviyat, madaniyat va ijod sohalari rahbarlariga tegishli emas.**

Bularni – qayerda, qaysi lavozimda ishlamaylik **barchamizga birdek daxldor vazifalar**, deb qabul qilishimiz lozim.

Shu bois, **har bir vazir va hokim o'zining bu boradagi mas'uliyatini chuqur his etishi**, bugun bu yerda ko'tarilgan masalalar bo'yicha amaliy ishlarni boshlashi zarur.

Bosh vazir **A.Aripov** madaniyat va san'atni rivojlantirish bo'yicha ishlarning holatini **har chorakda Hukumat rayosatida tarmoq va hududlar kesimida muhokama qilib boradi**.

O'laymanki, bugungi Kengash yig'ilishi davomida yana ko'p narsalarga oydinlik kiritib olamiz.

Marhamat, endi sizlarning fikrlaringizni eshitishga o'tsak.

YAKUNIY SO'Z

Hurmatli anjuman ishtirokchilar!

Bugun sizlar bilan **ma'naviy-ma'rifiy** ishlar samaradorligini oshirish, **madaniyat, adabiyot va san'at** sohasini rivojlantirish bo'yicha **ochiq gaplashib oldik**.

Bu borada bildirilgan fikrlar, ana shu muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaganingiz, taklif va tavsiyalaringiz uchun **barchangizga chin dildan minnatdorchilik bildiraman**.

Albatta, bugun ushbu zalda aytilgan fikr-mulohaza va tashabbuslarning har biri chuqur o'rganib chiqiladi.

Eng muhim va dolzarb masalalar bo'yicha tegishli **farmon** va **qarorlar** qabul qilib, ularning ijrosini ta'minlash yuzasidan **zarur choralarни ko'ramiz**.

Shu ma'noda, bugungi uchrashuv ma'naviy hayotimizda **yangi islohotlar davrini boshlab beradi**, deb ishonaman.

Hammamiz bir haqiqatni unutmasligimizni istardim.

Hayot bor ekan – jaholat ham, ma’naviy tahdidillar ham bo‘lishi tabiiydir.

Ammo eng xatarlisi – yurt kelajagiga loqaydlik, ezgu qadriyatlarga nisbatan beparvolikdir.

Tinch va farovon hayot qurish uchun avvalo odamlar qalbida bir-biriga hurmat, **xalqqa**, **Vatanga mehr** va ishonch **mustahkam bo‘lishi zarur**.

Mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo‘ygan bugungi kunda **xalqimiz**, **ayniqsa**, **farzandlarimiz** ongida **Vatanga muhabbat**, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg‘usini ku-chaytirishda siz, madaniyat ahlining o‘rningiz va ta’siringiz beqiyosdir.

Sizlar yuksak iste’dod va mahoratingiz, ijtimoiy hayotimizdagи faol ishtirokingiz bilan yangi **Uyg‘onish** davrini barpo etishga albatta munosib hissa qo‘shasizlar, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, sizlarni yaqinlashib kelayotgan yangi – **2024-yil** bilan **chin dildan tabriklab, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat, ijodiy muvaffaqiyatlar tilayman**.

**Doimo sog‘-omon bo‘ling!
Katta rahmat sizlarga!**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING “YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI” KITOBIDAN

MA’NAVIY TARAQQIYOT

Ma’naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbollar

Yangi ma’naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar

Ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi

Yangi O'zbekiston va ma’naviy yangilanish

Ma'rifikatli jamiyat sari

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi

Mening nazarimda, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi – ma’naviyat chirog‘i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg‘otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi.

O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kiringan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma’naviyat shu’lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashashga da’vat etib turishi zarur.

Ma’naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbollar

Biz Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma’naviy-ma'rifiy jabhalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham muhim ahamiyatga ega ekanini yaxshi anglaymiz.

Hammamiz yaxshi tushunamiz, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi - ma’naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot-

ga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz.

Bugungi kunda biz mamlakatimizda inson erkin va farovon yashaydigan ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyat qurish uchun qat'iyat bilan harakat qilmoqdamiz. Qanday qiyinchilik va sinovlarga duch kelmaylik, shu maqsadda boshlagan barcha islohotlarimizni, qabul qilgan dasturlarimizni izchil davom ettirmoqdamiz.

Globallashib borayotgan va ma'rifiy sohada turli tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi dunyoda ma'naviy hayotimizdagи o'zgarishlar dinamikasining tadrijiy rivojlanish darajasi, unga xos umumiyl qonuniyatlarning amalga oshishi va bu bilan bog'liq o'ziga xos milliy xususiyatlarga alohida ahamiyat qaratishimiz darkor.

Ushbu tarixiy zarurat va obyektiv ijtimoiy-siyosiy jarayon O'zbekistonning ma'naviy-ma'rifiy sohadagi bugungi taraqqiyoti va istiqbolini belgilaydigan strategik tamoyillar hamda amaliy faoliyat dasturlarini yaratish va ularni hayotga joriy etishni taqozo etmoqda.

Shu bilan birga, globallashuv va axborot xurujlari, turli buzg'unchi g'oyalar ta'sirida milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarnizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Xudbinlik, ya'ni, faqat o'zini o'yash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo'llar bilan aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirilmoqda.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi tobora ortib bormoqda.

Milliy ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa, "chaqirilmagan mehmon" bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalaramizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ham ko'z yuma olmaymiz.

Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida jamoatchilikning roli su-sayib borayotgani barchamizni tashvishga solishi lozim. Ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf - bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida, desak, bu ham ayni haqiqat.

Korrupsiya, tamagirlik, byurokratiya nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy hayotda ham oyog'imizga bolta urmoqda. Bu illat-larga qarshi keng ko'lamli kurash boshladik. Lekin barchamiz bu xavfga qarshi birgalikda kurashmas, jamoatchilik nazoratini kuchaytirmas ekanmiz, bu muammolardan xalos bo'lolmasligimizni hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Shu sababli, hozirgi vaqtida ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilib, uni yaxshilash, takomillashtirish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishga solishni davrning o'zi talab etmoqda. Jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar shunday asosda yo'lga qo'yilmagani uchun ham ular kutilgan natijani bermayapti.

Hech kimga sir emas, ma'naviyat targ'ibotchisi bo'lish kishidan katta bilim va salohiyat, mahorat va tinimsiz aqliy mehnatni talab etadi. Lekin, afsuski, ko'p yillar ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlarining mehnatini munosib rag'batlantirishga yetarli e'tibor qaratilmadi. Endi ana shu muammoni hal etish vaqtি keldi va biz bu borada muhim qadamlar qo'ymoqdamiz.

Uzlucksiz ta'llim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim va bunda o'sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlari va intilishlarini hisobga olish zarur. **Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ana shu qoidaga amal qilinmayapti.**

Bu borada bog'cha, maktab, oliy ta'llim, mahalla tizimining har biri alohida ish olib borayotgani, ya'ni, o'zaro hamkorlik va uyg'unlikni to'la-to'kis ta'minlashga erishilmagani ishimizning samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar

tizimining ahamiyati katta. Afsuski, hozirgi vaqtida bu fanlar rivoji, ular mansub ilmiy-amaliy va ta'lim-tarbiyaviy tizimni yangilash va optimallashtirish jarayoni zamondan ortda qolmoqda.

Ayni paytda ijtimoiy fanlarni ta'lim bosqichlari va ixtisosliklar talablari va tamoyillariga mosligi, o'quvchilar, bakalavrlar va magistrlerning ehtiyojlari va qiziqishlari, kasb xususiyatlariga muvofiqligi haqidagi aniq tasavvurlar ham yo'q.

Bugun aholi, ayniqsa, yoshlarimizga zamonaviy ta'lim - tarbiya bilan birligida, qon-qonimizga singgan muqaddas dinimizning mohiyatini to'g'ri tushuntirib berishimiz, ularni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash haqida jiddiy o'ylashimiz lozim.

Taassufki, bu masalaga o'z vaqtida jiddiy e'tibor berilmagan tufayli yoshlar o'rtasida radikal oqimlar, yot g'oyalar ta'siriga tushish holatlari uchrab turibdi.

Yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib beryapmiz, katta-katta lavozimlarni ularga ishonib topshiryapmiz. Ularda bilim bor, iste'dod bor, lekin, ayrimlari milliy zamin, milliy ma'naviyatimizdan uzoqlashib ketgani sezilib qolmoqda. Ular o'zları o'qib kelgan xorijiy davlatlardagi tajribani tez va shoshilinch amalga oshirmoqchi bo'lyapti. Ammo, bunday natijaga o'sha davlatlar necha yuz yillar davomida erishgani haqida o'ylab ko'rmayapti.

Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy "aql markazlari"mizni shakllantirishni talab etmoqda. Lekin, afsuski, dunyodagi, yon-atrofimizda kechayotgan siyosiy - ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta'sirchan va ommabop shaklda yetkazib beradigan tahvilchi va ekspertlarimiz juda kam.

Targ'ibotning ilmiy asoslangan zamonaviy texnologiyalari va yangi shakllarini, tahdidlarga qarshi samarali kurash usullarini ishlab chiqadigan vaqt keldi, deb hisoblayman. Takror aytaman, ilmgan asoslanmagan sohaning kelajagi bo'lmaydi.

Ma'naviy targ'ibotni to'g'ri yo'lga qo'yishda ommaviy axborot vositalarining qanday katta ta'sir kuchiga ega ekanini, o'laymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz. Ammo, bu kuchdan hamma vaqt ham samarali foydalana olmayapmiz.

Ma’naviyatsizlik va g‘oyasizlik har qanday jamiyatni tanaz-zul sari yetaklashi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlan-tirishi, korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning ildiz otishiga sabab bo‘lishi bilan bog‘liq misollarni insoniyat tarixidan ko‘plab keltirish mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, mustaqillikning oldingi bosqichlariga xos konsepsiylar va dasturlarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalar, xavfsizlik va tashqi siyosat masalalari yetarli-cha o‘rin egallaydi.

Ammo ularda negadir ma’naviy-ma’rifiy sohalar, ushbu yo‘nalishdagi islohotlar bilan bog‘liq serqirra jarayonlar yetarli-cha o‘z aksini topmagan.

Natija esa ma’lum, ya’ni bugungi kunga kelib ma’naviy so-hadagi voqelik va jarayonlarni huquqiy tartibga solish ishlarini yangi bosqichga ko‘tarish va bunda zamon talablarini, Yangi O‘zbekistonning mustahkam poydevorini qo‘yish ehtiyojlarini hisobga olish zarurati yetilgan.

Shu munosabat bilan mamlakatimizning keyingi davrga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida albatta ma’naviy-ma’rifiy islohotlarga alohida bo‘lim ajratilishi darkor, deb hisob-layman.

Istiqlolda bu sohada amalga oshirishimiz kerak bo‘lgan faoliyat ko‘لامи va salmog‘i, ahamiyati va yo‘nalishlari, bu jabhada ham natijadorlikka erishish zarurati **O‘zbekistonning 2022-2032 – yillarga mo‘ljallangan ma’naviy taraqqiyot strategiyasini** ishlab chiqishni va uni davlat siyosatining tarki-biy qismiga aylantirishni talab qilmoqda.

Bu muhim vazifa, o‘z navbatida, ilm-fan, madaniyat va san‘at, adabiyot va badiiy ijodiyot sohalarining ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotdagi ta’sirchanligini yanada oshirishga doir qo‘sishmcha chora-tadbirlarni taqozo etmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish nuqtai nazaridan bunday jarayon jamiyat ma’naviy hayotining bir bosqichidan ikkinchi-siga o‘tish davri bo‘lib, bu boradagi o‘zgarishlarning bir sifat va

mazmundan ikkinchi sifat va mazmunga aylanishi bilan bog‘liq ishlarni tizimli va yanada samarali bajarishimiz lozim.

Hozirgi globallashuv davrida, inson ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan bir paytda turli g‘oyaviy tahdid va xurujlar jamiyatimizning ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatishning kuchli quroli sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bunday murakkab vaziyatda ana shunday bosimga dosh bera oladigan jamiyatni shakllantirish uchun quyidagilar hayotimizning zaruriy talablariga aylanmoqda:

- turli ma’naviy buzg‘unchilik va vayronkorlik harakatlari va xurujlarining oldini olish, aholi, ayniqsa, unib-o‘sib kelyotgan yoshlarmizda ularga nisbatan ma’naviy immunitetni shakllantirish, ezgu g‘oyalarni targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratish;

- jaholat, umumiy saviyaning pastligi buzg‘unchi g‘oyalarga ishonuvchanlik va ularning ta’siriga berilish holatlarini bartaraf qilish uchun puxta ishlangan va zamonaviy ijtimoiy fan yutuqlariga tayanadigan ma’naviy ta’lim-tarbiyaning izchil amalga oshirilishiga erishish;

- bu borada ta’lim bosqichlari, ma’naviyat va ma’rifat tizi-mi uchun zarur o‘quv va amaliy dasturlar tuzish va ularni joriy etish;

- aholining ma’naviy-ma’rifiy savodxonligini yangi bosqicha ko‘tarish, ushbu yo‘nalishdagi ta’lim-tarbiya ishlari ko‘lamini aniqlash, bu boradagi samarali faoliyat mexanizmini yaratish;

- axborot xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha olib borilayotgan faoliyatni takomillashtirish;

sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlari dan samarali foydalanish.

Biz Yangi O‘zbekistonni yetuk ma’naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz lozim.

Faqat jismoniy jihatdan baquvvat insonni tarbiyalash unchalik qiyin emas. Ammo **insonni ham jismoniy, ham ma’naviy**

jihatdan kamol toptirish g‘oyat murakkab vazifa. Ayniqsa bugungi kunda - mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pin-hona tus olgan nozik, qaltis sharoitda, hozirgi tahlikal zamonda bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega.

Biz taqdim etayotgan strategiyaning maqsadi milliy o‘ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o‘tgan an’analarimizni, iymоне’тиқод bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab qolish, ham yuksaltirishga qaratilgandir.

Shu munosabat bilan “**Yangi O‘zbekiston - ma’rifatli jamiyat**” konsepsiysi va uni amalgalash oshirish milliy dasturi ishlab chiqiladi. Bu, avvalo, milliy-g‘oyaviy asoslarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning ma’naviy yuksalishiga erishish deganidir. O‘z navbatida, bu jamiyat a’zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasini va dunyoqarashini kengaytirish va boyitishni anglatadi.

Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalgalash oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash - davr talabidir.

Shu maqsadda ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyot va badiy ijod sohalarining ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotdagi ta’sirchanligini yanada oshirishga qaratilgan dasturlar qabul qilamiz. Ijodkor ziyolilarga doimiy e’tibor qaratish, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash va ko’llab - quvvatlash borasidagi ishlarni ma’naviy-ma’rifiy sohadagi siyosatimizning muhim yo‘nalishlari deb bilamiz.

Madaniyat va sport muassasalari, teatr va muzeylarning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash bo‘yicha maxsus dasturlar amalgalash oshiriladi. Milliy kino va kutubxonalar tizimini yanada rivojlantiramiz. Mamlakatimiz hududlarining madaniy yuksalish, xalq hunarmandchiligini qo’llab-quvvatlash bo‘yicha aniq va samarali chora-tadbirlar belgilanadi.

Yangi ma'naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqaror taraqqiyot va xalqlarning tadrijiy rivojlanishiga raxna soladigan turli tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat bilan bog'liq masalalar tobora dolzarblastib bormoqda.

Bu, o'z navbatida, yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratish jarayonida eng rivojlangan jamiyatlar talabiga javob beradigan, erkin va hur fikrli, zamonaviy va innovatsion ma'naviy makonni shakllantirish zarurati nihoyatda muhim masalaga aylanayotganidan dalolat beradi.

Yangi ma'naviy makon nima? Mening nazarimda, u - biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir.

Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan odob-axloq qoidalarining butunlay yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish g'oyat birlamchi vazifamizdir.

Avvalambor, "ommaviy madaniyat" ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahidilar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlарimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz.

Jamiyatimizda sog'lom fikr, sog'lom kuch ustuvor bo'lishi uchun biz ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlарimizni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o'yashimiz, faol ish olib borishimiz zarur.

Ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning tahlili ular aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotganini ko'rsatmoqda.

Barchamiz guvohmiz - bugun dunyo misli ko'rilmagan sur'atlar bilan keskin o'zgarib bormoqda. Ijtimoiy hayotimizda ko'plab ijobjiy jarayon yuz bermoqda. Ayni vaqtida odamlarning qalbi va ongini egallahsha qaratilgan ma'naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda.

Afsuski, bugungi kunda ma'naviy ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqot ishlari mamlakatimizdagi yangilanish sur'atlari, jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar va keng qamrovli islohotlarimiz talablaridan ortda qolmoqda.

Xalqimizning tinchligi, jamiyatimiz barqarorligi, umuminsoniy, milliy va diniy qadriyatlarimizga qarshi qaratilgan, milliy o'zligimizni, xalqimizning asrlar davomida shakllangan hayot tarzini barbod qilishga yo'naltirilgan tahdidlarga qarshi kurashishning samarali usul va vositalarini ishlab chiqish, qo'llash ishlari ham talab darajasida emas.

Ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, global internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan buzg'unchi g'oyalar, g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi "jozibador" tasvirlar va media mahsulotlar tarqali-shining oldini olishga qaratilgan ishlarning natijadorligi sezilmayapti.

Shu sababli biz **mamlakatimizda ma'naviy tarbiya tizimi ning yangi strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishimiz kerak.**

Bugungi kunda dunyoning juda ko'p mintaqalarida insoniy qadriyatlar yemirilmoqda. Ayniqsa, pandemiya sharoitida ayrim o'lkalarda betoqatlik, tajovuzkorlik kayfiyatları kuchayib bormoqda. Mana shunday keskin vaziyatda, ulug' mutafakkirlar aytganidek, **dunyonи ezzulik, mehr-shafqat, insoniylik qutqaradi.**

Ma'lumki, karantin davrida barcha madaniy-ko'ngilochar tadbirlarni to'xtatib turishga majbur bo'ldik. Albatta, bu odamlar ruhiyatiga salbiy ta'sir etganini inkor etib bo'lmaydi. Mana

shunday sharoitda xalqning ko‘nglini ko‘tarish - san’at ahlining muqaddas burchidir.

Yoshi ulug‘ insonlar yaxshi biladi, ilgari teatrlar chekka qishloqlargacha gastrolga chiqib, tomosha ko‘rsatardi. Bu uch-rashuvlar haqiqiy bayramga aylanib ketardi. O‘sha an’analarni davom ettirish zarurligiga, xalqimiz o‘rtasida bunga ehtiyoj katta ekaniga joylarda aholi vakillari bilan muloqot paytida ko‘p marta ishonch hosil qilmoqdamiz.

Ma’naviy targ‘ibotni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda ommaviy axborot vositalarining qanday katta ta’sir kuchiga ega ekanini, o‘yaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz. Ammo, afsuski, bu kuchdan hamma vaqt ham samarali foydalana olmayapmiz.

Mana, o‘zingiz ko‘rib turibsiz, biz jamiyatimizda demokratiya, ochiqlik, oshkoraliq, erkinlik muhitini yaratyapmiz va bu yo‘lni qat‘iy davom ettiramiz, so‘z va ijod erkinligini ta’milash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish masalasi bundan buyon ham doimo e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Faqat axborot maydonida faoliyat ko‘rsatayotgan jurnalist va blogerlardan iltimosimiz shuki, bu borada qabul qilingan qonun talablari hammaga birdek barobar ekanini esdan chiqarmaslik zarur.

Unutmaslik kerakki, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarning o‘z vaqtida berib borilishi ayrim kimsalar tarqatayotgan yolg‘on ma’lumotlarning oldini oladi. Buning uchun vazirlik va idoralarda tashkil etilgan axborot xizmatlari faoliyatini yanada kuchaytirish lozim.

Hurmatli ziyorolarimiz mamlakatimizning bugungi nafasi, tub o‘zgarishlarning mazmun-mohiyatini xolis va ta’sirchan tarzda xalqimizga yetkazishda yanada faol va tashabbuskor bo‘ladilar, deb ishonaman.

Alovida ta’kidlab aytmoqchimanki, agar kimki ma’naviyat masalasi - bu faqat Ma’naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o‘ylasa, katta xato qiladi. Bularning hammasi davlatimiz va jamiyatimizning, barcha rahbarlarimiz,

bizning ishongan tog‘imiz bo‘lgan ilg‘or ziyyolilarimiz, barcha-barchamizning eng asosiy va muhim vazifamizdir.

Bu haqiqatni hammamiz chuqr tushunib, o‘z faoliyatimizni shu asosda olib borsak, men ishonaman, ma’naviy-ma’rifiy sohada o‘z oldimizga qo‘ygan vazifalarni albatta muvaffaqiyatladi etamiz. Va bu natijalar boshqa sohalardagi yutuqlarimiz uchun ham, mamlakatimiz taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun ham mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, shu yo‘nalishdagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini yanada oshirishimiz zarurligi davr talabiga aylanib bormoqda.

Ayni paytda ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish masalalari yanada dolzarblastashmoqda.

Yaqin yillarda mamlakatimizda yangi ma’naviy makonni va xalqimizning yangi tafakkurini shakllantirish bo‘yicha ishlar samarasini yuksak darajaga ko‘tarish va bu boradagi faoliyat tizimini yanada takomillashtirish uchun **quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:**

- ma’naviyat va ma’rifat sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, keng ko‘lamli islohotlarning mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish ishlarini samarali va tizimli tashkil qilish;

- oila, mahalla, ta’lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma’naviy muhitni o‘rganish va sog‘lomlashtirishga qaratilgan faoliyatni tizimli tashkil etish, “mahalla-tuman-viloyat-respublika” prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni optimallashtirish xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;

- **“Jaholatga qarshi - ma’rifat”** g‘oyasi asosida jamiyatda

uzluksiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo‘nalishlari, ta’sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish va ularni o‘z vaqtida amalga oshirish choralarini ko‘rish;

- aholi, ayniqsa, yoshlarimiz ongiga salbiy ta’sir etuvchi, ularni g‘oyaviy jihatdan qaram qilishga yo‘naltirilgan harakat-larga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o‘z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo‘yicha har bir yil uchun aniq chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

- oilaviy qadriyatlarga bepisand va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsiz qarash kabi illatlarga barham berishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, om-maviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

- geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, nar-kobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

- aholining ijtimoiy-ma’naviy hayotida diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash, islom dini va falsafasiga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tizimli amalga oshirish;

- ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir xorijiy tajribani o‘rganish, shuningdek, bugungi mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash asosida butun mamlakatimiz miqyosidagi faoliyat samarasini oshirishga erishish;

- maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliv ta’lim tizimi, mahalla va boshqa tuzilmalar kesimida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning monitoringini olib borish, aniqlangan muammolarni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tarbiya texnologiyalari, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

- ma’naviy tarbiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni tashkil etish, ularning natijalarini amaliyotga samarali tatbiq qilinishini ta’minalash, bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirishni yangi bosqichga ko‘tarish;

- targ‘ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish tartibini yaratish va uni amaliyotda qo‘llash mexanizmini takomillashtirish;

- ma’naviy barkamol avlodni shakllantirishda oila, ta’lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlikni o‘rnatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tizimli joriy etish.

Ma’naviy-ma’rifiy sohadagi turli faoliyat shakllari samarasini oshirish orqali jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish, ushbu shiddatkor jarayonni yanada optimallashtirishga alohida ahamiyat qaratish darkor.

Aholi o‘rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish bilan bog‘liq vazifalar ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalikka mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlarga hamda insonparvarlik g‘oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ‘ibot ishlarini olib borish ham diqqatimiz markazida bo‘ladi, albatta.

Ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi

Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifikatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, mamlakatimizdagi mavjud uzlusiz ta'lim tizimi aholimizning beshdan bir qismini qamrab olgan. Ushbu tizim qamrab olgan bolalar va o'smirlardan tashqari, aholining katta qismi orasida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarining tizimli yo'lga qo'yilishi va bu borada yuksak samaradorlikka erishish o'tkir zaruratga aylanmoqda.

Shuning uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yagona tizimi ni yaratish, unda har bir mas'ul idoraning vazifasi va bиргаликда amalga oshiradigan chora-tadbirlarini aniq belgilab qo'yish zarur.

Yana bir muhim masala. Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash hokimlar - hududiy kengashlar raislarining doimiy e'tibor markazida bo'lishi shart.

Ma'naviy targ'ibot ishlarini har bir mahallada, ta'bir joiz bo'lsa, mahallabay usulida tashkil etmas ekanmiz, bu borada aniq natija bo'lmasligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Bunda har bir mahallaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, amalga oshiradigan ishlarimizni aniq belgilab olishimiz va jamoatchilik bilan bиргаликда ish olib borishimiz kerak.

Bu borada, ayniqsa, "**Bir ziyoli - bir mahallaga ma'naviy homiy**" tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o'qituvchilar va taniqli ziyyolilarning jalb etilayotgani, ularning bu ishga mas'uliyat va kuyunchaklik bilan yondashishiga erishish muhim ahamiyatga ega, deb o'ylayman. Oliy ta'lim muassasalari rektorlari joylardagi hokimlar bilan bиргаликда bunday jonkuyar dom-lalarni munosib rag'batlantirib borish choralarini ko'rishi kerak.

Biz “**Har bir nuroniy - besh nafar yoshga murabbiy**” tamoyili bo‘yicha muhtaram oqsoqollarimiz, kayvoni onaxonlarimizni tarbiyasi og‘ir, ma’naviy ko‘makka muhtoj, uyushmagan, ishsiz yoshlarga biriktirib qo‘yishga qaratilgan ibratli tashabbusni ko‘llab-quvvatlashni davom ettiramiz.

Albatta, katta tajribaga ega bo‘lgan nuroniyalarimiz o‘zlarining hayotiy o‘gitlari bilan yoshlarmizga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatsa, buning foydasi katta bo‘ladi. Ana shu ishlarni amalga oshirish uchun “**Ma’naviy-axloqiy tarbiya dasturi**”da ta’lim tizimi, mahalla, nuroniy, xotin-qizlar, yoshlar hamda boshqa davlat va jamoat tashkilotlarining vazifasi aniq belgilab qo‘yilayotgani kutilgan natijani beradi.

Biz yoshlarmizni haqiqiy vatanparvarlik, azm-u shijoat, mardlik va jasorat ruhida tarbiyalashda muhtaram ziyorolarimiz, faol va fidoyi olimlarimiz hamda ijodkorlarimizning yordamiga tayanamiz. Ayniqsa, buyuk sarkarda bobolarimizning hayoti va jangovar faoliyati, harbiy merosini o‘rganish hamda yoshlarmiz o‘rtasida targ‘ib etish katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi taniqli olim va ijodkorlarni jalb etgan holda, “**Buyuk sarkardalarimizning jasorati va harbiy merosi**” turkumida tarixiy-badiiy risolalarni tezroq tayyorlab, ko‘proq adadda nashr etishni yo‘lga qo‘yishi lozim.

Milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarmiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati katta. Afsuski, hozirgi paytda bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo‘lgan tarix fani ham bundan mustasno emas.

Tarixga oid ilmiy-tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publisistik usulda olib borilmoqda. Natijada olis va yaqin o‘tmishimizdagи ko‘pgina voqealarning mazmun-mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda.

Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak, milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarmizga milliy ruhda

yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi.

Ma'lumki, el-yurtimiz o'zining qadimiyo o'tmishi davomida qancha-qancha unutilmas voqealarni, turli sinov va qiyinchiliklarni, zafarli davrlar bilan birga, fojiali kunlarni ham boshidan kechirgan. Lekin bir haqiqatni ta'kidlash kerakki, Vatanimiz huddida mavjud bo'lgan har bir davlatchilik tuzumi, har qanday ijtimoiy jarayon - u g'alaba yoki mag'lubiyat bo'ladimi, yuksalish yoki tanazzul bo'ladimi - barcha-barchasi xalqimiz bosib o'tgan murakkab tarixiy yo'lning uzviy va ajralmas qismidir. Shuning uchun ham **biz tariximizning barcha bosqichlarini yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o'rganishimiz zarur.**

O'tmishdagi yutuq va g'alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag'lubiyatlardan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o'zining taraqqiyot yo'li va kelajagini to'g'ri belgilay oladi.

Biz yoshlارимизни tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun, avvalo, **O'zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini** samarali amalga oshirishimiz lozim.

O'zbek tilining davlat tili maqomini amalda kuchaytirish, xorijda va yurtimizda uni o'rganish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish - dolzarb vazifadir.

Xalqimiz, ayniqsa, yoshlар o'rтasida kitobxonlik darajasini oshirish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirishimiz zarur.

Albatta, keyingi yillarda "**Besh muhim tashabbus**" doirasida bu yo'nalishda ko'p ishlarni amalga oshirdik. Lekin bugun ularni yangi bosqichga ko'tarishni vaziyatning o'zi talab etmoqda.

Yoshlаримизга zamonaviy ta'lim-tarbiya bilan bиргаликда, qон-qонимизга singgan muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini to'g'ri tushuntirib berishimiz, ularni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash haqida jiddiy o'ylashimiz lozim.

Afsuski, bu masalaga o‘z vaqtida jiddiy e’tibor bermaganimiz tufayli yoshlar o‘rtasida radikal oqimlar ta’siriga tushish holatlari uchrab turibdi.

Dunyoga buxoriylar, beruniylar, termiziylar, moturidiylar, xorazmiylardek buyuk alloma va aziz-avliyolarni bergen jonajon Vatanimiz yoshlari ulug‘ ajdodlariga munosib bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur.

Biz mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun avvalo uning beshta muqim ustuni va halqasini belgilab oldik. Shu halqaning eng muhim bo‘g‘ini, hech shubhaisiz, ijodkor ziyolilarimiz, xususan, ma’naviyat vakillaridir. Ular jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirishga xizmat qilayotgan hayotbaxsh g‘oyalarni amalga oshirishda barchaga, ayniqsa, yoshlarga o‘rnak bo‘lishlari zarur.

Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandaqina odobli, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash, tafakkur va zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Biz ilm-ma’rifatni keng ma’noda tushunamiz. Shu sababli yurtimizda dunyoviy ta’lim dargohlari bilan birga diniy mакtab va madrasalar, ilmiy-ma’rifiy markazlar tashkil etilmoqda. Xususan, Toshkent shahrida ko‘p asrlik ma’rifat xazinasini o‘zida mujassam etadigan, fundamental tadqiqotlar olib boriladigan “**Islom sivilizatsiyasi markazi**” bunyod etilayotgani buning yaqqol misolidir.

Haqiqatan ham, hozirgi vaqtida yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda. Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta’lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilik dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur.

Yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda, ilmiy-texnologik talablarni hisobga olib isloq qilish, takomillashtirish borasida

olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy va ma’naviy asosda shakllantirishni taqozo etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o’rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarish va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarish darkor.

Ushbu yo‘nalishdagi ishlarimiz samarasini oshirish uchun yana ko‘plab tadbirdirlarni amalga oshirish zarur.

Jumladan:

- ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda, avvalo, bo‘lajak va yosh onalarga e’tiborni kuchaytirish;
- bolalarni go‘dakligidan boshlab yuksak ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo‘yicha eng muhim yo‘nalishlarni belgilash;
- yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mustahkam iroda, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibat, mas’uliyat, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish.

Navbatdagi dolzarb vazifa - joylarda, xususan, mahallalarida, xotin-qizlar o‘rtasida olib borilayotgan ma’rifiy-tarbiyaviy ishlar samaradorligini kuchaytirish bilan bog‘liq.

Shu ma’noda, necha yuz yillik tarix va madaniyatimiz, milliy o‘zligimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan muqaddas dinimizni asrash, ajdodlarimizning bebaho ma’naviy-ma’rifiy merosini o‘rganish va targ‘ib etish biz uchun doimiy kun tartibida turadigan muhim masala bo‘lib qolmoqda.

Buning uchun, takror aytaman, jamiyatimizni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tаддиқотларни, tahliliy va targ‘ibot materiallarini tayyorlash usulini, ularning

metodologik asoslarini tubdan qayta ko‘rib chiqishimiz zarur. Muxtasar aytganda, biz butun jamiyatdagi ma’rifat tizimini, ta’lim muassasalarini chinakam ma’naviyat va madaniyat o‘chog‘iga, barkamol avlodni tarbiyalash maskaniga aylantirish uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Yangi O‘zbekiston va ma’naviy yangilanish

Bugungi global makonda, o‘zaro raqobat, turli siyosiy, iqtisodiy, g‘oyaviy qarama-qarshiliklar nihoyatda kuchaygan hozirgi sharoitda yosh avlod tarbiyasining o‘rnini va ahamiyati har qachongidan ham ortib borayotgani hech kimga sir emas.

Dunyodagi raqobatga bardoshli, jahon maydonida o‘z o‘rniga ega bo‘lishga intilayotgan har bir xalq shu masalalar haqida jiddiy o‘ylaydi, bu borada amaliy choralarни ko‘radi. Aks holda, u hech shubhasiz, xalq va millat sifatida o‘zligini boy beradi.

Oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalgalashda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani uzluksiz rivojlantirishimiz zarur.

Sir emaski, hozirgi vaqtida aksariyat odamlar “mafcura” degan so‘zga biroz hadiksirab qaraydi, uni demokratik jamiyatga begona deb hisoblaydi. Lekin biz **mafcura** deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz.

Shu munosabat bilan ta’kidlab aytmoqchiman: biz barpo etayotgan **Yangi O‘zbekiston mafkurasi avvalo insonparvarlik, ezungilik va bunyodkorlik mafkurasi bo‘ladi.**

O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi jarayonlari milliy g‘oya va ma’naviy yangilanish yo‘nalishida ham jamiyat va davlatimiz rivojining yangi bosqichi boshlanganidan dalolat beradi.

Afsuski, mazkur jabhada olib borilayotgan muayyan ishlar bilan birga, bir qator muammolar ham ko‘zga tashlanmoqda.

Murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarning salbiy ta’siri ortib, odamlarning ongi va qalbi uchun kurash kuchayib

borayotgan bugungi kunda yurtimiz sarhadlari va mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini **g‘oyaviy himoyalash** ishlari zamon talablari, islohot va yangilanishlar sur’atidan ortda qolmoqda va bu tashvishli hol, albatta. Ushbu masalalarni o‘rganish borasidagi ilmiy tadqiqotlar esa, tor doirada amalga oshirilmoqda. Ularning ba’zilari hozirgi hayot voqeligi va uning talablari dan uzilib qolgani, ayrimlarining natijalari amaliyotga sust joriy etilayotgani ham kutilgan samarani bermayapti.

Shu bilan birga, fikrlar xilma-xilligi sharoitida, aholining turli tabaqalari vakillarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli yangilanish va islohotlar samarasini ta’minalash uchun zarur bo‘lgan, milliy g‘oya asosidagi umumiy yondashuv va tasavvurlar yetarlicha shakllanmagan. Turli mafkuraviy poligonlar ta’sirida yuz berayotgan xatarli jarayonlar mohiyatini anglash darajasi pastligi, bu haqda zarur bilim va yaxlit tasavvurnuring shakllanmagani esa, ushbu yo‘nalishdagi tahdidlarga qarshi kurash va jamiyatimizni g‘oyasizlashish xavfidan saqlashga qaratilgan ishlarni takomillashtirish vazifasini o‘rtaga qo‘ymoqda.

Shuningdek, milliy g‘oya targ‘iboti va **mafkuraviy profilaktikaning zamonaviy usul va vositalari** ta’sirchanligini ta’minalaydigan, azaliy qadriyatlarimiz, xalqimizning asrlar davomida shakllangan hayot tarzini barbod qilishga yo‘naltirilgan buzg‘unchi g‘oyalari va yot mafkuralarga qarshi faoliyatni hozirgi davr talablari darajasida tashkil etishga yordam beradigan samarali mexanizm shakllanmagan. Fuqarolar ongi va tafakkuridagi sifat o‘zgarishlarining islohotlar sur’atlari va ehtiyojlariga hamohangligini ta’minalashga mas’ul davlat tashkilotlari, fuqarolik institutlari, OAV va xususiy sektor faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilishning ta’sirchan tizimi mavjud emasligi esa bu sohadagi ishlarimizning qoniqarsizligini ko‘rsatmoqda.

Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda vatanparvarlik tarbiyasi, xalqimizning ezgu ideallari va olijanob maqsadlariga sadoqat g‘oyalari shior da-

rajasidagina qolib, milliy g‘oyaning jahon tajribasidan o‘tgan umuminsoniy qonuniyatlari va O‘zbekistonga xos zamonaviy tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlari joriy etilmagan. Yurtimizdagi yangilanish jarayonlari va islohot-larga daxldorligini chuqur his qiladigan, mamlakatimizning eng rivojlangan davlatlar qatoriga kirishidagi o‘z o‘rni va ishtirokini teran anglaydigan, bu yo‘lda **faol fuqarolik pozitsiyasiga**, kreativ va innovatsion tafakkurga ega bo‘lgan zamonaviy shaxslarni tarbiyalashning **konseptual asoslari va amaliy faoliyat mezoni-lari** ishlab chiqilmagan. Bu esa sohada jiddiy bo‘shliq mavjudligini yana bir marotaba isbotlamoqda.

Yana bir muhim jihat. Jamiyat hayotida dunyoviy va diniy omillar o‘rtasidagi sog‘lom muvozanatni to‘liq ta‘minlashga yordam beradigan, kuchli tarbiyaviy salohiyatga ega va xalqimiz ma’naviyatini asrlar mobaynida mustahkamlashga xizmat qilib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar, azaliy an’ana va urf-odatlarning qadrsizlanishiga, **deideologizasiyaga yo‘l qo‘yish hollari** uchramoqda. Dunyoqarashi keng, ma’nan barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladigan **g‘oyaviy tarbiya me-xanizmining** ta’siri kamaygani sezilmoqda. Jumladan, uzlusiz ta’lim tizimida milliy g‘oya turkumidagi fanlarga yetarlichcha e’tibor berilmayotgani yosh avlod qalbi va ongida mustahkam **mafkuraviy immunitetni shakllantirish** bo‘yicha ishlarning samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda.

Shu jihatdan, jahoning eng ilg‘or mamlakatlari allaqachon o‘tgan va samarali tajriba to‘plagan, ularning taraqqiyotiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan g‘oyaviy yangilanish bosqichining O‘zbekistonga xos quyidagi ustuvor yo‘nalishlari va dolzarb vazifalariga alohida e’tibor qaratishimiz kerak:

- mamlakatimizning yangi, demokratik qiyofasini yaratishda g‘oyaviy-ma’naviy omillar ta’sirini oshirish;
- jamiyatimizda yangi ma’naviy makonni barpo etish hamda xalqimizda dunyoviy tafakkur tamoyillarini kuchaytirish;
- turli tahdidlarga bardoshli davlat va rivojlangan fuqarolik jamiyati qurishning mafkuraviy tamoyillarini mustahkamlash;

- turli tahdidlarga bardoshli davlat va rivojlangan fuqarolik jamiyati qurishning masifikatoriy tamoyillarini mustahkamlash;

Takror aytishga to‘g‘ri keladi, bugungi kunda dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda. Jahonda manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari bashariyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortib bormoqda. Dunyodagi ayrim siyosiy markazlar tomonidan ba’zi hududlarda sun’iy ravishda beqaror vaziyat yuzaga keltirilmoqda, norozilik kayfiyatlar avj oldirilmoqda. Ayniqsa, bugun tobora chuqurlashib borayotgan global iqtisodiy inqiroz turli fitnalar uchun yanada kulay sharoit yaratishini unutmasligimiz lozim.

Mana shunday o‘ta tahlikali sharoitda hammamiz sezgir va ogoh bo‘lishimiz, avvalo, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini, milliy manfaatlarimizni o‘ylab yashashimiz kerak. **Necha yuz yillar davomida shakllangan asl insoniy qadriyatlarimiz o‘rnini buzg‘unchi g‘oyalar egallab olishiga yo‘l qo‘ymasligimiz zarur.**

Bugungi kunda aksariyat odamlar, avvalambor, rahbarlar, davlat xodimlarining bilimsizligi, saviyasining pastligi, zamonidan orqada qolayotgani, jadid bobolarimiz “jaholat” deb atagan illat islohotlar yo‘lidagi jiddiy to‘siq bo‘lib qolmoqda. Buni ham ochiq tan olishimiz lozim.

Biz ta’lim tizimiga, o‘qituvchi va murabbiylar nufuzini oshirishga katta ahamiyat beryapmiz. Chunki **jaholatga qarshi - ma’rifat, g‘oyaga qarshi - g‘oya bilan kurashish zarur**, degan tamoyil hamon dolzarb bo‘lib kelmoqda. Lekin Vatan, xalq taqdiri o‘rtada turganda, nafaqat g‘oya, kerak bo‘lsa, qonun ham o‘z kuchini ko‘rsatishi shart.

Bugungi shiddatli, murakkab zamon shuni ko‘rsatmoqdaki, bu borada faqat ta’lim-tarbiya tizimining o‘zi mavjud ma’naviy tahdidlarga qarshi turolmaydi. Bu masalaga butun jamiyatning

kuch va imkoniyatlarini safarbar etmas ekanmiz, kutilgan natiga ga erisholmaymiz. Chunki hozirgi kunda bolalarimizni ota-on, bog'cha, maktab yoki institut emas, aksariyat hollarda qo'lidagi telefon "tarbiyalamoqda". Afsuski, ana shu kichkinagina telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, ko'pincha yot mafkurani targ'ib etadigan katta qurolga, zo'ravonlik, yovuzlik "virusi"ni tarqata-digan manbaga aylanmoqda, desak, ayni haqiqatni aytayotgan bo'lamiz.

Bularning barchasi biz uchun **ogohlik qo'ng'irog'i** bo'lib yangrashi zarur.

Biz - g'ururi, oriyati, ma'naviyati baland xalqmiz. Bu hech shubhasiz, katta boylik. Ajodolarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan bu boylikni yo'qotib qo'ysak, kelgusi avlodlar bizni aslo kechirmaydi.

Aksincha – bu fazilatni xalqimizni, millatimizni birlashtira-digan eng kuchli tamoyilga aylantirishmiz kerak. Negaki, **milliy g'ururi baland xalqning qadr-qimmati ham baland ,ma'naviyati, irodasi kuchli bo'ladi.** Bunday xalq bilan har qanday buyuk maqsadlarga yetish mumkin.

Aynan ana shunday fazilatlarimizga tayanib, biz **boshqalar-ga ergashuvchi** emas, aksincha **doimo ergashtiruvchi xalq bo'lib** kelganmiz. **Bilim, ma'rifat, madaniyat bilan boshqalarga o'rnak bo'lganmiz.** Bu – bizning qon-qonimizga, zot-u surriyotimizga singib, ketgan, milliy qadriyatlarimizga aylangan fazilat.

Afsuski, keyingi paytda ma'naviy hayotimizda bo'shashish, bo'shliq paydo bo'lgani tufayli ba'zi yoshlar yurish-turishda ham, muomala- munosabatda ham yetti yot begonalarga ko'rko'rma ergashmoqda.

Yoshlar tarbiyasida jamoatchilikning roli susayib borayotga-ni barchamizni tashvishga solishi lozim.

Ilgari "**Bir bolaga yetti mahalla –ota-on**", degan ma-qolga amal qilib yashadik. O'g'il-qizlarimizning axloq-odobi, o'qishi uchun nafaqat ularning ota-onalari, avvalo, mahalla ahli,

kayvoni keksalar, ziyolilar o‘zini mas’ul va javobgar deb bilar-di. Shuning uchun ham mahallalarimizda urush-janjal, bezorilik, ichkililikbozlik qilib bekorchi yuradigan yoshlar, oilaviy ajrimlar kam bo‘lardi. Keksa avlod vakillari yoshlarni mehnatga, o‘z uyini, ko‘chalar, guzar va maydonlarni ozoda tutishga o‘rgatardi.

Ma’naviyatimiz uchun eng katta xavf - bu aksariyat odamlarimizdagи loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida, desak, bu ham ayni haqiqat bo‘ladi.

Siyosatshunoslar o‘rtasida: “Sen uxlaganingda, dushman uyg‘oq bo‘ladi”, **degan gap bor.**

Ayniqsa, hozirgi zamonda, dunyodagi ilg‘or xalqlar katta-katta marralar sari intilayotgan bir paytda ma’naviy jihatdan g‘aflatga botib, “uxlab yotish”ga, loqayd bo‘lishga hech kimning haqqi yo‘q. Barcha fojia va muammolar, Vatanga, millatga, kela-jakka xiyonat aynan loqaydlikdan boshlanadi.

Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans g‘oyasini farzandlarimiz ongiga aynan bolalik davridan, bog‘chadan va maktabdan boshlab singdirishimiz zarur. Buning uchun tarixni, ajdodlarimiz merosini, dunyo tajribasini, turli xalqlarning yutuq va kamchiliklarini atroflicha o‘rganish kerak.

Mening qat’iy ishonchimga ko‘ra, jamiyatda ta’limning nufuzini oshirish va yoshlarning kamolotga intilishini rag‘batlantirish — bu barqaror va izchil taraqqiyotga erishish kafolatidir. Bularning barchasi, hech shubhasiz, unib o‘sib kelayotgan yosh avlodni zo‘ravonlik va radikalizmning salbiy ta’siridan himoya qilishda yordam beradi.

Shu munosabat bilan barchamiz uchun **kuyidagi masalalar** muhim ahamiyat kasb etadi:

- aholi, ayniqsa, yosh avlodda terrorizm va ekstremizm maf-kurasiga qarshi qat’iy va barqaror immunitetni shakllantirish;
- ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish **“Uchinchi Renessans sari”** degan tamoyilga asoslangan holda, milliy g‘oya va uning mafkuraviy negizlarini takomillashtirish;
- maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat madaniyat

uchog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo‘llash;

- mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida barchamizda birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlashimiz va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash ko‘nikmasini shakllantirish;

- barcha bo‘g‘indagi rahbarlar, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniylar tashkilotlari, ijodkor ziyolilarimiz, diniy ulamolar, huquqtarg‘ibot idoralari xodimlari, butun jamiyat uchun bu vazifa vijdon ishiga aylanishiga erishish;

- oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish;

- aholining g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, xatarli tahdidlarga qarshi olib borilayotgan kurash samaradorligini oshirish;

- ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-ijtimoiy mavzulardagi dolzarb maqolalar, jamoatchilik vakillarining ilg‘or fikrlari, shuningdek, mafkuraviy jarayonlar tahlili, sohaga oid yangiliklarni to‘plash, tayyorlash va tarqatishda “oyina.uz” elektron portali imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim.

Ta’lim tizimining ma’naviy-axloqiy mazmunini oshirish, yoshlar ongiga mustaqillik g‘oyalariga, milliy an’analarga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g‘oya va mafkurlarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ish olib borish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Yurtimizda keyingi paytda ushbu yo‘nalish bo‘yicha yangi tizim yaratilmoqda. Bu esa fuqarolarimizning ijtimoiy faolligi, Vatan va xalq taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirish, ularning zamонавиј, демократик О‘zbekiston davlatini barpo etishda munosib ishtirokini ta’minlash omilidir.

Ma'rifatli jamiyat sari

Buyuk mutafakkir va alloma bobolarimizning ma'rifatli jamiyat to'g'risidagi g'oyalari, orzu-umid va armonlari, o'ylaymanki, ko'pchiligidan yaxshi tanish. Bu haqda ko'p gapirmsadan, bиргина **Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”** asarini eslash kifoya.

Ajdodlarimizning ana shunday asriy intilishlarini ro'yobga chiqarish uchun ta'lim va ma'rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo'naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash zarurligini yaxshi anglaymiz.

Ayni vaqtida yana bir haqiqatni ham esdan chiqarmasligimiz kerak. Eng katta, beba ho boyligimiz bo'lgan tinchlikka raxna solish, turli xalqlar o'rtasida urush olovini yoqish, milliy va diniy ziddiyatlarni avj oldirishga urinayotgan kuchlar ham, afsuski, yo'q emas. Bunday yovuz kuchlarga qarshi kurashda, avvalo, doimiy hushyorlik va ogohlilik, butun xalqimizning birligi va hamjihatligi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bunday xavf-xatarlarga qarshi faqat kuch ishlatish usullari bilan emas, balki, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish lozim.

Dunyoda ma'naviy tahdidlarning, ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi.

Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi qurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Bunday xatarlarning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman.

Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, **yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir**. Va bunda mamlakatimiz asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi, umu-

minsoniy madaniyat markazlaridan biri bo‘lib kelganini aks ettiradigan ilmiy-tarixiy va ijtimoiy-falsafiy konsepsiyani samarali amalga oshirish lozim.

Albatta, hayot bor ekan, uning o‘tkir talablari, muammo-lari bo‘lgan va bundan keyin ham bo‘ladi. Lekin har qanday muammoni oqilona hal qilish uchun, avvalo, ilm va ma’rifat zaru. Barchamizga, ayniqsa, rahbar va yetakchilarga chuqr bilim, aql-zakovat, sabr-toqat kerak.

Ma’rifatli jamiyatni barpo etishning dolzarb masalalariga hozirjavob bo‘lish, bu boradagi ishlarda mas’uliyatni doimo chuqr his qilib yashash bugungi davr talabi bo‘lib qoladi.

Bizning eng asosiy yutug‘imiz - ko‘pmillatli xalqimizning har qanday qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligi yuksalib borayotgani, atrofimizdagи voqealarga beparvo bo‘lmasdan, aksincha, daxldorlik tuyg‘usi bilan yashayotganidir.

Eng muhimi, odamlarimizning hayot darajasi, Vatan taqdiriga mas’uliyat hissi, ertangi kunga ishonchi tobora kuchaymoqda. Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, ochiqlik va erkinlik muhiti chuqr qaror topmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va buniyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda.

Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyatni shakllantirishda quyidagi omillarga alohida ahamiyat qaratish lozim:

- aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma’rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarini o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish;

- davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, keng ko‘lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish;

- talaba yoshlar va professor-o‘qituvchilarda Vatanga muhabbat, uning taqdiriga daxldorlik, kasbga sadoqat hissini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish,

ta’lim-tarbiya jarayonlari hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish;

- ushbu yo‘nalishda ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish.

Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta’lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazish zarur.

Yangi O‘zbekiston - ma’rifatparvar davlat. Ushbu sohada amalga oshirgan ishlarimiz jamiyatimizni yangi bosqichga ko‘tarish, yuksak marralarni egallash, Uchinchi Renessans poydevorini qurishga xizmat qilayotgani hozirning o‘zida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ma’naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, ta’lim-tarbiyani rivojlantirish, milliy yuksalish g‘oyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish pirovard maqsadi inson manfaatlarini ta’minlash bo‘lgan islohotlarimizning eng muhim vazifalaridandir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi

Hozirgi vaqtida dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, shovinizm, millat-chilik, diniy ziddiyatlar bosh ko‘tarmoqda. Bu illatlar davlatni yemirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda.

Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinka mansub insonlar o‘rtasida do’stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, bu bizning zaminimizda tinchlik va osoyishtalikning mustahkam kafolati, xalqimizning buniyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini oshirishning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yanada ogoh va sergak bo‘lish, eng asosiy boyligimiz bo‘lgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko‘pmillatli xalqimiz-

ning birdamligi va jipsligini ko‘z qorachig‘idek asrash hamda yanada mustahkamlash O‘zbekistonni o‘z Vatani deb biladigan xar bir insonning muqaddas burchidir.

Ma’lumki, qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab keladi. Mehmondo‘stlik, ezungulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi.

Yurtimizda hukm surayotgan do‘stlik va birdamlik muhiti - tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omildir.

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Ular umumiy uyimiz - jonajon O‘zbekistonimiz ravnaqi yo‘lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilmoqda, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishga munosib hissa qo‘shmoqda.

Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat‘i nazar, barcha fuqarolar teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo‘yilgan. Ularga o‘z milliy madaniyati, an’ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Etnik o‘ziga xoslikni rivojlanish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg‘unlashtirishda 140 ga yaqin milliy madaniy markaz yetakchi rol o‘ynamoqda. Ular o‘ziga xos madaniyati, tili, urf-odat va an’analalarini, xalq

hunarmandchiliginı rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o‘zaro boyitishiga, har birimizda ko‘pmillatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shmoqda.

Mamlakatimizda millatlar va konfessiyalararo hamjihatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda.

Ammo, bularning barchasi Yangi O‘zbekistonni qurish yo‘lida erishgan dastlabki natijadir. Kelgusida bu ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish uchun **biz oldimizga quyidagi maqsadlar-ni qo‘ymoqdamiz:**

- jamiyatda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldidagi tengligini ta’minlashga qaratilgan tizimli va izchil faoliyatni samarali tashkil etish;

- millatlararo munosabatlар sohasida tizimli asosda ilmiy, jumladan, ijtimoiy tadqiqotlar olib borish, shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi jarayonlar rivojining muttasil monitoringini yo‘lga qo‘yish;

- millatlararo munosabatlар sohasida ilmiy maqolalar, kitoblar, ilmiy-tadqiqot materiallarini tayyorlash ishlarini kuchaytirish;

- yetakchi mahalliy va xorijiy olimlar, ekspertlar va mutaxassislar ishtirokida o‘tkazilayotgan millatlararo munosabatlар sohasida ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, anjumanlar, seminarlar, davra suhbatlari, ma’ruzalar va boshqa tadbirlarning samarasini oshirish;

- millatlararo munosabatlар sohasidagi muammolarni o‘rganish va ularni hal etishda xorijiy tajribani tahlil qilish hamda O‘zbekiston sharoitida ana shu tajribadan foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- millatlararo totuvlikni mustahkamlash, unga xavf soladigan turli muammolarning barvaqt oldini olish va ularni profilaktika qilish, shuningdek, mazkur sohadagi tahdid va xatarlarga

qarshi kurashish bo‘yicha ta’sirchan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish;

- millatlararo munosabatlar sohasidagi ishlar holatini joy-larga chiqib tizimli o‘rganishni tashkil etish, shu yo‘nalishda qabul qilingan konsepsiya va “yo‘l xaritasi”ni amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi, shuning-dek, vazirlik va idoralar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish;

- chet mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni yanada rivojlantirish va millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida davlat organlari va tashkilotlarning, mahalliy ijro etuvchi ho-kimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish;

- millatlararo munosabatlar va chet mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an’ana va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qo‘shimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;

- jamiyatda ko‘pmillatli katta oila his-tuyg‘usini, mamlaka-timizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida do‘stlik va totuvlikni yanada mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqliligi ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minalash;

- millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, mamlaka-timiz hududida va undan tashqarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni va chet mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni rivojlantirish, vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash va xorijdagi o‘zbek diasporalari bilan yaqin hamkorlik qilish, O‘zbekistonning jahon maydonidagi obro‘-e’tibori va imijini

yuksaltirish;

- O'zbekiston Respublikasining davlat va jamiyatni rivojlanтирishdagi ustuvor maqsadlarini, ilg'or xorijiy tajribani e'tiborga olgan holda millatlararo munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Biz uchun eng muhim bo'lgan ana shu masalaga bundan buyon ham ustuvor ahamiyat qaratamiz, jumladan, milliy madaniy markazlar faoliyatini amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur barcha ishlarni bajaramiz.

Ma'lumki, hozirgi vaqtida yurtimizda fuqarolarning vijdon va e'tiqod erkinligini ta'minlash, ularning bu boradagi huquqlarini himoya qilish maqsadida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ko'lami va miqyosi tobora kengayib borayotgan bunday amaliy ishlarmiz Yangi O'zbekistonni barpo etish, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini oshirishdek ezgu maqsadlarimizga uyg'un va hamohang ekani ayniqsa e'tiborlidir.

Biz xalqimiz, avvalo yosh avlodimiz, shuningdek, jahon jamoatchiligiga islom dinining insonparvarlik mohiyatini yetka-zishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz.

Islom dini - avvalo, tinchlik va do'stlik, ahillik va birdamlik, bilim va ma'rifat dinidir. **Mana shu oliy haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim.**

Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimizning mu-jassam ifodasi sifatida qadrlaymiz. Muqaddas dinimizni zo'rvonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz.

Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlar ni asrab-avaylashga da'vat etadi.

Yurtimiz zaminida kechgan birinchi va ikkinchi Uyg'onish davrlarining ko'plab yorqin namoyandalari islom va jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shganlarini alohida qayd etmoqchiman.

Diniy bag‘rikenglik azal-azaldan o‘zbek xalqi mentalitetining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Tarixning murakkab davrlarida yurtimiz musulmonlari pravoslav xristianlari hamda boshqa din va mazhab vakillariga mehr-shafqat va xayr-saxovat ko‘rsatib, beg‘araz yordam va ko‘mak bergenlar.

Bugungi osuda hayotimizning qadriga yetish, jamiyatimizda hukm surayotgan turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar o‘rtasidagi bag‘rikenglikni, fuqarolar orasidagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash barchamizning asosiy burchimizdir.

Ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir”, **degan so‘zлari bugun ham dolzarb ahamiyatga ega.**

Bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minalash, e’tiqod qiluvchilarining huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan harakatlarimiz butun dunyoga manzur bo‘lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida **“Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik”** deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish taklifi O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgani va ushbu hujjatning qabul qilingani bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Muqaddas dinimizning ezgulik, insonparvarlik dini ekanini, ma’naviyatga, ilmgaga undashini, ota-bobolarimiz bunga beqiyos hissa qo‘sghanlarini tasdiqlovchi ilmiy natijalarni ko‘rish va yangi tadqiqotlarga zamin yaratish - biz uchun asosiy maqsaddir.

Yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, turli diniy konfessiya uchun teng va qulay sharoit yaratishga qaratilgan siyosat bundan buyon ham izchil davom ettiriladi.

Alovida ta’kidlab aytmoqchimanki, agar kimki ma’naviyat masalasi - bu faqat Ma’naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o‘ylasa, katta xato qiladi. Bu davlatimiz va jamiyatimiz, hamma rahbarlar, bizning

ishongan tog‘imiz bo‘lgan ilg‘or ziyolilarimiz, barcha-bar-chamizning eng asosi va muhim vazifamizdir.

Mana shu haqiqatni hammamiz chuqur tushunib, o‘z faoliyatimizni shu asosda olib borsak, men ishonaman, ma’naviy-ma’rifiy sohada oldimizga qo‘ygan vazifalarni albatta muvaffaqiyatladi etamiz. Va bu natijalar boshqa sohalardagi yutuqlarimiz uchun ham, mamlakatimiz taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun ham mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.



III BOB. PREZIDENT QAROR VA FARMONLARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va buniyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Xususan, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo'lga qo'yilmagan.

Mavjud muammolarni hal etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasini va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida:

1. Quyidagilar ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin:

ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” g'oyasini keng targ'ib etish

orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umum-milliy harakatga aylantirish;

oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiya-ning uzviyilagini ta’minlash;

targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqtolar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkam-lashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

geosiyyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

2. Quyidagilar Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining (keyingi o‘rinlarda — Markaz) qo‘srimcha vazifalari etib belgilanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

a) davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik yo‘nalishida:

mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va ishchi (ekspert) guruqlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va ma’naviy tahdidlarning mohiyatini va aholining turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganib borish;

yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir etuvchi, ularni g'oyaviy jihatdan qaram etishga yo'naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o'z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish;

davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish bo'yicha davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va takliflar tayyorlash;

b) ilmiy-tadqiqot yo'nalishida:

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishning samarali va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalari hamda usullarini ishlab chiqish;

ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir xorijiy tajribani o'rganish, shuningdek, bugungi mafkuraviy jaronlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroficha tahlil qilish va baholash;

maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliv ta'lim tizimi, mahalla va boshqa tuzilmalar kesimida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning monitoringini olib borish, aniqlangan muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan tarbiya texnologiyalari, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

ma'naviy tarbiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni tashkil etish, ularning natijalari amaliyatga tatbiq qilinishini muvofiqlashtirish;

v) targ'ibot-tashviqot yo'nalishida:

ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

sohalar va hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, aniq maqsadga yo'naltirilgan targ'ibot-tashviqot dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

aholi, ayniqsa, yoshlarni islom dini va falsafasiga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag'rikenglik

ruhida tarbiyalash, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish.

3. Markazning ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-ijtimoiy mavzular-dagi dolzarb maqolalar, jamoatchilik vakillarining ilg‘or fikrlari, shuningdek, mafkuraviy jarayonlar tahlili, sohaga oid yangiliklar-ni to‘plash, tayyorlash va tarqatish maqsadida “oyina.uz” elektron portalini tashkil etish tashabbusi qo‘llab-quvvatlansin.

Portal faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun Markazga qo‘shimcha 15 ta shtat birligi ajratilsin va uning tuzilmasida Raqamli targ‘ibot bo‘limi tashkil etilsin.

Markaz Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan birgalikda ikki oy muddatda portalni ishga tushirish choralarini ko‘rsin.

4. Markazning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limlariga qo‘shimcha 2 tadan, tuman (shahar) bo‘linmalariga aholi soni 200 mingdan ortiq bo‘lganda 2 tadan, 200 mingdan kam bo‘lgan taqdirda esa 1 tadan qo‘shimcha shtat birliklari ajratilsin.

Belgilansinki, mazkur shtat birliklari mahalliy budget hisobidan moliyalashtiriladi.

5. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining:

“Ma’naviyat targ‘ibotchisi” ta’lim muassasasi negizida Markaz huzurida Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutini tashkil etish;

“Tafakkur” va “Ma’naviy hayot” jurnallari hamda “Ma’naviyat” nashriyotini Markaz tasarrufiga o‘tkazish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

“Ma’naviyat” nashriyoti faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun asoslangan hisob-kitoblarga muvofiq Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasi hisobidan bir oy muddatda 1 milliard so‘m miqdorida mablag‘ ajratilsin.

6. Quyidagilar:

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining tashkiliy tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq;

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limlari namunaviy tuzilmalari 4-ilovaga muvofiq;

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining tuman (shahar) bo‘linmalarining namunaviy tuzilmalari 5-ilovaga muvofiq;

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Oldingi tahrirga qarang.

(7-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PF-258-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022-y., 06/22/258/1064-son)

7. Ta’lim tashkilotlarida madaniy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi tartib joriy etilsinki, unga ko‘ra:

har bir umumta’lim muassasasida joriy etilgan ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi lavozimini moliyalashtirish uchun 2021-yil 1-apreldan boshlab davlat budgeti mablag‘lari hisobidan 0,5 shtat birligi ajratiladi hamda uning ish haqi miqdori umumta’lim muassasasi oliy ma’lumotli o‘qituvchisi uchun o‘rnatalgan bazaviy tarif stavkasi miqdorida belgilanadi;

Oldingi tahrirga qarang.

davlat oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallarida, talabalar sonidan qat’i nazar, yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor (direktorning birinchi o‘rinbosari) lavozimi joriy etiladi. Bunda, oliy ta’lim muassasalarda mavjud yoshlar bilan ishlash bo‘yicha birinchi prorektor (direktorning birinchi o‘rinbosari) lavozimi qisqartiriladi.

(7-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PF-258-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022-y., 06/22/258/1064-son)

8. Markaz, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining hududlarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash, aholi, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbida ma'naviy fazilatlarni yuksaltirish, oila va mahallalarda hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida barcha tuman va shaharlarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2021 — 2023-yillarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini barpo etishning manzilli ro'yxati 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Mazkur maskanlar yangi qurilishlar orqali yoki bo'sh turgan binolarda mahalliy budget mablag'lari hisobidan tashkil etilishi belgilansin.

9. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi 2021/2022 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimining tegishli ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga bakalavriat bosqichida "Ma'naviyatshunoslik", magistratura bosqichida "Kasbiy ma'naviyat" fanlari kiritilishini hamda magistratura ta'lim bosqichida "PR-menejer" mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanishini yo'lga qo'ysin.

10. Innovatsion rivojlanish vazirligi Markaz bilan birgalikda ikki oy muddatda milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni shakllantirsin va belgilangan tartibda moliyalashtirsin.

13. Toshkent shahar hokimligi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda ikki oy muddatda "Ma'rifat" targ'i-botchilar jamiyatni, "Ma'naviy hayot" va "Tafakkur" jurnallari tahririyatini joylashtirish uchun bino ajratish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari-
ga 8-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘s Shimchalar kiritilsin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari
9-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

16. Markaz Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy mud-
datda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan
o‘zgartirish va qo‘s Shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga
takliflar kiritsin.

17. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil etish, uning
ijrosi uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirishga
shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o‘rinbosari B.A. Musayev va
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining o‘rinbo-
sari D.M. Kenjayev belgilansin.

Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston
Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston
Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh.
Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2021-yil 26-mart,
PQ-5040-son



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI “O'ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI TO'G'RISIDA

2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi Yangi O'zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq o'tkazilgan prezidentlik saylovi yana bir bor jamiyatimizning siyosiy yetukligi, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimiz to'liq qo'llab-quvvatlaganidan dalolat bermoqda.

Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratlari Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida:

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O'zbekiston — 2030” strategiyasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida quyidagi asosiy g'oyalar aks ettirilganligi inobatga olinsin:

barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;

aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyat va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish; mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash.

2. Quyidagilar:

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor vazifa etib belgilansin hamda bu bo‘yicha ularning birinchi rahbarlariga shaxsiy mas’uliyat yuklansin;

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish va dolzarb vazifalar bajarilishi ta’minlansin.

3. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — Respublika komissiyasi) tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Respublika komissiyasi (A. Aripov) zimmasiga:

a) “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish, shuningdek, uni amalga oshirish bo‘yicha tegishli yillik dasturlarni tayyorlash va ijrosini muvofiqlashtirish;

b) “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasidagi islohotlar bo‘yicha tadbirlarning aholi tomonidan bildirilgan fikr va tashabbuslar asosida sifatli amalga oshirilishi, belgilangan ko‘rsatkichlarga erishilishini nazorat qilib, natijasi yuzasidan har yarim yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritilishini ta’minlash;

v) ikki oy muddatda:

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining joylarda amalga oshirilishi natijalari tanqidiy o‘rganilishini;

aholi o‘rtasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini

amalga oshirish natijalari keng muhokama qilinishi, fuqarolarining mazkur masala bo'yicha takliflari tizimlashtirilgan holda tahlil etilishini;

o'tkazilgan o'rganishlar natijasiga ko'ra, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilayotgan tizimli omillarni aniqlash va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish doirasida ularning oldini olish bo'yicha aniq choralar ko'rinishini ta'minlash vazifalari yuklansin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlariga "O'zbekiston — 2030" strategiyasining hududlar kesimida ijro etilishi yuzasidan vazirlik va idoralar hududiy bo'linmalari rahbarlarining axborotini har chorakda eshitish va tanqidiy muhokama qilib borish tavsiya etilsin.

5. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va uni bajarish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ijrosi, tegishli maqsadli ko'rsatkichlarga erishilishi va ular doirasida normativ-huquqiy hujjatlar o'z vaqtida ishlab chiqilishi ustidan nazoratni quyidagi tartibda amalga oshirish belgilansin:

a) Adliya vazirligi Hisob palatasi, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi va "Yuksalish" umummilliy harakati bilan birgalikda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va uni tegishli yillarda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar bajarilishini tizimli monitoring qilib, uning natijalarini har oyda Respublika komissiyasiga kiritib boradi;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari o'z hududlarida "O'zbekiston — 2030" strategiyasi ijrosining tegishli yillarda hududlar kesimida amalga oshirilishi bo'yicha har chorakda nazorat tadbirlarini o'tkazadi;

v) Vazirlar Mahkamasi har oyda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi amalga oshirilishini Bosh vazir o'rinbosarlari huzurida tanqidiy ko'rib chiqishni ta'minlaydi, har chorakda Hukumat majlislarida muhokama qilib boradi hamda o'z vaqtida

va to‘liq bajarilmagan tadbirlar yuzasidan Hukumat a’zolariga, shu jumladan vazirlarga nisbatan tegishli choralar ko‘radi hamda har yarim yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi amalga oshirilishi yuzasidan hisobot taqdim qiladi.

6. Vazirlar Mahkamasi (A. Aripov) bir oy muddatda:

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-2024-yillarda hududlar kesimida amalga oshirish chora-tadbirlari bo‘yicha Hukumat qarorlari qabul qilinishini;

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasidagi yo‘nalish va maqsadlardan kelib chiqqan holda Bosh vazir o‘rinbosarlariga biriktirilgan tarmoq va sohalar kesimida aniq vazifalar belgilanishini ta’minlasin.

7. Adliya vazirligi mas’ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihamining sifatli va o‘z vaqtida ishlab chiqilishi, kelishilishi, jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilishiga amaliy yordam ko‘rsatib borsin.

8. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi — xalq strategiyasi” shiori ostida belgilangan islohotlarning izchil, sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi yuzasidan samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadida “Taraqqiyot strategiyasi” markazi:

Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda ikki hafta muddatda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ijrosining ta’milanish darajasi, unda belgilangan islohotlarning sifatli amalga oshirilishini aholi tomonidan har bir maqsad va undagi ko‘rsatichlar kesimida baholash, ular yuzasidan o‘z fikrlarini qoldirish va tashabbuslar bildirish imkoniyatini yaratuvchi onlayn portalni ishga tushirsin;

har oyda baholash natijalari va aholidan kelib tushadigan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, Respublika komissiyasiga taqdim etib borsin;

2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash (J. Qo‘chqorov) bilan birgalikda

har yili “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga muvofiq amalga oshirilishi bo‘yicha tahlilni jamoatchilik bilan birgalikda o‘tkazish va natijalarini e’lon qilib borish tizimini yo‘lga qo‘ysin;

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va uni tegishli yillarda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar bajarilishi yakunlariga bag‘ishlangan axborot-tahliliy sharhlarni tayyorlash, ularni xorijiy tillarda e’lon qilish va keng tarqatishni ta’minlasin.

9. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va O‘zbekiston Milliy axborot agentligi ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda muntazam ravishda:

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarning ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borilishini hamda uning mazmun-mohiyati jamoatchilikka yetkazilishini;

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning ijrosi va belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish holati yuzasidan aholiga xolis va to‘liq ma’lumot yetkazilishini ta’minlasin.

10. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Mazkur Farmon ijrosini har yarim yilda muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Respublika komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida har oyda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritib borilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2023-yil 11-sentabr, PF-158-son

IV BOB.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi faollari va bir guruh ma’rifat targ’ibotchilarining O’zbekiston xalqiga MUROJAATI

Qadrli vatandoshlar!

Keyingi oylarda mamlakatimizda bo‘lib o‘tgan ulkan siyosiy voqealar – O’zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq referendumi orqali qabul qilin-gani va navbatdan tashqari Prezident saylovingin muvaffaqiyatlari o‘tkazilgani ko‘pmillatli, mard va olivjanob xalqimizning Yangi O’zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo‘lida naqadar yakdil, birmad va hamjihat ekanini yana bir bor yaqqol namoyon etdi.

Birlashgan xalq, birlashgan jamiyat o‘zining xohish-irodasi, bunyodkorlik salohiyati bilan qanday buyuk ishlarga qodir ekanini qadimiylari va boy tariximiz davomida ko‘p bor ko‘rganmiz. “Elning kuchi – birlikda, elning baxti – tinchlikda”, deydi donishmand xalqimiz.

Darhaqiqat, birlashgan el oldida tog‘lar ham bosh egadi. Birlashgan yurtingin tinch, erkin va mustaqil hayoti hech qachon buzilmaydi. Birlashgan jamiyat har qanday to‘siq va g‘ovlardan, sinov va mashaqqatlardan yorug‘ yuz bilan o‘tadi, o‘z oldiga qo‘ygan buyuk maqsadlarga albatta yetadi.

Yaratganga behisob shukurlar bo‘lsinki, bugun bizning xalqimiz ham o‘z kuch va imkoniyatlariga ishonib, kelajakka dadil qarab, ulkan birlik va hamjihatlik ruhi bilan yashamoqda.

Bugungi kunda qanday notinch, murakkab va tahlikali zamonda yashayotganimizni albatta barchamiz yaxshi tushunamiz. Hayotning o‘zi ilgari tariximizda, taraqqiyot yo‘limizda uchramagan muammo va vazifalarni oldimizga keskin qilib qo‘ymoqda.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, umumiy va mushtarak maqsadlar yo‘lida milliy jipslik, har bir ishni ilm, aql va ma’rifat bilan, xalq bilan kengashgan holda

amalga oshirish, faqat va faqat oldinga qarab borish bugungi hayotimiz va faoliyatimizning kundalik qoidasiga aylanishi lozim.

Ayniqsa, yosh avlodimizni eng ilg‘or ilm va kasb-hunarlar bilan qurollantirib, zamon bilan hamnafas, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida, har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, uni turli yot va begona ta’sirlardan asrash birinchi galadagi vazifamizga aylanmoqda.

Global miqqyosda inson qalbi va ongi uchun kurash tobora kuchayib, universal vositalar, ijtimoiy tarmoqlar, erkinlik niqbidiagi axloqsizlikni targ‘ib etadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yerga uradigan g‘oyaviy tahdidlar va axborot xurujlari kundan-kunga ortib borayotgan hozirgi vaqtida bu vazifalarni amalga oshirish naqadar qiyin ekani ham barchamizga ayon, deb o‘ylaymiz. Afsuski, ekstremizm, radikalizm, axloqsizlik, korrupsiya, jinoyatchilik kabi jirkanch illatlar hali suyagi qotmagan, hayot yo‘lini aniq belgilab olmagan, zararli ta’sirlarga beriluvchan, ma’naviy-mafkuraviy immuniteti bo‘s sh yoshlarimizni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itishga urinmoqda. El-yurtimiz ravnaqi va farovonligini ta’minalash uchun amalga oshirilayotgan xalqchil islohotlarni atayin obro‘sizlantirishga, ularning maqsadi va mohiyatini noto‘g‘ri talqin etishga, oilaviy qadriyatlarni oyoq osti qilgan holda, jaholat, ma’naviy tubanlik, yovuzlik, johillik ko‘rinishlarini keng targ‘ib etib, mo‘may daromad olishga intilayotgan kimsalar ham oramizda yo‘q emas. Bu esa xalqimizni tashvishlantirib, uning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Ana shunday holatlarning tahlili va ularni bartaraf etish bo‘yicha oldimizda turgan dolzarb vazifalardan kelib chiqqan holda, biz – Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi faollari va bir guruh targ‘ibotchilar mamlakatimizdagi barcha ota-onalar, ziylolar, mahalla, xotin-qizlar va yoshlar faollariga, muhtaram nuroniyalarimizga, butun xalqimizga murojaat etishga qaror qildik.

Muhtaram ota-onalar!

Oila – jamiyatning eng asosiy va tayanch bo‘g‘ini. Aynan muqaddas oila qo‘rg‘oni bizga eng ulug‘ orzu-niyatlarimizni amalga oshirish imkonini beradi. Chinakam insoniy tuyg‘u va fazilatlar, avvalo, oila bag‘rida kamol topadi. Shu bois, oila institutini asrash va mustahkamlash barchamizning buyuk insoniy burchimizdir.

Bugungi kunda hayotimizda sodir bo‘layotgan ba’zi salbiy va noma’qul holatlarning asl ildizi qayerda? Avvalo, oiladagi tarbiyada xatoga yo‘l qo‘yilgani, azaliy qadriyatlarimiz ta’siri susaygani natijasi emasmi bu?

Zero, mamlakatimizning ertangi taqdiri va kelajagi uchun mas’ul bo‘ladigan jondan aziz o‘g‘il-qizlarimizning tarbiyasi uchun barchamiz javobgarmiz. Chunki millat bolalarining begonasi bo‘lmaydi. Tarbiya masalasida beparvo bo‘lib, bir chekkada qo‘l qovushtirib turish, bu – Vatanga, kelajakka xiyonatdir.

Shu ma’noda, ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitratning “Har bir millatning saodati va izzati albatta shu xalqning ma’naviy-ruhiy qudrati, ichki intizomi, totuvligiga bog‘liq. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi” – degan so‘zлari hozirgi kunimiz uchun ham g‘oyat dolzarb ahamiyatga egadir.

Hech qachon unutmaylik, farzandlarimizning ertaga kim bo‘lib yetishi bugun ularga oilada qanday tarbiya berayotganimiz, ularning qalbini, ongini nima bilan to‘ldirayotganimizga bog‘liq. Agar o‘g‘il-qizlarimizni hozirdan boshlab ilmga, hunarga, mehnatga, odob va madaniyatga o‘rgatsak, ularning ko‘ngliga ona yurtga muhabbat va sadoqat hissini, yuksak insoniy tuyg‘ularni singdirsak, avlodlar kelajagi baxtli bo‘lishiga mustahkam poydevor qurgan bo‘lamiz. Mabodo beparvolik bilan ularning tarbiyasini o‘z holiga tashlab qo‘ysak, qalbini, ongini mobil aloqa va Internet vositalaridagi turli zararli va bo‘limg‘ur “virus”larga yem qilib bersak, kelajagimizni, farzandlarimiz hayotini o‘z qo‘limiz bilan barbod qilgan bo‘lamiz.

Farzandlarimiz nimalar bilan shug‘ullanayotganiga, kimlar bilan do‘sit bo‘lib, muloqot qilayotganiga hech qachon befarq qaramaylik. Qanchalik qiyin bo‘lsa ham, ularning ijtimoiy tarmoqlarda nimalar bilan shug‘ullanayotganini kuzatib boraylik, ushbu makon ular uchun halokat emas, saodat manbai bo‘lib xizmat qilishi uchun zarur choralar ni izlab topaylik. Inson o‘z bolasining baxti, kelajagi uchun nimalar qilmaydi? Lekin faqat taqiqlash, jazolash bilan emas, ta’sirchan tarbiya usullari, aql va bilim bilan, bog‘cha, mакtab, oliygoh, mahalla jamoatchiligi, huquq-tartibot idoralari xodimlari, diniy ulamolar bilan bирgalikda ish olib borsak, albatta ijobiy natija bo‘ladi.

Farzandlarimizni mehnatga, ilmgaga, hunarga o‘rgatish, ularni o‘zaro yordam, hashar, saxovat va muruvvat kabi qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash, atrof-muhitni muhofaza qilish, ona tabiatni sevish va asrash, uni kelajak avlodlarga bezavol yetkazish ota-on a sifatida barchamizning burchimiz ekanini unutmaylik!

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Tarbiyada tanaffus bo‘lmaydi”. Yuksak ma’naviy kamolotga uzlusiz ta’lim va tarbiya uyg‘unligi orqali erishiladi. Oiladagi tarbiya, jamiyatdagi yurish-turish, muomala madaniyati, salomlashish va kiyinish odobi, insoniy fazilatlarni namoyon etishda farzandlarimizga avvalo, o‘zimiz o‘rnak bo‘laylik.

Farzandlarimizda, ayniqsa, bolaligidan boshlab kitobga mehr uyg‘otish o‘ta muhimdir. Buning uchun xonardonlarimizda mo‘jaz kutubxonalar tashkil etib, ular bilan birga kino va teatr larga, muzeylarga, qadimiy shaharlarimiz bo‘ylab sayohatlarga borib farzandlarimiz qalbiga ezgu hislarni singdiraylik. O‘g‘il-qizlar bilan samimiyl, do‘stona suhbatlashib, qiziqish va intilishlarini rivojlanтирishga, ma’naviy va ruhiy olamini shakllantirishga e’tibor beraylik. Bugun farzandlarimizga ajratgan vaqtimiz, mehrimiz va e’tiborimiz ertaga oilamiz va jamiyatimizga hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydigan insoniy resurs va kapital bo‘lib qaytadi.

Qadrli ziyolilar, hurmatli ustozlar!

Sizlar – jamiyatning eng ilg‘or, bilimli va ma’rifatli qatlamini tashkil etasiz.

Sizlar Vatan va xalq oldidagi fuqarolik burchingiz va vazifangizni boshqalardan ko‘ra chuqurroq anglab, o‘z ilm va tafakkuringiz, madaniyatingiz, ma’naviy-ruhiy saviyangiz bilan millionlab yurtdoshlarimizga o‘rnak bo‘lasiz.

Shu bois, sizlarning so‘zingiz odamlar qalbiga tezroq yetib boradi, ibratli ishlaringiz el-yurt o‘rtasida namuna bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonda yangi madaniy va ma’naviy makon yaratish, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodimiz ongini, dunyoqarashini islohotlarimiz jarayonida ilgari surilayotgan zamonaviy g‘oyalalar asosida shakllantirishda sizlarning o‘rningiz va ta’siringiz beqiyosdir.

El-yurtimiz sizlardan bugungi davrning butun qarama-qarshilik va ziddiyatlari, ularni hal etish yo‘llari haqqoniy olib berilgan, zamondoshlarimizning ma’naviy-ruhiy qiyofasi ta’sirchan aks ettirilgan ilmiy va badiiy asarlar, musiqiy, tasviriy polotnolar, zamonaviy innovatsion g‘oyalalar, pedagogik texnologiyalarni hayotga joriy etish bo‘yicha amaliy-metodik ishlanmalar yaratishingizni kutmoqda.

Hozirgi vaqtda mediamakonda madaniyatsizlik, axloqsizlik ko‘rinishlari bilib-bilmay targ‘ib etilayotgan bir paytda ularga qarshi barchamiz birlashaylik, xalqimizga bunday ma’naviy tадидлар ortida qanday g‘arazli maqsadlar yashiringani, ular qanday og‘ir va achchiq oqibatlarga olib kelishini tushuntiraylik.

“Demokratiya”, “fikr erkinligi”, “ochiqlik” tamoyillarini niqob qilib, xalqimiz ming yillar davomida ko‘z qorachig‘idek asrab kelgan qadriyatlarimizni buzishga, hayotimizni ichidan qo‘porishga aslo yo‘l qo‘ymaylik.

Ziyolilar davlat va xalq o‘rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlashda o‘ziga xos ko‘prikdir. Olib borayotgan targ‘ibot ishlaringiz yurtdoshlarimiz, avvalo, yoshlarimizda yuksak

vatanparvarlik, milliy birlik, g‘urur va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otishga yanada samarali xizmat qilsin.

Bu borada eskirgan, zerikarli va samarasiz usullardan voz kechib, har bir uchrashuv va muloqotni ta’sirchan, noan’anaviy va aniq natijaga xizmat qiladigan yangicha usullar asosida o’tkazishga harakat qilaylik!

Xalqaro Internet tarmog‘i orqali tarqatilayotgan buzg‘unchi g‘oyalar, g‘arazli axborotlar, hayotimiz ziynati bo‘lgan odob-axloqimiz, ma’naviyatimizga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan buzg‘unchi aksiyalar, yoshlarni zalolatga boshlaydigan jirkanch tasvir va media mahsulotlar mohiyatini keskin fosh etib, oqni – oq, qorani – qora, deb, asl haqiqatning kuchini el-yurtimizga biz ko‘rsatmasak, o‘zingiz aytинг, kim ko‘rsatadi?!

Biz shu yo‘lda barchangizni yanada faol bo‘lishga chaqiramiz. Hech qachon unutmaylik, ma’naviy kurashlar sohasida ham faqat va faqat buyuk azm-u shijoat bilan dadil harakat qilgan, oldinga qarab borgan jamiyatgina maqsadiga yetadi.

Hurmatli tadbirkor va ishbilarmonlar!

Tadbirkorlar hamisha, hamma zamonlarda bunyodkor, yaratuvchi, saxovatpesha kuch bo‘lish bilan birga, ma’naviyat, mada-niyat maydoni pahlavonlari sifatida ham faoliyat ko‘rsatganlar. Arzimagan, o‘tkinchi, shaxsiy foydasinigina ko‘zlab, millatining ma’naviy ildizlariga bolta uradigan mahsulotlarni hech qachon yurtimizga keltirmaganlar. Tijorat bobida harom-xarish yo‘llardan yurmaganlar, o‘zgalarning haqiga aslo xiyonat qilmaganlar. Har bir ishni insof, diyonat, halollik, rozi-rizolik asosida olib borganlar. Bugun biz sizning timsolingizda ana shunday vijdoni pok, Vataniga, xalqiga sodiq Yangi O‘zbekiston bunyodkorlarini ko‘ramiz.

Xalqimiz doimo izlanib, yangilikka intilib yashaydigan jon-kuyar tadbirkorlarni o‘z ishiga fidoyi va vatanparvar insonlar deb biladi va qadrlaydi.

Bugungi kunda hayotimizda “tadbirkor ma’naviyati” degan tushuncha paydo bo‘lmoqda. Aynan ma’naviyat mezonlariga amal qilgan tadbirkorlarimiz el-yurtimizning ezgu duolariga sazovor bo‘lmoqda.

Ishonchimiz komil, sizlar xalqimizning ana shunday yuksak bahosiga doimo munosib bo‘lib, jamiyatimiz hayotiga yangi ma’naviy nafas olib kirasisiz, azaldan poklik, insof va diyonat tamoyillariga asoslangan o‘zbek savdogarlari, tijorat ahli an’analarini munosib davom ettirib, yanada yuksak bosqichga ko‘tarasiz.

Muhtaram mahalla faollari!

Mahalla qadim-qadimdan tinchlik va osoyishtalik, ahillik va hamjihatlik, ma’rifat va tarbiya maskani bo‘lib kelgan. U biz uchun Vatan ichra kichik Vatandir!

Bugungi kunda mahalla odamlar o‘rtasida mehr-oqibat bardavomligini ta’minlaydigan, milliy qadriyatlarimizni mustahkamlaydigan noyob tuzilmaga, chinakam xalq vijdoniga aylanib borayotgani albatta barchamizni quvontiradi.

Ayni paytda bugungi shiddatli zamon mahalla tizimi oldiga ham dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Ana shunday murakkab sharoitda ezgu qadriyatlarimiz asosida yanada birlashib, mahallalarimizni turli illatlar, ma’naviy tahdidlardan xoli ulug‘ fazilatlar makoniga aylantiraylik.

Bugun har bir mahallada ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarga mas’ul shaxslar belgilangan. Bu borada kamarbasta bo‘layotgan nuroniy otaxon va onaxonlarimiz safi tobora kengayib bormoqda. Ularning hayotiy bilim va tajribasi, oltinga teng o‘gitlari, yuksak ijtimoiy nufuzidan oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashda keng foydalanaylik.

Xalqimiz donishmandligining yuksak namunasi bo‘lgan “Bir bolaga yetti mahalla – ota-on” degan naqlga tayangan holda, mahalladagi har bir bolaning tarbiyasi uchun o‘zimizni mas’ul deb bilaylik!

Aziz yoshlarimiz!

El-yurtimiz yangi O‘zbekistonni va Uchinchi Renessans poy-devorini barpo etishda butun xalqimiz qatori sizlarga tayanadi.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan yaratib berilayotgan qulay sharoit va imkoniyatlardan unumli foydalaning.

Mamlakatimiz kelajagi sizlarning qo‘lingizda. Yangi O‘zbekistonni kelgusida aynan sizlar dunyoga tanitasiz. Bunga doimo munosib bo‘ling!

Yoshlikka xos qat’iyat, g‘ayrat va shijoat, jo‘shqinlik va mardlikni, hushyorlik va tadbirdorlik, ezgu orzu-intilishlarni amaliy harakatga aylantirib, salmoqli natijalarga erishish uchun o‘z oldingizga aniq maqsadlar qo‘yib yashashdan aslo charchamang.

Vatanni sevish, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilishda Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, ma’rifatparvar jadid bobolarimizning shonli an’analarini ardoqlab, ularni munosib davom ettiring.

Ta’lim-tarbiya, kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni o‘rganishda, zamonaviy kasb-hunarlar, raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini puxta egallashda, jahon maydonidagi raqobatda xorijdagi tengdoshlaringizdan aslo kam emasligingizni amalda isbotlang. Siz bunga har tomonlama qodirsiz.

Buzg‘unchi g‘oyalar, vayronkor mafkuralar tuzog‘idan doimo ogoh bo‘ling!

Hech qachon unutmang, Siz – xalqimiz umid va ishonch bilan ko‘z tikkan kelajak bunyodkorlarisiz.

Aziz vatandoshlar!

Bugungi kunda xalqimizni buyuk maqsadlar sari dadil boshlab borayotgan azm-u shijoatli Prezidentimiz atrofida, muqaddas Vatanimiz bayrog‘i ostida qudratli xalq bo‘lib yanada jipslashaylik. Birgalikda ulkan marralarni zabit etaylik. Ma’rifatli va farovon jamiyat qurishdek ulug‘ maqsad yo‘lida aslo charchamaylik. Yangi O‘zbekistonni barpo etish har birimizning muqaddas maqsadimizga aylansin!



V BOB. Mahallada ma’naviyat va ma’rifat kengashi faoliyatini tashkil etish

Hujjatlar ro‘yxati (nomenklatura)

- 1. Ma’naviyat va ma’rifat kengashi Nizomi.**
- 2. Ma’naviyat va ma’rifat kengashi tarkibining namunaviy tuzilishi.**
- 3. Kengash yig‘ilish bayonining namunaviy shakli.**
- 4. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining tuman (shahar) bo‘linmalari bilan tuziladigan “Yo‘l xarita”ning namunaviy shakli.**
- 5. Yo‘l xarita yuzasidan hisobot shakli.**

MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT KENGASHI NIZOMI

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlatva jamoattashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli qaroriga asosan Ma’naviyat va ma’rifat kengashi faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mahalla tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilish hamda samaradorligini oshirish bilan bog‘liq tadbirlarni belgilash va amalga oshirish uchun mahalla raisi boshchiligidida Ma’naviyat va ma’rifat kengashi (bundan buyon “Kengash” deb yuritiladi) tashkil etiladi.
2. Ma’naviyat va ma’rifat kengash tarkibini mahalla yettiligi, maktab direktori, maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori, OSHP shifokori tashkil etadi.

Vakolat muddati - 5-yil.

3. Ma’naviyat va ma’rifat kengash tarkibi mahalla raisining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi. Kengash a’zolari boshqa vazifaga o’tganlarida ular o‘rniga tayinlangan xodimlar Kengash tarkibiga kiritiladi.

Mahalla Ma’naviyat va ma’rifat kengashi (bundan buyon Kengash) mahallada mehnat qilayotgan xodimlar, jumladan, yoshlari o‘rtasida milliy g‘oya va milliy mafkuraga tayangan holda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish orqali inson huquqlari va qadr-qimmatini ulug‘lashga, jismonan sog‘lom, aqlan yetuk, dunyoqarashi teran va mustaqil fikrlovchi fuqarolarni kamol toptirishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli, keng ko‘lamli ma’naviy-ma’rifiy tarbiya dasturini amalga oshiradi.

Kengash O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va ushbu Nizomga binoan faoliyat ko‘rsatadi.

2-bob. Ma’naviyat va ma’rifat kengashi faoliyati doirasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi

Amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini targ‘ibot ishlarini tizimli va izchil amalga oshirish;

ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlarni belgilab borish;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlari muntazam o‘tkazib borish;

ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-adabiy tadbirlar o‘tkazilishini muntazam yo‘lga qo‘yish;

ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, tuman bo‘limlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko‘maklashish;

Mahallaning ijtimoiy-ma'naviy muhit holatini tizimli monitoring va tahlil qilib borish;

sohada faoliyat yuritayotgan xodimlar orasida o'zaro hurmat, totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan choralar belgilash;

tizimdag'i yoshlar bilan ishlash, ushbu toifani ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish va ularda axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan kelgusidagi va kelajakdagi vazifalarni belgilash;

mamlakatimizda keng nishonlanadigan bayramlar va boshqa sanalarda amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishga ko'maklashish;

Kengash tomonidan mahalla xodimlari ma'naviy-ma'rifiy ishlardagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, mavjud muammolarni, ularning ma'naviy-ma'rifiy muhitga ta'sirini tahlil qilish hamda bartaraf qilish choralarini amalga oshirish;

Kengash ma'rifiy-targ'ibot ishlarining shaklan va mazmunan uyg'unligini, muntazamligini ta'minlaydi, ma'ruza, suhbat va bahs-munozaralar, seminarlar, ommaviy axborot vositalarida chiqish yo'li bilan sohada amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarning, qabul qilinayotgan farmonlar, qarorlar va qonunlarning mohiyatini soha xodimlari yetkazishga rahbarlik qiladi.

3-bob. Ma'naviyat va ma'rifikat Kengashining huquqlari

Mahalla hamda tuman bo'limlarida olib boriladigan ma'rifiy-ma'rifiy targ'ibot-tashviqot ishlarining yo'naliishlarini belgilaydi, muvofiqlashtiradi.

4-bob. Kengashning tuzilishi

Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi mahallada amalga oshiriladigan ma’naviy-ma’rifiy, targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini muvofiqlashtiradigan jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan tuzilmadir.

Uning tarkibi - Kengash raisi, Kengash raisi o‘rinbosari, Kengash a’zolari va Kengash kotibidan iborat.

5-bob. Kengash boshqaruvi

Kengash raisi ma’naviy-ma’rifiy, targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish jarayoniga umumiy rahbarlik qiladi;

Kengashning ish rejasini belgilaydi;

Kengashning Nizomini tasdiqlaydi, zarur holatda uning matniga tegishli o‘zgartirishlar, qo’shimchalar va aniqliklar kiritadi;

iqtisodiy, ma’naviy, ma’rifiy, siyosiy, ijtimoiy, islohotlar mazmun-mohiyati bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etadi;

Kengash raisining o‘rinbosari, Kengash mas’ul kotibini saylaydi;

Kengash a’zolari hisobotlarini tinglaydi;

Kengash raisi o‘rinbosari, Kengash a’zolari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi, ijro intizomini ta’minlaydi.

6-bob. Kengash a’zolarining huquq va vazifalari

Sohaga oid qabul qilinadigan ma’naviy-ma’rifiy qarorlar, normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasida ishtirok etish, takliflar kiritish, tavsiyalar berish huquqi;

Kengashning Nizom va faoliyati dasturi talablarini, qabul qilingan qarorlarda belgilangan vazifalarni amalga oshiradi.

“Ittifoq” MFYning Ma’naviyat va ma’rifat kengashi TUZILMASI



“TASDIQLAYMAN”

Guliston shahar Taraqqiyot
mahalla fuqarolar yig‘ini raisi

A.Almatov

“ ” 2023-yil

**Taraqqiyot mahalla fuqarolar yig‘ini
Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishi**

BAYON № _____

2023-yil _____ - fevral

Taraqqiyot m

Raislik qiluvchi: A.Almatov – Taraqqiyot mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, Ma’naviyat va ma’rifat kengashi raisi.

Taklif etildi: I.Norbekov – Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo‘linmasi rahbari.

Ishtirok etdilar: Mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, muassasa rahbarlari.
(ro ‘yxat asosida)

KUN TARTIBI:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilab berilgan vazifalar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 avgustdagи “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli qarori, shahar Ma’naviyat va ma’rifat

Kengashining 2023 yil 30 yanvardagi 1-sonli yig‘ilish bonyoni va shu bayon bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” ijrosi to‘g‘risida.

Kun tartibidagi masala yuzasidan “Taraqqiyot” mahalla fuqarolari yig‘ini raisi A.Almatov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagи “**Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi PQ-5040-sonli qaroriga ko‘ra har yili Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Guliston shahar bo‘linmasi va “Taraqqiyot” mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan ikki tomonlama hamkorlik yo‘l xarita imzolanadi. Xususan, 2022-yilda ham imzolangan yo‘l xaritaga asosan mahallada bir qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, Prezidentimizning “**Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir**” degan fikrni qayta-qayta uqtirishlari beziz emas. Zero, iqtisodiy-ijtimoiy hayotimizdagi yutuqlar ko‘lamini ma’naviy assoslardan izlashimiz kerak. Shahrimizda bu sohaga doimiy kundalik e’tibor berilyapti. Xususan, 2021-yil 26-martda qabul qilingan “**Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi PQ-5040-sonli qaror shahrimizda bu sohani tizimli ravishda yangi bosqichga olib chiqdi va aniq vazifalar belgilab berdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “Taraqqiyot” mahalla fuqarolar yig‘ini umumiy yig‘ilishi **qaror qiladi**:

1. “Taraqqiyot” mahallasida Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining (keyingi o‘rinlarda Kengash) yangilangan tarkibi *1-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.
2. Kengashining 2023-yil uchun mo‘ljallangan ish rejasi *2-ilovaga*, 2023-yil davomida mahalla fuqarolar yig‘inida o‘tkaziladigan “Ma’rifat soati” mavzular ro‘yxati va muddati *3-ilova-ga* muvofiq tasdiqlansin.

3. Kengash a'zolari zimmasiga:

- ikki tomonlama hamkorlik yo'l xaritasi asosida oylik ish reja tasdiqlash va **har oyning 25-sanasiga qadar** amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Markazning shahar bo'linmasiga hisobot taqdim etish;

- mahallada Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining rasmiy nashrlari – **"Tafakkur"**, **"Ma'naviy hayot"**, **"Jahon adabiyoti"** jurnallariga obunani ixtiyoriy tashkil etish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish;

- **"Ma'rifat"** targ'ibotchilar jamiyatni a'zolarining tar-kibini joylardagi fidoiy, vatanparvar, elni sevadigan, sog'lom fikrli, jonkuyar fuqarolardan iborat ro'yxatini va ish rejalarini tasdiqlash;

- **"Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy"** tamo-yili asosida ko'rsatuvalar va videoroliklar tayyorlashni belgilab qo'yish;

- **"Mening Prezidentim!"**, **"Mahallada duv-duv gap"**, **"Otalar choyxonasi"**, **"Otalar so'zi – aqlning ko'zi"**, **"Jannat onalar oyog'i ostida"**, **"Buvijonlar ma'rifati"**, **"O'zbek qadriyatlari va urf-odatlari buvijonlar talqinida"** kabi loyihalar asosida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish;

- Mahalla kutubxonalarida alohida **"Mahallamiz tarixi"** deb nomlangan burchak tashkil etish;

- jinoyatchilik, huquqbazarlik, oilaviy ajrimlarni aniqlab, mahallada bunday sohaning yetuk mutaxassislari, psixolog-olimlar, diniy idora vakillari va boshqalar bilan ijobiy natijalarini qo'liga kiritish, jinoyatchilikni oldini olish choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur bayon ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Kengash mas'ul kotibi

G.Abdullayeva

“Taraqqiyot” Ma’naviyat va ma’rifat
kengashining 2023- yil __ -fevraldagi
__ -sonli bayoniga 1-ilova

**Taraqqiyot mahalla fuqarolar yig‘ini
Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining**

TARKIBI

- | | |
|----------------------|---|
| A.Almatov | - Taraqqiyot mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, <i>kengash raisi</i> |
| D.Abdullayev | - Hokim yordamchisi, <i>kengash raisi o‘rnbosari</i> |
| G.Abdullayeva | - Taraqqiyot mahalla fuqarolar yig‘ini xotin-qizlar faoli, <i>kengash kotibi</i> |
| D.Ergashev | - Taraqqiyot mahalla fuqarolar yig‘ini yoshlar yetakchisi, <i>kengash a’zosi</i> |
| B.Asadov | - Taraqqiyot mahalla fuqarolar yig‘ini uchastka noziri, <i>kengash a’zosi</i> |
| R.Suleymanova | - 5-maktab direktori, <i>kengash a’zosi</i> |
| L.Ergasheva | - Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori, <i>kengash a’zosi</i> |
| G.Abbasova | - 4-Oilaviy poliklinika mudiri, <i>kengash a’zosi</i> |

*Izoh: Mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi tashkilotlar
rahbarlari kengash a’zosi bo‘lishi mumkin.*

**“Taraqqiyot” Ma’naviyat va ma’rifat
kengashining 2023- yil ___ -fevraldag'i
___-sonli bayoniga 1-ilova**

**2023-yil davomida mahallada o’tkaziladigan
“Ma’rifat soatlari”ning yillik**

REJA-JADVALI

| № | “Ma’rifat soatlari” mavzusi | “Ma’rifat soati”ni o’tkazish sanasi |
|----------|--|--|
| 1. | Davlat va jamoat arbobi, buyuk shoir Alisher Navoiy tavalludi munosabati bilan “Alisher Navoiy asarları – milliy qadriyatlarimiz timsoli” | 2023-yil 3-fevral |
| 2. | 14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun munosabati bilan “Bobur qat’iyati – kuchli iroda va jasorat timsoli” | 2023-yil 10-fevral |
| 3. | Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari hayot-baxsh g‘oyasi mazmun - mohiyati | 2023-yil 17-fevral |
| 4. | Mahallada duv-duv gap | 2023-yil 24-fevral |
| 5. | Otalar so‘zi aqlning ko‘zi | 2023-yil 3-mart |
| 6. | 8-mart Xotin-qizlar kuni munosabati bilan uning mohiyati, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini targ‘ib etishga qaratilgan “Ayol bor-ki olam munavvar” | 2023-yil 10-mart |
| 7. | Uch buyuk qadriyat: Ma’naviyat, odob-axloq, ma’rifat | 2023-yil 17-mart |
| 8. | 21-mart – “Navro‘z” umumxalq bayrami munosabati bilan “Navro‘z – yangilanish va yosharish bayrami” | 2023-yil 24-mart |
| 9. | Jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘luvchi illatlarga qarshi kurash | 2023-yil 31-mart |

| | | |
|-----|---|----------------------|
| 10. | 9-aprel Amir Temur tavalludining 687-yilligi munosabati bilan “Jahon tamaddunida Sohibqiron Renessansi” | 2023-yil 7-aprel |
| 11. | O‘zbekiston go‘zal, asl va qadimiy sharqona maddaniyat markazi. | 2023-yil 14-aprel |
| 12. | Qadriyat - inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmuidir | 2023-yil 21-aprel |
| 14. | Uch avlod uchrashuvi | 2023-yil 28-aprel |
| 15. | Qarisi bor uyning parisi bor | 2023-yil 5-may |
| 16. | Ma’naviyat, uning jamiyat va inson kamolotida-gi o‘rni. | 2023-yil 12-may |
| 17. | Globallashuv sharoitida yoshlarni ma’naviy tah-didlardan asrash muammolari va yechimlari. | 2023-yil 19-may |
| 18. | Yoshlarni Vatanga muhabbat, istiqlolga sadoqat ruhida tarbiyalash, bir nuroniy o‘n yoshga ustoz | 2023-yil 26-may |
| 19. | Oila va mahallaning bolalar va yoshlar tarbiyasiga ta’sirini oshirish maqsadida “Oila va mahalla – uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni”, “Oila – ma’naviyat qo‘rg‘oni”. | 2023-yil 27-may |
| 20. | Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida ota-onalar va ota-ona o‘rnini bosuvchi boshqa shaxslarning ishtirokini ta’minlash maqsadida “Bolam baxtli bo‘lsin desangiz”, “Ota-onalarning bola tarbiyasiga e’tibori qanday?” | 2023-yil 16-iyun |
| 21. | “Globallashuv sharoitida yoshlarni ma’naviy tah-didlardan asrash muammolari va yechimlari”. | 2023-yil 30-iyun |
| 22. | “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsata-durgan oyinayi hayoti – til va adabiyotidur”. | 2023-yil 7-iyul |
| 23. | Yoshlarni Vatanga muhabbat, istiqlolga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida “Mening jonajon mahallam”. | 2023-yil 14-iyul |

| | | |
|-----|---|------------------------|
| 24. | Yosh tadbirkorlar elga madadkor | 2023-yil 11-avgust |
| 25. | Sen yolg‘iz emassan | 2023-yil 18-avgust |
| 26. | Salomatlik tuman boylik | 2023-yil 25-avgust |
| 28. | Mahalla qadriyatlar beshigi. | 2023-yil 6-sentyabr |
| 29. | Yashil makon, Mening mahallam obod mahalla | 2023-yil 29-sentabr |
| 30 | Biz jinoyatchilikka qarshimiz | 2023-yil 6-oktabr |
| 31. | Ayollar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish | 2023-yil 13-oktabr |
| 32. | Milliy qadriyatlar -ma’naviyatni yuksaltiradi. | 2023-yil 20-oktabr |
| 33. | Islom dinidagi sharqona qadriyatlar. | 2023-yil 27-oktabr |
| 34. | Go‘zal tarbiyadan yaxshiroq meros yo‘q. | 2023-yil 3-noyabr |
| 35. | Sharqona tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari. | 2023-yil 10-noyabr |
| 36. | 18-noyabr – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun munosabati bilan “Bayrog‘imiz faxrimiz”. | 2023-yil 1-dekabr |
| 37. | Milliy urf odat va an‘analar. | 2023-yil 15-dekabr |
| 38. | 8-dekabr –O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya qabul qilingan kun munosabati bilan “Konstitutsiya – huquq va erkinliklarimiz kafolati”. | 2023-yil 22-dekabr |
| 39. | 10-dekabr – O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan “Madhiyamiz – faxrimiz”. | 2023-yil 29-dekabr |



“YUKSALISH” MAHALLA FUQAROLAR YIG‘INI MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT KENGASHINING

NIZOMI

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig‘ini Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining (keyingi o‘rinlarda – Kengash) tashkiliy huquqiy shakli, maqsad va vazifalari, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, huquqlari va majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibini belgilaydi.
2. Kengash O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-son, 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son, 2021-yil 26-mart-dagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 5040-son qarorlariga asosan ma’naviy-ma’rifiy masalalar bo‘yicha vazifalarni mahalla hududida amalga oshiruvchi organ hisoblanadi.
3. Kengash o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qaror va farmoyishlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, uning viloyat bo‘limi va shahar bo‘linmasining buyruqlari, ushbu Nizomga, shuningdek, faoliyatiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiradi.
5. Kengash yuridik shaxs bo‘lishi mumkin emas.
6. Kengash o‘z faoliyatini qonuniylik, oshkoraliq va o‘zini-o‘zi boshqarish tamoyillari asosida mahalla hududida amalga oshiradi.

7. Kengash yuridik manzili: Yangiyer shahar “Yuksalish” mahallasi Tinchlik ko‘chasi 3-uy.

II bob. Kengashning asosiy maqsadi

8. Mahallada:

ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlik ruhini umummilliy harakatga aylantirish;

milliy ma’naviyatimizning ma’no-mohiyati, ildizlari, noyob va betakror namunalari, uning bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadga qaratilgan izchil, ta’sirli va zamonaviy usul va vositalardan foydalangan holda targ‘ibot ishlarini olib borish;

aholi vakillari, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, fidoiylik, ularda islohotlarga daxldorlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, muqaddas an‘analarimizning hozirgi hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish;

aholi ayniqsa, yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan tahdidlarga qarshi qaratilgan tashviqot ishlarini olib borish va boshqalar.

III bob. Kengashning vazifalari

9. Mahallada:

ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

hududning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, aniq maqsadga yo‘naltirilgan targ‘ibot-tashviqot dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

aholi, ayniqsa, yoshlarni uzlucksiz ma’naviy tarbiyalash, dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-

oqibat muhitini yanada mustahkamlashga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlari-ga yetkazishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘o-yaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini chuqur yoritib borish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, korrupsiya, separatizm, odam savdosi, axborot xurujlari, “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’sirlari, narkobiznes va boshqa tahdid-larga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish;

jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sinqilik qilayotgan ichki tahidilar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarini amalga oshirish;

milliy g‘oyani aholi o‘rtasida targ‘ib etish;

targ‘ibot-tashviqot ishlarida aholining ma’naviy ehtiyoj-lari, hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish;

ko‘rsatma bo‘yicha hududdagi vakolatli tashkilot, muassasalar bilan birgalikda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish;

yoshlarda sog‘lom dunyoqarash, kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

mahallada yoshlarni ijtimoiy faollashtirishda tashkilot, muassasalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya an‘analarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari o‘rtasida

o‘zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, shuningdek, jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etish;

ota-onal, oila va mahalla, tarixiy xotira, milliy g‘urur, komil inson tarbiyasi bilan bog‘liq tuyg‘u va tushunchalarni yosh avlod qalbi va ongiga ta’sirchan vositalar orqali singdirish, ajdodlarimizning bu boradagi merosini bugungi taraqqiyot talab-lari bilan uzviy holda rivojlantirish;

OAV, internet imkoniyatlaridan to‘la foydalanib, turli mavzu va ko‘rinishdagi ijtimoiy reklamalar tayyorlash, zamonamiz qahramonlari – yetakchi, ilg‘or fikrli, barchaga o‘rnak bo‘lgan shaxslarning hayoti va faoliyati bilan ommani tanishtirish, ularning turli ijobiy tashabbuslarini amalga oshirishga to‘siq bo‘layotgan illatlarni, ularning turli muammolarini dadil ko‘tarib chiqish;

hududda ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha tashkilot, muassasalarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va ma’naviy tahdidlarning mohiyatini aholining turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganib borish;

yoshlarimiz ongiga salbiy ta’sir etuvchi harakatlarga qarshi vakolatli tashkilot, muassasalar bilan birgalikda samarali kurash olib borish;

10. Kengash faoliyati yuzasidan yuklangan vazifalarni “Yo‘l xaritalari”, chora-tadbirlar Dasturlari orqali amalga oshiradi.

IV bob. Kengash faoliyatining asosiy yo‘nalishlari

11. Mahallada:

el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoq-chilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

aholining internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

oila, ta’lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, uyushmagan yoshlar o‘rtasida maqsadli g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;

“Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyilidan kelib chiqqan holda terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, radikalizm, korrupsiya, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’sirlari, narkobiznes kabi yurtimizning tinchligi va osoyishtaligiga raxna soladigan, xalqimizning iymon-e’tiqodiga zarar yetkazadigan har qanday yot g‘oyalarga nisbatan ayovsiz kurashchan muhitni yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

mahalla ahli, ayniqsa, yosh avlodning dunyo va yurtimiz miqqyosidagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli munosabati ni shakllantirish, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini, fidoyilik va vatanparvarlik tuyg‘usini kamol toptirish;

xalqaro maydonda yuz berayotgan muhim voqeа-hodisalar, yon-atrofimizda kechayotgan jarayonlar mohiyatini jamoatchilikka yetkazish, odamlarni ma’nан yetuk, siyosiy jihatdan faol fuqarolarga aylantirishga qaratilgan ma’rifat tizimini yaratish;

fuqarolik jamiyati, huquqiy davlatni rivojlantirish jarayonida barcha ijtimoiy guruh va tabaqalar vakillarining huquqiy ongini yuksaltirish orqali ular qalbida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga hurmat hissini kuchaytirish, ayni paytda, o‘zining fuqarolik huquqi, erkinliklari va burchini churqur anglagan holda yashashi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga ko‘maklashish.

V bob. Kengashning huquqlari

12. Mahalla hududida:

olimlar, mutaxassislar, ijodkor ziyolilar va xalq ichida no-tiqlik mahoratiga ega fuqarolardan tashkil topadigan “Ma’rifat” targ‘ibotchilar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini tashkil etishda vakolatli tashkilot, muassasalar bilan hamkorlik qilish;

davlat siyosati, davlat ramzları, milliy qadriyatlarga humatsizlik, ma’naviy-axloqiy mezonlarga zid holatlar, ezgu insoniylar fazilatlarga tahdid soluvchi, axloqsizlik, behayolikni targ‘ib etuvchi holatlar bo‘yicha taqdimnomalar kiritish uchun shahar Ma’naviyat va ma’rifat Kengashiga taklif kiritish;

ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda o‘z faoliyatiga doir ma’lumotlarni yoritib borish;

Kengash o‘z vazifalarini amalga oshirish maqsadida amal-dagi qonunchilikka zid bo‘lмаган boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

VI bob. Kengashning majburiyatları

13. Kengash quyidagi majburiyatlarga ega:

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, Respublika, viloyat, shahar Ma’naviyat va ma’rifat Kengashlari qarorlariga, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, uning viloyat bo‘limi va shahar bo‘linmasi buyruqlariga va faoliyatiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish;

o‘z faoliyati yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda Markazning shahar bo‘linmasiga hamda Yangiyer shahar Ma’naviyat va ma’rifat Kengashiga hisobotlar taqdim etish;

turli jamoat tashkilotlarining ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tashabbuslari, ish tajribalarini o‘rganish, ommalashtirish yuzasidan tavsiyalar berish;

Kengash qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega.

VII bob. Kengash rahbar organlari va ularning vakolatlari

14. Kengashning rahbar organlari:

Shahar Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi;

Respublika shahar Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo‘linmasi.

15. Shahar Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining vakolatlari:

Kengash faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish;

Kengash Nizomini tasdiqlash, o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish;

Kengash hisobotlarini tinglash;

qonun hujjatlariga asosan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

16. Respublika shahar Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo‘linmasining vakolatlar:

Kengash faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish;

Kengash hisobotlarini tinglash;

Ma’naviy-ma’rifiy masalalarga oid chora-tadbirlar dasturlari, yo’l xaritalari va faoliyatiga oid boshqa hujjatlarni tasdiqlash;

qonun hujjatlariga asosan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

VIII bob. Ustavga qo’shimchalar va o’zgartishlar kiritish tartibi

17. Kengash Ustaviga qonun hujjatlariga asosan o’zgartirish va qo’shimchalar kiritilishi mumkin.

18. Kengash Ustaviga Markaz tomonidan o’zgartirish va qo’shimchalar kiritilgandan so’ng belgilangan tartibda qayta ro’yxatdan o’tkazilishi shart.

NAMUNA.

“TASDIQLAYMAN”
“Yuksalish” mahalla fuqarolar
yig’ini raisi

“KELISHIDLAR”
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Yangiyer shahar bo’lmasi rahbari

F.Babatayev

“ ” - 2024-yil

A.Abduqodirov

“ ” - 2024-yil

Yangiyer shahar “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’inida ma’naviy-ma’riffiy ishlar samaradortligini oshirish va sohanri rivojantirish

“YO’L XARITASI”
bo'yicha 2024-yil uchun

“O’ZBEKISTON

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul ijrochilar |
|--|---|---------------|----------------------------|---|
| 1 | 1. Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev raisligida bo’lib o’tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig’ilishi, “O’zbekiston-2030” strategiyasi va “Yoshlar va biznesni qo’llab-qurvatash yili” mazmun-mohiyatini keng targ’ib qilish | 2 | 3 | 4 |
| “Ma’naviyat boshqalar o’n qadam oldindagi yurishi, yangi kuchga, yangi harakaiga aylanishi kerak!” degan ergu davlat asosida Ozbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni bo’lib o’tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig’ilishi mazmun-mohiyatini keng targ’ib qilish. | | | | |
| 2. | “O’zbekiston-2030” strategiyasi mazmun-mohiyatini keng targ’ib qilish. | Yanvar - mart | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini, Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo’lmasi |
| 3. | “Jamiyat – islohatlar tashabbuskor” tamoyili asosida “Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat” shiorini targ’ib qilish maqsadida ma’naviy-ma’riffiy tadbirlar tashkil etish. | Aprel | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini, Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo’lmasi |

| | | |
|--|--|---|
| 4. | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston tarraqiyot strategiyasi” kitobini keng targ'ib etish maqsadida taskilot xodimlari o'tasida “Prezident asarlari bilmdoni”, “Zakovat” tanlovarinini tashkil etish. | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini, Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'limmasi |
| 5. | 3 ta bosqichdan iborat “Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!” shiori ostida “Mahallada duv-duv gap” tadbirlarini tashkil etish: - 1-bosqicha (3-10-yanvar) Prezidentimizning Ma'naviyat va ma'rifat Kengashidagi ma'ruzasi targ'iboti; - 2-bosqicha (11-20-yanvar) harbiy - vatanparvarlik g'oyalari targ'iboti; - 3-bosqicha (21-31-yanvar) “2024 yil - Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili” Davlat dasturini targ'ib qilish. | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini, Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'limmasi |
| 6. | II. “Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!” g'oyasi asosida mamlakatimizdag'i yangilanish jarayonlari, amalga oshirilayotgan isloholdar, qabul qilinayotgan qonun hujjatari, davlat dasturlarini targ'ib qilish orqali tizim xodimlarda vatanparvarlik, faol fuqarolik pozitsiyasi va daxidorlik hissini kuchaytirish “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili” Davlat dasturida sohaga oid belgilangan topshirilqar ijrosini muvoqqaletirish va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish. | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini, Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'limmasi |
| III. “Ma'naviyat boshqa sohalarдан o'n qadam oldindida yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak!” | | |
| 7. | Mahalla fuqarolar yig'inda (<i>ma'munaviy tarzdu</i>) Ma'naviyat va ma'rifat kengashini tashkil etish. | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini |
| 8. | Ma'naviyat va ma'rifat kengashi 2024-yil rejasimi tasdiqlash, yig'ilishni tashkil etish va kengash Nizonmini tasdiqlash. | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini |
| 9. | Mahalla fuqarolar yig'inining sohaga oid faoliyatini muvoqqlashtirib borish, ikki tomonlama hamkorlik dasturlarini tasdiqlash va ijrosini ta'minlash. | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini |
| 10. | Mahalla fuqarolar yig'ininda mamlakatimizdag'i islohotlardan aholini keng xabardor qilish maqsadida “Ma'rifat” radiouzelini tashkil etish. | Yangiyer shahar hokimligi “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini |

| | | | | |
|--|---|--|---|---------------------------------------|
| 11. | Yangi qabul qilinayotgan qonun, farmon va qarorlar hamda islohotlar mazmun-mohiyatini keng targ'ib qilish maqsadida belgilangan mavzular bo'yicha har haftaning juma kuni "Ma'naviyat-ma'rifat soatlari" da taskil qilish. | Har haftaning shanba kuni | - | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini |
| 12. | Mahalla fuqarolar yig'indida "Ma'naviyat xonasasi" , "Ma'naviyat burchagi" ni namunali taskil etish. | Yanvar O'z mablag'lari hisobidan | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini | |
| 13. | Mahalla fuqarolar yig'indida "Milliy qadriyattar" burchagini namunali taskil etish. | Yanvar O'z mablag'lari hisobidan | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini | |
| 14. | Mahalla fuqarolar yig'indida "Ma'rifat kitob" javonini tashkil etish va uni siyosiy va badiy adabiyotlar hamda gazetalar bilan to'dirish. | Yanvar, doimiy O'z mablag'lari hisobidan | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini | |
| 15. | Mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari o'tasida "Muomala madaniyi" , "Kiyinish odobi" mavzusida yig' ilish taskil etish. | Doimiy - | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini | |
| 16. | Ma'naviy-ma'rify va tarbiyayiv yo'nalişida "Namunali mahalla" ko'rik tanloviya tayyorqarilik ko'rish hamda qatnashish. | Aprel-may O'z mablag'lari hisobidan | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini | |
| 17. | Mahalla fuqarolar yig'ini Ma'naviyat va ma'rifat kengashining analiga oshirilgan ishlar natijalari muhokamasiiga bag'ishlangan yig'lisini o'tazish. (chorak, yillik) | Har chorak | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini | |
| IV. Hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda targ'ibot-tashviquot ishlarini tashkil qilish, tizimdag'i yoshshar ma'naviyatni yuksaltirish, ular qalibida milliy g'urur va iftixon tuyg'ularini kuchaytirish, intilish hamda tashhabbuskarini qo'llab-qurvatash yuzasidan chora-tadbirlar belgflash | | | | |
| 18. | Mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari o'tasida "Muomala madaniyi" , "Kiyinish odobi" mavzusida yig' ilish taskil etish. | Doimiy - | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini | |
| 19. | "Milliy qadriyattar bilan ma naviy kamolot sari!" shiori ostida milliy qadriyattarga bo'lgan hurmatmi yoshlari ongi va qalbiga singdirishga qaratilgan tizimli targ'ibot-tashviquot ishlarini amalga oshirish. | Reja asosida | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini | |
| 20. | Mahallada yosh kadrlar va faxtiylar o'tasida "Uch avlod uch rashuv" ni taskil etish. | Avgust - | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini, Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'linmasi | |
| 21. | Mahallada har haftaning juma kunini "Milliy qadryattar" kuni deb e'lon qilish. | Doimiy - | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini | |

| | | | | |
|---|---|---------------------|---------------------------|---|
| 22. | “Mahalla – timchlik va osoyishtalik poydevori, ahilik va hamijihatlik, ma’rifat va tarbiya qo’rg’ondidi” shiori asosida ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar tashkil etish. | Doiniy | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini, Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo’limmasi |
| 23. | Mahalla aholisi va yoshlar o’rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklami oldimi olish maqsadida “Profiliqlik tadbirilar” tashkil etish. | Doiniy | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini |
| 24. | Hududagi yoshi katta, umr yo’li ibratli nuroniyalar istitrokida “Ularning hayoti biz uchun ibrat” shiori ostida uchrashuv va seminarlar tashkil etish. | Muhim sanalarda | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini |
| 25. | Xalqimizning o’tmishi, qedimiy urf-odat va an’analari, o’ziga xos xususiyatlari mijassam bo’lgan “Milliy qadriyattar oyliq”ni tashkil etish. | Reja-grafik asosida | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini, Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo’limmasi |
| 26. | Hududda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni mahallabay tarzda tashkil etish maqsadida “Bir ziyozi – bir mahallaga ma’naviy hommi” tamoyili asosida yoshtargaga ma’naviy ozuqa berib kelayotgan faol ziyojolar faoliyatini namunaviy darajaga ko’tarish. Eng faol ziyojilarni rag’batlantririb borish. | Aprel iyul sentyabr | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini, Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo’limmasi |
| V. O’zbekiston Respublikasi “Davlat tilha haqida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash, davlat tilida ish yuritishni tizimli tashkil etish, Davlat tiliga bo’lgan hurnmat va mas’uliyatni oshirish | | | | |
| 27. | O’zbekiston Respublikasi Davlat tiliga qo’yligan talablar asosida taskilorda ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy ahamiyiyaga ega bo’lgan shiorlar, buyuk allomalarning hikmatli so’zlarini aks ettilrigan targ’ibot vositalarini (yil nomi: Mustaqillik shiori, Sh.Mirziyoyevning ma’naviyaga oidi so’zları, davlat rammzları va hakozro) joylashtirish hamda tashqi reklama vositalarini tartiqliga solish. | Doiniy | O’z mablag’lari hisobidan | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini |
| VI. Mamlakatimizda keng nishonlanadigan umumxalq bayramlari, munhim sanalar, kash bayramlari | | | | |
| 23. | 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbirilar o’tkazish. | Yanvar | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini |
| 24. | 9-fevral – Alisher Navoiy tavallud kuni munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda targ’ibot aksiyalarini o’tkazish. | Fevral | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini |

| | | | |
|-----|--|--------|---------------------------------------|
| | 14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud sanasini munosib bilan ma'naviy-ma'rif yitiborishiga qarab tashkil etish. | - | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini |
| 25. | nishonlash ma'naviy-ma'rify tadbirlar, badiy kechalar, mushoiralar o'tkazish. | Fevral | |
| 26. | 1-mart – atoqli o'zbek shoirasi Zulfiyaxonim tavallud kuni munosabati bilan ma'naviy-ma'rif yitiborishiga qarab tashkil etish. | Mart | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini |
| 27. | 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan " Onalarga ehlirom ", "Ayol – muqadasat zo'f" mavzularda ma'naviy-ma'rif yitiborishiga qarab, "Ayol – oila va jamiyat gulto'ji" mavzusida targ ibot tadbirlarini taskil etish. | Mart | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini |
| 28. | 21-mart – Navroz bayrami , uning tarixi va qadriyatlari, u bilan bog'iq udumlar targ'ibotiga oid " Qadriyathar qadr topgan yurt " mavzusida ma'naviy-ma'rif yitiborishiga qarab tashkil etish. | Mart | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini |
| 29. | 22-mart – "Mahalla tizimi xodimlari kuni" munosabati bilan ma'naviy-madaniy tadbirlar tashkil etish va ibrat ko'rsatgan soha valiklarini rag'batlanitish. | Mart | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini |
| 30. | 9-aprel – Amir Temur tavallud kuni munosabati bilan " Buyuk sarkardalarimizning jasorati va harbiy merosi " mavzusida " Amir Temur oylig' ni o'tkazish. | Aprel | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini |
| 31. | 9-may – Xoitura va qadrlash kuni munosabati " Ajiddolar jasorati – mangu barhayot " mavzusida ma'naviy-ma'rif yitiborishiga qarab tashkil etish. | May | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini |
| 32. | 15-may – Xalqaro oila kuni munosabati bilan " Oila – muqaddas dargoh " mavzusida ta'lum muassasalarini va mahallalarda ma'naviy-ma'rif yitiborishiga qarab tashkil etish. | May | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini |
| 33. | 1-iyun – "Xalqaro bolalarni himoya qilish" kuni munosabati bilan " Biz Vatan farzandlari – umid nihollaramiz! " mavzusida turkum tadbirlar taskil etish. | Iyun | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini |
| 34. | munosabati bilan " Giyohvandlik va narkobiznes – inson hayotining kushandasasi " mavzusida mahallalarda davra subhadtari o'tkazish. | Iyun | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini |
| 35. | 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan " Kelajak buniyodkorlari " shiori ostida ma'naviy-ma'rif yitiborishiga qarab tashkil etish. | Iyun | "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'ini |

| | | | | |
|-----|---|-------------------|---|---------------------------------------|
| 36. | Davlat gerbining milliy davlatchiligidimiz tarixi, mustaqil taraqiyot, bugungi yuksalish davrida tuigan o'mini inobatga olgan holda 2-iyul – “O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida”gi Qonuni qabul qilingan kun munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirilar tashkil etish. | Iyul | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini |
| 37. | 30-iyul – Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan “Bag'rikengilik va insonparvarlik madaniyatni rivojlangan, millatlararo hamijihatik va totniylik munosabatharqa qador tongan yurt” shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbirilar va uchireshuvlar tashkil etish. | Iyul | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini |
| 38. | 31-Avgust – “Qatag'on qurbanlari ni yod etish kuni”da o'sib chitrom tuyg'usini shakllantirish maqsadida “Qatag'on qurbanlari – vatan fidoyilar” nomli targ'ibot tadbirlari o'tkazish. | Avgust | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini |
| 39. | 1-sentabr – O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan viloyatning har bir maskani va mahallasida madaniy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirilar tashkil etish. | Ayustsentabr | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini |
| 40. | 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiyalar kuni munosabati bilan “Jamiyatda o'qituvchilik kashi eng nufuzli va obro'li kash bo'lishi lozim” mavzusida ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish. | Sentyabr - oktabr | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini |
| 41. | 21-oktabr – O'zbek tili baytarani kuni munosabati bilan “Tilga e'tibor - elga e'tibor”, “O'zbek tili – milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timсоли” mavzusida adabiy-badiiy kechalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish. | Oktabr | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini |
| 42. | 18-noyabr – O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan “Muqaddasdir Vatan bayrog'i” mavzusida targ'ibot tadbiriarini tashkil etish. | Noyabr | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini |
| 43. | 1-dekabr – Butun jahon OITsga qarshи kurashish kuni munosabati bilan “O'z hayotiningi asra” mavzusida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida rasmlar tanlovingi tashkil etish. | Dekabr | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini |
| 44. | 3-dekabr – Xalqaro nogironlар kuni munosabati bilan “Mehr ulashib” xayriya aktivasini tashkil etish. | Dekabr | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini |
| 45. | 8-dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32 yilligi munosabati bilan “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi” — | Dekabr | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig'ini |

| | | | | |
|-----|--|---------------------|---|---------------------------------------|
| | mamlakat taraqqiyoti va jamiyat farovonligining huquqiy kafolati” mavzusida ma’naviy-ma’rifat tadbirilar o’tkazish. | | | |
| 46. | 1-dekabr – O’zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan “Shuhurting portasini tolki bor jahon” g’oyasini o’zida mijassam o’gan mahalla xodimlari ishtirokida madhiya kuylash aksiyalari, ma’naviy-ma’rifat tadbirilar tashkil etish. | Dekabr | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini |
| | VII. Ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini mustahkamlash, “Jaholatqa qarshi ma’rifat” tamoyili ostida turli ko’rinishidagi ma’naviy tahdiddariga qarshi kurashish, el-yurt taqdiringa loyaydilik, korrupsiya, mahalliyehilik kabi salbyi illatlarning oldini olishi qaratilgan tadbirlar | | | |
| 47. | “Jaholatqa qarshi ma’rifat” g’oyasi asosida ijtimoiy-ma’naviy mutinti yanada yaxshilash maqsadida ma’naviy-ma’rifat uchrashtuvilar o’tkazish. | Doiniy | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini |
| 48. | Hududdagi yoshi katta, unnn yo’li ibratlari nuroniyalar ishtirokida “Ularning hayoti biz uchun ibrat” shiori ostida uchrashtuvilar tashkil etish. | May | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini |
| 49. | “Biz jamiyatimizda har qanday radikalishuvga, yoshxarmimiz ongini bug’unchi yot g’oyalar bilan zahartashga, dindan siyosiy madsadllarda foydalanishga, ma’rifat rangi tibot tadbirlar tashkil etish mavzusida doimiy foydalanishga, rivojlanishga, qo’shamaymiz” | Reja grafik asosida | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini |
| | VIII. Shaharda amalga oshirilayogan ishlar, yangiliklardan keng jamoatchilikni muntazam xabardor qilishda ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan samarali foydalanish | | | |
| 50. | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan samarali foydalanish madaniyatini yuksaltirish maqsadida soha mutaxassislar ishitirokida mazusida davra subhettari tashkil etish. | Doiniy | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini |
| 51. | Mahallada amalga oshirilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirilarni “Ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoq”larda yoritib borish. | Doiniy | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini |
| 52. | Mahallada “Ma’naviy hayot”, “Tafakkur”, “Jahon adabiyoti” journalari hamda “Ma’naviy olam” gazetasiga 2024-yil uchun obuna tashkil etish. | Yanvar-fevral | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini |
| 53. | Yo’l xarita ijrosi yuzasidan choraklik, yillik hisototlarni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo’linmasiga taqdirm etish. | Har chorak | - | “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig’ini |

E.Taniyev

Mahallallar fuqarolar yig’ini mas’ul xodimi

“YO’L XARITA” YUZASIDAN HISOBOT SHAKLI

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi

Yangiyer shahar bo’linmasi rahbari

A.Abdugodirovga

Siraryo viloyati Yangiyer shahar “Yukashish” mahalla fuqarolar yig’ining 2023-yilda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantrishiga mo’jallangan yo’l xarita ijrosi yuzasidan

HISOBOT



| T/r | Chora-tadbir nomi | Muddati | Bajarilishi |
|-----|--|---------|-------------|
| 1. | I. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oly Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, “Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategikasi sari” tamoyili asosida 2022-2026-yillarga no’ljallaqan Yangi O’zbekistonning taraciqiyot strategiyasi va “Insonqa e’tibor va sifatli ta’lim yili” Davlat dasturini targ’ib etish, ushbu yo’nalishdagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimi va samarali tashkil qilish | | |
| | 1. | | |


Mahalla fuqarolar yig’ini mas’ul kotibi

E. Taniyev

VI BOB. “Ma’naviyat va ma’rifat” xonasi, “Ma’naviyat burchagi”, “Ma’rifat” kitob javonlarini tashkil etish tartibi

**“MA’NAVIYAT XONASI”NI TASHKIL ETISH
TARTIBI**





“MA’NAVIYAT BURCHAGI”NI TASHKIL ETISH TARTIBI





“MA’RIFAT” RADIOUTELINI TASHKIL ETISH.



“MA’RIFAT” KITOB JAVONINI TASHKIL ETISH TARTIBI





“MILLIY QADRIYATLAR” BURCHAGINI TASHKIL ETISH YUZASIDAN NAMUNAVIY TAVSIYALAR



**“MA’RIFAT” KITOB JAVONI UCHUN BADIY-SIYOSIY
ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

| Nº | Kitob nomi | Muallifi | Soni | izoh |
|-------------------------------------|---|---|------|------|
| Siyosiy-ma’rifiy adabiyotlar | | | | |
| 1 | O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi | Xalq | 1 | |
| 2 | “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” | Sh.Mirziyoyev | 1 | |
| 3 | “Temur tuzuklari” | Amir Temur | 1 | |
| 4 | Farzandnoma | Jamoa | 1 | |
| 5 | Siyosatnoma | Nizommulk | 1 | |
| 6 | Fozil odamlar shahri | Abu Nasr Farobi | 1 | |
| 7 | Boburnoma | Zahiriddin Muhammad Bobur | 1 | |
| 8 | Shohnoma | Firdavsiy | 1 | |
| 9 | Yuz mumtoz faylasuf | S.Juraeva | 1 | |
| 10 | Ulug‘ Saltanat | Muhammad Ali | 1 | |
| O‘zbek adabiyoti | | | | |
| 11 | “Alpomish” | Xalq dostoni (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti) | 1 | |
| 12 | “Malika Ayyor” | Xalq dostoni (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti) | 1 | |
| 13 | “Shirin va Shakar” | Xalq dostoni (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti) | 1 | |
| 14 | “Ravshan” | Xalq dostoni (Ergash Jumanbulbul o‘g‘li varianti) | 1 | |
| 15 | Hikoya ocherk va hajviyalar | Oybek | 1 | |
| 16 | Xamsa | Alisher Navoiy | 1 | |
| 17 | Hikoya ocherk va hajviyalar to‘plami | Abdulla Qodiriy | 1 | |
| 18 | Lisson ut tayr | Alisher Navoiy | 1 | |
| 19 | She’rlar to‘plami | A.Oropov | 1 | |

| | | | | |
|----|--------------------------------------|------------------|---|--|
| 20 | Devon | Mashrab | 1 | |
| 21 | Ichingdagi ichingdadur | Jaloliddin Rumiy | 1 | |
| 22 | Talvasa | Tohir Malik | 1 | |
| 23 | Amir Temur Saltanati | Lyussen Keren | 1 | |
| 24 | Hikoyalar to‘plami | G.G‘ulom | 1 | |
| 25 | Qissa va hikoyalar | P.Qodirov | 1 | |
| 26 | She’rlar to‘plami | E.Vohidov | 1 | |
| 27 | O‘zbegin | Erkin Vohidov | 1 | |
| 28 | Hikoya va qissalar to‘plami | Shuhrat | 1 | |
| 29 | Hikoya va tarjimalar to‘plami | Cho‘lpon | 1 | |
| 30 | Jahon mulkining sultoni “5-kitob” | N.Qobul | 1 | |
| 31 | Shayton va shamshir 13-kitob” | N.Qobul | 1 | |
| 32 | Muvozanat (roman) | Ulug‘bek Hamdam | 1 | |
| 33 | Chinor | Asqad Muxtor | 1 | |
| 34 | Yulduzli tunlar | Pirimqul Qodirov | 1 | |
| 35 | Avlodlar davoni | Pirimqul Qodirov | 1 | |
| 36 | Navoiy | Oybek | 1 | |
| 37 | O‘tkan kunlar | Abdulla Qodiriy | 1 | |
| 38 | Mehroddan chayon | Abdulla Qodiriy | 1 | |
| 39 | Kecha va kunduz | Cho‘lpon | 1 | |
| 40 | Tushda kechgan umrlar | O‘tkir Hoshimov | 1 | |
| 41 | Ikki eshik orasi | O‘tkir Hoshimov | 1 | |
| 42 | Sarob | Abdulla Qahhor | 1 | |
| 43 | Mahbub ul-qulub | Alisher Navoiy | 1 | |
| 44 | “Anor” (hikoyalar) | Abdulla Qahhor | 1 | |
| 45 | To‘rt ulus tarixi | Mirzo Ulug‘bek | 1 | |
| 46 | O‘tmishdan ertaklar | Abdulla Qahhor | 1 | |
| 47 | Dunyoning ishlari | O‘tkir Xoshimov | 1 | |
| 48 | Ufq | Said Ahmad | 1 | |
| 49 | Otamdan qolgan dalalar | Tog‘ay Murod | 1 | |
| 50 | Ot kishnagan oqshom | Tog‘ay Murod | 1 | |

| | | | | |
|----|---|-----------------|---|--|
| 51 | Bu dunyoda o‘lib ham bo‘lmaydi | Tog‘ay Murod | 1 | |
| 52 | Bolalik xotiralarim | Oybek | 1 | |
| 53 | Ota | Ulug‘bek Hamdam | 1 | |
| 54 | Buyuk yurt allomalari | Jamoa | 1 | |
| 55 | Sharq hikoyat va rivoyatlari 1 kitob | Jamoa | 1 | |
| 56 | Sharq hikoyat va rivoyatlari 2 kitob | Jamoa | 1 | |
| 57 | Zulmat ichra nur (Jayxun ustida bulutlar) | Mirkarim Osim | 1 | |
| 58 | Yetti majlis | Rumiy | 1 | |

Jahon adabiyoti

| | | | | |
|----|-----------------------------|--------------------------|---|--|
| 59 | Bolalik (Rossiya) | Lev Tolstoy | 1 | |
| 60 | Qobusnoma | Kaykovus | 1 | |
| 61 | Bankir 1 kitob (AQSH) | Lesli Uoller | 1 | |
| 62 | Bankir 2 kitob (AQSH) | Lesli Uoller | 1 | |
| 63 | Mening Dog‘istonim | Rasul Hamzatov | 1 | |
| 64 | O‘smdirlik (Rossiya) | Lev Tolstoy | 1 | |
| 65 | Tirilish | Lev Tolstoy | 1 | |
| 66 | Adabiyot qonuni | Nodar Dumbadze | 1 | |
| 67 | “Begona” | Alber Kamyu | 1 | |
| 68 | Jeyn Eyr 1-kitob (Angliya) | Sharlotta Bronte | 1 | |
| 69 | Jeyn Eyr 2-kitob (Angliya) | Sharlotta Bronte | 1 | |
| 70 | Jeyn Eyr 3-kitob (Angliya) | Sharlotta Bronte | 1 | |
| 71 | Jeyn Eyr 4-kitob (Angliya) | Sharlotta Bronte | 1 | |
| 72 | Azizim (roman) | Gi de Mopassan | 1 | |
| 73 | Yoshlik (Rossiya) | Lev Tolstoy | 1 | |
| 74 | Qiyomat | Chingiz Aytmatov | 1 | |
| 75 | Asrni qaritgan kun | Chingiz Aytmatov | 1 | |
| 76 | Bovari xonim | Irvin Shou | 1 | |
| 77 | Jarayon (Avstriya) | Frans Kafka | 1 | |
| 78 | Chol va dengiz | Ernest Xeminguey | 1 | |
| 79 | Amir Temur | Marsel Brion | 1 | |
| 80 | Urush va tinchlik 1-2 qisim | Lev Nikolayevich Tolstoy | 1 | |

| | | | | |
|-------------|--------------------------------|--------------------------|------------|--|
| 81 | Urush va tinchlik 3-4qisim | Lev Nikolayevich Tolstoy | 1 | |
| 82 | Oshkora qotillik qissasi | Keyt Shopen | 1 | |
| 83 | Yolg‘izlikning yuz yili | Gabriel Garsia Markes | 1 | |
| 84 | Oy va sariq chaqa (Angliya) | Sommerset Moem | 1 | |
| 85 | Notanish odam Parijda | Sommerset Moem | 1 | |
| 86 | Indiana (Fransiya) | Jorj Sand | 1 | |
| 87 | Beshinchi tog‘ (Braziliya) | Paulo Koelo | 1 | |
| 88 | Boy va kambag‘al 1-kitob | Irvin Shou | 1 | |
| 89 | Boy va kambag‘al 2-kitob | Irvin Shou | 1 | |
| 90 | Boy va kambag‘al 3-kitob | Irvin Shou | 1 | |
| 91 | Hazilkash odamlar | Aziz Nesin | 1 | |
| 92 | Kasofat tuxumlar | Gabriel Garsia Markes | 1 | |
| 93 | Alvon yaproqlar | Keyt Shopen | 1 | |
| 94 | O‘rgimchak tolasi | Gabriel Garsia Markes | 1 | |
| 95 | Ayol kishining mardligi | Gi de Mopassan | 1 | |
| 96 | Samolyot chiptasi | N.S. Lekov | 1 | |
| 97 | Niqob | Oktav Mirbo | 1 | |
| 98 | Ikkinchchi hayot | Paulo Koelo | 1 | |
| 99 | Yangi umid tashrifi | Ryunoske Akutagava | 1 | |
| 100 | Qiziqarli psixologiya | M.E.Zufarova | 1 | |
| 101 | Martin Idin | Jek London | 1 | |
| JAMI | | | 101 | |

NAMUNA.

MAHALLADA O'TKAZILADIGAN “MA'RIFAT SOAT”I REJASI

| Nº | “Ma'rifat soati” mavzuslari | “Ma'rifat soati”ni o'tkazish sanasi |
|-------------------|---|-------------------------------------|
| Yanvar oyi | | |
| 1. | “Ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak!” degan ezuq da'vat asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi mazmun-mohiyatini keng targ'ib qilish. | 2024-yil, 19-yanvar |
| 2. | “O'zbekiston-2030” strategiyasi mazmun-mohiyatini keng targ'ib qilish. | 2024-yil, 26-yanvar |
| 3. | “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili” Davlat dasturida sohaga oid belgilangan topshiriglar ijrosini muvofiqlashitirish va monitoring qilish. | 2024-yil, 31-yanvar |
| Fevral oyi | | |
| 4. | Sh.Mirziyoyevning “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” kitobining taqdimot marosimi. | 2024-yil, 2-fevral |
| 5. | Davlat va jamoat arbobi, buyuk shoir Alisher Navoiy tavalludi munosabati bilan “Alisher Navoiy asarlari – milliy qadriyatlarimiz timsoli”. | 2024-yil, 9-fevral |
| 6. | 14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun munosabati bilan “Bobur qat'iyati – kuchli iroda va jasorat timsoli”. | 2024-yil, 16-fevral |
| 7. | Jadid ma'rifatparvarlar g'oyalalaridan yosh avlod tarbiyasida foydalanish. | 2024-yil, 23-fevral |
| Mart oyi | | |
| 8. | Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir. | 2024-yil, 1-mart |
| 9. | 8-mart Xotin-qizlar kuni munosabati bilan uning mohiyati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rify ahamiyatini targ'ib etishga qaratilgan “Ayol borki olam munavvar”. | 2024-yil, 15-mart |
| 10. | Uch buyuk qadriyat: Ma'naviyat, odob-axloq, ma'rifat. | 2024-yil, 22-mart |
| 11. | 21-mart – “Navro‘z” umumxalq bayrami munosabati bilan “Navro‘z – yangilanish va yosharish bayrami”. | 2024-yil, 29-mart |
| Aprel oyi | | |
| 12. | 9-aprel – Amir Temur tavalludining 686-yilligi munosabati bilan “Jahon tamaddunida Sohibqiron Renessansi”. | 2024-yil, 5-aprel |
| 13. | O'zbekiston go'zal, asl va qadimiy sharqona madaniyat markazi. | 2024-yil, 12-aprel |
| 14. | Qadriyat — insон va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalarini majmuuidir. | 2024-yil, 19-aprel |
| 15. | Ma'naviyat – insoning ijtimoiy – madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir. | 2024-yil, 26-aprel |
| May oyi | | |
| 16. | Xotira abadiy, inson qadri buyukdir. | 2024-yil, 3-may |
| 17. | Ma'naviyat, uning jamiyat va inson kamolotidagi o'rni. | 2024-yil, 10-may |

| | | |
|--------------------|---|-------------------------|
| 18. | Globallashuv sharoitida yoshlarni ma'naviy tahididlardan asrash muammolari va yechimlari. | 2024-yil, 17-may |
| 19. | Yoshlarni Vatanga muhabbat, istiqololga sadoqat ruhida tarbiyalash. | 2024-yil, 24-may |
| 20. | Oila va mahallaning bolalar va yoshlar tarbiyasiga ta'sirini oshirish maqsadida "Oila va mahalla – uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni", "Oila – ma'naviyat qo'rg'oni". | 2024-yil, 31-may |
| Iyun oyi | | |
| 21. | "Zamonaviy rabbar: u qanday bo'lishi kerak?", "Rahbar ma'naviyati". | 2024-yil, 7-iyun |
| 22. | "Yoshlarning ma'naviy qiyofasi: axloq – odob va kiyinish madaniyati". | 2024-yil, 14-iyun |
| 23. | "Bolam baxtli bo'sin desangiz", "Ota-onalarning bola tarbiyasiga e'tibori qanday?". | 2024-yil, 21-iyun |
| 24. | "Biz korrupsiyaga qarshimiz!", "Korrupsiya — insoniyat taraqqiyotining kushandasii". | 2024-yil, 28-iyun |
| Iyul oyi | | |
| 25. | "Globalashuv sharoitida yoshlarni ma'naviy tahididlardan asrash muammolari va yechimlari". | 2024-yil, 5-iyul |
| 26. | "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinayi hayoti – til va adabiyotidur". | 2024-yil, 12-iyul |
| 27. | Yoshlarni Vatanga muhabbat, istiqololga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida "Mening jonajon mahallam". | 2024-yil, 19-iyul |
| 28. | "Uyali telefon ma'naviyatsizlik vositasini bo'lib qolmasin", "Uyali telefondan foydalanish madaniyati". | 2024-yil, 26-iyul |
| Avgust oyi | | |
| 29. | Ma'naviyatni anglash o'zlikka qaytish demakdir. | 2024-yil, 2-avgust |
| 30. | Yoshlarning masifikuraviy va ma'naviy faolligini oshirish. | 2024-yil, 9-avgust |
| 31. | Milliy davlatchilikimiz tarixi, buyuk ajoddarimizning boy ma'naviy merosini o'rganish, ularning insonparvarlik g'oyalarini hayatda keng tatbiq etish. | 2024-yil, 16-avgust |
| 32. | Jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'luvchi illatlarga qarshi kurash. | 2024-yil, 23-avgust |
| 33. | Istiqlolimiz, istiqbolimiz va ezgu niyatlarimiz ramzi. | 2024-yil, 30-avgust |
| Sentabr oyi | | |
| 34. | Xalq amaliy san'ati- milliy boyligimiz. | 2024-yil, 6-sentabr |
| 35. | Kitob — ma'rifat chirog'i. | 2024-yil, 13-sentabr |
| 36. | Kibernakonda axborot iste'moli madaniyati. | 2024-yil, 20-sentabr |
| 36. | 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan "Kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila..." | 2024-yil, 27-sentabr |
| Oktabr oyi | | |
| 37. | Mahalla qadriyatlar beshigi. | 2024-yil, 4-oktabr |
| 38. | Uchinchi Renessans-yoshlarni nigohida. | 2024-yil, 11-oktabr |

| | | |
|-------------------|--|------------------------|
| 39. | Milliy qadriyatlar -ma'naviyatni yuksaltiradi. | 2024-yil, 18-oktabr |
| 40. | Islom dinidagi sharqona qadriyatlar. | 2024-yil, 25-oktabr |
| Noyabr oyi | | |
| 41. | Go'zal tarbiyadan yaxshiroq meros yo'q. | 2024-yil, 1-noyabr |
| 42. | Sharqona tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. | 2024-yil, 8-noyabr |
| 43. | 18-noyabr – O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan “ Bayrog'imiz faxrimiz ”. | 2024-yil, 15-noyabr |
| 44. | Milliy urf odat va an'analar. | 2024-yil, 22-noyabr |
| 45. | Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari | 2024-yil, 29-noyabr |
| Dekabr oyi | | |
| 46. | 8-dekabr –O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan “ Konstitutsiya – huquq va erkinliklarimiz kafolati ”. | 2024-yil, 6-dekabr |
| 47. | 10-dekabr – O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan “ Madhiyamiz – faxrimiz ”. | 2024-yil, 13-dekabr |
| 48. | Butun jahon “ o'rgimchak to'ri ” deb nom olgan interetdan foydalaniш madaniyati. | 2024-yil, 20-dekabr |
| 49. | Viloyatimizda yil davomida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari haqida “ Yil sarhisobi ”. | 2024-yil, 27-dekabr |

Eslatma: Mayzular dolzarbligi va tashkilotlar, korxonalar va muassasalarning nuqtai nazari bilan o'zgartirilishi, qo'shimcha mayzular kiritilishi mumkin.

VII BOB. Birinchi, ikkinchi Renessans allomalari, jadidchilik harakati namoyandalari

BIRINCHI RENESSANS ALLOMALARI

**Abu Nasr Forobiy
(873-950)**



Forobiy uning taxallusi bo‘lib, to‘liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon – jahon madaniyatiga katta hissa qo‘shgan Markaziy osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim. O‘rtalarning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O‘rtal Sharq mamlakatlarida taraqqiyatiga ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog‘liq. Forobiy o‘z zamoni ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo‘shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug‘lanib, “Al-Muallim as-soniy” –“Ikkinchi muallim” (Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” deb yuritilgan.

Forobiy turkiy qabilalardan bo‘lgan harbiy xizmatchi oilasida, Sirdaryo qirg‘og‘idagi Forob – O‘tror degan joyda tug‘ilgan hudud Somoniylar tomonidan boshqarilib, arab xalifaligining shimoliy chegarasi hisoblangan. Forobiy boshlang‘ich ma’lumotni ona yurtida oldi. So‘ng Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqandda o‘qidi. Keyinroq o‘z ma’lumotini oshirish uchun arab xalifaligining madaniy markazi bo‘lgan Bag‘dodga keldi. Bag‘dodda bu davrda musulmon dunyosining turli o‘lkalaridan, xususan Markaziy Osiyodan kelgan ko‘p ilm ahllari to‘planishgan edi. U yerga bora turib

Forobiy Eron shaharlari – Isfahon, Hamadon, Rayda va boshqa joylarda bo‘ldi. Forobiy Bag‘dodda al-Mutaddil (829-902), al-Muqtafiy (902-908), al-Muqtadir (908-932) xalifaliklari davrida yashadi. U bu yerda o‘rta asr fani va tilining turli sohalari, yunon falsafiy maktablari bilan chuqur tanishib, o‘zga diniy e’tiqod, falsafiy fikrdagi kishilar bilan ilmiy muloqotda bo‘ldi. Abu Bashar Matta ibn Yunusdan (870-940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Xiylon (860-920)dan tabobat va mantiq ilmini o‘rgandi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, u 70 dan ortiq tilni bilgan.

Taxminan 941-yildan boshlab Forobiy Damashqda yashagan. Shahar chekkasidagi bog‘da qorovul bo‘lib, kamtarona kun kechirib, ilm bilan shug‘ullangan. So‘nggi yillar u Halab (Aleppo) hokimi Sayfudavlva Hamdamid (943-967) iltifotiga sazovor bo‘ldi. Tadqiqotchilar uning Halabdagi hayotini eng samarali hisoblaydilar. Chunki bu hokim hurfikrliligi, ilm-fanga e’tibor bergenligi bilan ajralib turgan. U Forobiyni saroyga taklif etadi, lekin Forobiy bunga ko‘nmaydi, oddiy hayot kechirishni afzal ko‘radi. Forobiy 949-950 – yillarda Misrda, so‘ng Damashqda yashab, shu yerda vafot etgan va “Bob as-sag‘ir” qabristoniga dafn qilingan.

Forobiy o‘rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan. U turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko‘proq qiziqqanligi uchun uning asarlarini 2 guruhga ajratish mumkin:

1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ‘ib qilish va o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar;

2) fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar.

Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari – Platon, Aristotel, Evklid, Ptolomey, Porfiriyarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarları (“Metafizika”, “Etika”, “Ritorika”, “Sofistika” va b.)ni batafsil izohlاب, qiyin joylarini tushuntirib bera olgan, kamchiliklarini ko‘rsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning

umumiylarini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan. Forobiylar sharlari O'rta va Yaqin Sharq ilg'or mutafakkirlarining dunyoqarashini shakllantirishda, ularni Aristotel g'oyalari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Abu Ali ibn Sino Forobiylarini o'qib, Aristotel asarlarini tushunganligini alohida ta'kidlaydi. Forobiyning sharh yozish faoliyati faqat Sharqnigina emas, o'rta asr Yevropasini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta rol o'ynadi. Bu faoliyat uning ilmiy faoliyati taraqqiyotining birinchi bosqichini tashkil etadi. Bu bosqich Forobiya o'ziga xos maktab xizmatini o'tagan va yangi mavzularda tadqiqotlar olib borish uchun zamin hozirlagan.

Forobiyning bunday asarlarini mazmuniga qarab quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- 1) falsafaning umumiylariga, ya'ni bilimning umumiylariga, xususiyatlari, qonuniyatlarini va turli kategoriylariga bag'ishlangan asarlar;
- 2) inson bilish faoliyatining falsafiy tomonlariga bag'ishlangan, ya'ni bilishning shakllari, bosqichlari, usullari haqidagi asarlar;
- 3) falsafa va tabiiy fanlarning fan sifatidagi mazmuni, tematikasi haqidagi asarlar;
- 4) moddaning miqdori, fazoviy va hajmiy munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan, ya'ni matematika fanlari – arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqaga oid asarlar;
- 5) modda xossalari va turlarini, noorganik tabiatning, hayvonlar va inson organizminining xususiyatlarini o'rganuvchi, ya'ni tabiiy fanlar – fizika, kimyo, optika, tibbiyot, biologiyaga bag'ishlangan asarlar;
- 6) tilshunoslik, she'riyat, notiqlik san'ati, xattotlikka oid asarlar;
- 7) ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish masalalariga, axloq, tarbiyaga bag'ishlangan, ya'ni huquqshunoslik, etika, pedagogikaga doir asarlar.

Forobiyning ilmiy merosi, umuman, o‘rta asr Sharqining madaniy-ma’naviy hayotidan, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy masalalaridan juda boy ma’lumot beradi. Mutafakkir o‘z asarlarini o‘sha davrda Sharq mamlakatlarda ilmiy-adabiy til hisoblangan arab tilida yozadi. Forobiy shuningdek, arab va fors tillarida falsafiy mazmundagi she’rlar ham yozgan.

Forobiy asarlari XII-XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga, keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan. So‘nggi asrlarda ko‘chirilgan nusxalari ko‘p mamlakatlarning kutubxonasi va muassasalarida saqlanadi. Toshkentda Sharqshunoslik institutida qadimgi Sharq faylasuflari asarlaridan jami 107 risolani, jumladan, Forobiyning 16 arabcha risolasini o‘z ichiga olgan “Hakimlar risolalari to‘plami” (“Majmuat rasoil al-hukamo”, Qo‘lyozmalar fondi, 2385-in.) bor. Bu noyob qo‘lyozma Forobiy asarlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. To‘plamdagi Forobiy risolalari 1975-yili qisman o‘zbek tiliga tarjima qilinib nashr etildi.

Forobiy aqli inson haqida gapirib bunday yozadi: “Aqli deb shunday kishilarga aytildiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo‘r iste’dodga ega, yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar. Yomon ishlarni o‘ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo‘lganlarni aqli deb bo‘lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim”.

Forobiy dunyoqarashining shakllanishiga asosan Sharqning qadimgi ilg‘or madaniyatni an’analari, arab xalifaligiga qarshi xalq harakatlari, o‘rta asr tabiiy-ilmiy tafakkur yantuqlari, Yunonistonning falsafiy merosi ta’sir ko‘rsatdi. Forobiy avvalambor Aristotel ta’limotini tiklash, asoslash va ilg‘or tomonlarini so‘nggi ilmiy yantuqlar asosida rivojlantirishga harakat qilib, Sharq aristotelizm oqimini vujudga keltirdi. Bu oqimning uslubi, muhim masalalari, kategoriyalarini ishlab chiqdi.

Forobiy o‘z davridayoq buyuk olim sifatida mashhur bo‘lgan. Sharq xalqlarida u haqda turli hikoya, rivoyatlar vujudga kelgan. O‘rta asr olimlaridan ibn Xallikon, ibn al-Kiftiy, ibn Abi Usabi’a, Bayhaqiylar o‘z asarlarida Forobiy ijodini

o‘rganib, uning g‘oyalarini rivojlantirganlar. Xususan, ibn Rushd Forobiy asarlarini o‘rganibgina qolmay, ularga sharhlar ham yozdi. Taraqqiyparvar insoniyat Forobiy ijodiga hurmat bilan qarab, uning merosini chuqur o‘rganadi. Yevropa olimlaridan B.M.Shtrenshneyder, Karra de Vo, T.U.Buur, R.Xammond, R.Dye Erlanje, F.Deterisi, G.Farmer, N.Rishar, G.Ley, Sharq olimlaridan Nafisiy, Umar Farrux, Turker, M.Maxdi va boshqalar Forobiy merosini o‘rganishga muayyan hissa qo‘shdilar. Keyingi yillarda uning ijodi va ta’limotiga bag‘ishlangan bir qancha tadqiqotlar, asarlar yuzaga keldi.

Muso al-Xorazmiy (783-850)



Buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad al-Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etdi. Bu davrda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirar edi. Rivojlanib kelayotgan mavjud tuzum taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bu davrdagi taraqqiyot jarayonining asosiy omillaridan biri bo‘ldi. Qurilish, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarni yanada taraqqiy ettirish uchun astronomiya, geodeziya, geometriya kabi fanlarni rivojlantirish zarurati tug‘ildi. O‘sha davrning ilg‘or olimlari bu fanlarning amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo‘lib, Muhammad al-Xorazmiy esa shu olimlarning peshqadami va yo‘lboshchisi edi.

Xorazmiy dunyo faniga g‘oyat katta hissa qo‘shti. U algebra fanining asoschisi bo‘ldi. “Algebra” so‘zining o‘zi esa uning “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala” nomli risolasidan olingan. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo‘lib, hozirgi kunda biz foydalananadigan

o‘nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallar-ning Yevropada tarqalishiga sabab bo‘ldi. Olimning “al-Xorazmiy” nomi esa “algoritm” shaklida fanda abadiy o‘rnashib qoldi. Uning geografiyaga doir asari esa arab tilida o‘nlab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Xorazmiyning “Zij”i Yevropada ham, Sharq mamlakatlarida ham astronomiyaning rivojlanish yo‘lini ko‘rsatib berdi. Lekin afsuski, fanning bir necha tarmoqlariga asos solgan, o‘z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlarni nazarga olsa, hamma davrlarning ham eng buyuklaridan biri” bo‘lgan bunday siymoning hayoti haqida ma’lumotlar deyarli saqlanmagan.

Xorazmiy Xorazm o‘lkasida tug‘ilib, o‘sdi. Adabiyotlarda 783-yil uning tug‘ilgan yili deb qabul etilgan. U dastlabki ma’lumot va turli sohadagi bilimlarni asosan o‘z yurtida, Markaziy Osiyo shaharlarida ko‘pgina ustozlardan olgan, deb bilmox mumkin. Manbalarda Xorazmiyning ismiga yana al-Majusiy va al-Qutrubbuliy degan atamalar ham qo‘shib aytildi. Ma’lumki, al-Ma’mun 809-yildan Marvda dastlab xalifa Xorun ar-Rashidning noibi, so‘ng 813-yildan boshlab xalifa bo‘ladi va 819-yili Bag‘dodga ko‘chadi. Al-Ma’mun Marvda bo‘lganida Xorazmiyni, movarounnahrlik va xurosonlik boshqa olimlarni o‘z saroyiga jalb qilgan. Vizantiya, Hindistondan ko‘plab kitoblar keltirilib, “Bayt ul-hikma”ning faoliyat doirasi bir muncha kengaytiriladi, uning qoshida ikkita yirik rasadxona: birinchisi 828-yilda Bag‘dodning ash-Shammosiya mahallasida, ikkinchisi Damashq yaqinidagi Kasiyun tog‘ida 831-yilda barpo etiladi. Ikkala rasadxonaning ham faoliyatini Markaziy Osiyo va Xurosandan kelgan olimlar boshqaradi. Xorazmiy bu ilmiy markazning mudiri sifatida uning faoliyatini kuzatib turadi. Bag‘dodga kelgan Markaziy osiyolik olimlar orasida mashhur astronom Ahmad ibn Kasir al-Farg‘oniyning nomini eslatish lozim. Marvlik Yahyo ibn Abu Mansur Bag‘dodning ash-Shammosiya mahallasidagi rasadxonaning asoschisi va rahbari bo‘ldi.

Rasadxonadagi ishlar haqida u “Bayt ul-hikma”ning mudiri Xorazmiyga hisobot berib turardi. Yahyo 831-yili vafot etganidan so‘ng Xorazmiy bu rasadxonani ham boshqaradi va u yerdagi kuzatishlarda faol qatnashadi. Yahyoning qalamiga mansub “Zij al-mumtahan” (“Sinalgan zij”) nomli astronomik asari ma’lum. Damashq yaqinida Kasiyun tog‘idagi rasadxonani Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy boshqaradi.

Xorazmiy bilan Bag‘dodda, keyinchalik “Ma’mun akademiyasi” deb tanilgan “Bayt ul-hikma”da ijod etgan olimlarning barchasini ham Markaziy osiyolik yoki xurosonlik deyish xato bo‘ldi. U yerda Suriya, Iroq va xalifalikning boshqa yerlaridan kelgan olimlar ham ishlagan. Biroq ular orasida Markaziy osiyoliklar salmoqli o‘rinni egallagan. Xorazmiy ana shunday ilmiy muhitda yashab ijod qildi va 850-yilda Bag‘dodda vafot etdi.

Xorazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning faqat 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Bular “Al jabr va al-muqobala hisobi haqida qichqacha kitob” – algebraik asar, “Hind hisobi haqida kitob” yoki “Qo‘sish va ayirish haqida kitob” – arifmetik asar, “Kitob surat-ul-arz” – geografiyaga oid asar. “Zij”, “Asturlob bilan ishslash haqida kitob”, “Asturlob yasash haqida kitob”, “Asturlob yordamida azimutni aniqlash haqida”, “Kitob ar-ruhoma”, “Kitob at-ta’rix”, “Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola”. Bu asarlarning to‘rttasi arab tilida, bittasi Farg‘oniyning asari tarkibida, ikkitasi lotincha tarjimada saqlangan va qolgan uchtasi hali topilgan emas.

Xorazmiyning arifmetik risolasi qachon yozilgani noma’lum. Biroq unda olim algebraik risolasini eslaydi. Demak, bundan Xorazmiy arifmetik risolani algebraik risoladan keyin yozgani ma’lum bo‘ladi. Bu risola XII asrda Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan. Tarjimanining XIV asrda ko‘chirilgan yagona qo‘lyozmasi Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanadi. Risola “Diksit Algorizmi”, ya’ni

“Al-Xorazmiy aytdi” iborasi bilan boshlanadi. U shunday deydi: “Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o‘z ichiga oluvchi “Al -jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob”ni ta’lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnomा tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimplarda va shuningdek, yer o‘lchash, kanallar o‘tkazishda, geometriya va boshqa shunga o‘xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir”.

Xorazmiyning eng yirik astronomik asari – uning “Zij”idir. Olim bu asarini 830-yil atrofida yozgan. “Zij” 37 bob, 116 jadvaldan iborat. Asarning avvalgi besh bobи xronologiyaga bag‘ishlangan bo‘lib, “to‘fon”, “iskandar”, “safar” va xristian eralaridagi sanalarni hijriy eraga ko‘chirish qoidalari keltiriladi.

Xorazmiy “Zij”i xalifalikdagi dastlabki astronomik asarlardan edi. Asar yozilishi bilan olimlarning diqqatini o‘ziga jalb etdi. Unga Xorazmiyning zamondoshlaridan Farg‘oniy, al-Hoshimiyl va boshqalar yuksak baho berishgan. Abu Rayhon Beruniy bu “Zij”ni sharhlashga uchta asarini bag‘ishlagan. Fan tarixida ispaniyalik arab astronomi Maslama al-Majritiy tomonidan 1007-yili ko‘chirilgan nusxa diqqatga sazovor. Bu nusxani 1126-yili Adelard Bat Ispaniyada lotinchaga tarjima qildi.

Xorazmiy “Zij”i hozir mana shu lotincha tarjimada mavjud. Shu tarjimaning to‘rt qo‘lyozma nusxasi asosida 1914-yili X.Zuter “Zij”ning lotincha tanqidiy matnini, shu matn asosida O.Neygubauer esa 1962-yili uning inglizcha tarjimasini nashr etgan. Mana shu ikki nashr asosida “Zij”ning to‘la ruscha va qisman o‘zbekcha tarjimalari nashrga tayyorlandi. Xorazmiyning “Zij”i geografiya sohasidagi buyuk kashfiyotlarga ham aloqador bo‘ldi. Xorazmiy geografik asarining yozilgan yili aniq ma’lum emas. Akademik V.V.Bartold bu asar 836-847 – yillar orasida yozilganligini aniqlagan. Asar 1037-yili ko‘chirilgan yagona arabcha nusxasida bizgacha yetib kelgan bo‘lib, bu nusxa Strasburg universiteti kutubxonasida saqlanadi.

Xorazmiyning “Kitob surat-ul-arz” asari ko‘p olimlar tomonidan o‘rganilgan. Lekin asar shu paytgacha to‘la ravishda birorta hozirgi zamon tiliga tarjima qilinmagan. 1983-yili olimning 1200-yillik yubileyi munosabati bilan bizda bu asarning o‘zbekcha tarjimasi Xorazmiyning “Tanlangan asarlar”i tarkibida chop etildi.

Xorazmiyning yuqorida keltirilgan asarlariyoq, u fanning qator tarmoqlarining asoschisi bo‘lganligini ko‘rsatadi. O‘zining g‘oyalari matematika va astronomiyaning oyoqqa turishi, rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Xorazmiy asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Turli g‘arb va sharq tillariga tarjima qilingan. U o‘z asarlari, ixtirolari bilan nafaqat o‘z vatanini, balki arab xalifaligining ilmiy yutug‘i, o‘z davri madaniyatining yuksak natijalarini butun dunyo va barcha asrlarga mashhur etdi. Hozirda uning nomiga turli mamlakatlarda (Eron, Turkmaniston, O‘zbekiston va b.) mukofot va medallar ta’sis etilgan.

Ahmad al-Farg‘oniy

(797 - 865)



Olimning to‘liq ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg‘oniydir. Manbalarda uning farg‘onalik ekanligidan tashqari deyarli boshqa ma’lumotlar saqlanmagan. Lekin shuni ham e’tiborga olish kerakki, o‘rta asrlarda musulmon o‘lkalarida bo‘lgan an'anaga binoan, mamlakat poytaxti yoki markazini ham mamlakat nomi bilan atashgan. Ba’zi arab mamlakatlarida bu odad hozir ham saqlanib qolgan. Misrning poytaxti Qohirani - Misr, Shom (Suriya) ning

poytaxti Damashqni Shom deyilishi shundan. Ana shu odatga ko‘ra, o‘rta asrlardagi Farg‘ona vodiysining markaziy shahri Axsikatni ham Farg‘ona deyishgan. Al-Farg‘oniy Farg‘ona vodiysining Qubo (Quva) qishlog‘ida tug‘ilgan. Shunisi ma’lumki, al-Farg‘oniy xalifa Xorun ar-Rashidning sharqiy yerlaridagi muovini, o‘g‘li Abdullohning (bo‘lajak xalifa al-Ma’munning) Marvdagi olimlari doirasiga kirgan. Ehtimol Abdulloh yoshligidan bilimga chanqoq bo‘lgani uchundir, 806-yili Marvga noib bo‘lib tayinlanganida, Mavarounnahr, Xuroson, Xorazmdan olimlarni va iste’dodli yoshlarni to‘play boshlagan. Bu olimlarning asosiy qismi Abdulloh u yerga kelganidan avvalroq to‘plangan bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas, chunki Marv avvaldan, Sosoniylar davridanoq yirik ilmiy markaz hisoblangan. 615-yili eng so‘ngi Sosoniy shahanshoh Yazdigard ibn Shahriyor arablar ta’qibidan qochib bu yerga kelganida poytaxtdagi kutubxona kitoblarini ham olib kelganligi ma’lum.

Xalifa Xorun ar-Rashid 809-yili Tusda to‘satdan vafot etadi va uning vasiyatiga ko‘ra, Bag‘dodda taxtga katta o‘g‘li - Muhammad al-Amin nomi bilan o‘tiradi. Saroydagi xurosonlik a‘yonlar esa Abdullohni taxtni qo‘lga olishga da‘vat etadilar. 811-yildan 813-yilgacha aka-uka Muhammad va Abdulloh o‘rtasida taxt uchun olib borilgan kurash Abdullohning g‘alabasi bilan tugaydi va Muhammad qatl qilinadi. O‘sha yili Abdulloh taxtga al-Ma’mun nomi bilan o‘tiradi. Lekin u Bag‘dodga bormay 819-yilga qadar Marvda yashaydi. Natijada Marv 813-yildan to 819-yilgacha xalifalikning vaqtinchha poytaxti bo‘lib turadi. 819-yili al-Ma’mun butun saroy a‘yonlari va ulamolari bilan birga Bag‘dodga ko‘chib o‘tadi. Shunday bo‘lsa ham al-Ma’mun qo‘l ostida u tuzgan ilmiy markaz “Bayt ul-hikma”da ishlagan olimlar orasida al-Farg‘oniy nomi eslatilmaydi. Buning sababi, shunday bo‘lishi mumkin: u davrda xalifalikda ikkita rasadxona faoliyat olib borardi, biri Bag‘dodning ash-Shammosiya mahallasida va ikkinchisi Damashq yaqinidagi Kasiyun tepaligida edi.

Bu rasadxonalarning har birida “Bayt ul-hikma” olimlarining ikkita doimiy guruhlari ishlar edi. Ana shu olimlarning o‘zi rasadxonalar hojatidan kelib chiqib, ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirardilar va umumiy rahbarlik Bag‘doddan turib boshqarilardi. Balki, al-Farg‘oniy Damashqdagi olimlar guruhida bo‘lishi, al-Ma’mun uni Bag‘dodga kelishi bilanoq u yerga yuborgan bo‘lishi mumkin. Abu Rayxon Beruniyning bir xabari shunday taxminga asos bo‘ladi. Uning aytishiga ko‘ra, Bag‘dod rasadxonasining ishida Yahyo ibn Abu Mansur, al-Xorazmiy va boshqa olimlar, Damashq rasadxonasida esa Xolid ibn Abdumalik va al-Farg‘oniy bilan birga ikinchi guruh olimlar ishlaganlar. U shuningdek, al-Farg‘oniyning Suriya shimolida, Sinjor sahrosida 832-833-yillar Tadmur va ar-Raqqa oralig‘ida yer meridiani bir darajasining uzunligini o‘lchashda ishtirok etganini ham aytgan.

Nihoyat, al-Farg‘oniyning hayoti haqidagi eng so‘nggi va eng aniq xabar 861-yil bilan bog‘lanadi. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, u shu yili Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya’ni Nil daryosi suv sathini belgilovchi uskunani yasagan.

Al-Farg‘oniy hayotining muddati haqida ham qiyoslar qilish mumkin. Agar uning hayotini al-Xorazmiyning hayoti bilan qiyos qilsak, quyidagi xulosaga kelamiz. Ma’lumki, al-Xorazmiyning nomi yozma manbalarda oxirgi marta 847-yili xalifa al-Vosiqning o‘limi munosabati bilan eslatiladi va shundan so‘ng uchramaydi. Shunga ko‘ra uning o‘lgan yili deb 850-yil qabul qilingan. Al-Farg‘oniyning nomi oxirgi marta 861-yili Nilning sathini o‘lchagich uskunasini ta’mirlash munosabati bilan eslatiladi. Yana bir ma’lumotga ko‘ra, al-Farg‘oniy Misrda nasroniylar orasida yashab, ularning diniga o‘tganligi va shuning uchun u qatl qilinganligi qayd etiladi. Lekin, qatl qilingan yili eslatilmaydi. Lekin bu al-Farg‘oniy o‘scha mashhur astronom al-Farg‘oniymi yo boshqasimi - bu noma’lum. Har holda al-Farg‘oniy 861-yildan keyin ko‘p yashamagan va uning o‘lgan yili deb 865-yilni qabul qilish mumkin. Agar u al-Ma’mun

bilan 819-yili Marvdan Bag‘dodga ketayotganda 20-25-yoshlar chamasida bo‘lgan desak, u holda uning tug‘ilgan yili deb 797-yoki 798-yilni qabul qilish mumkin. U holda uning hayot muddati 67 - 68-yoshni tashkil qiladi.

Al-Farg‘oniyning hayoti haqidagi ma'lumotlar juda kam bo‘lganligiga qaramay, o‘rta asrlarda Sharqda uning nomi mashhur bo‘lgan. Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (XII-XII asrlar), Abul Faraj Bar Ebrey (XIII asr), Hoji Xalifa (XVII asr) kabi Sharq fihristchilari uni o‘z asarlarida eslatadilar.

“Bayt ul-hikma”da taxminan 840-yilga qadar tadqiqotlar olib borgan Ahmad Farg‘oniy keyinchalik Damashq va Qoxirada chuqr ilmiy va amaliy ishlarni davom ettirib, samarali ijodi bilan katta shuhrat qozondi. O’shandan buyon butun dunyoda uning asarlariga bo‘lgan qiziqish davom etib kelmoqda. XII asrdayoq ispan olimlari kremonlik Gerardo, sevilyalik Ioann uning “Yulduzlar ilmi usuli kitob”i asarini arabchadan lotin tiliga tarjima qildilar. Al-Farg‘oniy tarjimonlar tomonidan unga berilgan “Alfraganus” nomi bilan dunyoga tanildi. Uning lotin va boshqa g‘arb tillariga tarjima qilingan mazkur asari _G‘arbiy Yevropada to‘rt yuz yil davomida falakiyot ilmidan asosiy qo‘llanma bo‘lib keldi. Kristofor Kolumb 1492-yilda “Santa Mariya” nomli kema yetakchiligidagi uchta kema bilan dunyo okeanlari osha qilgan sayohati davomida al-Farg‘oniyning dunyo xaritasidan keng foydalanganligini alohida e’tirof etgan. XVI asrda kelib G‘arbiy Yevropa astronomlari uyushmasi Oydagi kraterlarning biriga “Alfraganus” nomini berishga qaror qilgan.

O‘z davridagi aniq fanlarning deyarli barcha sohalarida tadqiqotlar olib borib, yuzga yaqin asar yaratgan al-Farg‘oniyning faqat sakkizta asari bizgacha yetib kelganligi ma’lum. Al-Farg‘oniyning buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u o‘zining “Yulduzlar ilmi usuli kitobi” asarida I asrda yashab o‘tgan mashhur Klavdiy Ptolemeyning falakiyot sohasida asosiy qomus hisoblangan “Almagast” asaridagi talay xatolarni aniqlab,

to‘g‘rilab berdi. Ushbu asar yana yetti nomda shuhrat qozongan. “Osmon jismlari harakati va yulduzlar ilmi to‘plami”, “O‘ttiz fasldan iborat falakiyot kitobi”, “Almagest muqaddimasi uchun o‘ttizta fasl”, “Osmon sferalari sabablari”, “Osmon sferalarining tuzilishi”, “Almagest” (“Almajistiy”), “Astronomiya fani” nomlari bilan atalib, hozirda uning qo‘lyozmalari Bag‘dod (2959 oltinchi nomda), Dublin (Bitti, 4114), Qoxira (Mikat, 944, 194, 310, 311), Leyden (8418/5), Sankt-Peterburg (3059/3), Moskva (154/2), Oksford (1, 879/1- ikkinchi nomda), Parij (2504/3- uchinchi va to‘rtinchi nomda), Prinston (Garr, 967 - yettinchi nomda), Istanbul (Aya Sofiya, 2843/2 - to‘rtinchi nomda), Tunis (Millat kutubxonasi, 02103/1 - ikkinchi nomda), Fes (Zaviy, 56-sakkizinch nomda) kabi bir qator davlat va shahar kutubxonalarida saqlanmoqda.

O‘scha davrlarda musulmon mamlakatlarining olimlari, xususan, Ahmad al-Farg‘oniy astronomiyani turlicha nomlaganlar: “Ilm al-hay‘a” (“Shakl haqidagi fan”), “Ilm al-Falak” (“Osmon sferasi haqidagi fan”), “Ilm al-nujum” (“Yulduzlar ilmi”). Oxirgi ikki atama bir paytning o‘zida ham astronomiyani, ham munajjimlikni ifodalagan.


O‘rta asrlardagi musulmon mamlakatlari astronomolaring, jumladan, ulug‘ vatandoshimiz al-Farg‘oniyning fanga qo‘shgan muhim hissasi shundan iboratki, yillar, asrlar o‘tishi bilan sayyoramiz o‘lchamlari, shaharlarning jug‘rofiy koordinatalari osmon ekvatori va ekliptika orasidagi burchakni, Quyosh, Oyning aylanish davrlari, ularning tutilishini, Quyosh, Oy va sayyoralar harakatlarini tavsiflashga doir hisoblashlarga tobora ko‘proq aniqliklar kiritdilar. Ularning yuksak zakovati bilan bu harakatlarning handasaviy (geometrik) modeli takomillashtirildi, qo‘zg‘almas yulduzlar o‘lchamlari, ularning ekliptik koordinatalarini hisoblashga doir bir qator muammolar hal etildi, o‘nlab kashfiyotlar qilindi. Bundan tashqari, Sharqda munajjimlikka oid bashoratlarda ekliptika va gorizontning kesishuv nuqtasidan

kelib chiqib, odam tug‘ilishini va biron hodisaning vaqtini aytib bergenlar.

Ahmad al-Farg‘oniy O‘rta asrda tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qo‘sghan olim sifatida manbalarda, so‘nggi G‘arb va Sharq mualliflari asarlarida, o‘z yurti O‘zbekistonda, ayniqsa, zo‘r g‘urur va iftixor bilan tilga olinadi, o‘rganiladi. Ulug‘ vatandoshimiz yaratgan har bir asarning ahamiyati, uning har qaysi soha rivojiga qo‘sghan hissasi, sermazmun hayotining sahifalari ko‘plab maqolalar, kitoblar mavzui barcha yurtdoshlarimiz uchun faxr-iftixor manbaidir.

Abu Ali ibn Sino

(980-1037)



O‘rta Osiyoning buyuk qomusiy olimlaridan biri Abu Ali al- Husayn Abdulloh ibn al-Xasan ibn Ali 980-yil avgust oyida hozirgi Buxoro viloyatining Peshku tumani yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning otasi Abdulloh Balx shahridan bo‘lib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (967 -997) davrida Buxoroga ko‘chib kelgan va Xurmaysan qishlog‘iga moliya amaldori etib tayinlangan. Shundan so‘ng u bu yerda doimiy yashab Afshona qishlog‘ida Sitora ismli qizga uylanib, ikki o‘g‘il farzand ko‘radi. O‘g‘illarining kattasi Husayn (ibn Sino), kenjası Mahmud edi. Husayn 5-yoshga kirgach, oilasi bilan Buxoroga ko‘chib keladilar va u shu yerda o‘qiy boshlaydi. 10-yoshga yetganda ibn Sino Qur‘on va adab darslarini to‘la o‘zlashtirib oladi. Ayni vaqtida u hisob va aljabr bilan ham shug‘ullanadi, arab tili va adabiyotni mukammal egallaydi. Ibn Sinoning ilm sohasidagi dastlabki ustozи Abu Abdulloh Notimiy bo‘lgan. U Notimiy qo‘lida mantiq,

xandasiga va falakiyotni o‘rganadi va ba’zi falsafiy masalalarda ustozidan ham o‘zib ketadi. Ustozi uning ilmiga yuqori baho berib, yanada chuqurroq ilm olishni tayinlaydi. Ibn Sinoning tib ilmida yuksak mahoratga erishishida buxorolik bir tabib Abu Mansur al-Xasan ibn Nuh al-Kumriyning xizmati katta bo‘lgan. Ibn Sino undan tabobat darsini olib, bu ilmning ko‘p sirlarini o‘rganadi. 17-yoshida ibn Sino Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida taniladi. U hukmdor Nux ibn Mansurni davolaydi, evaziga saroy kutubxonasidan foydalanishga izn so‘raydi va bu imkoniyatga ega bo‘ladi. Somoniylar kutubxonasi o‘sha davrda butun O‘rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalardan bo‘lgan. Ibn Sino bir necha yil davomida shu kutubxonada kecha-yu kunduz mutolaa bilan mashg‘ul bo‘lib, o‘z davrining eng o‘qimishli, bilim doirasi keng kishilardan biriga aylanadi va shu paytdan boshlab o‘rta asr falsafasini mustaqil o‘rganishga kirishadi. Abu Nasr Forobiyning “Metafizika”ning maqsadlari haqidagi kitobini o‘qib, metafizikanı o‘zlashtiradi.

Ibn Sino barcha zaruriy bilimlarni Buxoroda oladi. U ilmiy ijodni 18-yoshdan boshlaydi. Nux ibn Mansurga atab nafsoniy quvvatlar haqida risola- “Urjuza” tibbiy she’riy asari, o‘z do‘sti al-Aruziyning iltimosiga binoan ko‘p fanlarni o‘z ichiga olgan “Al hikmat al- Aruziy” – “Aruziy hikmati” asarini yaratadi. Boshqa bir do‘sti al-Barqiyning iltimosiga ko‘ra 20 jildli “Yakun va natija” qomusiy asari hamda 2 jildli “Saxovat va jinoyat kitobi”ni yozdi.

Qoraxoniylar 999-yili Buxoroni zabit etib, somoniylar davlatini ag‘dargandan keyin Ibn Sino hayotida tashvishli, notinch va og‘ir damlar boshlandi. 1002-yilda uning otasi vafot etadi. Buxoroda vaziyat keskinlashib, taxt uchun kurash 1005-yilgacha davom etadi. Shu bois Ibn Sino o‘z yurtini tark etib Xorazmga ketadi. Bu davrda Xorazm ancha tinch bo‘lib, iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlangan o‘lka edi. Poytaxt Gurganj (Urganch) da esa zamonasining ko‘pgina taniqli (Abu Rayhon Beruniy kabi)

olimlari to‘plangandi. Xorazmshohlar Ali ibn Ma’mun (997 - 1007) va Ma’mun ibn Ma’mun (1007 - 1017) ilm-fanga e’tiborli hukmdorlar bo‘lib, olimlarga ilmiy ijod uchun qulay sharoit yaratib bergen edilar. 25-yoshli iqtidorli olim Xorazmda asosan matematika va astronomiya bilan shug‘ullangan. Bu sohada Ibn Iroq va Beruniy bilan bo‘lgan ilmiy muloqotlar katta ahamiyat kasb etadi. Ibn Sino Abu Saxl Masixiyning tibbiy tajribasi va bilimlardan ham katta saboq oladi.

Biroq Xorazmdagi osoyishta hayot uzoqqa cho‘zilmaydi. Sababi Sharqdagi qudrati ortib borayotgan g‘azna hukmdori Mahmud G‘aznaviy Xorazmga tahdid soladi. Shuning uchun Ibn Sino 1011-yilda Masihiy bilan birgalikda yashirinchha Xorazmni tark etadi. Shu vaqtdan olimning sargardonlik yillari boshlanib, umrining oxirigacha vatandan uzoqda hayot kechirishga majbur bo‘ladi.

Masihiy bilan Ibn Sino Jurjonga ketadi. Lekin yo‘ldagi qiyinchiliklar va suvsizlik tufayli Masihiy betob bo‘lib, vafot etadi. Natijada Ibn Sino azob - uqubatlar chekib, avval Niso so‘ng Obivard, Tus, Shiqqon va Xurosonning boshqa shaharlarida qisqa muddat turganidan keyin, nihoyat Kaspiy dengizining janubiy - sharqida joylashgan Jurjon amirligiga yetib keladi. U Jurjonda 2-yil (1012-1014) yashaydi va Abu Ubayd Juzjoniy bilan tanishadi. Ibn Sino umrining oxirigacha Juzjoniy bilan sodiq do‘st bo‘lib qoladi va allomaning so‘nggi damigacha 25-yil davomida birga bo‘ladi. Ibn Sino tarjimai holining yozilib qolishi, ko‘pgina asarlarining qo‘lyozmasi hamda ularning keyingi avlodlarga yetib kelishida aynan Juzjoniying xizmati beqiyosdir.

Jurjondalik vaqtida Ibn Sino ham ilmiy ijod bilan shug‘ullanadi, ham tabiblik qiladi. “Tib qonunlari” asarining dastlabki qismlarini shu yerda yaratadi.

1014-yilda alloma Ray shahriga ko‘chib yashaydi. Lekin olim Rayda ham uzoq turolmaydi, chunki Mahmud G‘aznaviyning Rayga ham hujum qilish xavfi bor edi. Shu bois

bu yerni ham tark etib, Hamadonga ko‘chadi. Bu ulus hukmdorini surunkali sanchiq kasalidan davolaganidan keyin olimni saroyga taklif qiladilar. U avval saroy tabibi bo‘lib ishlaydi, so‘ng vazirlig mansabiga ko‘tariladi. Davlat ishlari bilan band bo‘lishiga qaramay ilmiy ishlarini davom qilib, o‘zining mashhur falsafiy qomusi – “Kitobash-shifo”ni yaratadi, “Tib qonunlari”ning ham qolgan qismini yozib tugatadi.

“Tib qonunlari” o‘zining asosiy darslik va qo‘llanma sifatida qimmatini 500-yildan ortiqroq vaqtgacha saqlab qoldi. Birinchi bor bu asar Strasburg shahrida 1473-yilda bosilib chiqdi. Umuman, Yevropada 40 martaga yaqin nashr qilingan. Uning nashr etilish soni bo‘yicha Tavrot bilan raqobat qilgan.

O‘zbekiston sharqshunoslarining samarali izlanishlari bilan Ibn Sinoning bu shoh asarining 5 ta kitobi 1954-1961-yillarda Toshkentda nashr etildi.

Ibn Sino Hamadonda 1023-yilgacha istiqomat qiladi va ayrim siyosiy sabablarga ko‘ra shu yili Isfaxonga jo‘nab ketadi. Umrining qolgan 14-yilini shu yerda o‘tkazadi. Shogirdi Juzjoniying yozishicha, Ibn Sino garchi, jismonan juda baquvvat bo‘lsada, biroq shaharma-shahar darbadarlikda yurish, kecha-kunduz tinim bilmay ishlash va bir necha bor ta’qib qilinib, hatto hibsda yotishlar olimning salomatligiga juda ta’sir etadi, natijada qulanj (kolit) kasalligiga chalinadi.

Hamadon yurtida ham urush harakatlari boshlangach, buyuk tabib qattiq betobligiga qaramay yana safarga otlanadi. Yo‘lda dardi qo‘zg‘ab uning tamomila madori quriydi va oqibatda u 57-yoshida vafot etadi. Olim Hamadonga dafn etiladi.

Buyuk alloma Ibn Sino jahon fani tarixida qomusiy olim sifatida tan olingan, chunki u o‘z davridagi mavjud barcha fanlarning qariyb barchasi bilan shug‘ullangan va ularga oid asarlar yozgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozganligi qayd etilgan, lekin bizgacha ularning 242 tasi yetib kelgan. Shulardan, 80 tasi falsafaga, 43 tasi tabobatga oid

bo‘lib qolganlari mantiq, psixologiya, tabiiyot, astronomiya, matematika, musiqa, kimyo, axloq, adabiyot va tilshunoslikka bag‘ishlangan. Ayniqsa, uning tibbiyat va falsafaga oid kitoblari jahonning ko‘pgina tillariga tarjima etilib, asrlar davomida qayta-qayta nashr qilib kelinmoqda.

Garchi, uni “Avisenna” sifatida g‘arbda mashhur qilgan tibbiy merosi “Tib qonunlari” bo‘lsa, “Shayx-ar-rais” (“Donishmandlar sardori, allomalar boshlig‘i”) nomi eng avval uning buyuk faylasufligiga ishoratdir. Darhaqiqat, Ibn Sino o‘zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr jahon sivilizatsiyasiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan buyuk allomadir.

Abu Rayhon Beruniy Muhammad ibn Ahmad

973 - 1048



Abu Rayhon Beruniy – ulug‘ o‘zbek mutafakkir olimi, o‘rta asrning buyuk daholaridan. O‘z zamonasining hamma fanlarini, birinchi navbatda falakiyot, fizika, riyoziyot, ilohiyot, ma’danshunoslik fanlarini puxta egallagan. Bu fanlar taraqqiyotiga qo‘shtigan hissasi bilan uning nomi dunyo fanining buyuk siymolari qatoridan joy oldi.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy 973-yil 4-sentabrda qadimgi Kot shahrida tavallud topdi. Uning nasl-nasabida “berun” so‘zi “tashqi shahar”, “Beruniy” esa “tashqi shaharda yashovchi kishi” ma’nosini bildiradi.

Beruniyning ilm-fanga qiziqishi yoshligidanoq kuchli bo‘lgan. Mashhur olim Abu Nasr ibn Iroq Mansur qo‘lida ta’lim oladi. Ibn Iroq falakiyot va riyozotga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag‘ishlaydi. Beruniy ham ustozining ismini hamma vaqt zo‘r hurmat bilan tilga oladi.



Beruniy fanning deyarli hamma sohalari bilan shug‘ullandi. Sharqning boy fan va madaniyatini puxta o‘rganib, yunon ilmi bilan ham chuqur tanishib, yirik olim bo‘lib yetishdi. Beruniy shoир, adabiyotshunos ham edi. Ona tilidan tashqari arab, sug‘diy, fors, suryoniy, yunon va qadimiy yahudiy tillarini egalladi. Keyinchalik, Hindistonda sanskrit tilini o‘rgandi. O‘z ilmiy asarlaridan birida yozishicha, Beruniy Xorazmda yashagan davrida 990-yildan Kot shahrida muhim astronomik kuzatishlar o‘tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o‘zi astronomik asboblar ixtiro qilgan.

Xorazm zodagonlari orasida taxt uchun boshlangan kurashlar olimning bu ilmiy ishlarini davom ettirishga imkon bermaganligi bois, 22-yoshida vatanini tashlab chiqib ketishga majbur bo‘ldi va bir qancha vaqt Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida muhojirlilikda yashadi. So‘ng qadimgi Ray shahriga bordi, 998-yildan keyin yana Jurjonga keldi va bu yerda o‘zining ikkinchi ustozи tabib, astronom, faylasuf Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan tanishib, undan ta’lim oldi. Beruniy “Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarini Jurjonda muhojirlilik davrida yoza boshlagan va 1000-yilda tamomlagan. “Osor al-boqiya” Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi, uni fanning hamma sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanini ko‘rsatdi. Bundan tashqari Beruniy Jurjonda astronomiya, netrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozdi. Beruniy Xorazmning yangi hukmdori Abu Abbos Ma’mun II ibn Ma’mun tomonidan mamlakatning yangi poytaxti Urganchga chaqirtirildi. Xorazmshoh tomonidan katta izzat-ikrom bilan qabul qilindi. Beruniy Urganchda Ma’munning bevosita rahnamoligida vujudga kelgan ilmiy markazda faoliyat ko‘rsatdi. Beruniy shoh Ma’mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakatning siyosiy ishlarida ham faol qatnashadi.

Xorazmning Mahmud G‘aznaviy tomonidan bosib olinishi Beruniy hayotini xavf ostiga qo‘yadi. U Xorazmshoh

saroyidagi barcha olimlar bilan birga G‘azna shahriga asir qilib olib ketiladi. Beruniyning 1017-1048-yillarda G‘aznada kechirgan hayoti, bir tomondan nihoyat og‘ir kechgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldar davr bo‘ldi. Beruniyning “Xorazmnning mashhur kishilari” asari ham shu davrda yaratilgan. Uning muhim astronomik-geografik asari “Tahdid nihoyot al-amoniya li tashidi masofat al-masokin” (“Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash” – “Geodeziya”) 1025-yilda yozib tugatilgan. Beruniyning “Munajjimlik san‘atidan boshlang‘ich tushunchalar” asari ham 1029-yil G‘aznada yozilgan. Asarning forsha, arabcha nusxalari bizgacha yetib kelgan. Unda o‘sha zamon astronomiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha fanlar haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Beruniyning “Hindiston” nomli mashhur yirik asari “Tahqiq mo li-l-Hind min ma’quda fi-l-aql av marzula” (“Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash kitobi”) 1030-yilda yozilgan bo‘lib, bu shoh asar G‘arb va Sharq olimlari, shu jumladan, hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baholangan. Akademik V.R.Rozen “Sharq va G‘arbning qadimgi va o‘rtasidagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo‘q”, deb baho bergen. Mahmud G‘aznaviyining Hindistonga qilgan yurishlaridan birida shohga hamroh bo‘lgan Beruniy, u yerda sanskrit tilini puxta o‘rganishi hind madaniyati, adabiyoti va Hindistonning o‘sha davr olimlari bilan yaqindan tanishishga hamda bu mamlakat haqida o‘lmas asar yaratishga imkon berdi. “Hindiston” asari yozib tugatilgan yili Mahmud G‘aznaviy vafot etdi va uning o‘rniga taxtga o‘g‘li Mas‘ud o‘tirdi. Bu davrda Beruniyning ahvoli ancha yaxshilandi. Astronomiyaga oid “Mas‘ud qonuni” asarini sulton Mas‘udga bag‘ishladi. O‘sha asr olimlaridan biri Yoqutning yozishicha: “Mas‘ud qonuni” kitobi matematika va astronomiya bo‘yicha ungacha yozilgan hamma kitoblar izini o‘chirib yuborgan”.

Beruniy o‘z asarlari ro‘yxatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim kitobini yozgan. Bularidan biri “Mineralogiya”dir. Bu risola o‘z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Yevropada ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo‘q asar hisoblanadi. Beruniyning oxirgi asari - “Dorivor o‘simliklar haqida kitobi”ning qo‘lyozmasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topildi. Asar “Saydona” nomi bilan mashhur, unda Beruniy Sharq, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o‘sadigan dorivor o‘simliklarning to‘la tavsifini beradi.

Beruniy shogirdi Abu-l Fadl as-Seraxsiy ma’lumoti bo‘yicha 1048-yil 11-dekabrda G‘aznada (hozirgi Afg‘oniston) vafot etgan.

Beruniy so‘nggi avlodlarga katta ilmiy meros qoldirdi. Beruniyning o‘z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolganligi bizga ma’lum. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan katta hajmdagi asarlaridan tashqari astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyat, farmokognoziya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimlar qildi, badiiy ijod bilan ham shug‘ullanib she’rlar yozdi. “Astrologiyaga kirish”, “Astronomiya kaliti”, “Jonne davolovchi quyosh kitobi”, “Ikki xil harakatning zarurligi haqida”, “Ko‘paytirish asoslari”, “Ptolemy “Almagest”ning sanskritchaga tarjimasi”, “Foydali savollar va to‘g‘ri javoblar”, “Farg‘oniy “Elementlar” iga tuzatishlar”, “Turklar tomonidan ehtiyyotkorlik”, “Oq kiyimlilar va karmatlar haqida ma’lumotlar”, “She’rlar to‘plami”, “Al-Muqanna haqidagi ma’lumotlar tarjimasi”, “Ibn Sino bilan yozishmalar” shular jumlasidandir.

Beruniyning asarlari musulmon Sharq madaniyatining so‘nggi rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. So‘nggi asarlarda arab va fors tillarida yozilgan Bayhaqiy, Shaxrizo‘riy, Qiftiy, Yoqut Hamaviy asarlarida Beruniy haqida muhim ma’lumotlar keltiriladi.

XIII asrda yashagan suriyalik tarixchi va tabib Xristian Ioann Bar Ebrey (1226-1286) Beruniyga shunday baho beradi: “O’sha o’tgan yillarda yunon va hind falsafasi dengizini kechib o’tgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy o’tmish ilmlarda shuhrat qozondi. U matematika ilmlarida mutaxassis bo‘lib, bu sohada qator muhim kitoblar yaratdi. Hindistonga borib, u yerda bir necha yil yashadi, hind faylasuflaridan ularning san’atini o’rgandi va ularga yunon falsafasini o’rgatdi. Uning asarlari nihoyatda ko‘p, yetuk va nihoyatda ishonchlidir. Bir so‘z bilan aytganda, u o‘z davrida, undan so‘ng va hozirga qadar hamkasblari orasida astronomiya ilmida bunday bilimdon va bu ilmning asosini hamda nozik tomonlarini chuqur biladigan olim bo‘lмаган”.

XIX asrdan boshlab Yevropa va Osiyo mamlakatlarida Beruniy merosi bilan qiziqish yanada keng tus oldi. Uning asarlari lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors, turk tillariga tarjima etila boshlandi. Beruniy asarlariga bag‘ishlangan yevropalik olimlarning kitoblari, tarjimalari nashr etildi. Bu tadqiqotchilar Beruniy ijodiga juda yuqori baho berdilar. Amerikalik tarixchi olim J. Sarton Beruniyning merosiga eng oliy baho berish bilan birga, uning o‘z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholaydi. Atoqli sharqshunos V. R. Rozen esa, unga ilmiy qarashlari taajjub qolarli darajada kengligi, uning hozirgi ma’nodagi haqiqiy fanning ruhiga xos ekanligini qayd etadi.

Beruniyning o‘z vatani O‘zbekistonda ham uning ijodiga katta e’tibor berib kelinmoqda. H.M.Abdullayev, I.M.Mo’minov, V.Yu.Zohidov, Ya.G‘.G‘ulomov, U.Karimov, S.A.Bulgakov kabi atoqli olimlarimiz Beruniy faoliyati haqida qator risola, asarlar yaratdilar. Toshkentda unga bag‘ishlangan qator Xalqaro ilmiy konferensiyalar o’tkazildi. Birinchi bor Beruniyning “Qadimgi yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mas’ud qonuni”, “Geodeziya”, “Saydona” kabi asosiy asarlarini o‘z ichiga oluvchi ko‘p tomli saylanma asarlari o‘zbek va rus tillarida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etildi. Fan sohasida Beruniy nomidagi Davlat mukofoti ta’sis etildi.

Imom al-Buxoriy

810-870

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mag‘iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy hijriy 194-yil shavvol oyining 13-kuni (810-yil 20-iyul)da tavallud topgan. Al-Buxoriy yoshligidayoq otasi vafot etib, onasi tarbiyasida o’sgan. U yoshligidan aql-idrokli, o’tkir zehnli va ma’rifatga havasi kuchli bo‘lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo‘r qiziqish bilan egallaydi. U o‘n yoshidan boshlab o‘z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarni, shuningdek, Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to‘plamlarini mutolaa qilib, yodlagan, ustozи Shayx Dohiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg‘in bahslarda qatnashgan. 825-yili o‘n olti yashar al-Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Hijozga qarab yo‘l tutadi, muqaddas shaharlar Makka va Madinani ziyorat qilib, olti yil Hijozda yashab, hadis ilmidan o‘z bilimini yanada oshirish maqsadida o‘sha paytda ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag‘dod kabi shaharlarda yashab, u joylardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta’lim oladi, yirik olimlar davrasida ilmiy bahslaru munozaralarda qatnashadi va ilm toliblariga dars ham beradi. Imom al-Buxoriy hayotining ko‘p qismi xorijiy ellarda, musofirchilikda o‘tdi. Bu haqda uning o‘zi: “Misr, Shom, Mesopatamiyaga ikki martadan, Basraga to‘rt marta borganman. Hijozda olti yil yashaganman, Bag‘dod va Kufa shaharlariga necha marta borganim hisobini bilmayman”, degan ekan. U safar chog‘ida ham, bir shaharda muqim turganda ham ilmini oshirish borasida tinimsiz ishlar, to‘plagan hadislarini oqqa ko‘chirar edi. Bag‘dodda istiqomat qilgan paytda ko‘pincha oyning nurida ijod qilib, qorong‘i kechalarda sham yorug‘ida kitob yozar ekan.

Ilm oshirish maqsadida al-Buxoriy juda ko‘plab olimlardan ta’lim oladi. Nishopurlik al-Hakimning yozishicha, ustozlarining soni to‘qsontalar atrofida bo‘lgan. O‘z navbatida al-Buxoriy ham

ko‘pgina shogirdlariga ustozlik qilgan. Ishoq ibn Muhammad ar-Ramodiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Muhammad ibn Xalif ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn al-Hajjoj kabi yetuk olimlar uning shogirdlaridir.

Termizlik mashhur muhaddis Abu Iso at-Termiziy al-Buxoriyga ham shogird, ham safdosh hisoblanib, ularning o‘zaro munosabatlari ibratli bo‘lgan. Uzoq yillar Sharqning turli-tuman mamlakatlariga safar qilgandan keyin umrining oxirlarida al-Buxoriy 863-868-yillari Nishopurda yashab, madrasada hadis ilmidan dars bergan. O‘scha paytda Nishopur musulmon Sharqidagi eng yirik ilmiy markazlardan biriga aylanganligi sababli ko‘p mashhur olimlar shu shaharda to‘plangan edilar. Al-Buxoriyning at-Termiziy bilan uchrashuvi ham Nishopurda yuz berib, diyorimizdan chiqqan ikki mashhur muhaddis o‘rtasida unutilmas, qizg‘in ilmiy bahslar, ko‘pdan-ko‘p ijodiy, do‘stona uchrashuvlar bo‘lib o‘tadi. At-Termiziyning yozishicha, u o‘z asarlari uchun ko‘p ma’lumotlarni al-Buxoriy bilan uchrashuvlaridan olgan. Shu bilan birga al-Buxoriy ham at-Termiziyning bilimini yuqori baholab: “Men sendan ko‘rgan foyda sen mendan ko‘rgan foydadan ortiqroq”, deb unga nisbatan chuqrur hurmatini bildirgan. At-Termiziy o‘z ustozi va safdoshi al-Buxoriyni butun umri davomida hurmatlab, unga samimiy sadoqatda bo‘lgan. Arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiyning “Tazkirat ul-Hufoz” nomli asarida yozishicha, at-Termiziy o‘z ustozining vafoti tufayli qattiq qayg‘uga botib “ko‘pyig‘laganidan hatto ko‘zlari ko‘r bo‘lib qolib, uzoq yillar ko‘zi ojiz holda yashadi”.

Imom al-Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o‘zining go‘zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatliligi va beqiyos saxovatliligi bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan. U zehni o‘tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan ham xalq orasida g‘oyat shuhrat qozongan. Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan.

Imom al-Buxoriy xorijdan qaytgach, o‘z vatani Buxoroda ko‘plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ko‘pchilik uni hurmat qilgan, ammo ba‘zi hasadgo‘y, qora niyatli kishilar al-Buxoriyni ko‘rolmas edilar. Natijada hasadgo‘ylarning xatti-harakati tufayli Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy bilan al-Buxoriyning aloqasi buzilib qoladi. Bunga sabab, amir olimdan huzuriga kelib “Al-jome’ as-sahih”, “At-ta’rix” kitoblarini o‘qib berishni talab qiladi. Lekin al-Buxoriy “Men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo‘lsa, o‘zi izlasin. Lekin Alloh oxirat kuni ilmni yashirmay uni toliblarga sarf qilgani uchun meni kechiradi”, degan javobni aytadi. Amirga javob yoqmay, fitnachi, bo‘htonkor shaxslarning gapiga kirib al-Buxoriyga shaharni tark etishni buyuradi. Shundan keyin al-Buxoriy Samarqandga qarab yo‘l oladi va bir muncha muddat Xartang qishlog‘ida o‘z shogirdlari va qarindosh-urug‘larinikida yashagandan keyin og‘ir kasalga chalinib, hijriy 256-yil (melodiy 870-yil 1-sentabr) 60-yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo‘lib, u yozgan asarlarning soni yigirmatadan ortiqdir. Ulardan “Al-jome’ as-sahih”, “Al-adab al-mufrad”, “At-ta’rix as-sag‘iy, “At-ta’rix al-avdot”, “At-ta’rix al-kabir”, “Kitob al-ilal”, “Barr ul-volidayn”, “Asomi us-sahoba”, “Kitob al-kuna” va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Buyuk allomaning eng muhim asari, shubhasiz, “Al-jome’ as-sahih”dir. Bu asar “Sahiyh al-Buxoriy” nomi bilan ham mashhur. Uning g‘oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom al-Buxoriygacha o‘tgan muhaddislar o‘z to‘plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o‘tirmay qatorasiga kiritaverганлар. Imom al-Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarni tabaqalarga bo‘lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratdi.

Alloma ibn Salohning ta’kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo‘lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000

hadisdan iborat. Bu sharaflı ishni birinchi al-Buxoriy boshlab bergen bo‘lib, keyin qator olimlar unga taqlid qilib, shu zaylda hadislar to‘plamini yaratganlar. Imom al-Buxoriyning ushbu yirik asari yozilganiga taxminan 1200-yil bo‘ldi, o’sha davrdan boshlab toki shu vaqtgacha u islom ta’limotida Qur’ondan keyingi ikkinchi o‘rinda turadigan muhim manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Imom al-Buxoriyning ushbu asarining ko‘plab nusxalari turli shaharlarda tarqalgan. Hatto o‘rtalarda yashagan ba’zi adib va xattotlar uchun bu asar nusxalarini ko‘chirish tirikchilik manbai ham bo‘lgan. Jumladan, taniqli adib va tarixchi an-Nuvayriy (1332-yilda vafot etgan) al-Buxoriyning ushbu asaridan sakkiz nusxa ko‘chirib, har birini ming dirhamdan sotgan. 1325-yilda ko‘chirilgan sakkiz jilddan iborat go‘zal bir nusxasi hozir Istambulda saqlanmoqda. “Al-jome’ as-sahih”ga ko‘pdan-ko‘p sharhlar bitilgan bo‘lib, muhim manba sifatida u qayta-qayta nashr ham qilingan. Imom al-Buxoriy to‘plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta’limotiga oid umumiyligini qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq ko‘ngillik, ota-onalik, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir-bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollikka da’vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o‘zini tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo‘l-yo‘riqlar, pand-nasihat va o‘gitlar aks ettirilgan.

1974-yilda O‘rtalik Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari Diniy boshqarmasi tashabbusi bilan respublikamizda butun islom dunyosi vakillari ishtirokida allomaning 1200-yillik yubileyi nishonlangan edi. Uning shoh asarlari hisoblanmish “Al-jome’ as-sahih” va “Al-adab al-mufrad” kitoblari Toshkentda qaytadan nashr qilinishi al-Buxoriy merosini o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Toshkentdagisi diniy oliy ma’hadning Imom al-Buxoriy nomi bilan atalishi bundan o‘n ikki asr

muqaddam ilm-fan yo‘lida beqiyos katta xizmat qilgan buyuk olimga chuqur hurmat-e’tiborning ramzidir. Allomaning Xartang qishlog‘ida joylashgan salobatli maqbarasi eng obod va ko‘rkam qadamjolardan biri sifatida ardoqlanib, islom ahli va barcha mehmonlar uchun tabarruk ziyoratgoh sifatida mashhurdir. 1998-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan buyuk hadisshunos allomaning 1225-yillik tavalludi munosabati bilan uning maqbarasi qayta qurildi.

Abu Iso Muhammad at- Termiziy (824-892)

Islom ilmlarining taraqqiy etishida Turkiston shaharlari ichida Termiz kenti ham katta ahamiyat kasb etgan. Samarqand va Buxoroni Balx kabi qadimiy ilm markazi bilan bog‘lovchi shahar Termiz edi. Shuning uchun ham bu yerda ko‘plab allomalar yetishib chiqqan. Shulardan biri - Abu Iso Imom Termiziyyidir. Manbalarda aytilishicha u 300 dan ortiq asar bitgan. Shulardan 57 tasi bizning zamonamizgacha yetib kelgan.

To‘liq nomi Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhok Sullamiy Bug‘iy Termiziy. Sullamiy deb nisbat berilishiga sabab bobolaridan biri sullam degan arab qabilasiga do‘sit tutingan. Bug‘iy deylishiga sabab o‘sha vaqtdagi Bug‘ nomli qishloqda vafot etib, shu yerga dafn qilingan. Umrining oxirida ko‘zi ojiz bo‘lib qolgani uchun al-Darir taxallusi bilan ham atalgan.

At-Termiziy milodiy 824-yilda Termizda (Bug‘ qishlog‘i, hozirgi Sherobod tumani), uncha badavlat bo‘lmagan oilada tavallud topdi. Uning yoshlik yillari Termiz shahrida o‘tib, dastlabki ma’lumotni ham shu shaharda olgan. At-Termiziy yoshligidan turli ilmlarni egallahsga zo‘r qiziqish bilan intilgan. Bolaligidan o‘ta ziyrakligi, yodlash qobiliyatining kuchliligi, noyob qobiliyatini bilan o‘z tengurlaridan ajralib turgan at-Termiziy diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish

bilan egallab, bu boradagi o‘z bilimlarini muttasil oshirish uchun ko‘pgina Sharq mamlakatlarini ziyorat qilgan.

Uzoq yillar Iroq, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada yashagan. Uzoq davom etgan safarlari chog‘ida qiroat ilmi, bayon, fiqh, tarix, ayniqsa, o‘zi yoshlikdan qiziqqan hadis ilmi bo‘yicha o‘sha davrning yirik olimlaridan ta’lim oladi. Mashhur muhaddislardan Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Qutayba ibn Muso, Mahmud ibn G‘aylon va boshqalar uning ustozlari edi.

Termiziy Imom Buxoriy bilan uchrashganida (bu uchrashuv Nishopurda bo‘lgan va ikki alloma besh yil birgalikda yashashgan) hadisning matninigina emas, uning hikmati va falsafasini tushunib yetganini e’tirof etadi. O‘z vaqtida Imom Buxoriy shogirdini maqtab, kamtarinlik bilan: “Sen mendan bahra topganingdan ko‘ra men sendan ko‘proq bahra topdim”, degan. Bu Termiziyya berilgan juda katta baho edi.

Termiziy yo‘lda, safarda bo‘lganda ham, yoki bir joyda muqim turganda ham ustozlaridan, uchratgan roviylardan eshitgan hadislarni yozib olar, ularni tartibli ravishda alohida-alohida qayd qilib borardi. 868-yilda xorij safaridan o‘z yurtiga qaytgan Termiziy ilmiy-ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘ldi va yirik muhaddis, imom sifatida shuhrat qozondi. Taqvodorlik, islom dini va o‘z obro‘siga gard yuqtirmaslikka intilish, dunyo mol-matosi va boylikka beparvo qarash, oxiratning g‘amini yejish Termiziyning hayoti tarzi edi. O‘z davrining yetuk muhaddis olimi sifatida tanilgan at-Termiziy ko‘pdan-ko‘p shogirdlarga ustozlik qilgan. Xidis ilmidagi uning shogirdlaridan Makhul ibn al-Fadl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Hamod ibn Shokir, Abd ibn Muhammad Nasafiy, Haysam ibn Kulayb Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf Nasafiylarni ko‘rsatish mumkin.

At-Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan. “Al-Jomi’ as-sahih” (“Ishonarli to‘plam”), “ash-Shamoil an-nabaviya” yoki “ash-Shamoil an-nabiy sallolohu

alayhi va sallam” (“Payg‘ambar alayhissalomning shakl va sifatlari”), “al-Ilal fil-hadis” (“Hadislardagi illatlar”), “Risola fil-xilof val-jadal” (“Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola”), “at-Ta’rix” (“Tarix”), “Kitob uz-zuhd” (“Zohidlik kitobi”), “Kitob ul-asmo val-kuno” (“Ismlar va kunyalar kitobi”) kabi asarlar shular jumlasiga kiradi. Termiziyning asarlari ichida eng mashhuri, shubhasiz, “Al-Jomi’ as-sahih” bo‘lib, 6 ta ishonchli hadislar to‘plamidan biridir. Ushbu asar ilmiy manbalarda “Jomi’ at-Termiziy”, “Sahihi Termiziy”, “Sunani Termiziy” nomi bilan ham ataladi. Termiziyning muhim asarlaridan yana biri “ash-Shamoil an-nabaviya” Muhammad (as)ning shaxsiy hayoti, u zotning suvrat va siyrati, ajoyib fazilatalari, odatlariga oid 408 hadisi sharifni o‘z ichiga qamragan manbadir. Bu kitob azaldan islomshunos olimlar, tadqiqotchilarining diqqatini o‘ziga tortib keladi. Arab tilida bitilgan ushbu asarga bir qancha sharhlar ham yozilgan. Uning tili ravon, uslubi nihoyatda oddiy. Asar fors va turk tillariga tarjima qilingan. “ash-Shamoil an-nabaviya”ning 1-qismida keltirilgan hadisi shariflar payg‘ambarning suvrat (tashqi qiyofasi)iga, 2-qismida keltirilgan hadisi shariflar esa ichki dunyosi-yu, axloqiy fazilatlarini bayon qilishga bag‘ishlangan. Kitobning 16 asrga oid bir qo‘lyozmasi Toshkentda, O‘zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanadi. “Ash-Shamoil an-nabaviya” o‘zbek tiliga o‘girilib, so‘nggi yillarda Toshkentda bir necha bor nashr etildi. 1990-yilda Termiziy tavalludining 1200-yilligi yurtimizda keng nishonlandi. Mustaqillik yillarida Termiziyning yodgorlik majmuasi qaytadan ta’mirlanib, qutlug‘ ziyoratgohga aylantirildi. At-Termiziy o‘z yurtida yirik muhaddis olim sifatida shuhrat qozondi va ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘ldi. U hijriy 279 (melodiy 892) yilda Termizdan uzoq bo‘lmagan Bug‘ qishlog‘ida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi. Buyuk vatandoshimiz Abu Iso Muhammad at-Termiziy bizga boy va katta ilmiy meros qoldirdi. U Xuroson va Mavarounnahrda ilk tasavvuf ta’limotchisi, huquqshunoslik,

tabiatshunoslik, tabobat, ilmu nujum, tilshunoslik, axloq va boshqa ko‘plab qomusiy ilm sohalarida asarlar yaratgan allomadir.

Burhonuddin al-Marg‘inoniy (1123-1197)



Buyuk faqih Ali ibn Abu Bakr ibn Abd ul-Jalil al-Farg‘oniy ar-Rishtoniy al-Marg‘inoniy 1123-yil 23-sentabrda tug‘ilgan. U Qur’oni, hadis ilmlarini mukammal egallab, fiqh — islom xuquqshunosligi borasida benihoya chuqur ilmga ega bo‘lganligi va bu sohada beqiyos durdonalar yaratganligi tufayli Burhon ud-din va-l-milla va Burhonuddin al-Marg‘inoniy nomlari bilan mashhurdir.

Burhonuddin al-Marg‘inoniy dastlabki ta’limni Marg‘ilonda olib, keyinchalik Movarounnahrning o‘sha davrdagi diniy va ma’rifiy markazi bo‘lgan Samarqandga ko‘chib borgan va umrining oxirigacha o‘sha yerda yashagan. Mavlono Burhonuddin al-Marg‘inoniy yoshlik chog‘laridanoq Qur’oni karimni yod olib, hadislarni chuqur o‘rgangan.

U balog‘at yoshiga yetganida mukammal ilmga ega bo‘lganiga qaramay ustozlardan ta’lim olishni davom ettirdi. 1149-yili Burhonuddin al-Marg‘inoniy haj safariga bordi. “Kitob ul-mashoyix” (“Shayxlar haqidagi kitob”) asarida u o‘zi ta’lim olgan 40 dan ortiq shayx va allomani sanab o‘tgan. Bu ro‘yxatda Najmuddin Umar ibn Muhammad an-Nasafiy, Abu al-Asir al-Baydaviy, Abu Yoqub as-Sayariy, Abu Ishoq an-Navqadiy, Ja’far al-Hinduvoniylarning nomlari bor.

Keyinchalik u fiqhga oid masalalar bilan qiziqib, o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan allomalaridan “Al-Muhit” (“Ilmlar dengizi”) asarining muallifi Umar ibn Maaza, “Al-Fatava va favoid az-Zahira” (“Fatvolar va zohir narsalarning foydalari”)

asarining muallifi Zohir ud-din ibn Umar al-Qodiy al-Buxoriy ibn al-Itobiy va boshqalarning nazariga tushgan.

Burhonuddin al-Marg‘inoniy islom dinidagi sunniylarning to‘rtta asosiy mazhabi asoschilarining asarlarini o‘rganish bilan birga o‘zi ham fiqhga oid bir qator asarlar yaratgan. Bizgacha yetib kelgan asarlaridan “Bidoyat al-muntahiy” (“Boshlovchilar uchun dast-labki ta’lim”), “Kifoyat al-muntahiy” (“Yakunlovchilar uchun tugal ta’lim”), “Nashr ul-mazhab” (“Mazhabning yoyilishi”), “Kitob ul-mazid” (“Ilmni ziyoda qiluvchi kitob”), “Manosik ul-haj” (“Haj marosimlari”), “Majma ul-navozil” (“Nozil bo‘lgan narsalar to‘plami”), “Kitob ul-faroiz” (“Farzlar kitobi”) va boshqalar ma’lum.

Al-Marg‘inoniyning butun islom olamida mashhur bo‘lgan “Hidoya” asari 1178-yili Samarqandda yozildi. Mahmud ibn Sulaymon al-Kafaviyning “Katoib ul-a’lom al-axyor fi taboqot fuqaho va mashoyix mazhab an-Nu’mon” (“Nu’mon mazhabiga mansub bo‘lgan taniqli alloma faqihlar va shayxlar haqidagi kitob”) nomli asarida keltirilishicha, Burhonuddin al-Marg‘inoniy “Bidoyat al-muntahiy” asarining so‘z boshisida “Hidoya”ning yaratilishi xususida shunday yozgan: Abu-l-Hasan Ali ibn Bakr Abd ul-Jalil bir kuni fiqh masalalariga bag‘ishlangan hajmi uncha katta bo‘lмаган, lekin mazmuni to‘liq bo‘lgan bir yaxlit kitob zarur ekanligi haqida fikr bildirdi. Iroqqa safar qilganimda u yerda “al-Muxtasar al-Quduriy” (“Kuduriy qisqartmasi”)ni ko‘rdim. U fiqh bobida ajoyib asar edi. Bu paytgacha kattayu-kichik barcha “Jome’ us-Sag‘ir” (“Kichik to‘plam”) dan foydalangan edi. Shunda fikhga oid barcha asarlarni jamlab, ulardan eng zarur masalalarni oldim va bu asarga “Bidoyat al-muntahiy” deb nom berdim. Keyinchalik bu asarga sharh yozib, uni “Kifoya ul-muntahiy” deb nomladim.

Keyinchalik bu asarlarning ham hajmi kattalik qilib, yanada mo‘jaz bo‘lgan, butun islom olamida xanafiya mazhabining fiqh masalalarida asosiy qo‘llanmasiga aylangan al-Marg‘inoniyning

“al-Hidoya” asari yaratildi. Bu asar butun musulmon olamida mashhur bo‘lib ketdi, musulmon huquqi — fiqh bo‘yicha eng aniq, izchil, mukammal asar sifatida tan olindi.

“Hidoya”ning asosini fiqh ilmi asoschilaridan bo‘lgan Abu Hanifa an-Nu’mon ibn Sobit, Abu Abdulloh, Ahmad ibn Hanballarning yirik asarlari, bu allomalarining shogird va safdoshlaridan imom Abu Yusuf, imom Abu Abdulloh ibn Husayn-ash-Shayboniy (imom Muhammad), imom Abu-l-Kazl Zufar ibn Xazllarning asarlari, dastlabki to‘rt xalifa va sahobalarning rivoyatlari, ular xabar qilgan hadislar tashkil qiladi. Bundan tashqari, “Hidoya”da asosiy fiqhiy masalalarning sharhi va yechimida Muhammad Bazdaviyning “Mabsut”, ibn Iso at-Termiziyning “Jome’ ul-Kabir” (“Katta to‘gsham”), Quduriyning “al-Muxtasar al-Quduriy” kabi asarlariga ishora qilinadi.

“Hidoya”da huquqiy masalalarning yechimi dastlab yirik fiqh olimlari fikrlarining bayoni va unga boshqa mualliflar e’tirozlar yoki qo‘shilishlarini izhor etish yo‘li bilan berilgan. Ana shu obro‘li mualliflar fikrlaridan kelib chiqib, muayyan masalada eng ma’qul yechimni tanlab olish yo‘liga amal qilingan. Shu tariqa unda qonunning aynan ifodasigina emas, balki uning mukammal sharhi ham asoslab keltiriladi.

“Hidoya” to‘rt juzdan iborat bo‘lib, birinchi juzga ibodat masalalari kiritilgan, bular: tahorat, namoz, ro‘za, zakot va haj kitoblaridir. Ikkinci juzga nikoh, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolaning nasabini aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yo‘qolganlar, sherikchilik va vaqf mulki kabi masalalar kiritilgan.

Uchinchi juzda esa oldi-sotdi, pul muammolar, kafolat, pulni birovga o‘tkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da’vo, iqror bo‘lish, sulh, bir ishda pul bilan sherik bo‘lish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg‘a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan

ullar, voliylik (patronat), majbur qilish, homiylik, qisman ozod bo‘lgan ullar va bosqinchilik xususidagi masalalar o‘rin olgan.

To‘rtinchi juzda esa shafoat, meros taqsimlash, dehqonchilik hamda bog‘dorchilik xususida shartnoma, qurbanlikka so‘yiladigan jonzod haqida, umuman qurbanlik qilish haqida, shariatga zid yomon narsalar haqida, tashlandiq yerlarni o‘zlashtirish xususida, taqiqlangan ichimliklar haqida, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar xususida, xun haqi to‘lash, vasiyat kabi masalalar yoritilgan.

“Hidoya” bir necha asrlar davomida ko‘p musulmon mamlakatlari, jumladan, Markaziy Osiyoda ham huquqshunoslik bo‘yicha eng asosiy qo‘llanma hisoblanib, bu yerda 1917-yil inqilobidan keyin ham, to 30-yillargacha shariat qozilari bekor qilinib, sovet sud sistemasi joriy qilinguncha, amalda bo‘lib keldi. Hozirgi kunda ham islom shariati asosida ish yuritadigan musulmon mamlakatlar huquqshunoslida bu asardan keng foydalaniadi. “Hidoya”ning 1893-yilda rus tilida qisqartirilgan tarjimasi N.P.Grodekov tomonidan nashr etilgan.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi tufayli islom yodgorliklari, jumladan, shariat, fiqhga oid asarlarni o‘rganish, bu sohadagi boy merosimizni nashr etish imkoniyati vujudga keldi. Vatandoshimiz al-Marg‘inoniyning “Hidoya” asari islom huquqshunoslida mashhurligini nazarga olib N.I.Grodekovning inglizchadan ruschaga qilgan va tor doira uchun mo‘ljallangan “Hidoya”ning 1-kitobi Toshkentda 1994-yilda yuridik fanlari doktori A.X.Saidovning so‘z boshisi va sharhi bilan qayta nashr etildi.

Uzoq musulmon olamida hozirgacha o‘z qimmatini yo‘qotmagan “Hidoya” va uning muallifi Marg‘inoniy faoliyati o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Mahmud az-Zamaxshariy

Allomaning to‘liq ismi Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy bo‘lib, u hijriy 467-yil rajab oyining 27 kuni (1075-yil-19-mart) Xorazmnинг katta qasabalaridan biri — Zamaxshar qishlog‘ida tavallud topdi. Az-Zamaxshariy haqidagi ma’lumotlar asosan O‘rta asr arab manbalarida keltiriladi. Otasi unchalik badavlat bo‘lmasa-da, savodli, taqvodor, diyonatli kishi bo‘lgan va aksar vaqtini Qur‘on tilovati-yu namoz o‘qish bilan o‘tkazib, Zamaxshardagi bir masjidda imomlik ham qilgan. Az-Zamaxshariyning onasi ham taqvodor, dindor ayollardan hisoblangan.

Aftidan, az-Zamaxshariyning otasi serfarzand bo‘lgan. Chunonchi, shoir qasidalaridan birida otasining farzandlari ko‘p va oilasi katta bo‘lgani tufayli ham tirikchilik yo‘lida tinmay mehnat qilgani haqida yozadi.

Az-Zamaxshariylar oilasi islomning mu’taziliy ta’limotiga mansub bo‘lib, yosh Mahmudning dunyoqarashi mana shu dindor, taqvodor otasining ta’sirida shakllandи va dastlabki bilimni ham o‘z otasidan oldi. Alloma haqidagi ma’lumotlardan ma’lumki, uning bir oyog‘i yog‘ochdan bo‘lib, tarixchilar bu haqda: “Bir oyog‘i yog‘ochdan edi va uzun yaktagini tushirib kiygани uchun qurgan odam uni cho‘loq deb o‘ylardi” — deb yozganlar. Og‘ir illat tufayli u yoshligidan bir oyoq bo‘lib qolgan va shundan so‘ng otasi uni endi og‘ir mehnatga yaramaydi, deb kiyim tikuvcchi ustaga shogirdlikka bermoqchi bo‘ladi. Biroq yoshligidan ilmga havasmand o‘sgan Mahmud otasidan o‘zini madrasaga o‘qishga yuborishni so‘raydi. O‘g‘lidagi ilmga bo‘lgan zo‘r ishtiyoq va havasni sezgan otasi uni madrasaga beradi.

Az-Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalari bilan qiziqib, tolibi ilmlar orasida zo‘r iste’dodini namoyon qila boshlaydi. U madrasada o‘qitiladigan ilmlarni, ayniqsa, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlarni puxta egallahsga kirishadi, o‘sha davrda ilm ahli



orasida qadrlangan xattotlik san’atini ham mukammal egallab, o‘z tirikchiligini birqadar tuzatadi. So‘ng, arab tarixchisi va biografi ibn Xallikonning yozishicha, talabalik yoshiga yetgach, bilimini yanada oshirish, har tomonlama kamol toptirish maqsadida Buxoroga yo‘l oladi. Buxoro, mashhur olim Abu Mansur as-Saolibiyning (961-1138) iborasi bilan aytganda: “Somoniylar davridan boshlab shon-shuhrat makoni, sultanat ka’basi va zamonasining ilg‘or kishilar jamlangan: yer yuzi adiblarining yulduzlar porlagan va o‘z davrining fozil kishilar yig‘ilgan (joy) edi”. Az-Zamaxshariy Buxoroda o‘qishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo‘lib, kotiblik bilan shug‘ullanadi, hukmdorlar bilan yaqinlashishga urinadi. Biroq qobiliyati, ilmi, fazilatiga yarasha biror mansab va munosib e’tibor ko‘rmagach, o‘zga yurtlarga safar qiladi, matlabu maqsadlarining ushalishiga umid bog‘laydi. 1118-yili az-Zamaxshariy og‘ir dardga chalinadi, bu kasallikdan tuzalgach esa hukmdorlar xizmatiyu mansab va mol-dunyo ta’masidan mutlaqo voz kechadi, qolgan umrini faqat ilm-fanga bag‘ishlashga, asarlar ta’lif etishga astoydil qaror qiladi.

Az-Zamaxshariyning o‘z davri ilmlarini to‘liq egallahsga, olimlik darajasiga yetishishida, shubhasiz, ustozlarining xizmati benihoya katta bo‘lgan. Mana shunday ustozlardan biri — til, lug‘at va adabiyot sohasida mashhur olim Abu Mudar Mahmud ibn Jariyr al-Dabbiy al-Isfahoniydir (1113-yili Marvda vafot etgan). Al-Isfahoniy Xorazmda ham bir qancha muddat yashagan. Bu o‘lkada mu’taziliylar ta’limotining joriy bo‘lishi ham mana shu Al-Isfahoniy nomi bilan bog‘liqdir. Az-Zamaxshariy Bag‘dodda shayx ul-islom Abu Mansur Nasr al-Xorisiy, Abu Saad ash-Shaqqoniy, Abul Xattab ibn Abul Batar kabi mashhur olimlardan hadis ilmidan tahsil oldi. Makkada bo‘lganida esa nahv va fiqh bo‘yicha ilmni Abu Bakr Abdulloh ibn Talxat ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Yabiriy al-Andalusiy, ash-shayx as-Sadiyd al-Xayyatiy, lug‘at ilmini esa Abu Mansur Mavhub ibn

al-Xadar al-Javoliqiy kabi mashhur olimlardan o‘rgandi.

Az-Zamaxshariy hayoti davomida Marv, Nishapur, Isfahon, Shom, Bag‘dod va Shijozda, ikki marta Makkada bo‘ldi. Olim bu yerda ilmiy ishlarini davom ettirdi, arab tili grammatikasi va lug‘atini hamda mahalliy qabilalarning lajhalarini, maqollarini, urchodatlarini chuqur o‘rgandi, bu mintaqaga jug‘rofiyasiga oid xilma-xil ma’lumotlarni to‘pladi.

Adib ko‘p asarlarini Makkaligida yaratadi. O‘z hayotida chuqur iz qoldirgan Makkada az-Zamaxshariy besh yilcha yashaydi. Shu boisdan u Jorulloh (“Ollohning qo‘schnisi”) degan sharafla laqabga tuyassar bo‘ladi. O‘z davrining yirik olimi darajasiga ko‘tarilgan az-Zamaxshariyning Xorazmda ham, Sharqning boshqa ko‘pgina shaharlarida ham ko‘pdan-ko‘p shogirdlari bo‘lgan, alloma ko‘p vaqtini o‘shalarga bag‘ishlardi. U qarindosh-urug‘larining qiyin-qistovlariga qaramasdan, hayotida biror marta ham uylanmagan. Ilmiy asarlar yaratish va munosib shogirdlar tayyorlashni farzand o‘stirishdan a‘lo deb hisoblagan. Az-Zamaxshariy oxirgi marta Makkadan qaytib, Xorazmda bir necha yil yashaydi va hijriy 538-yilda, arafa kechasi (1144-yil 14-aprel) vafot etadi. 1333-yili Xorazmda sayohatda bo‘lgan mashhur arab sayyohi ibn Battuta (1304-1377) “Ar-Rihla” (“Sayohatnoma”) asarida az-Zamaxshariyning ustida qubbasi bo‘lgan maqbarasini ko‘rganini yozadi.

Buyuk mutafakkir az-Zamaxshariy arab grammatikasi, lug‘atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jug‘rofiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq asarlar yaratgan, ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan.

Arab tilshunosligi va grammatikasining turli tomonlariga oid asarlar az-Zamaxshariy ijodida salmoqli o‘rin egallaydi. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid “Al-Mufassal” (1121-yil) nomli asarini u Makkada yashagan paytida, bir yarim yil davomida yozgan. “Al-Mufassal” arab tili nahvu sarfini o‘rganishda yirik qo‘llanma sifatida azaldan Sharqda ham,

g‘arbda ham shuhrat topgan asarlardan hisoblanadi. Ko‘pchilik olimlar o‘z ilmiy qimmati jihatidan az-Zamaxshariyning bu asari taniqli arab tilshunosi Sibavayhning (796-yili vafot etgan) arab grammatikasiga oid kitobidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi, deb ta’kidlaganlar. O‘scha davrning o‘zidayoq arablar orasida ham bu asar katta e’tibor qozongan va arab tilini o‘rganishda asosiy qo‘llanmalardan biri sifatida keng tarqalgan. Hatto Shom (Suriya) hokimi Muzaffariddin Muso kimda-kim Az-Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, unga besh ming kumush tanga pul va sarupo sovg‘a qilishni va’da bergen. Bir qancha kishilar asarni yod olib, mukofotga ham sazovor bo‘lganligi manbalarda keltirilgan. Bu misol az-Zamaxshariy asarining o‘scha davrda ham qanchalik yuksak baholanganini ko‘rsatadi. Bu asarning bir qo‘lyozmasi Toshkentda, O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. “Al-Mufassal”ning ixchamlashtirilib, muxtasar holga keltirilgan nusxasi “Al-Unmazaj” (“Namuna”) nomi bilan ataladi. Grammatikaga oid asarlaridan “Sharh abyat kitob Sibavayh” — hozir zikr etganimiz Sibavayhning kitobiga yozilgan mukammal sharhdir. Az-Zamaxshariyning xorazmshoh Alouddavla Abulmuzaffar Otsizga bag‘ishlab yozilgan “Muqaddimat ul-adab” asari alohida ahamiyatga egadir. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, xorazmshohlar davrida ilm-fan, madaniyat ancha taraqqiy qilgan edi. Hukmdorlar, ayniqsa, xorazmshoh Otsiz olimlar, shoiru adiblarga hurmat bilan qarar, o‘zi ham iste’dodli, ma‘rifatparvar, adabiyotga qiziqqan, bilimdon odam edi. Uning davrida ilm-fan taraqqiyoti yo‘lida bir qancha xayrli ishlар amalga oshirilgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, az-Zamaxshariy “Muqaddimat ul-adab”ni uning nomiga bag‘ishlab yozgan. Asar besh katta qismga bo‘lingan bo‘lib — otlar, fe’llar, bog‘lovchilar, ot o‘zgarishlari va fe’l o‘zgarishlari haqida bahs yuritadi.

Asar 1137-yillari yozib tugallangan.

Az-Zamaxshariy o‘z asarida o‘scha davr arab tilining iste’molda bo‘lgan barcha so‘zlari, iboralarini qamrashga intilgan,

ularning etimologiyasiga katta e'tibor qilgan. Shu boisdan ham az-Zamaxshariyning bu yirik asarini mazkur yo'nalishdagi dastlabki asarlardan deyishga haqlimiz. "Muqaddimat ul-adab" arabchadan fors, chig'a-toy, mo'g'ul va turk tillariga tarjima qilingan. Manbalarda ta'kidlanishicha, asarning chig'atoy tilidagi tarjimasi az-Zamaxshariyning o'zi tomonidan amalga oshirilgan. Zotan xorazmshoh Otsizning tushunishi uchun asarning arabcha matni bilan birgalikda chig'atoy tilidagi tarjimasi ham yaratilgan, deb bilish o'rinnlidir. "Muqaddimat ul-adab" yaratilgan davridan boshlab bir necha asrlar davomida olimlar, tadqiqotchilar diqqatini o'ziga tortib kelayotir. U birinchi marta 1706-yili Xo'ja Ishoq Afandi tomonidan usmonli turk tiliga tarjima etilgan. So'ngra Ovro'poning bir qancha tillariga (fransuz, nemis) o'girilgan. Parij, Leypsig, Vena, Leydan, qozon shaharlarida, Norvegiya, Misr va Hindistonda bir necha marta chop etilgan. Nemis olimi Vatzastayn "Muqaddimat ul-adab"ning Ovro'po qo'lyozma fondlaridagi yettita nusxasini qiyosiy o'rganib, 1850-yili Leypsigda asarning ikki jildlik tanqidiy matnnini nashr etgan.

Asarning chig'atoy tilidagi tarjimasi o'zbek tili tarixini o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. Bu haqda Sadriddin Ayniy 1921-yili "Mehnatkashlar tovushi" gazetasiga yozgan maqolasida "Az-Zamaxshariyning "Muqaddimat ul-adab" asari o'zbek tili uchun butun dunyoning xazinasi bilan barobardir, deb yozgan edi.

Az-Zamaxshariy Makka amiri, olim va adib Abul Hasan Ali ibn Hamza ibn Vahhos as-Sulaymon bilan dust edi. Ibn Vahhos o'z mamlakatining jug'rofiyasi bilan juda yaxshi tanish bo'lган. Az-Zamaxshariy ibn Vahhos ma'lumotlariga tayanib, o'zining Hijozga qilgan safaridan olgan shaxsiy kuzatishlari asosida yozgan "Kitob al-jibol va-l-amkina va-l-miyoh" ("Tog'lar, joylar va suvlar haqida kitob") nomli asarida jug'rofiy joylar, tog'lar va dengizlarga doyr qimmatbaho ma'lumotlar keltiradi. Mashhur arab olimi va sayyohi Yoqut al-Hamaviy

(1179-1229) ham o‘zining butun dunyoga taniqli “Mu’jam al-buldon” (“Mamlakatlar qomusi”) asarida Arabiston, xususan, Hijoz haqidagi ma’lumotlarni az-Zamaxshariyning ushbu asariga tayanib yozgan. Az-Zamaxshariyning bu asari g‘arb olimlari o‘rtasida ham keng tanilgan, 1856-yili gollandiyalik arabshunos olim Salverda de Grave tomonidan mukammal tadqiq qilingan holda nashr etilgan.

Az-Zamaxshariy adabiyot, tafsir, hadis, fiqh ilmlari bo‘yicha ham mukammal asarlar yaratgan.

Olimning “Asos al-balog‘a” (“Notiqlik asoslari”) asari asosan lug‘atshunoslikka bag‘ishlangan. Unda arab tilining fasohati, mukammalligi haqida so‘z boradi. Fikrni chiroyli ibora va so‘zlar bilan ifodalash, so‘z boyligidan ustalik bilan foydalanish uchun kishi fasohat, balog‘at ilmlaridan yaxshi xabardor bo‘lishi kerak.

Buning uchun so‘zni to‘g‘ri, o‘z o‘rnida ishlatish, qoidaga muvofiq so‘zlash va yozish ham kerak bo‘lgan. Bu asarda adabiyotning asosiy qismlari, frazeologik so‘z birikmalari, ularni amalda tadbiq etish yo‘llari chuqur tahlil qilingan.

“Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi’z va-l-xutab” (“Xutbalar va va’zlar bayonida oltin shodalar”) — nasihatomuz maqolalar to‘plamidan iborat. Asar birinchi marta 1835- yili olmon olimi Fon Xomir tomonidan nemischaga tarjima qilinib, arabcha matni bilan nashr etilgan. O‘ttiz yilcha o‘tgach, fransuzchaga tarjima qilinib, 1886-yili Parijda chop etilgan. 1873-yili ham usmonli turk tiliga tarjima qilinib, Istambulda nashrdan chiqqan.

Az-Zamaxshariyning “Rabi’ ul-abror va nusus ul-axyar” (“Ezgular bahori va yaxshilar bayoni”) asarida adabiyot, tarix va boshqa fanlarga oid hikoyalari, latifalar, suhbatlarning eng saralari jamlangan, 97 bobdan iborat bu asarning nodir bir qo‘lyozma nusxa-si Toshkentda, O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Bundan tashqari, Leyden, Berlin kutubxonalarida ham qo‘lyozmalari mavjud.

Olimning aruz vazni haqida bahs yurituvchi “Al-Kustos fi-l-aruz” (“Aruzda o‘lchov (mezon)”) asari muhim manbalardan hisoblanadi. Alifbo tartibida yig‘ilgan arab maqollari, masallariga bag‘ishlangan boshqa bir asarini “Al-Mustaqso fi-l-amsol” (“Nihoyasiga yetgan masallar”) deb atadi. “Maqomat” (“Maqomlar”) — ellik maqomdan iborat bo‘lib, qofiyali nasr — saj’ uslubining nozik namunalarini o‘zida mujassam etgan muhim asardir. “Devon ush-she’r” kitobi ham diqqatga sazovor asarlardan sanaladi. Az-Zamaxshariyning “Navobig‘ ul-kalim” (“Nozik iboralar”) asari esa arab lug‘atlarini o‘rganishga bag‘ishlangan yuksak did bilan yozilgan. Bu asar dastlab fransuz tiliga tarjima qilinib, asl nusxasi bilan birgaliqda 1876-yili Parijda, 1870-yili Qohirada, 1884-yili Bayrutda, 1896-yili esa Qozon shahrida nashr etilgan.

Az-Zamaxshariyning g‘oyatda keng tanilgan “Al-Kashshof an haqiqit tanziyl va uyun ilgaqoviyl fi vujuh it-ta‘viyl” (“Qur‘on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so‘zlar ko‘zlarini ochish”) asari Qur‘on tafsiriga bag‘ishlangan. Ma’lumki, O‘rta asrlardan boshlab Qur‘onni tafsir yoki sharh bilan o‘qish odad tusini olgan. Shu boisdan ham qur‘on yaratilgan davrdan boshlaboq unga bag‘ishlangan tafsirlar, sharhlar yozishga katta ehtiyoj sezilgan. Turmush taqozosi bilan shunday vaziyatda islom tarixida qur‘onga bag‘ishlangan ko‘pdan-ko‘p tafsirlar, sharhlar vujudga kelgan. Az-Zamaxshariy ham tafsir yozishdan avval o‘zidan oldin yaratilgan Qur‘on tafsiriga bag‘ishlangan ko‘plab asarlarni qunt bilan o‘rgangan. “Al-Kashshof” az-Zamaxshariy Makkada turgan paytida, uch yil davomida (1332-1334) yozilgan.

Nemis sharqshunosi qarl Brokkelman dunyoning turli qo‘lyozma xazinalarida “Al-Kashshof”ning yuzga yaqin qo‘lyozmalari va asarning o‘ziga bitilgan yigirmadan ortiq sharh va hoshiyalar borligi haqida yozishi az-Zamaxshariy asarining katta shuhratidan dalolat beradi.

Qohiradagi butun dunyoga mashhur Al-Azhar diniy

dorulfununining talabalari ham az-Zamaxshariyning “Al-Kashshof” asari asosida Qur’onni o’rganadilar.

“Al-Kashshof”ning Toshkentda, jumladan, O’rta Osiyo va Qozog’iston musulmonlari diniya nazoratining kutubxonasida bir qancha qo’lyozma nusxalari saqlanadi.

Az-Zamaxshariyning chuqur bilimi, dahosi va fanning turli sohalariga oid o’lmas asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan. Allomani chuqur hurmat va mehr bilan “Ustoz ul-arab va-l-ajam” (“Arablar va g‘ayri arablar ustozi”), “Faxru Xvarazm” (“Xorazm faxri”) kabi sharaflı nomlar bilan ataganlar. Mashhur olimlar, shoirlar, adiblar davrasida u doimo peshvolardan biri bo‘lib, qizg‘in ilmiy bahslar, munozaralarda uning fikri inobatga olinardi. Mana shunday ulkan obro‘-e’tibor, ehtimol, daho o‘z asarlaridan birida “va inniy fi Xvarazm kaabat ul-adab” (“Chindan ham men Xorazmda adiblar uchun bir ka’baman”) deb yozishiga asos bo‘lgan bo‘lsa kerak!

Abu Hafs Kabir Buxoriy

“Abu Hafs Kabir” kunyasi bilan tanilgan Ahmad ibn Hafs Buxoriy 150-hijriy (767-milodiy) yili Buxoro shahrining Fagsodara mahallasida tug‘ilib, 216-hijriy (832-milodiy) yili o‘sha yerda vafot etgan.

Ahmad ibn Hafs ilm izlab Bag‘dodga boradi. U yerda Imom Muhammad ibn Hasan Shayboniy bilan uchrashadi va undan dars ola boshlaydi. Hanafiy mazhabi fiqhini o‘rganib, boshqa diniy ilmlarda ham kamolga yetganidan keyin Buxoroga qaytib keladi. U Buxoroning yetuk olimlari jumlasidan edi. Buxoro shu kishi tufayli “Qubbat-ul Islom” (“Islom dini gumbazi”) deb atalgan. Buxoro ahlining ilmli bo‘lishiga, Buxoroda ilm keng tarqalishiga ko‘p jihatdan shu kishi sabab bo‘lgan. Sam’oniyning aytishicha, Abu Hafs Kabir ko‘plab faqihlarni tarbiyalab yetishtirgan. Abu Hafs Kabir hanafiy mazhabi fiqhining Movarounnahrda

tarqalishida qancha jonbozlik ko'rsatgan bo'lsa, uning o'g'li Abdullohnning ham bu borada xizmati katta bo'lgan. Shuning uchun ham Abdullohn "Abu Hafs Sag'ir", ya'ni "Kichik Abu Hafs" deb atashgan.

Narshaxiy aytishicha, hojilar karvonidan bir kishi Abu Hafs Kabirni yoniga kelib, masala so'ragan ekan. Abu Hafs Kabir hayratlanib: "O'zing-ku Iroqdan kelyapsan, nima uchun Iroq olimlaridan so'ramading?" debdi, U kishi: "Bu masalada Iroq olimlari bilan munozara qildim, lekin javob bera olishmadi va menga "Buxoroga borib, Abu Hafs Kabir yoki uning farzandlaridan so'ra, ular javob bera oladi", deb aytishdi", dedi.

Imom Abu Hafs Kabir bir kecha-kunduzda Qur'on karimni ikki marta xatm qilar, odamlarga dars ham berar edi. Keksayib zaiflashgach, bir marta xatm qiladigan bo'ldi. Yana ham zaiflashib qolgach, to dunyodan o'tguniga qadar, bir kecha-kunduzda Kalomullohning yarmini o'qiydigan bo'ldi. Alloh taolo u zotni rahmati va rizosiga g'arq etsin!

Olim fiqhning turli masalalariga doir ko'p asarlar yozgan. Bulardan "Fatavoi Abu Hafs Kabir", "Kitabul imon" ayniqsa mashhur bo'lgan. Abdulkarim Sam'oniy aytishicha, Abu Amr Ahmad ibn Abu Bakr al-Xuzoiy al-Moxiy: "Men Abu Hafs Kabirning "Kitabul imon" kitoblaridan ta'lim olganman", degan. Abu Hafs Kabirning fiqhga doir turli masalalar yoritilgan "Al-Ahvo' val ixtilof" ("Havoiy gaplar va kelishmovchiliklar"), "Ar-Raddu alal lafziya" ("Yuzaki qarovchilarga raddiya") kabi asarlari ham bor.

Imom Shofi'iy Abu Hanifa ta'riflarida "Odamlar fiqhda u zotning boqimandalaridir" deganlaridek, Buxoroning barcha olimlari ham Abu Hafs Kabir oldilarida qarzdordirlar. Chunki buyuk muhaddis, hadis ilmining peshvosi Imom Buxoriy u kishining shogirdi bo'lgan. Buxoroning aksar olimlari Abu Hafsdan tahsil olishgan.

Abu Hafs Kabir, amir bo'ladimi, oddiy fuqaro bo'ladimi,

qanday muammo bilan kelsa, hal qilib berar edi. Oldi-sotdi yoki ibodat masalalarini juda aniqlik bilan yechardi. Shu bois odamlar olimni “Hojatbaror imom” deb hurmatlashgan.

Rivoyat qilishlaricha, Imom Abu Hafs Kabir Buxoroda hanafiy mazhabi asosida ta’lim beriladigan ilk madrasani qurdirgan. Bu madrasa hozirgi “Poyi Kalon” mavzeida bo‘lgan. Alloma uylaridan madrasaga borishda bozor orqali o‘tardilar. Shunda haybatlaridan bozorchilarning shovqin-suroni to‘xtab qolardi.

Abu Hafs Kabirning ilmda zabardast o‘nlab shogirdi bo‘lgan. Ulardan Abu Ja’far Rizvon ibn Salim Badakoriy Buxoroning Badakor qishlog‘idan edi. Yana shogirdlaridan Abul Hasan Muqotil ibn Said Baydariy, Abu Solih Toyyib ibn Muqotil Xunomatiy, Muhammad ibn Hotam Subizgukiy, Muhammad ibn Abdullo Abu Zahhok Fazl ibn Hasson Sutikaniy, Abu Usmon Said ibn Sulaymon Shargiy, bu kishining otasi Abu Said Sulaymon ibn Dovud Shargiy ham Abu Hafs Kabirdan ta’lim olgan.

Imom Abu Hafs Kabir zamonasining mujaddid olimi sifatida tan olingan. Bu zotning bizgacha yetib kelgan noyob asarlari bundan keyin ham musulmonlarga xizmat qilishi shubhasiz.

Ahmad Yassaviy (XI asr — 1166)

Ahmad Yassaviy (Yassi yaqinidagi Sayram shahri, taxm. 11-asrning 2-yarmi - 1166) — tasavvufning mashhur namoyandalaridan biri, shoir. Otasi Shayx Ibrohim javonmardlik tariqatiga mansub nufuzli zotlardan bo‘lgan. Yassaviy tug‘ilgach, ko‘p o‘tmay onasi — Muso Shayxning qizi Oysha xotun vafot etadi. 7-yoshida otasidan ham ajraladi. Yassaviy tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnoz mashg‘ul bo‘ladi.

Yassaviy opasi bilan Yassiga ko‘chib borgach, 1-ustozni Arslon bob bilan uchrashadi va undan tahsil oladi (“Yetti yoshda Arslon bobom izlab topdim...”). Yassaviy Yassida

botin ilmi sirlarini mukammal o‘zlashtirgan. O‘sha zamonlarda ilm-ma’rifatning Movarounnahrdagi markazlaridan bo‘lgan Buxoroda Turkistonning turli tomonlaridan tolibi ilmlar yig‘ilishgan. Arslon bob ko‘rsatmasi bilan Yassaviy ham Buxoroga boradi. Davrning eng peshqadam olimi va sufisi Shayx Yusuf Hamadoniy bilan uchrashib, unga murid tushadi.

Buxoroda u arab tili bilan bir qatorda fors tilini ham chuqr o‘rganadi. Forsiyda yaratilgan tasavvufiy adabiyot bilan tanishadi. Xoja Abduxoliq G‘ijduvoni, Abdulloh Barqi, Xoja Hasan Andoqiylar bilan hamsuhbat va hammaslak bo‘lib, Yusuf Hamadoniy muridlari qatoridan o‘rin oladi.

Alisher Navoiy Yassaviy to‘g‘risida “Maqomoti oliv va mashhur, karomoti matavoliy va nomahsur ermish. Murid va ashob g‘oyatsiz va shohu gado aning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish”, — deydi. Bu fikr Yassaviyning Yassiga qaytib kelib, yangi bir tariqatga asos solgan murshid sifatida shuhrat topgan davrlariga tegishlidir. Yassaviy turkiy xalqlarni islomga yanada kengroq jalb qilish va tasavvuf g‘oyalarini omma ko‘ngliga chuqr singdirish maqsadida she’riyatdan ham foydalangan. Abdurauf Fitratning ta’kidlashicha, Yassaviyning “adabiyotda tutgan yo‘li sodda xalq shoirlarimizning tutg‘on yo‘lidir... Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti atalgan she’rlar bilan barobar”.

Yassaviy nuqtai nazarida hikmat — “ilmi laduniy”, ya’ni ilmi g‘aybu haqoyiq va ilohiy sirlarni kashf aylash mazmuniga ham ega. Yassaviyning o‘zi “*Devoni hikmat*” nomi bilan biron bir kitob yaratmagan. Ushbu nodir asar uning murid va izdoshlari tomonidan tartib berilgan. Lekin bu narsa hikmat majmuasining Yassaviyga aloqasi yo‘q, degan da’voni ilgari surishga asos bermaydi. So‘fi Olloyor Yassaviy haqida fikr bildirib, yana shunday degan:

*Shariatda edi ul oftobe,
Qolibdur bizga ul erdin kitobe.*

“Devoni hikmat”da ilohiy ishq va oshiqlik, ma’rifat va oriflik saodati, fanodan baqoga yetishish tushunchalari nihoyatda samimiy va ta’sirli ohanglarda yoritib berilgan. “Devoni hikmat”dagi barcha she’rlar ham Yassaviyga mansub emas. Unga Yassaviy izdoshlarining ijod namunalari ham kiritilgan. Bu esa, tabiiyki, hikmatlar tili va uslubida ma’lum o‘zgarishlar hosil qilgan. Lekin Yassaviyning o‘nlab izdoshlaridan hech biri ustozlari boshlagan g‘oyaviy, axloqiy, ma’naviy-ma’rifiy va mafkuraviy yo‘nalishni o‘zgartirmagan. Buni Yassaviy hayoti, tariqati va ijodiyotidan bahs yuritilgan o‘nlab qadimiy manbalar, ayniqsa, Sulton Ahmad Haziniyning “Javohir ul-abror min amvojil bihor” asari ham to‘la tasdiqlaydi.


Yassaviyning faqat ijodiyoti emas, qancha umr ko‘rib, qachon vafot etganligi ham bahsli. U hikmatlaridan birida “Yuz yigirma beshga kirdim, bilolmadim”, deydiki, bu so‘zlar tarixiy haqiqatdan ko‘ra, manoqibiy mazmunga ega. Bundan tashqari, 125-yillik uzoq bir umrning yarmidan ko‘pini “yer osti”da (“Oltmis uchda yer ostiga kirdim ma’no”, deydi Yassaviy) o‘tkazish aql bovar etmas hodisadir. Lekin ko‘pchilik tadqiqotchilar uning vafot tarixini 1166-67-yil deb qayd etishgan.

Uzoq vaqt mobaynida Yassaviy hayoti va ijodiyotini ilmiy jihatdan tadqiq etishga imkon berilmadi. Asarlarini nashr qilishga yo‘l qo‘yilmadi. O‘tgan asrning 70-yillarida Yassaviyning milliy madaniyat, til va adabiyot tarixidagi xizmatlarini to‘g‘ri baholash yo‘lidagi urinishlar esa qoralandi. Mustaqillik arafasida, xususan, O‘zbekiston istiqlolga erishgandan keyin yassaviyshunoslikda yangi davr boshlandi. Dastlab turli gazeta va jurnallarda “Devoni hikmat”dan namunalar e’lon qilingan bo‘lsa, 1990-92-yillarda uning 2 mustaqil nashri kitobxonlar qo‘liga yetkazildi. Ushbu nashrlar nafaqat O‘zbekistonda, balki boshqa turkiy davlatlarda ham bu buyuk mutasavvifning hayoti, adabiy-ma’rifiy faoliyati, izdoshlari xizmatiga qiziqishni kuchaytirdi. 1993-yil O‘zbekistonda Yassaviyga bag‘ishlab ilmiy anjumanlar

o‘tkazilib, ma’ruzalar matni alohida majmua shaklida chop etildi. Matbuotda Yassaviyning shaxsiyati, tariqati, she’riyatidan bahs yuritilgan maqolalar bosilib chiqdi. O‘zbekistondagi bir qancha ko‘cha va mahalla Yassaviy nomi bilan ataladi. Sulton ul-orifin kamolotining yuksaklarga ko‘tarilishiga guvoh bo‘lgan va jasadi dafn etilgan ko‘hna Yassi shahrida esa Yassaviy nomidagi universitet mavjud.

Badiiy ijodda ham Yassaviy obrazini yaratish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Yozuvchi Sa’dulla Siyoyev “Yassaviyning so‘nggi safari” romanining 1-kitobini (1994) chop ettirdi.

Najmaddin Kubro (1145-1221)



Najmaddin Kubro – tasavvufning mashhur shayxlaridan biri, kubraviya tariqatining asoschisi. Uning hayoti, karomatlari, saxovatu qahramonliklari haqida el orasida ko‘plab afsona va rivoyatlar mavjud. Xalqimiz o‘zining bu aziz va tabarruk farzandini e’zozlab, asrlar davomida nomini xotirasida saqlab kelmoqda. Tasavvufga oid manbalarda ham Najmaddin Kubroning ishlari, martaba va mo‘jizalari haqida so‘z boradi. Ma’xazlarning mualliflari, odatdagiday, shayxning tarjimai holini qisqacha ma’lumotlar berish bilan kifoyalangan holda, ko‘proq ul zotning ko‘rsatgan karomatlarini bayon etish, ustozlari kimligini aytish va tariqatdagi nisbat – silsilasini aniqlashga e’tibor bergenlar. Atoqli sharqshunos olim Ye.E.Bertels xorazmlik ulug‘ shayxning tarjimai holini o‘rganish sari birinchi qadamni qo‘yib, ma’xazlardan Najmaddin Kubro ruboilarini yig‘ib e’lon qilgan va shayx haqidagi bir qadimgi o‘zbekcha qissani mazmunan qisqacha bayon qilib bergen edi.

Najmaddin Kubro 1145-yilda Xeva shahrida dunyoga keladi.

Uning asl nomi Ahmad bin Umar bin Muhammad al-Xevaqiy al-Xorazmiy bo‘lib, “Najmuddin”, “Kubro”, “Abuljannob”, “Valiytarosh” so‘zları bu zoti mukarramning laqab, unvon va kuniyatidir. Abdurahmon Jomiyning “Nafahotul uns” asarida qayd etilishicha, Ahmad yoshlidan ilm-donishga qiziqqan qobiliyatli kishi bo‘lgan ekan. U islam asoslari, shariat ilmlarini juda tez o‘zlashtirib olib, Xorazmning manman degan ulamolaridan o‘zib ketadi va ilmiy bahslarda barchadan g‘olib chiqadi. Shu bois unga “Tammatul kubaro”, ya’ni ulamolarning yetugi, ulug‘vori va ilm balosi degan laqabni oladi. Buning yoniga “Najmuddin” – “dinning yulduzi” degan martaba-unvon qo‘silib, Ahmad bin Umar shundan keyin Najmuddin Kubro nomi bilan mashhur bo‘lib ketadi.

Najmuddin Kubro taxminan o‘n olti-o‘n yetti yasharligida Vatani Xorazmni tark etib, tahsilni chuqurlashtirish maqsadida Eron, Misr, Shomu Iroq mamlakatlarini kezadi. Uni ilmga chanqoq qalbi hech tinch qo‘ymas, qayerdaki biror nomdor olimning ovazasini eshitsa, darhol yo‘lga tushar, goh piyoda, goh ot-ulov yoki tuyada haftalab, ba’zan oylab yo‘l bosar, qidirgan kishisini topib, undan sidqidildan saboq olardi, agar ko‘ngli to‘lmasa, ijozat olib, yana yo‘lga tushardi.

Shu tariqa Njmiddin Kubro Bag‘dod, Tabriz, Nishopur, Tus, Dizful shaharlaridagi atoqli olimlardan shariat ilmlari, hadis va tafsirni chuqur o‘zlashtirib, donishmand inson bo‘lib yetishadi. Manbalarning guvohlik berishicha, Najmuddin Kubro ilk daf‘a Misrga borib, Shayx Ro‘zbehon al-Vazzon Misriiga (1189-yilda vafot etgan) murid tushadi. Bir necha yil Shayx Ro‘zbehon rahbarligida tariqat odobini o‘rganadi, shayxning qiziga uylanadi. Shayx Ro‘zbehon Njmiddinni farzandiday yaxshi kutib, g‘amxo‘rlik qilgan. Ammo betoqat Njmiddin yana safarga chiqadi va Tabrizga qaytib kelib, Abumansur Hafdhah oldida “Sharh as-sunna” kitobi bo‘yicha hadis o‘rganishni davom ettiradi. Njmiddin Kubroning hayotidagi burilish shu yerda

boshlanadi. Chunki u Tabrizda Bobo Faraj ismli bir “majzub” (devona) darvesh bilan uchrashib qoladi. Bobo Farajning karomatlari ta’sirida ulamolar bilan suhbatni butunlay tark etib, astoydil sulukka beriladi, botiniy olamini ravshanlashtirish uchun piri murshid qidirishga tushadi. U Hamadonda Shayx Ammor Yosir (1187-yilda vafot etgan) huzuriga borib, uning xizmatida bo‘ladi. Ammor Yosir uni Shayx Ismoil Qasriyga tavsiya qiladi. Ismoil Qasriy Najmiddindagi takabburlik, zohiriy ilmlarga bino qo‘yish maylini sindirib, ma’naviy-ma’rifiy kamolot bosqichlariga ko‘tarilishga yordam beradi. Najmiddinda botiniy ajoyibot paydo bo‘lib, valiylik alomati ko‘ringach, Shayx Ismoil unga irodat xirqasi (yoki “xirqai asl”) kiydirib, Xorazmga qaytib borib, u yerda tariqatni joriy etishni tavsiya qiladi.

Najmuddin Kubro Shayx Ismoil qo‘lidan “irodat xirqasi”ni olgach, Misrga boradi. Shayx Ro‘zbehon uni yana bir marta imtihon qilib, tasavvuf ilmi va tariqat odobini nozik jihatlarigacha o‘zlashtiriganiga qanoat hosil qilgach, endi yurtingga borib, bu ta’limotni yoyishing mumkin deb yozma hujjat – “ijozat” xati beradi. Najmuddin pirining maslahatiga ko‘nib, oilasini olib Xorazmga keladi.

Najmuddin Kubroning buyuk so‘fiy shayx bo‘lib yetishishida mazkur uch najib inson – Ro‘zbehon Misriy, Ammor Yosir va Ismoil Qasriylarning xizmati singgan.

Najmuddin Kubro Xorazmga 1185-yilda qaytib keladi. Demak, bu vaqtida u qirq yashar bo‘lib, yigirma besh yildan ortiq umrini ilm tahliliqa bag‘ishlagan edi. U Xorazmga qaytgach, katta xonaqoh qudirib, tariqatda yangi bir maktab yo‘nalish hisoblanmish kubraviya sisilasini asosladi. Uning qo‘li ostida yuzlab odamlar tarbiyalanib, islom ma’rifatidan, ilohiy irfondan bahramand bo‘ldilar. Najmuddin kishilarni ezgulikka, ilmga, saxovat va mardlikka da’vat etdi.

Najmuddin Kubro tasavvufning buyuk amaliyotchilaridan biridir, ungacha Xorazm xalqi ushbu ta’limotdan bebahra edi.

Ulug‘ shayx amaliy faoliyati xulosalarini “Favoyihul jamol va favotihul jalol” (“Jamol xushbo‘yliklari va jalolning kashfi”), “Al-usul al-ashara” (“O‘nta usul”) nomli kitoblarida jamlab tasnif etgan. Hoji Xalifa Najmuddin Kubroning arabcha asarlari sonini sakkizta deb ko‘rsatadi. Shayxning fors tilida yozgan “Fi odobus solikin” (“Soliklar odobida”) nomli risolasi ham bor.

Najmuddin Kubro aksar so‘fiy shayxlar kabi ruboiy yozish bilan shug‘ullangan. Uning ruboilyari shayxning qarashlari, ichki dunyosi, botiniy kechinmalarini bilib olishimizga yordam beradi. Har holda badiiy ijod kishining qalbi va ruhini yorqinroq aks ettiradi. Shayx ruboilyari ichida nafsn mazamat etuvchilari, ilohiy ma’rifat asrorining kashfidan xursandlikni ifodalovchilari, darvesh kechinmalarini, so‘fiyona dard-hayajonlarini beruvchi va umuman komil insonning qarashlarini aks ettiruvchilari bor.

Najmuddin Kubro ruboilyarida falsafiy mushohadalar, tavakkul, taqdir haqida, olamning tuzilishi haqida o‘ylar aks etgan. Bu jihatdan uning bir necha ruboiysi Umar Xayyom ruboilyariga mazmunan o‘xshab ketadi va yana qizig‘i shuki, XIV asr xorazmlik shoir va so‘fiy Pahlavon Mahmud ruboilyari bilan ham ohangdoshlik sezildi.

Najmuddin Kubro 1221-yilda Chingizzon to‘dalariga qarshi jangda shahid bo‘ladi. Dushman Xorazmga yaqinlashganda, Muhammad Xorazmshoh qochib ketgan, lashkar parokanda edi. Shayx muridlarini jamlab, ularga qarab bunday deydi: ”Mashriqdan kelgan bu balo Mashriqu Mag‘ribni yakson etadi, yondirib kul qiladi. Sizlar har biringiz o‘z yurtingizga boring, o‘z jonizingizni asrash payida bo‘ling”. Ashob shayxga iltimos qilib dedilar: “Ot-ulovlar tayyor, agar shayx biz bilan hamroh ketishni ixtiyor etsalar, yaxshi bo‘lardi”. Bunga javoban Shayx Najmuddin Kubro deydi: “Men bu yerda shahid bo‘laman, menga Xorazmni tark etishga ruxsat yo‘q”.

Kuffor, ya’ni mo‘g‘ul askarlari Gurganjga kirganda, shayx qolgan-qutgan muridlari bilan jangga shaylanadi. U xirqasining

ustidan belbog‘ bog‘lab, qo‘yinlarini tosh bilan to‘ldiradi, qo‘liga nayza olib, dushman qarhisiga chiqadi. Kofirlarga qarab tosh ota boshlaydi, bir nechtasini nayza bilan urib yiqitadi. Ammo kofirlar uning ustiga kamon o‘qi yog‘diradilar. Bir o‘q kelib ko‘kragiga tegadi. Yetmish besh yashar mo‘ysafid - ilohiy ilhomdan ma‘rifat topib, qalblarni nurlantirgan shayxi kabir holdan toyib, kuchi ketayotganini sezsa ham, jangni to‘xtatmaydi, dushman bayrog‘ini g‘azab bilan mahkam tutamlab oladi-da, shu holatda jon beradi. Deydilarkim, vafotidan keyin o‘nta odam uning mahkam qisilgan panjalari orasidan bayroqni zo‘rg‘a ajratib olgan.

Ulug‘ shayx va donishmand insonning bu qahramonligi, jasorati dushmanni ham hayratga solgan. Bu ish avlodlarga ibrat bo‘ldi, xalq orasida afsonaga aylanib ketdi.

Shuningdek, XI-XII asrlarda ijtimoiy fanlar ham anchagina taraqqiy etdi. Masalan, shoир Abu Abdullo Rudakiyning prozaik asarlari, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”si, Gardiziyning “Zayn-ul-bahor” (“Go‘zal xabarlar”) asari, Majididdin Admoning “Tarixi mulki Turkiston” (“Turkiston tarixi”), Nizomulmulkning “Siyosatnoma”si, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilik” asarlari shu davrga oid bo‘lib, undan tashqari shu davrlarda Zamaxshariy, Mahmud Qoshg‘ariy, Amak Buxoriy, So‘zani Samarqandiy kabilar ham ijod etdilar.



IKKINCHI RENESSANS ALLOMALARI

Mirzo Ulug‘bek (1394 -1449)



Sohibqiron Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li Shohruh Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li - Ulug‘bek Mirzo 1394-yil 22-mart (hijriy 796-yil 19 jumodul avval oyining 19-yakshanba) kuni Iroqi Ajamning Sultoniya shahrida dunyoga keldi.

Ulug‘bek tug‘ilgach, Shohrux Mirzoning farzand ko‘rgani haqidagi

xushxabarni Amir Temurga yetkazish uchun chopar yuboradilar. Sharofuddin Ali Yazdiyning yozishiga qaraganda, bu xabar Sohibqironning Mordin shahrini zabit etgan paytiga to‘g‘ri kelgan. Amir Temur mazkur xushxabardan bag‘oyat xushnud bo‘lib, yangi mehmon poyi qadamini sharaflab, shahar xalqiga omonlik berib, xirojidan voz kechgan va shaharning hokimlik mansabini sobiq hokim, amir Sulton Isoning ukasi amir Sulton Solihga in’om qilib, o‘zi orqaga qaytgan.

Yangi mehmonga Muhammad Tarag‘ay deb nom beradilar. Bu nom Temurning marhum otasining nomi bo‘lib, hali Temuriy shahzodalardan hech biriga berilmagan edi. Lekin uni bobosi alohida mehr bilan “Ulug‘bek” deb atayvergani uchun uning asosiy ismi Ulug‘bek bo‘lib qoladi.

Ulug‘bek Mirzo yoshligidanoq bobosi Amir Temur saroyida tarbiyalanib, saroya yig‘ilgan olimu fuzalolar ta’sirida ilm-fanga qiziqadi.

1404-yil avgust oyida Amir Temur o‘zining mashhur yetti yillik yurishidan muzaffarona Samarqandga qaytib keladi va

g‘alabasi sharafiga “Bog‘i dilkusho”da katta anjuman o‘tkazadi. Anjuman to‘yga ulanib, qirq kun davom etadi. 11-yoshli Ulug‘bek Mirzoga marhum Muhammad Sulton Mirzoning qizi - O‘g‘i Begini unashadirilar. 1411-yil oktabridan, ya’ni hayotining o‘n yettinchi yilining o‘rtasidan Ulug‘bek Movarounnahr va Turkistonning birgina va mustaqil sultoni bo‘ladi.

Ulug‘bek Mirzo Movarounnahr hukmdori etib tayinlangach, ko‘p vaqtini Samarqandda o‘tkazar, hatto otasi Shohrux Mirzoning harbiy yurishlarida ham kamdan-kam qatnashar va ayrim hollarda qo‘sish yuborish bilan cheklanardi.

Ulug‘bek shu qadar kichik yoshida ulkan bir mamlakatning sultoni bo‘lib, to umrining oxirigacha, ya’ni o‘ttiz to‘qqiz yil davomida mamlakatning sultoni bo‘lib turdi.

Ulug‘bek hayotining bobosi tiriklik davrida o‘tgan yillarini afsonaviy qahramonlik yillari desa bo‘ladi. Chunki bu yillar Amir Temurning g‘alabalari va buyuklik yillari edi. Ana shu davr Ulug‘bekni voyaga yetkazdi va tarbiyaladi. Xuddi shuning uchun ham uni otasi va bobosi saltanat va taxt uchun tarbiyalaganlar deyishga haqlimiz. Temur vafotidan keyin o‘tgan ilk olti yil davomida, tashqaridan qaraganda ahvol xuddi shuningdek edi ham. Ulug‘bek saltanatining avvalgi 10-15-yili umuman olganda betashvish o‘tdi va Ulug‘bek sulton sifatida deyarli barkamol bo‘ldi deyish ham mumkin edi.

Ulug‘bek aslida ulug‘ olim va bunyodkor kishi bo‘lib bobosi Amir Temur kabi jangchi emas, balki ilm-ma’rifat shaydosi edi. Binobarin, u mamlakatda ilm-fan ravnaqiga jon-jahdi bilan kirishar va bu yo‘lda xazinani ayamasdi. Uning davrida Samarqand Sharqning eng gullagan madaniyat o‘chog‘iga aylangan edi.

Ulug‘bek Mirzoning birinchi ustozи “Zamona Aflatuni” Salohiddin Muso ibn Mahmud Qozizoda Rumiy edi. Ulug‘bek Mirzo Qozizoda Rumiydan falakiyotga oid sir-sinoatlarni o‘rganib, keyinchalik mazkur allomaning maslahati bilan Koshonlik G‘iyosiddin Jamshid ibn Ma’sudni Samarqandga

taklif qiladi. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Ulug‘bek yana bir Koshonlik falakiyot ilmi allomasi - Mu’niddinni ham Samarqandga chaqirib keltirgan.

Dunyo astronomiyasi taraqqiyotini Mirzo Ulug‘bekning xizmatlarisiz tasavvur etish qiyin. Mavarounnahrda qirq yil hukmronlik qilgan sultonning ilm-fan uchun alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi, madrasalar barpo etishi, Samarqandda yirik astronomiya maktabiga asos solishining o‘zi tarix oldidagi katta xizmatidir. Ulug‘bek tashabbusi bilan 1424-1428-yillar mobaynida Samarqand shimolida Obirahmat arig‘i bo‘yidagi Ko‘hak tepaligi bag‘riga bunyod etilgan jahonga mashhur rasadxona o‘z davrida osmon jismlarini o‘rganuvchi eng yirik inshoot hisoblangan.

Ushbu tarixiy obida orqali kuzatishlar asosida 1437-yilda dunyoga mashhur “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari yaratildi. Yevropada bu asarni bиринчи bo‘lib tadqiq etgan olim Oksford universiteti professori Jon Grivs hisoblanadi. U 1650-yilda mazkur asardagi jadvallarni qisman nashr ettiradi. Keyinchalik ingliz olimi Tomas Xayd “Zij”ning to‘la katalogini lotin va fors tillarida bosmadan chiqaradi. G.Ker, J.Delil, G.Bigurdi, L.Sediyo, Ya.Geveliy kabi yevropalik olimlar ham Ulug‘bek merosini atroflicha tadqiq etganlar. O‘scha davrda Yevropada bu jadvallarga ehtiyoj juda katta edi. Aytish joizki, Yevropa renessansida Ulug‘bek jadvallarining ham munosib o‘rni bor. Ulug‘bek “Ziji”da yulduzlar jadvali o‘ta aniqlik bilan tuzilgan. Ulug‘bek asarida Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi davomida ro‘y beradigan nozik chetlanish hodisasini aniqladi. Osmon jismlarining harakat nazariyasini o‘rgandi. 247 shahar va aholi punktining jug‘rofiy koordinatlarini belgilab berdi. Bu esa o‘rta asrlar geodeziyasi uchun katta yangilik edi. Bu rasadxona bosh teleskopining diametri qariyb 48 metr bo‘lgan.

1417-1430-yillar orasida Ulug‘bek Samarqand markazi Registon maydonida ulkan madrasa, xonaqoh, muqatta’ masjidi

va hammom qurdiradi. Shuningdek, 1417-yilda Buxoroda va 1433-yilda G‘ijduvonda ham madrasa qurdirgan. Mazkur madrasalarda diniy ilmlarga nisbatan matematika, geometriya, falakiyot, tabiiyat, jug‘rofiya va tarix kabi dunyoviy ilmlar ko‘proq o‘qitilgan. Ulug‘bek bundan tashqari ko‘pgina jamoat binolari - karvonsaroylar, timlar, chorsular va hammomlar ham qurdirgan. Karvonsaroylaridan eng kattasi Registonda, hozirgi Tillakori madrasasi o‘rnida joylashgan bo‘lib, Mirzoyi nomi bilan shuhrat topgan. Bunday karvonsaroylar, hammomlar faqat Samarqanddagina emas, boshqa yirik shaharlarda va savdo yo‘llarida ham qurilgan.

Ulug‘bek Go‘ri Amir maqbarasiga ham ayrim qurilishlar bilan o‘zgacha fayz tarovat bag‘ishlaydi. Samarqanddagagi Afrosiyobning janubida ulkan qabriston markazida joylashgan Shohi Zinda obidasi me’morchilik san’atining kamyob durdonalaridan hisoblanadi. Mazkur yodgorlik asosan XI asrdan boshlab qurilib kelinayotgan bo‘lsa-da, Amir Temur va Ulug‘bek zamonasida nihoyasiga yetkazilgan. Ulug‘bekning sa’y-harakati bilan bu yerda ham me’morchilik ishlari olib boriladi. 1434-1435-yillar mobaynida Shohi Zindaning asosiy darvozasi rang-barang koshinlar bilan ziynatlanib, qaytadan qurilganligi ham Ulug‘bek zamonasining me’morchilik san’atidan nishonadur.

Ulug‘bek aniq fanlardan tashqari tarix va musiqa ilmida ham qalam tebratgan. “Muhit ut-tavorix” nomli asarda yozilishicha, Ulug‘bek zo‘r shinavanda musiqashunos ham bo‘lgan. U katta va kichik naqoralarda ijro etiladigan buluij, shodiyona, axloqiy, ulusiy va usuli ravon kabi musiqa asarlarini yaratgan.

Mirzo Ulug‘bek tarixnavis donishmand edi. “Tarixi arba’ ulus” asari Mirzo Ulug‘bekning turkiy xalqlar tarixini qanchalik chuqur bilganidan dalolat. Undagi nazmiy parchalar esa, ulug‘ ajdodimizning she’riyatdan yetarlicha xabardor bo‘lganini ko‘rsatadi. Alisher Navoiy ham “Majolis un-nafois” asarida

Ulug‘bekning she’riy iste’dodiga yuqori baho bergen.

Ulug‘bek atrofiga o‘z davrining eng yirik va iste’dodli olimlari to‘plangan edi. Samarqand o‘sha paytda Sharqning eng yirik ilm-fan o‘choqlaridan biriga aylangandi. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlaridan kelgan o‘nlab olimlar Ulug‘bekning bevosita homiyligi ostida faoliyat ko‘rsatgan. Ular orasida Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi, Nizomiddin al-Birjandiy, Miram Chalabiy kabi olimlarni alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Tarixda Mirzo Ulug‘bek kabi yuksak iste’dod va salohiyatga ega hukmdorlar kamdan-kam o‘tgan. Darhaqiqat, buyuk bobomiz jahon ichra yangi bir osmon yaratib ketdi. Uning birgina astronomiya fani rivojiga qo‘shtgan hissasi insoniyat tamaddunidagi ulug‘ xizmatidir. Yana, Navoiy ta’biri bilan aytganda, dunyo bor ekan, uning merosi ham boqiy qolaveradi.

Qozizoda Rumiy



Qozizoda Rumiy - XV asr boshlarida Movarounnahrda shuhrat qozongan ulkan matematik va astronomlardan biri. Olimning to‘liq nomi Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud.

Qozizoda aslida hozirgi Turkiyaning shimoli-G‘arbidagi Marmara dengizidan janubroqdaga, Bursada tavallud topgan. Uning otasi Muhammad “Xoja Afandi” laqabi bilan ma’lum bo‘lib, Salohiddinning bolalik yillarida vafot etgan. Xoja Afandi ancha olim va komil odam bo‘lib, ko‘p yillar Bursaning qozisi lavozimida xizmat qilgan. Salohiddinning tug‘ilgan yili aniq ma’lum emas. Turkcha manbalarda u hijriy 755-765 (melodiy 1354-1364) -yillar orasida tug‘ilgan, deb taxmin qilinadi.

Qozizoda boshlang‘ich ma’lumotlarini Bursadagi

madrasada olib, astronomiya va matematika bilimlarini mavlono Shamsiddin Fanoriydan o'rganadi. Lekin u yoshligidan Movoraunnahr va Xurosonda ilm-fanning yuksak darajada ekanligini eshitib, u yerga ketishga taraddud ko'ra boshlaydi. Qozizoda XV asr oxirlarida bir kun to'satdan Bursadan g'o'yib bo'ladi. Avvaliga u Xurosonga borib, u yerdagi poytaxt Samarqandning shuhrati haqida eshitadi va o'sha shahar tarafga intiladi. Bu orada Amir Temurning yetti yillik yurishi boshlanib qoladi. Qozizoda yo'lda Temurning ulamolari qatoriga qo'shilib qolib, ular bilan orqaga qaytib, yurishda ishtirok etadi va shu ketishda o'zining Bursadagi ustoz mullo Fanoriyning "Anmuzaji ulum" asariga sharh bitadi.

U Xuroson va Mavarounnahrga kelib olimlardan tahsil olib, bilimini kamolotga yetkazadi. Xususan, u Temurning saroy astronomi Mavlono Ahmaddin astronomiya va matematika fanlaridan chuqur ma'lumotlar oladi. Amir Temurning yetti yillik yurishi tugagach, 1404-yil yozida, Salohiddin birinchi marta Mavarounnahr poytaxti Samarqandga keladi. Tez orada Salohiddin Mavarounnahr va Xuroson olimlari orasida "Qozizoda Rumiy" (Usmonli turklar mulki bo'lib qolgan Kichik Osiyo, ya'ni qadimgi Rim imperiyasi yerlarini Sharqda Rum deyilar edi) nomi bilan shuhrat qozonadi.

1405-yil boshida yuz bergen Sohibqironning vafotidan keyingi Mavarounnahrda hukm surgan notinchlik Qozizodani Ulug'bek bilan birgalikda Xirotg'a ketishga majbur qiladi. Bu yerda u bir necha yil davomida bo'lajak buyuk olimga astronomiya va matematika fanlaridan saboq beradi va unda shu fanlarga nisbatan chuqur va so'nmas mehr uyg'otadi. Ulug'bek keyinchalik o'z "Zij"ida Qozizodani minnatdorchilik bilan "ustozim" deb tilga oladi.

Ulug'bekning o'zi aytganidek, uning ustozи Qozizoda Rumiyidir. Ulug'bek Samarqandda 1417-1420-yillarda Madrasa ta'sis etib, Qozizodani u yerda rais ul-muallimin nasabiga tayin-

laydi va aksariyat hollarda uning darslarida o‘zi ham ishtirok etadi.

Qozizoda Samarqanddaligida juda ko‘p shogirdlar yetishtirdi. Bularning avvali va eng buyugi Ulug‘bekdir. Ikkinchi shogirdi Fathulloh Shervoni y bo‘lib, u 1449-yili Ulug‘bek o‘ldirilishi bilan darhol Kichik Osiyoga ketadi va Kastamonu shahrida mudarrislik bilan shug‘ullanadi.


Qozizoda Samarqandda uylanib, bu nikohdan bo‘lajak yirik olim Miram Chalabiyning otasi Qutbiddin dunyoga keladi.

Qozizodaning vafot etgan yili ma’lum emas. Lekin bu voqeа 1426-1436-yillar orasiga to‘g‘ri keladi, deb taxmin qilinadi.

Olimning qalamiga mansub asarlar quyidagilardir: “Risola fi-l-hisob” (“Hisob haqida risola”), “Sharhi mulaxxis fi-l-xay’a” (“Astronomiya haqida qisqacha risolaning sharxi”), “Sharhi ashkol at-ta’sis”, “Risola al-jayb” (“Sinus haqida risola”), “Dar bayoni istirohati jaybi yak daraja” (“Bir daraja sinusini aniqlash usulining bayoni haqida”), “Dastur al-amal va tashiq al-jadval” (“Amal dasturi va jadvallarini tuzatish”), ”isoxa” (“O‘lchash”), “Risola fi-l-hay’ a va-l-handasa” (“Astronomiya va geometriya haqidagi risola”), “Sharh at-Tazkira”, “Sharh Tahrir al-Majistiy”, “Risola fi ilm al-hay’ a” (“Astronomiya ilmi haqida risola”), “Risola fi rub al-mujayab” (“Sinus kvadrat haqida risola”), “Lima kana halla kavni nisba irtifa’ a’zam al-jibol ila kutri al-arz kanisba sub’ ard sha’ira ila zira” (“Nima uchun tog‘-larning eng balandining Yer diametriga nisbati arpa donining bir gazga nisbati kabi ekanligi qabul qilingani”), “Risola fi samiy al-qibla” (“Qibla azimuti haqida risola”), “Sharh hikmat al-ayn”.

Ulug‘bek rasadxonasining yetuk namoyandalaridan sanal-gan va Ulug‘bekdek buyuk olimni tarbiyalagan Qozizoda Rumiy qoldirib ketgan adabiy-ilmiy meros, bugungi avlodning oltin mulki hisoblanadi. Lekin shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, bu olimning qator asarlari o‘z tadqiqotchilarini hanuzgacha kutib yotibdi.

G'iyoſiddin Jamſhid ibn Maſ'ud Qoſhiy



G'iyoſiddin Jamſhid ibn Maſ'ud Qoſhiy —matematik va astronom.

1380-yil Koshon (u vaqtlar Amir Temur davlatiga tegishli bo'lgan, hozirgi Eron) shahrida tug'ilgan. 1413-1414 -yillar Amir Temurning o'g'li Shohruhgaga bag'ishlangan (u davda hokimiyatni Amir Temur boshqargan) astronomik jadvalni tuzgan.

Samarqandda Ulug'bek madrasasi qurilgach, u ushbu shaharga kelib, Qozi zoda Rumiy va Ali Qushchilar bilan birga Ulug'bek rahbarligi ostida mashhur Ulug'bek rasadxonasining loyihalash va qurilish ishlarida ishtirok etadi. Ammo qurilish nihoyasiga yetguncha yashamaydi. Samarqandga dafn etilgan.

Uning qalamiga quyidagilar tegishli:

“Miftax al-xisab” (forsiyda yozilgan “Arifmetika kaliti”) – al Koshiyning asosiy asari bo'lib, arifmetika va algebra bo'yicha batafsil ma'lumotlar bayonotiga bag'ishlangan. Fan tarixshunoslar tomonidan yuqori baholangan, ko'plab ovrupa tillariga tarjima qilingan;

“Ar-Risala al-muxitiyya” (forsiyda yozilgan “Aylana haqida risola”) – asar π (pi) soni hamda $\sin 1^\circ$ ni o'z davri uchun o'ta aniqlakda hisoblashga bag'ishlangan;

“Zidj Xakani dar takmili zidji Elxani” (forsiyda yozilgan “Zidji Hoqoniy”) – Shohruhgaga bag'ishlangan astronomik jadvallar.

Ulug'bekning akademiyasi kabi qimmatli ma'lumotlar mavjud otasiga yozgan maktubi Ovrupa va Osiyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan.

Jomiy al Koshiyning matematika faniga qo'shgan hissasi Ilk bor (Ovrupada Simon Stevindan 150-yil avval) o'n karra

hisobini kiritgan va undan muntazam foydalangan.


Ulug‘bek hamda Qozi zoda Rumiy bilan birga ketma-ketlik yaqinligi usulini ishlab chiqqan, XIX asrda Ovrupada fransuz matematigi E.Pikar tomonidan qayta ochilgan.

“Nyuton binomiy” nomi bilan ataluvchi formulaga asoslangan ixtiyoriy ildiz darajalarining yaqin joylashuv usulini ishlab chiqdi.

Endilikda “Gorner chizmasi” nomi bilan mashhur ko‘phadni hisoblash uslubini ishlab chiqqan.

Jamshid Koshiyning fan rivojiga qo‘sghan hissasi butun dunyoda tan olingan va munosib baholangan. Uning asarlarining ko‘plab ko‘chirma nusxalari Berlin, Leyden, Sankt Peterburg, London va boshqa davlatlar kutubxonalarida saqlanmoqda. U haqda G.Zuter (Germaniya), V.V.Bartold (Rossiya), E.Kennedi, D.Knut (AQSH) va boshqalar yuqori fikr bildirishgan.

Ali Qushchi



Ali Qushchi (taxallusi; asl ismi-sharifi Mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy) (1403, Samarqand—1474, Istanbul) — falakiyotshunos va riyoziyotchi olim, mutafakkir, Ulug‘bek ilmiy maktabining atoqli namoyandalaridan biri, uning yaqin shogirdi. Amir Temur qarorgohi boshlig‘ining o‘g‘li. Ulug‘bek saroyida qarchig‘aylar boqqani uchun uni “Qushchi” deyishgan. Ali Qushchi boshlang‘ich ma‘lumotni Samarqandda oladi (Qozizoda Rumiyda tahsil ko‘radi), o‘z ma‘lumotini oshirish uchun 1414-y. da Eronning Kirmon sh. ga boradi va u yerdagi madrasada 3-yil ta’lim oladi, ayniqsa tabiiy fanlarni, xususan falakiyot, riyoziyotni puxta o‘rganadi, 1417-y. Samarqandga qaytadi. Bu vaqtida Samarqandda Ulug‘bek madrasasi qurilayotgan edi. Ali Qushchi shu madrasada ham

ta’lim olishni davom ettiradi, Qozizoda Rumiy va G‘iyosiddin Koshiylardan ilm sirlarini o‘rganadi. Madrasani bitirgach, shu yerda falakiyot va riyoziyotdan mashg‘ulotlar olib boradi, ilmiy ishlar bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ulug‘bek rasadxonasini qurish ishlarida ham faol qatnashadi. Shu davrda “Hisob risolasi” va “Astronomiya risolasi” asarlarini yozadi va ilm ahli orasida katta obro‘ qozonadi. 1428-y. Ulug‘bek rasadxonasi ishga tushirilgach, bu yerda Ulug‘bek rahbarligida kuzatuvlar olib boradi, risolalar yozishda davom etadi. Ulug‘bekning “Ziji jadidi Qo‘ragoniy” asari yozilishida Ali Qushchining ham hissasi katta. 1438-y. Ulug‘bek Ali Qushchini Xitoy sultanatiga elchi qilib yuboradi, u Xitoydan qaytib kelgach, “Matematika va astronomik jug‘rofiya” asarini yozadi.

Ulug‘bek vafotidan (1449) so‘ng uning Samarcanddagi mashhur kutubxonasi xavf ostida qoladi. Kutubxonani Ali Qushchi saqlab qolgan degan taxminlar bor; rivoyatlarga qara-ganda kutubxonadagi kitoblarning ko‘p qismini A.Q.Samarqand yaqinidagi Xazrat Bashir qishlog‘iga ko‘chirgan. Ko‘p o‘tmay, ta‘qiblardan qochib, A.Q.Samarqanddan chiqib ketishga majbur bo‘ladi. U avval Karmana va b. shaharlarda yashab, 1465-y. Turkiyaning Istanbul shahriga boradi. Turk sultonı Muhammad II (1451—81) taraqqiyparvar shaxs bo‘lib, o‘z atrofiga olim va shoirlarni to‘plar edi. Ali Qushchining dong‘ini eshitgan sulton uni saroya xizmatga taklif qiladi va olimlarga rahbar qilib tayinlaydi. A.Q.Turkiyada olimlar, faylasuflar, shoirlarni o‘z atrofiga to‘plab, ilmiy ishlarni taraqqiy ettirishga intiladi, o‘zi esa riyoziyot, falakiyot, falsafa, mantiq, adabiyot, musiqa va b. fan sohalaridan risolalar yozadi. Ali Qushchidan 20 dan ortiq ilmiy asar meros bo‘lib qolgan. U ko‘p olimlarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa Ali Qushchining “Ulug‘bek zijiga sharh” asari astronomiya tarixida katta ahamiyatga ega. U “Zij”ni geometrik teoremlar yordamida sharhlaydi. Ali Qushchi asarlarining ko‘p chiligi Turkiyadagi Ayo So‘fiya madrasasi kutubxonasida saq-

lanib qolgan. Ulug‘bek maktabi namoyandalari va xususan Ali Qushchining asarlari va dunyoqarashlari ilm-fan tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ali Qushchi dunyo moddiy narsalardan iborat, moddiy narsalar esa oddiy va murakkab holda bo‘lib, ularda ichki ziddiyatlar mavjud, deb hisoblagan. U fasllar almashinuviga Yerning Quyoshga yaqinlashuvi sababligini aytgan. Ali Qushchi 16-17-asrlarda O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida riyoziyot fani rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. “Hisob risolasi” asaridan O‘rta Osiyo madrasalarida o‘quv qo‘llanmasi sifatida foydalanilgan. Bu asarda hindlar arifmetikasi (o‘nlik sanoq tizimi), fakaliyotshunoslar arifmetikasi (oltmishlik sanoq tizimi) va geom. (handasa) haqida yangi fikrlar aytilgan. “Kitob ul-Muhamadiya” asarida Ali Qushchi sonlardan ixtiyoriy natural darajali ildiz chiqarish usullarini va Nyuton binomi formulasini ko‘rsatadi, uning bu usullari hoz. vaqtida Ruffini - Gorner sxemasi deb nom olgan usulga o‘xshashdir. Bu asarida Ali qushchi K, kvadrat ildizini, umuman I darajali iddizni taqribiy hisoblash formulalarni beradi. Shuni ta’kidlash lozimki, hoz. ildiz ishorasi Turkiston olimlari asarlarida qo‘llanilmagan: ildiz so‘zlar bilan yozilgan. Ali Qushchi bu asarida birinchi bo‘lib asoslagan “musbat” va “manfiy” atamalari, ularning tatbiqi mat. tarixida katta ahamiyatga ega. G‘arbiy Yevropaga “musbat” va “manfiy” sonlar 15-asr oxirlarida pizalik Leonardo asarlari orqali tarqalgan. Kitobda uzunlik (masofa), kesmalar va yuzlarni o‘lchash va jismlarning hajmlarini hisoblash qoidalari bayon qilingan. Bu asarda trigonometriyadagi tekis uchburchaklar trigonometriyasi, sinus va kosinus teoremlari bayon etiladi, ba’zi shakllarning sirtlarini hisoblash uchun taqribiy formulalar beriladi, bu formulalar Ali Qushchidan oldin o‘tgan olimlar asarlarida uchramaydi. Kitobda keltirilgan sinuslar jadvalidagi sinus funksiyasining qiymatlari hoz zamon qiymatlaridan deyarli farq qilmaydi. Ali Qushchi uchburchakning yuzini topish usulini ham bergen. Ali Qushchi asarlaridagi to‘g‘ri chiziqli trigonometriyaga doir ko‘p masalalar

birinchi marta berilgan ekan. Uchburchaklarni yechish masalasida konuslar teoremasini Koshiy va Ali Qushchi birinchi marta ishlatganlar (Yevropada 1593-y. birinchi marta Viyet tatbiq etgan). Ali Qushchi “Astronomiyaga oid risola” asarida Ulug‘bek rasadxonasida olib borilgan kuzatishlarning natijasi o‘laroq, yulduzlar va sayyoralarning harakati, past (perigey), yuqori (apogey) masofalari haqidagi, fazoda har bir sayyoraning o‘rni, Quyosh uzoqligi haqidagi hisoblashlar va jadvallarni keltirgan, Oy va Quyosh tutilishi masalalarini ham juda aniq, to‘g‘ri va ilmiy tarzda tushuntirib bergen. Yuqorida aytilgan “Astronomiya risolasi”da Ali Qushchi tuzgan dunyo xaritasi berilgan. Xaritada asosan shim. Yarim shar chegaralari ko‘rsatilgan; xaritadagi ko‘ndalang chiziqlar iqlimlar chegarasini ifodalaydi. Ekvatorning sharqiy yarim sharidagi uz. “3332 farsang” — taxm. 20 ming km ga to‘g‘ri keladi. Xarita bir qadar sxematik tarzda tuzilganligiga, uning haqiqatga mos kelmaydigan joylari borligiga qaramay, u O‘rta Osiyo xaritashunosligining bir namunasi sifatida ahamiyatga ega. Ali Qushchi mat. fanidan o‘qish kitoblari va qo‘llanmalar ham yozgan. A.Q.Samarqand ilmiy maktabi an‘analarini davom ettirib, bu ilmiy maktabning fan sohasidagi katta yutuqlarini O‘rta, Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga tarqatishda faol ishtirok etadi. Ali Qushchi vafotidan so‘ng uning shogirdlari — Mirim Chalabiy, Husayn Birjandiy, Bahovaddin Omuliy, Najmiddin Alixon va b. uning ilmiy ishlarini davom ettirdilar. Ali Qushchi asarlari qo‘lyozmalari Toshkent Sharqshunoslik in-tida, Dushanba, Sankt-Peterburg, Mashhad, Istanbul, Oksford, Leyden (Niderlandiya) va Aya So‘fiya (Turkiya) kutubxonalarini va b. joylarda saqlanmoqda.

Sharofiddin Ali Yazdiy

(1415-yil – 1454-yil)



Sharofiddin Ali Yazdiy-ensiklopediyachi olim, astronom, faylasuf, tarixchi, ilm-fan muammolari tadqiqotchisi Sharofiddin Ali Yazdiy haqida to‘xtalib o‘tamiz

Sharofiddin Ali Yazdiy Taft (Eron) qishlog‘ida dunyoga keladi. 1415-1419-yillarda u hukmdor Ibrohim Sultonning saroyida, Ali Yazdiy Xuroson hukmdori Amir Temurning o‘g‘li Shohruhmirzoga xizmat qildi. Keyinchalik Shohruhmirzoning buyrug‘iga ko‘ra Ali Yunusxonning murabbiysi bo‘lgan. 1419-1425-yillarda o‘zining asosiy asari hisoblangan “Zafarnoma” (Fotihlar kitobi)ni yozdi, albatta bu asar sohibqiron erishgan g‘alabalari va harbiy yurishlariga bag‘ishlangan. 1442-1446-yillarda u Qozvana, Sulton, Roya, Qama (Eron) — Shohruhmirzo nevarasi Sulton Muhammad humdorlari qo‘llarida xizmat vazifasini o‘tadi. 1447-yil Samarcandga keldi, Mirzo Ulug‘bek bilan falakiyot ilmi tadqiqotlarini so‘nggi bosqichlarida ishtirok etdi. Shohruhmirzo vafotidan keyin ona Vataniga qaytib, umrining qolgan qismini shu yerda o‘tkazdi. 1454-yili Taft shahrida vafot etdi va o‘sha joyga dafn etildi. Yazdiy 13 ta ilmiy ishi yaratib, ularning orasida “Zafarnoma” (Fotihlar kitobi) asari mashhurlikka erishgan. Muallif o‘z ijodiy ishida turklarning kelib chiqish tarixi, Chingizzon tarixi, XIV asr boshlarida Markaziy Osiyo va qo‘shni mamlakatlardagi siyosiy ahvoli ichki urushlar va tarqoqlikning kuchayishi natijasida sohibqiron Amir Temur maydonga chiqqanini ta’kidlab o‘tgan. Ali Yazdiy Amir Temurning Movarounnahr barpo etishini keng va to‘liq tushuncha berib o‘tgan. Ali Yazdiyning tarixiy “Zafarnoma” asari orqali dunyoga tanilgan. Ushbu solhoma Amir Temurning hukmronlik davri

voqealari XV-XVI asrlarda tarixiy manba sifatida nafaqat O'rta Osiyo, Oltin O'rda, Eron va Afg'onistonlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Ali Yazdiyning adabiyot va tilshunoslik, falakiyat, musiqa sohasida hamda so'fizm nazariyasi muammolari bartaraf etishda hissa qo'shishi yuqori baholanadi. Alisher Navoiyning guvohlik berishicha, Yali Yazdiy mukammal inson va olim sifatida tan olganligini qayd etadi. "Zafarnoma" asarini Lutfiy XV-XVI asrlarda nazm holatiga keltiradi, fors tilida bu asarni Hotify tarjima qiladi. XVI asrlarda "Zafarnoma" asarini Muhammad Ali Buxoriy o'zbek tiliga tarjima qiladi. 1822-1823-yillarda Xudoyberdi Xivoqi qisqartirilgan ko'rinishda xorazm tiliga aylantiradi. XVIII asrlarda "Zafarnoma" ba'zi bir qismlari fransuz, ingliz va rus tillariga tarjima qilinadi.

Jomiy **(1414-yil – 1492-yil)**



Mavlono Nuriddin Abdurahmon ibn Jomiying hayoti, deyarli butun XV asrni o'z ichiga olgan. Buyuk tojik-fors shoirining ijodi u yashab o'tgan davr hayoti, adabiyoti, falsafasi hamda madaniyatining eng zid oqimlarini qamrab olgan eng yorqin ifodasi hisoblanadi.

1469-yil Movarounnahr Abusaidning farzandlariga, Xuroson esa Umarshayxning avlodiga o'tishi arafasida Temuriylar imperiyasi batamom parchalanib ketdi. Bu davr mobaynida Xurosonning eng katta hukmdori Hirotda qariyb qirq yil hukmronlik qilgan va nisbatan mustahkam hokimiyatni o'rnatgan Sulton-Husayn (1469-1506) edi. Umuman olganda, Sulton Husayn hamda Sulton Ahmadlarning (1469-1494-yillar markaz bilan Samarqanddan boshqargan) temuriylar davlati siyosiy tuzum nuqtai nazardan, temuriylar oila a'zolariga tegishli alohida hokimiyatlarga ega feodal monarxiya hukmronligidagi birlashuv deb qaralgan.

V.V.Bartoldning yozishicha, “Temur va temuriylar davri O‘rta Osiyo uchun eng buyuk tashqi yog‘du davri bo‘lgan”. Amir Temurning yorqin poytaxti — ajoyib me’moriy binolar qad rostlagan, dunyoning eng yirik va eng boy shaharlaridan biri bo‘lgan Samarqandni yodga solishning o‘zi kifoya. Shahar Temurning nabirasi Ulug‘bek davrida chinakam ilm markaziga aylangan. Ulug‘bekning xiyonatkorona o‘limi Samarqandning ilmiy faoliyatini zaifligiga olib keldi.

Ulug‘bekning o‘limidan so‘ng madaniy jihatdan Hirotdning ahamiyati orta boshladi. Shaharning martabasi, ayniqsa, Sulton Husayn hukmronligi davrida yuksak bo‘lgan. Unga, shuningdek, Kaspiy orti viloyati va Xorazm qarashli bo‘lgan. Hirot ikki yirik savdo nuqtalarida joylashgan bo‘lib, u yerga mahalliy ishlab chiqarish mollari bilan bir qatorda, Xitoy, Hindiston, Movarounnahr, Eron, G‘arbiy Ovrupa hamda Rossiyadan keltirilgan mahsulotlar yetkazilgan.

Shahar qurilishi, turli hunarmandchilik jahhalari, savdo-sotiq va boshqa sohalar yuksalishi bilan birga Hirotda madaniyat taraqqiy etganligini she’riyat, miniatyura, kalligrafiya, musiqa, raqs va san’atning boshqa turlari orqali ko‘rish mumkin. Aytish joizki, shaharning hunarmandlar qatlami bunda alohida o‘rin tutgan. Shunday qilib, Sulton Husaynning poytaxt shahri davrning mashhur aqliy faoliyat markaziga aylangan.

Shubhasiz, Sulton Husayn davridagi Hirot madaniyati faqat o‘shu davrning ijod samarasi emas, balki Somoniylar va boshqa davrlarga oid madaniy sintezni ham o‘zida mujassam etgandir. U o‘z ichiga ko‘plab muslimmon Sharq mintaqalarini - Xuroson, Movarounnahr va Xorazmning madaniy yutuqlarini qamrab olgan.

Bu davrdagi adabiyot va sanat rivojiga salmoqli ta’sir ko‘rsatgan yana bir jihat o‘sha davrdagi ikki mashhur shaxsning do‘stligi bo‘lgan, ya’ni, tojik shoiri va olimi Abdurahmon Jomiy va uning o‘quvchisi, do‘sti hamda homiysi o‘zbek shoiri va davlat

arbobi Alisher Navoiy.

Jomiy va Navoiylarning tanishuvi, ehtimol Navoiyning Hirotga ko‘chishi bilan bog‘liq (1469). Do‘stlik tez orada chuqur sadoqatga aylanib, ularni bir umrga bog‘ladi. Bu ikki atoqli shaxsning qalin munosabatlari ularning ijodiy hamfikrliligiga, shuningdek, dunyoqarashi, adabiyot va san‘atga bo‘lgan nazari, hamda davlat va hayot bilan bog‘liq masalalar umumiyligiga olib keldi.

Jomiy va Navoiyning atrofida shoirlar, olimlar, tarixshunoslar, rassomlar, xattotlar, me’morlar to‘plangan. Jomiy va Navoiy she’riyat, nasr, musiqa, tasviriy san‘at kabi madaniy hayot masalalari muhokama qilinadigan yirik uchrashuvlar, adabiy babs-munozaralarining tashabbuskorlari va tashkilotchilar bo‘lishgan.

1468-yil hokimiyat tepasiga Husayn Boyqaro keladi, uning vaziri etib Abdurahmon Nuriddin ibn Ahmad Jomiyning shogirdi va homiysiga aylanib ulgurgan Alisher Navoiy tayinlanadi. Sulton saroyi adabiy kuchlarni tortuvchi markaz bo‘lib, Jomiyning saroya yaqinlashuvi uning tarjimai holida juda samarali o‘rin egalladi.

Jomiyning Hirot va Samarqand madrasalarida olgan bilimi saroy xizmati nuqtai nazardan uning uchun yaxshi istiqbol bo‘la oldi, biroq o‘sha davrlarda Jomiy “naqshbandiya” ordenining so‘fiylik mafkurasi bilan qiziqib qoladi va faol yaxshilik qilish da’vatlari unda katta taassurot qoldirdi. Ordenga oddiy a’zo sifatida qo‘silib, Jomiy 1456-yil Hirotning orden boshlig‘i lavozimini egallaydi. O‘z o‘rnida Hirot mamlakatning haqiqiy poytaxti hisoblanib, musulmonlar Sharqiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Jomiyning erta ijodi — bu “Oltin zanjir” (1472) dostonining birinchi qismi bo‘lib, unda naqshbandiylik, so‘fiylar haqidagi tasavvurlar nasrda hikoya qilinadi, dunyoviy xarakterdagi asarlar — metrik va qofiya haqida risola, she’riy shakldagi jumboq (XV asrda juda mashhur bo‘lgan juda qiyin va

maroqli san’at turi bo‘lgan) tuzish bo‘yicha “yo‘riqnomा” ham mavjud. Aynan ushbu davrda shoirning ijodiy uslubining o‘ziga xos xususiyatlari namoyon bo‘lgan: barcha an’anaviy she’riy shakllar uning she’riyatida o‘z aksini topgan.

1474-yildan uning adabiyotshunos sifatida ijodining eng gullagan pallasi boshlanadi. Bunga 1475-yil yozilgan “Sirlar dengizi” va “Ruh yog‘dusi” diniy-falsafiy qasidalari ibtido bo‘lib, ularda ijodkor Ibn Sinoning aql-idrokka asoslangan nuqtai-nazariga qarama-qarshilikni qizil chizgilarda ifodalagan. 1476-1478-yillar oralig‘ida u “Muqaddas dargohdan do‘stlik shamoli” nomli to‘plamini tuzgan bo‘lib, undan so‘fiylik avliyolarning tarjimai holi o‘rin olgan.

1480-1487-yillar Jomiyning qalamiga mansub “Yetti toj” deb nomlangan dostonlar majmui birin-ketin yoziladi. U o‘z ichiga boshqa dostonlar qatorida “Salomon va Absol”, “Yusuf va Zulayho” hamda “Layli va Majnun”ni ham olgan—ularning sevgi negiziga shoir so‘fiylar ta’limotini poydevor qilgan, zero, unga ko‘ra, chinakam, ilohiy sevgiga erishish uchun shahvoniy maylni yengib o‘tish zarur. 1481-1482-yillar yozilgan “Olijanoblarga tortiq” dostoni pand-nasihat, oshkoraliq xarakteridagi 20 ta masaldan iborat. Ushbu majmuadan, shuningdek, “Taqvodorlar tasbehi” (1482-1483) dostoni, “Oltin zanjir” dostonining 2 hamda 3-qismlari, “Iskandarning donolik kitobi” (1486-1487) ham o‘rin olgan.

Jomiy ijodiy merosining so‘nggi yillari “Bahoriston” (1487) dostoni, uchta lirik devon (1479-1491) va “Musiqa hamda risola” bilan boyitilgan. Abdurahmon Nuriddin ibn Ahmad Jomiy ijodining insonparvarlik yo‘nalishi, ijodkorning yuqori odob va axloqiy g‘oyalarni targ‘ib qilishi keyinchalik nafaqat Forsda, balki boshqa islomiy davlatlarda ham adabiyot yanada rivojlanishiga yo‘l ochdi. Jomiyning ijodiga fors tilida yozilgan mumtoz she’riyat yakun yasadi, deb hisoblanadi.

Shoir 1492-yil 7-noyabrdha Hirotda vafot etgan.

XV asrning ikkinchi yarmida adabiyot rivojlanishi natijasida bir qator tarixga oid asarlar (tazkir) va o‘zbek hamda tojik adabiyoti nazariyalari yuzaga kelgan. Jomiy bir qator adabiyotga oid risolalar yozgan, jumladan, “Qofiya risolasi”, Qamaliddin Husayniy – “Jumboq risolasi”, Sayfi Buxoriy – “Vazn” (“Amruz”) va boshqalar. She’riy saylanmalaridan Jomiyning “Bahoriston” (“Bahor bog‘i”), va Davlatshoh Samarqandiyining “Tazkiran-ush-shuar” (“Shoirlar saylanmasi”) asarlari. Alisher Naoviyning ushbu yo‘nalishdagi shaxsiy mehnati samarasi natijasi o‘rnida o‘zbek tilida yozilgan tazkirasini bo‘lmish “Majolis un-nafois” (Asarlar to‘plami) va muhim nazariy-tarixiy masalalar yoritilgan boshqa asarlarni aytish mumkin.

Hirot madaniyati markazi arboblari, shuningdek, yirik ijrochi-ustalar ham bo‘lishgan. Chunonchi, musiqachi Xoja Abdulla Marvarid, Qulmuhammad Udiy, Shayh Naiy, Husayn Udiylar shular jumlasidan bo‘lib, Boburning filkriga ko‘ra, raqqos Saad Badr, bastakor G‘ulom Shodiy, Mirg‘ozi va boshqalar “bekning (Navoiy) yordami va madadi bilan mashhur shon-shuhrat va muvaffaqiyat qozonishgan”. San’atning ushbu sohalarining amaliy rivojlanishi musiqiy madaniyatning yutuqlarini nazariy umumlashtirilishiga olib keldi (Jomiyning “Musiqa haqida risolasi”).

Shu vaqtning o‘zida Shohrux tomonidan tashkil etilgan kutubxona ham o‘z faoliyatini davom ettirgan. Unda mahoratlari nusha ko‘chiruvchilar, xattotlar va muqovalovchilar faoliyat yurgizib, jamoaviy tartibda Firdavsiyning “Shohnoma”si ro‘yxatini, shuningdek, Nizomiy Ganjaviy, Navoyi, Jomiy va Saadiy asarlarini badiiy bezatish bilan shug‘ullanishgan.

Xattotlar va miniatyurachi rassomlar orasida eng mashhurlikka erishganlar sirasida “xattotlar shohi” Sulton Ali erishgan; “Sharq Rafaeli” Kamoliddin Behzod esa miniatyura san’atida yangi yo‘nalishni yaratgan; Xoja Muhammad, Shoh Muzaffar va boshqalarni aytish mumkin.

Hirot madaniyati doirasi yaratilishida ilm-fanning turli yo‘nalishlaridagi mehnatlar samarasi zamin bo‘ldi: Jomiyning “Arab grammaticasi haqida risola”si o‘zida mashhur arab tilshunosi Ibn-al-Xojibning (Kofiya) asarlariga bo‘lgan sharhni kasb etadi; Jaloliddin Davvoniyning “Jalol axloqi”; Husayn Vaiza Koshifiyning “Muhsin axloqi”. Husayn Vaiz tomonidan, shuningdek, “Kalila va Dimna” asari “Kanopus nurlari” (Anvar va Suhayli) nomi ostida tuzatilgan. Hirot madaniyati doirasida yuzaga kelgan barcha ishlarni birma-bir sanab o‘tmay, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning moddiy va ma’naviy ko‘magi ostida umumiy ellik yettita tarixiy va ilmiy-amaliy asarlar yaratilganligini aytib o‘tish maqsadga muvofiq.

Abdurahmon Jomiy o‘z davrining buyuk insonparvari bo‘lib, hunarmand, dehqon, san‘at namoyondasi kabi oddiy insonlarning muhabbatini himoyachi, ustoz va chinakam do‘sit o‘rnida qozona olgan. U hayotligidayoq zamondoshlari va temuriylar avlodи vakillari orasida tanilgan. Uning “Sulton Husayn hukmronligi davridagi shoirlarning yo‘l boshchilik va rahbarlik” (Bobur) obro‘sи shu qadar buyuk ediki, O‘rta Osiyo, Xuroson, Eron, Kavkaz orti, Turkiya va Hindistonda ham mashhur bo‘lib, hatto o‘z davrining eng yirik shaxsi, eng buyuk shoiri va ustozи, nuroniysi va murabbiysi deb hisoblangan. Biroq, shunga qaramay, buyuk shoir o‘ziga va yashash tarziga nisbatan juda talabchan, kundalik yashash tarzi ziroatchi va hunarmandlarniki kabi juda odmi bo‘lgan. Shoirning zamondoshlari asarlarida Jomiyning hayoti, qahramonliklari bilan bog‘liq ko‘plab o‘ziga xos hikoyalar bor. Ularning mazmunidan shoir o‘ta sodda, odmi, dono bo‘lganligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Abdurahmon Jomiy hayotligida omma e’tirofini qozongan, jamiyat, ilm-fan, falsafa, san‘at, shoirona so‘zlash mahoratida baobro‘ inson bo‘lgan. Bularning barchasiga buyuk Jomiy nomini asrlarga muhrlab qo‘ygan uning umuminsoniy shoirona merosi sabab bo‘lgan bo‘lib, mahorati qarshisida nafaqat Sharqning

ma'rifatparvar donolari, balki sharqiy davlatlarning mag'rur hukmdorlari ham bosh eggan.

Fors she'riyatidagi eng samarali mualliflardan biri Maylono Abdurahmon Jomiy o'zidan so'ng buyuk she'riy meros qoldirdi. U "Xaft avrang" ("Yetti taxt") nomli romantik va so'fiy-falsafiy dostonlar to'plamini yaratdi. An'anaviy g'azallar, ruboiy, she'riy bandlardan iborat uchta devon yaratgan, devonlar ijodkorning hayoti bosqichlariga ko'ra ajratilgan va Alisher Navoiyning taklifiga ko'ra uchta devon Amir Husrav Dehlaviyning namunasiga ko'ra nomlangan — "Yoshlikning birinchi qismi", "Shoda orasidagi o'rtacha marjon", "Hayot xotimasi". Jomiyning eng yirik shoirona asari "Xaft avrang" ("Yetti taxt") hisoblanadi. U doston majmualaridan iborat yetti qismdan iborat:

1. "Olijanoblarga tortiq" (1481-1482);
2. "Taqvodorlar tasbehi" (1482-1483);
3. "Yusuf va Zulayho" (1485);
4. "Layli va Majnun" (1485-yil yakunlangan);
5. "Iskandarning donishmandlik kitobi" (1485);
6. "Oltin zanjir" (uning uchinchi qismi muallif hayotining har xil davrlaridan tashkil topgan);
7. "Solomon va Absal" (1480-1481).

Abdurahmon Jomiy ijodiy merosi durdonasi (nafaqat ushbu doston va XV asr she'riyatini, balki butun tojik-fors adabiyotini butunlay) sirasiga "Solomon va Absal" dostoni kiritilsa mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur doston, mana besh asrki, she'riyat shinavandalari, romantik rivoyatlarning havaskorlari va hikmatli she'riyatning nozik ixlosmandlari diqqat markazidan chetlashmagan. U chuqur she'riy shakldagi qadimiy syujetga ega ilk muhim badiiy asargina bo'lib qolmay, shoirning yetuk davridagi adabiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini o'z ichiga olgan doston hamdir.

Jomiyning "Solomoy va Absal" asari o'tgan yuz yillikda g'arbiy Ovrupada ham juda mashhur bo'lgan: 1856-yil doston

mashhur shoir, Umar Xayyom to‘rtliklarini tarjima qilgan mashhur tarjimon Fitsdjerald (1809-1883) tomonidan ingliz tiliga she’riy qofiyada tarjima qilingan. “Solomon va Absal” fransuz tiliga doston ko‘rinishida Avgust Brikte tomonidan tarjima qilingan va 1927-yil Parij shahrida nashrdan chiqqan.

Jomiyning “Solomon va Absal” dostoni rus tiliga ilk bor sovet sharqshunosi Konstantin Chaykin tomonidan tarjima qilingan va 1935-yil III Xalqaro Eron san’ati va arxeologiyasi kongressiga bosib chiqarilgan.

Alisher Navoiy (1441-1501)



Buyuk so‘z san’atkorlari tarixning tub burilish nuqtalarida, millatni birlashtiruvchi, ruhan yuksaltiruvchi badiiy so‘zga kuchli ehtiyoj tug‘ilgan paytda dunyoga keladi. Alisher Navoiy xuddi ana shu davrda yashadi.

Buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher 1441-yilning 9-fevralida Hirotda tug‘ildi. Alisher Navoiyning ota tomondan bobosi Amir Temurning Umar Shayx ismli o‘g‘li bilan ko‘kaldosh (emikdosh) bo‘lib, keyinchalik Umar Shayx va Shohruxning xizmatida bo‘lgan. Otasi G‘iyosiddin Bahodir esa Abulqosim Boburning yaqinlaridan; mamlakatni idora etishda ishtirok etgan. Onasi Qobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi. Alisher Navoiyning bolaligi Shohrux hukmronligining so‘nggi yillariga to‘g‘ri kelgan. U temuriyzodalar, xususan bo‘lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan. 4-yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she’rlarni o‘qib, yod ola boshlagan. O‘zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan. 1447-

yil 12-martda mamlakat podshohi Shohrux vafot etgach, taxtga da'vogarlar orasida o'zaro kurash boshlanadi. Navoiylar oilasi o'z tinchligini ko'zlab, Iroqqa ko'chishadi. Taf shahrida Alisher mashhur "Zafarnoma" tarixiy asari muallifi, shoir Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Bu uchrashuv bolada yorqin iz qoldiradi. G'iyoisdin Bahodir oilasi Hirota, qariyb ikki yil muddat o'tgach, qaytadi. Abulqosim Bobur G'iyoisdin Bahodirni Sabzavor shahriga hokim qilib tayinladi. Alisher Navoiy Hirotda qolib o'qishni davom ettirdi. U she'riyatga g'oyat qiziqdi, Sharq adabiyotini qunt bilan o'rgandi. Oila muhiti bolaligidayoq unda adabiyotga zo'r havas tug'dirgan edi. Tog'alari Mirsaid - Kobuliy, Muhammad Ali -G'aribiy yetuk shoir edilar. Alisher Navoiylar uyida shoirlar tez-tez to'planishib, mushoira qilishar, adabiyot va san'at haqida suhbatlashar edilar.

Alisher 10-12-yoshlaridan she'r yoza boshlagan. Tarixchi Xondamirning yozishicha, yosh Navoiyning iste'dodidan mammun bo'lган mavlono Lutfiy, uning:

Orazin yopqoch, ko'zumdan sochilur har lahza yosh,
Bo'yakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh
matla'li g'azalini tinglab: "Agar tuyassar bo'lsa edi,
o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu
g'azalga almashtirardim..." degan. Alisher Navoiy 15-yoshida
shoir sifatida keng tanilgan. She'rlarini turkiyda Navoiy, forsiyda
Foniy taxalluslari bilan yozgan.

Alisher Navoiy 13-14-yoshlarida otasi hayotdan ko'z yumadi. Uni Abulqosim Bobur o'z tarbiyasiga oladi, katta badiiy iste'dodi uchun g'oyate'zozlaydi. 1457-yilning bahorida to'satdan Abulqosim Bobur ham vafot etdi. Xurosonni Movarounnahr hukmdori Sulton Abu Said egallaydi va poytaxtni Samarqanddan Hirota ko'chiradi. Husayn Boyqaroning taxtni egallash yo'lidagi birinchi raqibi - Abu Said edi. Alisher Navoiy oilasining xohish -rag'bati Husayn tomonda bo'lib, bu avvalo ularning oilaviy yaqinliklari bilan izohlanardi, bundan yangi hukmdor ham yaxshi

xabardor edi. Bu vaqtda mamlakatda taniqli shoir bo‘lib qolgan Navoiyni Abu Said ta’qib qilib, Hirotdan chiqarib yuboradi. 1469-yil boshlarida Sulton Abu Said Qorabog‘da o‘z askarlari tomonidan o‘ldiriladi. Ko‘pdan buyon shunday vaziyatni kutib yurgan Husayn Boyqaro zudlik bilan kelib, Hirot taxtini egallaydi. Alisher Navoiy ham Hirotgaga keladi. Amazon hayiti munosabati bilan uyuşhtirilgan qabul marosimida Husayn Boyqaroga yangi yozgan “Hiloliya” qasidasini taqdim etadi. Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning eng xavfli siyosiy raqibi - Yodgor Muhammad Mirzoni tunda qo‘lga olishda shaxsiy jasorat ko‘rsatadi. Yangi hukumatning ortiqcha soliqlaridan norozi bo‘lib, qo‘zg‘olon ko‘targan xalq ommasini tinchitishdaadolat va mardonavorlik bilan ish tutadi. Husayn Boyqaro 1472-yilning fevral oyida uni o‘z saroyining bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga “Amiri kabir” unvonini beradi. Alisher Navoiy yangi lavozimda avvalo butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o‘rnatishga qaratdi. Vaqf ishlarini tartibga solishga kirishdi. Shaharlarda savdo-sotiq, hunarmandchilikni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Alisher Navoiy sa’yi harakati bilan qishloqlarda dehqonchilik madaniyati o‘sib boradi. Shaharlar, xususan Hirot kun sayin obod bo‘la boshlaydi. Bu davrlarda Hirotda adabiy hayot jo‘sh urgan. 1470-yillarning oxirlarida Alisher Navoiy o‘zining o‘zbek tilida yozgan she’rlaridan iborat ilk devoni - “Badoye’ ul-bidoya” (“Badiiylik ibtidosi”)ni tuzdi. Shuni quvonch bilan aytish joizki, Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodi faqat o‘zbek adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida ham salmoqli o‘ringa ega. Navoiy lirik, epik va falsafiy asarlari bilan XV asr adabiyotida chuqur iz qoldirdi. Ulug‘ shoirning asarlari hayotlik davridayoq Xitoydan tortib Kichik Osiyogacha yetib bordi va hozirda butun dunyo xalqlari ham sevib o‘qishmoqda. “Xamsa” dostoni Navoiy ijodining durdonasi sanaladi. O‘zbek tilida “Xamsa” - besh doston yaratish maqsadi yoshlidan bo‘lgan. Bu maqsadini 1483-85-yillarda amalgalama oshirdi. Asar

o‘zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi. Yana uning “Tarixi muluki Ajam”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Risolai muammo”, “Majolis un-nafois”, “Munshaot”, “Mezon ul-avzon”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Nasoim ul-muhabbat”, “Devoni Foniy”, “Lison ut-tayr”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub”, “Nazm ul-javohir”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Siroj ul-muslimin”, “Arbain” kabi bebaho asarlari mavjud.

Navoiy ijodiga nazar tashlasak, she’riyatning 16 xil janrida ijod qilganligini bilib olamiz: g‘azal, ruboiy, tuyuq, fard, qit’a, muxammass, musaddas, mo‘sallam va hokazo. Bu kabi janrlarda hech bir shoir Navoiydek ijod qilganligini uchratolmaysiz. Ulug‘ bobomiz she’r yozishda faqatgina o‘zbek tili imkoniyatlari bilan chegaralanib qolmagan, boshqa tillardan ham unumli foydalangan. O‘tkir Hoshimov bu borada quyidagilarni qayd etadi: “Olimlar hisoblab chiqishgan. Pushkin o‘z asarlarida 21197 ta betakror so‘z ishlatgan, Shekspir salkam 20 mingta, Servantes mingtaga yaqin. Alisher Navoiy esa 1 million 378 ming 660 ta betakror so‘z ishlatgan. Boisi, buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabi, urdu, xitoy, mo‘g‘ul va boshqa tillardagi so‘zlardan ham mahorat bilan foydalangan”. Dalillardan ko‘rinib turibdiki, Navoiyning so‘z zaxirasi nihoyatda ulkan ekan. Hazrat ishlatgan so‘z o‘yinlari ko‘lami ham beqiyosdir. Negaki, Navoiy she’rni shunchaki biror narsani bayon qilish emas, balki mo‘jiza ko‘rsatish deya hisoblaydi. Ul zot yozadi-ki:

Bo‘lmasa e’joz maqomida nazm,

Bo‘lmas edi Tengri kalomida nazm.

Navoiy o‘z asarlarida va Xurosonning vaziri a’zami sifatidagi faoliyatida insonni ana shunday tushunishni, qadrlashni, himoya etishni va savob ishlarga da’vat qilishni muqaddas vazifa deb bildi.

Insonni tavsiflashda Navoiy bir yoqlama mubolag‘aga yo‘l qo‘ymaydi, u odamning ojiz tomonlari borligini ham tan

oladi. Ammo inson o‘z fazilatlarini himoya qila va saqlay olsa, uning hayot uchun kurashida fazilatlari ustun chiqishiga chuqr ishonch izhor etadi:

Bordir inson zotida oncha sharaf,

Kim, yamon axloqin etsa bartaraf.

Navoiy nafaqat shoir, tarjimon, tilshunos olim, balki davlat arbobi sifatida ham tarixda katta iz qoldirgan. Ana shuning uchun ham uning ko‘p ruboiylari, dostonlari xalqni qay yo‘sinda baxtli-saodatli qilmoq mumkin, savoliga javob tariqasida yozilgandir. Alisher Navoiy dunyoni tushunib o‘tdi. Shu bois, alg‘ov-dalg‘ov zamonlarda botinin xotirjam yashadi. Zotan, Nozim Hikmat ta’biri bilan aytganda: “tushunmak - buyuk xotirjamlik”, - deganidir.

Navoiy yashagan davrdan buyon besh asrdan asrdan ko‘proq vaqt o‘tdi. Movarounnahr tuprog‘i ne-ne bosqinlarga, toju taxt uchun qonli kurashlarga sahma bo‘ldi. Ammo shoir ijodining qimmati aslo pasaymadi. Har avlod undan o‘zi uchun nimadir topdi. Navoiy asarlari xalqimiz uchun ma’naviy quvvat va yuksalish manbai bo‘ldi.


Navoiy shaxsiyati va ijodini tadqiq etish XV asrdan buyon olimlar, shoirlar, tarjimonlar, kotiblar, naqqosh va musavvirlar diqqat markazidagi masalalardan biri bo‘lgan.

Navoiy hayoti va faoliyatini o‘rganish miqyosi XX asrda yanada kengaydi. 1941-yili qamal qilingan va bombalar yog‘ilib turgan Sankt-Peterburg shahrida shoir ijodiga bag‘ishlangan anjumanning o‘tkazilishi ilm yo‘lidagi fidoyilikning yorqin namunasi bo‘lgan edi. Keyingi yarim asr davomida Navoiy asarlari jahonning turli mamlakatlarida qayta-qayta chop etildi. Jahon tinchlik kengashi 1968-yili Navoiy yubileyi munosabati bilan yo‘llagan tabriknomasida: “Jahon madaniyatining eng yaxshi durdonalariga mansub bo‘lgan Alisher Navoiyning qudratli hayotbaxsh she’riyati butun taraqqiyarvar insoniyatning boyligi bo‘lib qoladi”, deya e’tirof etgan edi. Navoiy ijodi o‘zining haqiqiy qadr-qimmatini

mustaqil O‘zbekistonda topdi, deya olamiz. Yurtboshimiz tashabbusi bilan 1991-yil Alisher Navoiy yili deb atalgan edi. Mamlakatimiz bu ulug‘ zot nomi bilan mustaqillik davriga qadam qo‘ydi. Bunda o‘ziga xos ramziy ma’no bor. Zero, Navoiy o‘zining hayoti va faoliyatini yurt mustaqilligi va tinchligi, o‘zbek tilining nash’u namosi uchun baxshida etgan edi. Bugun Alisher Navoiy haqli suratda jahon madaniyatining mumtoz vakillari safidan o‘rin oldi. Uning asarlari jahondagi yuzlab tillarga tarjima qilindi. Dunyo ahli uning merosi bilan qiziqmoqda, asarlarida tarannum etilgan olijanob g‘oyalar va falsafiy mushohadalaridan zavq olmoqda. Shoir haykallari Yaponianing Soka universiteti hovlisida, Moskva va Boku shaharlarida qad ko‘tardi. Barcha daho san’atkorlar singari Alisher Navoiy ham o‘zining nomi va yaratgan asarlari aslar osha yashab qolishiga ishongan edi. “Umidim uldurki va xayolimga andoq kelurki, so‘zim martabasi avjdan quyi enmagay va yozgan asarlarimning tantanasi a’lo darajadan o‘zga yerni yoqtirmagay”, deb yozgan edi ulug‘ shoir. Bu bashoratomuz so‘zlar ijobot bo‘ldi. Endilikda shoir so‘zları dunyo bo‘ylab o‘zining yuksak parvozini davom ettirmoqda.

O‘zbek xalqining uchta baxti bor. Birinchi baxti mustaqillik, ikkinchi baxti yer osti va yer usti boyliklari bo‘lsa, uchinchi baxti Navoiydir.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530-yil)



Zahiriddin Muhammad Bobur — bu-yuk o‘zbek shoiri, mutafakkir, tarixshunos va davlat arbobi; boburiylar sulolasi va sultanati asoschisi. Boburning ilmiy mehnatlari orasida “Aruz haqida risola” (1523-25) alohida o‘rin egallaydi, unda sharqiy aruz vazni ko‘rib o‘tiladi. 1521-yil islomning beshta shariat ustuni bayon etilgan falsafiy-diniy “Mubayyin” asarini yozgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevral kuni Andijonda tavallud topgan, Farg‘ona hukmdorining o‘g‘li, Amir Temurning evarasi. Bobur 1494-yil Farg‘ona hokimi bo‘ladi, 1526-yil Hindistonda markazlashgan boburiylar davlatiga (jahon tarixiga “buyuk mo‘g‘ullar sultanati” bo‘lib kirgan) asos solib, Hindiston inglizlar tomonidan bosib olinishiga qadar (1848) mavjud bo‘lgan. Agra shahrida 1530-yil 26-dekabr kuni vafot etgan. Boburning she’riy merosi ko‘pqirrali va boy. Nasriy asarlari (1519) “Qobul devoni”ga, so‘ngra (1529-30) “Hind devoni”ga jamlangan. U sharq nasriy janrlarida 10 dan ziyod she’rlar yozgan. She’rlarida uning shaxsiy hayoti, atrof-muhiti va tarixiy hodisalar aks etilgan. Bobur she’riyatining asosini ishqiy-nasriy mazmundagi she’rlar tashkil etadi. Shoир san’ati o‘ziga xos adabiy uslub va mahorat, turkiy tilning ifodaliroq vositalari orqali tasvirlanadi. Uning she’rlarida o‘z davrining tarixiy hodisalari, shoирning shaxsiy hayoti, atrof-muhit, insonga bo‘lgan munosabat, din, davr an’analari va axloqlari voqelik ila aks etgan. Boburning she’rlari — shoирning tarjimai xoli, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. U orqali ijodkor shoirona til orqali teran tuyg‘ularni bayon qiladi, hayotiy hodisalar to‘qnashuvi natijasida hosil bo‘lgan tashvishlarni mohirona so‘zlaydi. Bobur she’riyatining asosini ishqiy-nasriy she’rlar tashkil etadi. Ijodining assosiy qirralaridan biri, chinakam insoniy, dunyoviy, haqiqiy sevgini kuylaganligidir. Shoир lirkasi Alisher Navoiy she’riyatidan ilhomlanish bilan to‘yingan. O‘zining g‘azal va ruboilarida u sevgi, do‘slik, go‘zallikka intilish kabi insoniy muammolarni ko‘targan. Dunyoviy sevgini shoир insonning eng porloq unvoni sifatida tarannum etadi.

Bobur oshig‘i bilan uchrashuv uchun sevgining istalgan qiyinchiliklarini yengib o‘tishga tayyorligini ta’kidlaydi. Katta samimiyat ila shoир sevgi uchun o‘zini borlig‘i bilan qurban qilishga ham tayyorligini ifodalaydi.

Xati — binafsha, xadi — lola, zulfi rayhondur,
Bahori husnda yuzi ajab gulistonidur.
Iki mengi oyu dog‘i yuzu so‘zi gulu mul,
Qadi ravonu tani jonusi irni marjondur.
Qoshida chinu ko‘zida kinu angabin labida,
So‘zida zahr va lekin tilida darmondur.
Qoshingg‘a ko‘p bora olmon, netay, aroliqda,
Yoshim tishing duridin ayru bahri Ummondur.
O‘tumni tez etasen har tarafg‘a sekretib ot,
Samandi noz inonini bir beri yondur.
Ne nav’ vasf qilay surating latofatini —
Ki, husnunga sening, ey ruh, aql hayrondur.
Jafoyu javr agar qilsa, Boburo, netayin,
Ne ixtiyor manga, har ne qilsa, sultondur
Chekib gar oh dudini ko‘ngul o‘tini tutratsam.
Ko‘zum ravshanlig‘ida bo‘lg‘ay, Bobur, base kamliq,
Agar qoshi bila yuzun hilolu kunga o‘xshatsam.

Bobur uchun sevgi — sadoqat, fidokorlik, shukur va insoniylikdir. Sevgini u barcha narsadan: boylik, jamiyatdagi o‘rnini va barcha dunyoviy ezguliklardan ustun qo‘yadi. Shoir o‘zining mukammal g‘azallarida go‘zal oshiq timsolini yaratib, unga tengsiz go‘zal tashqi ko‘rinish, boy ichki dunyo, ma’naviy mukammallik in’om etadi. Shu bilan birga, u noyob badiiy vositalarni ham mohirona qo‘llaydi.

O‘zni, ko‘ngul, aysh bilan tutmoq kerak,
Bizni unutqonni unutmoq kerak.
Ayshu tarab gulbunig‘a suv berib,
G‘ussa niholini qurutmoq kerak.
Tiyra turur zuhd damidin ko‘ngul,
Ishq o‘ti birla yorutmoq kerak.
Har nimag‘a g‘am ema, g‘am ko‘p turur,

Aysh bila o‘zni unutmoq kerak.
Qo‘yma mashaqqat aro, Bobur, ko‘ngul,
O‘zni farog‘at bila tutmoq kerak.

Samimiy sevgi tuyg‘ularini madh etib, dunyoviy inson muhabbatini ta‘kidlar ekan, Bobur mukkasidan ketgan shayxlarning riyokor tanqidiga uchraydi, g‘ofil din aqidaparastlariga qarshi chiqadi. Jahannam olovi ayriliq alangasi oldida uchqunday tuyuladi:

Hajringda bu tun ko‘ngulda qayg‘u erdi,
Vaslingg‘a yetishmadim — jihat bu erdi:
Ohim tutuni birla ko‘zumning yoshidin
Yo‘l balchiq edi, kecha qarong‘u erdi!

Bobur she’riyatida ona vatan mavzusi alohida o‘rin egallaydi. Uning she’rlarida, ayniqsa to‘rtliklari vataniga bo‘lgan sog‘inch va cheksiz muhabbatи ta’sirchan ifodalangan.

G‘urbat tug‘i yopqon ruhi zardimnimu dey?
Yo hajr chiqargon ohi sardimnimu dey?
Holing nedurur? Bilurmusen dardimni?
Holingai so‘raymu, yo‘qsa dardimnimu dey?!

Bobur she’riyatida, shuningdek, insonning axloqi va diniy mukammalligi masalalari ko‘tarilgan. Shoir insonni yuqorilarga ko‘tarib, unga ulkan hurmat ila munosabatda bo‘ladi, inson qadr-qimmatini baland qo‘yadi. Bu g‘oyalarga zid bo‘lgan barcha narsaga qarshi chiqadi. Boburning fikricha, xudbinlik, humattalablik, qizg‘anchig‘lik, manmanlik – noqobil sifatlardir. Shoir odamlarga samimiy maslahatlar beradi. O‘zining ruboiyalarida inson qanday qilib o‘zini ma’nан tarbiyalashi kerakligi haqida gapiradi.

Mazkur mavzuga yuzlanar ekan, insonning hayotdagи eng asosiy vazifasini shoir yaxshilik, bag‘rikenglik va haqiqatda ko‘radi. Do‘stlik – insonning eng asosiy jihatи va dushman bilan kurashda ulkan kuch deb hisoblaydi.

Bobur asarlaridagi adabiy til haqida so‘z borar ekan, undagi soddalik, hammaboplak, ravon va qisqaligini aytish lozim. Shoir balandparvoz gaplarni va mukammal iboralarni yoqtirmagan. Boburning sodda tili o‘quvchiga asarlarini, boy ifodalari va kechinmalarini aniq o‘zlashtirishda yordam beradi.

Bobur ma’nosiz gap-so‘zlardan qochishga, o‘z fikrlarini qisqa, ravon va oddiy bayon etishga, inson o‘zi tushunmaydigan so‘zlardan foydalanmaslikka chaqiradi. Xususan, u shunday ta’kidlaydi: “Ravshan va toza gaplar yordamida, soddaroq yoz: va senga ham, seni xatingni o‘qiganga ham oson bo‘ladi”.

Shubhasiz, “Boburnoma”ning ushbu satrlaridan ma’lumki, Boburning she’riy mahorati nasriy asarlariga chuqur va sezilarli ta’sir ko‘rsatib, ulkan badiiy go‘zallik va keng shuhrat baxsh etdi.

Boburning she’riy mahorati badiiy-adabiy uslub va ona tilining eng ta’sirchan vositalaridan mahorat ila foydalanish hamda xalq ijodiyoti manbalarining ijodiy tiklanishida ifodalanadi.

Ilmiy asarlari orasida “Aruz haqida risola”si Sharq filologiyasi rivojida alohida o‘rin egallagan. Asar she’riyatning she’riy asoslarini ehtiyojkorona va erishgan yutuqlarining tanqidiy o‘zlashtirish natijasidadir. Bobur prosodilar (nutqdagi urg‘uli va urg‘usiz, uzun va qisqa bo‘g‘inlar tizimi) nazariyasini o‘zining qayd etgan yangi topilmalari, holat va umumlashmalari bilan boyitdi, uning tasnif va turlarini rivojlantirdi.

U o‘z qarashlarini arab, fors-tojik va turk she’riyati manbalari orqali asoslaydi. Bu orqali olim she’riyatdagi o‘zarlo aloqa va hamfikrlikni ko‘rsatish bilan birga, turkiy tilda she’r yozuvchi xalqning cheksiz keng she’riy doirasini namoyon etadi. Alisher Navoiy an’analarini davom etar ekan, u xalq she’riyatiga katta e’tibor qaratgan. Uning asarlari xalq qo‘shiq san’ati

janri haqidagi qimmatli ma'lumotlarni va qiziqarli etnografik materiallarni tashkil etadi.

Mashhur “Boburnoma” – buyuk temuriylar tarixi (1494-1529-yillar voqealari), buyuk hokimiyat yaratilishidan so‘zlaydi. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida “Boburnoma”ning 10 dan ziyod qo‘lyozma nusxalari saqlanadi. Ularning barchasini taqqoslash asosida, boburshunos Porso Shamsiyev mazkur nodir asarga tanqidiy matnni (1960) nashrga tayyorladi. Keyinroq, yapon olimi I.Mano ham “Boburnoma”ga tanqidiy matnni nashr uchun tayyorladi, shuningdek, N.Ilminskiy (1847), Beverij (1905), Fitrat (lavha, 1928) va P.Shamsiyevlar (1960) tomonidan ham chop etilgan.

Uni fors (1586), golland (1705), ingliz (1826), fransuzs (1871), turk (1940) va rus (1942) tillariga tarjima qilishgan. “Boburnoma” mavzusi asosida F.A.Stil (Parij,1940), F.Grenard (Parij,1930), G.Lemb (Nyu-York,1961), V.Gaskon (Nyu-York,1980), Munila'l (6 roman) va boshqa xorij mualliflarining romanlari ham mavjud. U to‘g‘risida o‘zbek yozuchilari (Oybek, B.Boyqulov, X.Davron) tomonidan dostonlar, roman (P.Qodirov) va qissa (X.Sultonov) ham yozilgan.

1521-yil “Mubayyin” nomli falsafiy-diniy asar yozilgan bo‘lib, unda islom shariatining 5 ustuni bayon etilgan, shuningdek, o‘sha yil u “Mubayyinu-l-zakot” soliq chiqimi kitobini ham yozgan. Uning “Harb ishi”, “Musiqa ilmi” kabi ilmiy asarlari hanuz topilmagan.

Bobur arab grafikasi asosida “Xatti Boburiy”ni tuzgan, u turkiy fonetikaga doir. Ushbu xat asosida Qur’on hamda Boburning shaxsiy asarlari qayta yozilgan.

U shuningdek, badiiy tarjimalar bilan ham shug‘ullangan. U Bahovuddin Naqshbandiyning davomchisi, yirik so‘fi Xoji Ahror Valining “Voldiya” (Ota-onalar risolasi) diniy-falsafiy asarini she’riy ko‘rinishda tarjima qilgan.

Bobur ijodini o‘rganish bo‘yicha Xalqaro ilmiy ekspeditsiya a’zolari bir necha bor shoir “izi” bo‘ylab ilmiy sayohatlar tashkil etishgan, ular tomonidan 500 dan ziyod kitob va hujjatlar topilgan bo‘lib, “Bobur va uning zamonaviy dunyodagi o‘rni” memorial muzeyida saqlanadi. Andijonda Bobur parki bo‘lib, u yerda shoirning ramziy qabri hamda “Ark ichi” memorial majmuasi joylashgan.

Bobur jamoat va tarixni yuzaki kuzatuvchisi bo‘lмаган, u voqeа va hodisalarни, о‘зини xavotirga solgan о‘y va his-tuyg‘уларни tahlil qilishga intilgan. Bu fikrlar va hissiyotlar yaxshilik va adolat, haqiqat va go‘zallik tamoyillariga xizmat qilish uchun yo‘naltirilgan edi.

Hofizi Abru

Hofizi Abru, Shahobuddin Abdulloh ibn Lutfilloh ibn Abdurrashid al-Havofiy (1361-62, Hirot – 1430, Zan-jon) — tarixchi va geograf.Amir temur va Shohrux saroylarida tarixnavis bo‘lgan. Tarixiy va tarixiy-geografik asarlar (“Zayli Zafarnomai Shomiy”, “Zayli Jomi’ ut-tavorix”, “Tarixi Hofizi Abru”, “Majmua attavorixi sultoniy”, “Zubdat ut-tavorixi Boy-sunquriy”) muallifi. “Zayli Zafar-nomai Shomiy” asari Nizomiddin Shomiynnnt “Zafarnoma”siga ilova bo‘lib, asardagi tarixiy voqealar bayonini 1405-y. gacha davom ettirgan. “Zayli Jomi’ ut-tavorix” Rashiduddin Fazlul-lodning “Jomi’ ut-tavorix” asarining davomi bo‘lib, unda Eronning 1304-70-y. lardagi tarixi aks ettirilgan(1417). “Tarixi Hofizi Abru” nomi bilan mashhur tarixiy-geografik asarida dunyoning doira shaklidagi xaritasi va b. xaritalar berilgan. Bu xaritaning muhim tomonlaridan biri—gradus to‘ri izilganidir, uni geograflar Hofizi Abruning shoh asari deb hisoblaydilar. Bu asarda yer yuzidagi suvlar, tog‘-toshlar, mamlakatlar va ulardagi shahar-qishloqlar, shuningdek, Fors, Kerman, Xurosonning batafsil geografiyasi va tarixi, Movarounnahr geof. Si bayon etilgan. Xususan, Samarqand,

Buxoro, Kesh, Naxshab, Termiz kabi shaharlar hamda Jayxun, Say-xun, Murg‘ob va b. daryolar, mamlakatlar, viloyatlarning kenglik va uzunliklari ko‘rsatib o‘tilgan va masofalar hamda maydonlarni izohlovchi (farsang, oylik yo‘l, kunlik yo‘l) anchagina satrlar bor. 1423-27-y. larda yozilgan “Majmua” (“To‘plam”) asari Shohrux sultanati tarixini 1417-yilgi voqealar bilan tugatadi. Uning 4-jildi “Zubdat ut-tavorixi Boysun-quriy”da tarixiy voqealar 1417-y. ga qadar yetkazilgan. Hofizi Abruning asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar, bizgacha yetib kelmagan asarlardan parchalar va muallifning o‘z davriga oid xabarları keng o‘rin olgan. Hofizi Abru asarlarining qo‘lyozmalari Sankt-Peterburg, Oksford va Toshkentda saqlanadi.

Abdurazzoq Samarqandiy

Abdurazzoq Samarqandiy, to‘liq ismi Kamoliddin Abdurazzoq ibn Jaloliddin Ishoq Samarqandiy (1413.7.11-1482, Hirot) — mashhur sayyoh, elchi va tarixchi. Tafsir, hadis, tarix, til va adabiyot fanlarini puxta egallagan. Hayotining ko‘p davri Samarqandda o‘tgani uchun Samarqandiy nisbasini olgan. Abdurazzoq Samarqandiy arab tili grammatikasiga bag‘ishlangan “Risolai Azudiya”ga sharh yozadi. Shohrux saroyida diplomatik yozishmalarni olib borishda qatnashadi, elchilar boshlig‘i sifatida 1442-44-y. larda Hindiston jan. dagi Kalikut, Xinovar, Mangalur, Bilur, Bokanur va Vijayanagar rojaligiga borib keladi. 1446-47-y. larda Shohrux uni diplomatik topshiriq bilan Gilonga jo‘natadi. U hayotining keyingi davrlarida Abulqosim Bobur saroyida xizmat qildi. Bobo‘rning Mozandaronga (1453), so‘ngra Samarqandga (1454) qilgan yurishlarida qatnashdi. 1463-y. Abu Said mirzo A.S.ni Hirotdagi Shohruxiya xonaqosiga shayx etib tayinlaydi. Abdurazzoq Samarqandiy Movarounnahr va O‘rta Sharq mamlakatlarining 14-15 a. lardagi tarixiga oid boy ma'lumotlarni o‘zida jam qilgan “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” (“Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo‘shilish joyi”)

nomli tarixiy asari bilan mashhur (1467-69-y. larda fors tilida yozilgan). Asarning tanqidiy matni ilmiy izohlar bilan 1960 va 1969-y. larda Toshkentda bosingan.

Mirxond

Mir Muhammad ibn Sayyid Burhoniddin Xovandshoh ibn Kamo luddin Maxmud al-Balxiy — Mirxond O‘rtalashtiruvchisi. Mirxondning ko‘ringan namoyandalaridan biridir. Ota-bobolari buxorolik bo‘lib fiqh ilmida zamonasining yetuk olimlari sifatida mashhur Ulardan Mahmud ibn Ahmad al-Mahbubiy (vafoti — tax. 1300) fiqh ilmida peshqadam olim bo‘lganligi uchun “toj ash-shari‘a” (shariat toji) nomi bilan nom chiqargan va Sharqning mashhur fiqh olimi Sayyid Burhoniddin Marg‘inoniyining “Hidoya” asariga “Viqoya ur-rivoyat fi masoil ul-Hidoya” (“Hidoya masalalarini himoya qiluvchi rivoyatlar”) nomli sharh yozgan. Ubaydulloh ibn Mas‘ud al-Mahbubiy (vafoti — 1346) “toj ash-shari‘a soniy” (ikkinch shariat toji) nomi bilan tanilgan va “Sharh ul-viqoya”, “An-nihoya muxtasar ul-viqoya” nomli mashhur kitoblar yozib qoldirgan. Mirxondning otasi Sayyid Burhoniddin Xovandshoh ham o‘z davrining bilimdon kishilaridan bo‘lib, Temuriylar hukmronligi davrida Balxga kelib qolgan va o‘sha yerda vafot etgan.

Mirxond 1433-yili Balxda tug‘ilgan bo‘lsa-da, umrining deyarli ko‘p qismini Hirotda o‘tkazdi. Uning hayoti va ilmiy faoliyatiga oid ma’lumotlar juda kam bo‘lishiga qaramay, nabirasi Hondamir “Xulosat ul-axbor” kitobida bobosi haqida quyidagilarni yozadi: “Padarpanoh janob amir Xovand Muhammad yigitlik chog‘larida turli ilmlarni tahsil etish va nafis fazilatlarni kamoliga yetkazish yo‘lida tirishqoqlik va zo‘r mehnat qildi... qisqa vaqt ichida bilimdonliqda zamon fozillarining peshqadami bo‘lib oldi. U (ko‘proq) tarix ilmini kasb qildi va jahon ahvolini hamda osori atiqalarini tahqiq qilishga kirishdi. Olijanob xotirani tez fursat ichida bu fanni egallashdan forig‘ qildi, ammo fe’lu atvori

maishat ahdi bilan qo'shilishga yo'l bermadi, zavqu shavqqa berilmadi. Dars berish va amru ma'rifatga ishtiyoyq uning ravshan xotirida aslo ko'rinmadidi. Ammo (bu hol)... orzu va omonlikning qiblagohi, ya'ni olajanob Sulton (Husayn) hazratlari yaqin do'sti (Amir Alisher Navoiy)ning huzurlariga borgunicha va uning har turli navozish, marhamat, iltifot hamda muruvvatlarini topmagunlaricha davom etdi".

Xondamirning yana bir ma'lumotiga qaraganda, Navoiy Mirxondni o'zining "Ixlosiya" xonaqosidan bir hujra ajratib bergen va undan bir tarixiy asar yozib berishni iltimos qilgan. Mirxond bu asarni qisqa vaqt ichida yozib tamomlagan, so'ng umrining oxirida, taxminan bir yil Gozirgohda istiqomat qilgan. 1497-yilning bahorida og'ir kasallikka chalinib, 1498-yilning 22-iyun kuni olamdan o'tgan.

Navoiyning ko'rsatmasi va homiyligi bilan Mirxond yaratgan asarning nomi "Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo va-l-muluk va-l-xula-fm." ("Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai holi haqida jannat bog'i") bo'lib, undan dunyoning "yaratilishi"dan to 1523-yilga qadar Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariada bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar keng bayon etilgan.

"Ravzat us-safo" muqaddima, xotima va jug'rofik qo'shimchadan tashkil topgan. Asar yetti jilddan iborat:

- 1) Dunyoning "yaratilishi"dan, to Sosoniylardan Yazdigard III (632-651) davrigacha o'tgan tarixiy voqealar;
- 2) Muhammad payg'ambar va bиринчи то'рт xalifa davrida bo'lib o'tgan voqealar;

- 3) O'n ikki imom tarixi, Umaviya va Abbosiya xalifalari;
- 4) Abbosiylar bilan zamondosh bo'lgan sulolalar (asosan, Eron, Markaziy Osiyo va Hindistonda);

- 5) Mo'g'ullar, Chingizzxon, uning avlodasi, Eron va ba'zi qo'shni mamlakatlarda mo'g'ullar hamda ulardan keyin Temur davrigacha mavjud bo'lgan sulolalar;

6) Amir Temur va uning zamonidan, to Sulton Abu Sa’id o‘limigacha (1469) bo‘lib o‘tgan voqealar;

7) Sulton Husayn Boyqaro va uning farzandlarining tarixi (1523-yilgacha).

Xondamirning ta’kidlashicha, ushbu asar bizga ma’lum bo‘lgan holda Mirxonidan tugatilmagan. Uning yettinchi jildining matni, shubhasiz, Xondamirning qalamiga mansub. Bu fikrni tasdiqlaydigan quyidagi ma’lumotlarga e’tibor berish kifoya: Xondamir “Ma’osir ul-muluk” va “Xulosat ul-axbor”ning xotimasida Mirxononga to‘xtalib, Temur tarixiga oid qog‘ozga tushirilgan har xil materiallarga ega bo‘lmaganligi uchun, o‘z asarini tugata olmagan va agar fursat topilsa, (Xondamir) bobosi asarini tugatishga yo‘l topgan; asarda bayon etilgan tarix to 1523-yilgacha yetkazilgan, vaholanki, Mirxon 1498-yili vafot etgan; yettinchi jiddning matni Xondamirning “Habib us-siyar”ini III jild 3-qismining ikkinchi yarmi bilan deyarli bir xil.

“Ravzat us-safo”ning “jo‘g‘rofik qo‘shimchasi” esa Mirxon va Xondamir tomonidan amalga oshirilgan. Unda turli “ajoyibotlar”, ba’zi dengizlar, daryolar, muhim shaharlarning qisqacha ta’rifi bayon etilgan. Asar ustida olib borilgan oxirgi tahrir ham Xondamir tomonidan bajarilgan.

Asarning I-VI jiddlari bir-biriga bog‘liq bo‘lib, mustaqil ahamiyatga ega emas. Uning so‘nggi qismi, xususan, VII jildi original bo‘lib, XV asrning ikkinchi yarmi tarixini o‘rganishda katta ahomit kasb etadi.

“Ravzat us-safo”ning qo‘lyozma nuxxalari ko‘pgina jahon kutubxonalarida saqlangan bo‘lib, asar matni Bombey (1845, 1848, 1864), Tehron (1853-1857, 1954) va Lakxnav (1874, 1883, 1891)da chop qilingan. Asardan ayrim parchalar rus, fransuz, ingliz hamda nemis til larida ko‘p bora nashr etilgan. Asarning eski o‘zbek tiliga o‘girilgan nuxxalari ham mavjud

Xondamir

Hirotlik tarixchi Xondamir (to‘la ismi G‘iyosiddin Muhammad ibn Xoja Xumomuddin ibn Xoja Jaloluddin Muhammad ibn Burhonuddin) o‘z asarlari bilan XVI asr boshlarida fan taraqqiyotiga kirib kelgan allomalardandir. Uning hayoti, ijodi haqida o‘z asarlari, zamondoshlari yozib qoldirgan oz-moz ma’lumotlardan tashqari, deyarli boshqa ma’lumot yo‘q.

Ona tomonidan u “Ravzat us-saf” (“Musaffolik bog“i”) muallifi, mashhur tarixchi Mirxondning nabirasi bo‘lgan. Otasi Xoja Xumomuddin Muhammad ibn Xoja Jaloluddin Muhammad ibn Xoja Burhonuddin Muhammad Sheroziy o‘z zamonining ziylolaridan edi va Sulton Mahmud Mirzo Temuriyning (Hisori Shodmon va Badaxshonda hukmronlik qilgan) vaziri bo‘lgan.

Xondamir 1473-1476-yillar orasida Hirot shahrida tug‘ilgan va o‘sha yerda ta’lim olgan bo‘lsa kerak, deb taxmin qilinadi. U tarix, adabiyot va inshoni puxta egallab, o‘z zamonasining yirik olimi sifatida nom qozongan tarixchidir.

Xondamirning olim sifatida shakllanishida ma’rifatparvar shoir Mir Alisher Navoiyning hissasi katta bo‘lib, u bo‘lajak olimga, o‘zining juda boy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat bergen va shu bilan birga ilmiy ishlariga rahbarlik qilgan.

Tarixchining o‘zi haqida keltirgan ma’lumotlardan shu narsa ma’lumki, u yoshlik chog‘idayoq Navoiy qo‘liga kelgan, dastlab uning kutubxonasida kutubxonachi, keyinroq esa mudir bo‘lib ishlagan.

Alisher Navoiy vafotidan so‘ng, Xondamir Xurosondagi siyosiy voqealar girdobiga tushib, dastlab Balxga Sulton Husayn Boyqaroning to‘ng‘ich o‘g‘li Badiuzzamon Mirzo saroyida xizmat qiladi. Ayni shu paytda Badiuzzamon Qunduz hokimi Xisravshohni Shayboniyxon (1500-1510) lashkari tomonidan kutilayotgan hujumdan Xurosonni himoya qilishda ishtirok etishga og‘dirish orzusida yuborilgan elchilar qatoriga Xondamir ham qo‘shilib, shaxsan o‘zi Badiuzzamonning maxsus

topshirig‘ini bajardi. Shu davrda unga “sadr” unvoni berilgan. Xondamir biroz fursatdan so‘ng yana Badiuzzamon topshirig‘iga binoan Shayboniyxonga qarshi tuzilgan ittifoqqa Kandahor hokimini birlashtirish maqsadida u yerga jo‘natildi. Ammo Badiuzzamon qizining vafoti tufayli Xondamir safarni to‘xtatib, Hirotna qaytishga majbur bo‘lgan va 1506-yili Shayboniyxon Hirotning zabt etishini shohidi bo‘lgan hamda Xuroson markazi Hirotni topshirishdagi shartlarni ishlab chiqishda ishtirot etgan.

Sulolalar hukmronligi o‘zgargandan so‘ng, Xondamir Temuriylar sulolasining tarafdoi bo‘lganligi bois, Hirotdan ketishga qaror qiladi va 1507-yildan to 1510-yilgacha Shimoliy Afg‘onistonidagi Basht qishlog‘ida ijod bilan shug‘ullanadi. Hirotna taxtiga Safaviylar sulolasini, uning asoschisi Shoh Ismoil (1407-1424) kelishi bilanoq, 1510-yili Xondamir Hirotna qaytib keladi. Shoh Ismoil vafotidan so‘ng (1527) Hirotdan butkul yuz o‘girib, Kandahorga, 1528-yili u yerdan Boburiylar poytaxti Agraga (Hindiston) Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga o‘tadi.

Xondamir Agraga kelgach, Boburning yaqin odamlari qatoridan joy oladi va 1529-yili Boburni Bengaliya va Gang daryosi sohili tomon qilgan yurishi paytida kuzatib boradi. Bobur vafotidan so‘ng, uning vorisi Humoyunning (1530-1556) xizmatida bo‘lib, 1534-yili u bilan birga Gvaliorda bo‘ladi va Gujoratga qilgan yurishida qatnashadi. Ayni vaqtida, u “Humoyunnoma” asarini yozadi va bu xizmati uchun “Amir al-muarrixin” (“Tarixchilar amiri”) unvoniga sazovor bo‘ladi. Xondamir 1534-yili Humoyun bilan Manduga qaytib kelayotganda vafot etadi. Uning vasiyatiga ko‘ra jasadi Dehlidagi qabristonga — Nizomiddin Avliyo, shoir Xusrav Dehdaviylar yoniga dafn etiladi.

Xondamirning ikki farzandi — birining ismi Amir Mahmud, ikkinchisi Sayyid Abdulxon bo‘lgan. Amir Mahmud Shoh Ismoil va Shoh Taxmasp (1524-1576) hukmronlik qilgan davr tarixini yoritgan asar muallifi bo‘lib, asar Muhammadxon Sharafiddin Takaliyga bag‘ishlangan. Ushbu asar “Ravzat us-Safaviya”

(“Safaviylar bog‘i”) da keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, o‘sha davr olimlari orasida katta e’tibor qozongan.

Xondamir butun umri davomida, taxminan o’n uchta asar yozgan bo‘lsa, bizgacha shu asarlarning sakkiztasi yetib kelgan.

Muarrixning “Ma’osir ul-muluk” (“Hamasr podshohlarning tarixi”) asari Alisher Navoiy iltimosiga ko‘ra va unga minnatdorchilik izhori tariqasida 1498-1499-yillarda yozilgan. Bu asar podshoh hamda qadimgi donishmandlarning xayrli ishlari haqida aytilgan hikmatnamo gaplarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, Qayumarsdan Anushirvongacha, Odam Atodan Buzurgmehrgacha bo‘lgan hamda Muhammad payg‘ambar va imomlar haqida bitilgan naqlardan iborat. So‘ngra muallif Ummaviylar, Abbosiylar, Somoniylar, G‘aznaviyilar va boshqa sulolalarga tegishli hukmdorlar tarixi bilan birga Kurd podshohlari va turk xoqonlari tarixini yoritgan. Asarning oxirgi qismida Xusayn Boyqaro va Alisher Navoiyga zamondosh bo‘lgan hukmdorlar, olimlar va donishmandlar haqida ma’lumotlar ham berilgan. “Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-ahyor” (“Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi”) 1498-1499-yillar orasida yozilgan bo‘lib, bu asar ham Alisher Navoiyga bag‘ishlangan. Unda Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy zamonida Hirot va uning atrofida olib borilgan ulkan qurilishlar, qazilgan suv inshootlari, shuningdek, o‘sha zamonda o‘tgan shoirlar, olimlar, matematiklar, astronomlar, musiqashunoslar, shifokorlar, san’atkorlar haqida qimmatli ma’lumotlar bor.

“Makorim ul-axloq” (“Olijanob xulqpar”) asari ham Alisher Navoiyga minnatdorchilik ramzi sifatida yozilgan (lekin Navoiy vafot etib, Xondamir unga kitobni taqdim etishga ulgurmagan).

“Makorim ul-axloq”da Xondamir Navoiyning yuksak insoniy fazilati, olijanob axloqi, asarlari, uning tashabbusi bilan qurilgan binolar, unga zamondosh shoir, olim va fozil kishilar, shuningdek, Xurosonning o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Navoiy bilan Husayn Boyqaro orasidagi munosabatlar xususida

hikoya qiladi.

Xondamirning “Dastur ul-vuzaro” (“Vazirlar uchun qo‘llanma”) asari Alisher Navoiy iltimosiga muvofiq 1500-yili yozilib, Husayn Boyqaro va uning vaziri Amir Kamoliddin Mahmudga bag‘ishlangan. Oradan to‘qqiz yil o‘tgach, 1509-yili asar qayta ishlangan va kengaytirilgan. Undan Sharq mamlakatlarining UN-XU1 asrlardagi tarixi, jumladan, Movarounnahr va Xurosonda Temuriylar sulolasi inqiroziga qadar o‘tgan vazirlar, Chingizzonning vaziri, keyinroq mo‘g‘ullarning Xitoydagи noibi, xorazmlik Mahmud Yalavoch hamda uning o‘g‘li Chig‘atoyxonning Movarounnahrdagi vaziri Mas‘ubek to‘g‘risida ma’lumotlar joy olgan.

Allomaning “Nomai nomi” (“Atoqli nomalar”)sida 1522-yidda kechgan voqealar bayon qilingan (Asarning “Inshoi G‘iyosiddin” yoki “Inshoi G‘iyosiy” degan nomi ham bor). Kitob insho ilmiga oid (stilistika, turli maktub va farmonlarni yozish qoidalari) bo‘lib, Sharq mamlakatlarida o‘tgan turli tabaqadagi tarixiy shaxslarga (shohdar, amirlar, sadrlar, qozilar, shayxlar, shoirlar) doir ma’lumotlar, podshoh va xonlarning yorliq hamda farmonlaridan namunalar, ularni bitish tartiblari ham bayon etilgan. Asarning qimmati shundaki, asar ba’zi bir muhim mansablarning (parvonachi, munshiy, mustavfiy, ihtisob (muhtasib), qalantar, mubashshir, hofiz) kelib chiqishi, bunday mansab egalarining haq-huquqlari, vazifalari xususida so‘z yuritadi.

Mirxonning “Ravzat us-safo fi sirat ul-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo” (“Xalifalar, podshohlar, avliyolar hayotiga oid musaffolik bog‘i”) asariga Xondamir tomonidan 1522-yidda yozib tugatilgan ilova (7-jild) va “Jug‘rofiy qo‘srimcha” qismlar mavjud. Yettinchi jild mazmunan Xondamirning “Habib us-siyar” asarining uchinchi jild uchinchi qism ikkinchi yarmi mazmuni bilan mosdir. Asarning “Jug‘rofiy qo‘srimcha”si, taxminan 1495-yili Mirxonning tomonidan yozila boshlagan va 1523-yilda Xondamir uning davomini yozib tugatgan. Asar mazmuni ham

“Habib us-siyar”ga kirgan matndan tashkil topgan va bu o‘rinda voqealarni “Habib us-siyar” orqali o‘rgangan ma’qulroq deb o‘yaymiz.

Xondamirning eng yirik asari “Habib us-siyar” 1520-1524-yillar mobaynida yozilgan va vazir Karimuddin Xoja Habibulloh Sovajiyga bag‘ishlanib, asar nomi ham qisman shu vazir ismi bilan bog‘langan. Asarda qadim zamonlardan, to 1524-yilga qadar Sharq mamlakatlarida, xususan, Eron, Afg‘oniston, Iroq va Markaziy Osiyoda sodir bo‘lgan voqealar qalamga olingan. Uning XV asrning so‘nggi va XVI asrning birinchi choragida Movarounnahr hamda Xurosonning umumiy ahvolini aks ettirgan uchinchi jild uchinchi va to‘rtinchi qismlaridagi ma’lumotlar yangiligi bilan katta ilmiy qimmatga egadir.

Xondamirning “Humoyunnomा” asari “Qonuni Humoyun” nomi bilan ham mashhur bo‘lib, Hindiston podshohi Boburiy Humoyun Mirzoga bag‘ishlangan va 1535-yili yozib tamomlangan. Asardagi Humoyun Boburiylar davlatida hukmronlik qilgan davrida joriy etilgan yangiliklar, ahvolini uch tabaqaga, hokimiyatni esa to‘rt idora usuliga bo‘linishi va Humoyunning me’morchilik faoliyati haqidagi ma’lumotlar diqqatga sazovordir.

Xondamirning qolgan beshta asarining faqatgina nomlari ma’lum, xolos. Bular: “Osor ul-muluk va-l-anbiya” (“Podshoh va payg‘ambarlar haqida hikoyalari”), “Axbor ul-ahyor” (“Yaxshi insonlar haqida xabarlar”), “Muntaxab-i tarix-i Vassof” (“Vassof tarixidan saylanma”), “Javohir ul-axbor” (“Xabarlar gavharlari”) va “G‘aroyib ul-asror” (“Qiziqarli sirlar”) deb nomlangan asarlaridir.

Navoiy asarlaridan shu narsa ma’lumki, Xondamir “Naqiy” taxallusi bilan she’rlar ham bitgan, biroq uning she’rlar to‘plami bizgacha yetib kelmagan, lekin ayrim parchalar “Humoyunnomा”, “Makorim ul-axloq” va boshqa asarlarida qisman uchrab turadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Xondamir Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Hindiston tarixiga oid asarlar yaratgan va shu bilan birga jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo'sha olgan

Vosify

Vosify (taxallusi; asl ismi Zayniddin Mahmud ibn Abduljamil) (1485-86, Hirot -1551-yoki 1566, Toshkent) — adib. Munshiy oilasida tug'ilgan. Vosify arab tili, adabiyot, fiqh va b. bilimlarni puxta egallagan. Hirotda Shoxrux madrasasida tahsil ko'rgan (1511-y. gacha). Husayn Boyqaroning o'g'li Faridun Husaynga kotiblik, boshqa o'g'illariga muallimlik qilgan. 16-yoshida Navoiy b-n tanishgan. Ijodini Hirotda, Navoiy adabiy maktabida boshlagan. Shoh Ismoil ta'qibidan qochib, Movarounnahrga ketgan. Samarqand, Buxoroda yashagan (1512-15), so'ng Farkat (hoz. Parkent), Toshkent, Shahrisabzga sayohat qilgan. 1518-y. da Keldi Muhammadxon (Sulton Muhammad) tomonidan Shohruxiyaga chaqirilgan, 1525-y. dan umrining so'nggi yillarigacha Toshkentda yashagan.


V.Keldi Muhammadxonning Xurosonga yurishlarida qatnashgan (1528-29). 1540-y. dan Baroqxon saroyida davlat hujjatlarini tuzgan.

Vosifyning ijodiy faoliyati 12-13-yoshidayoq boshlangan. Nasrning ko'pgina turlarida (maktub, ariza, hikoya kabi), badiiy, saj' uslubida yaxshi ijod qilgan. Rang-barang tashbehlar ishlatalishdagi, ayniqsa muammo san'atidagi mahoratiga Alisher Navoiy yuqori baho bergen. Vosifyning bir qancha she'riy va nasriy asarlarini o'z ichiga olgan "Badoye' ul-vaqoye" ("Nodir voqealar", 1-qism, 1517-18; 2-qism, 1539) kitobida Xuroson, Movarounnahr, Turkiston va Erondagi 1532-y. gacha bo'lgan davrdagi ilmiy, adabiy, tarixiy va madaniy hayot aks ettirilgan. Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, shuningdek Qosim Ali Qonuniy, Chaqar, Changiy, Ustod Hasan Udiy, Hofiz Basir, Ustod Shayxi

Noyi kabi musiqashunoslar, ayrim davlat arboblari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Kitob O'rta Osiyo xalqlari tarixi va madaniyati haqida muhim manba hisoblanadi. Akad. B.L.Dorn, V.V.Bartold, prof. Yakubovskiy, Bertels, Ayniy va b. o'z ilmiy tadqiqotlarida undan foydalanganlar. Mazkur asarda Toshkent va uning viloyatidagi siyosiy voqealar, adabiy muhit, xususan unda shoirlar, adiblar to'planishib mushoiralar o'tkazgan Kaykovus chorborg'i haqida qiziqarli voqealar bayon qilingan. Chorbog' shahar qo'rg'onidan tashqarida bo'lib, Vosifiy u yerda xon va sultonlar uchun shifoxona bo'lganligini ham yozgan. Toshkent va uning atrofida yashab ijod etgan shoirlar, rassomlar, xatgotlar va boshqa mashhur kishilar haqida, viloyat hududida foydalanib turilgan temir va feruza konlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Davlatshoh Samarqandiy

Davlatshoh Samarqandiy (Davlatshoh ibn Alouddavla Baxtishoh) 1435-yilda tavallud topgan, 1495-yilda vafot etgan tojik yozuvchisidir. Ziyorolar naslidan bo'lganligiga qaramay, diniy nuqtayi nazardan oddiy dehqon hayotini tanlagan.



XV asrning ko'zga ko'ringan adabiyotshunos olimlaridan biri Davlatshoh ibn Alouddavla Baxtishoh al-Roziy as-Samarqandiyidir. Uning tarjimai holiga oid ma'lumotlar juda kam bo'lib, "Tazkirot ush-shuaro" ("Shoirlar tazkirasi") asarida keltirilgan ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda, u yirik harbiy xizmatchi va davlat arbobi oilasida tug'ilgan.

Otasi Baxtishoh Shohrux Mirzoning amirlaridan bo'lib, ko'pgina harbiy yurishlarida qatnashgan va toju-taxt sohibiga sadoqat va qahramonlik namunalarini ko'rsatgan. Uning "al-Roziy" atalishi ham shundandir.

Davlatshohning tug'ilgan vaqtini ma'lum bo'lmasa-da, o'zining "Tazkirat ush-shuaro" asarini 50-yoshga kirganida

yoza boshlaganini ma'lum qiladi. Bizga esa asar 1486-yili yozib tugatilgani ma'lum. Agar bu katta va muhim asarni yozish uchun kamida 2-3-yil vaqt sarflagan deb taxmin qilinganda, Davlatshoh taxminan 1435-1436-yillarda tug'ilgan bo'lib chiqadi.

Davlatshoh Samarqandiy yoshligidan ilmga qiziqib, o'z davrining ko'zga ko'ringan olimi, faqih va shoir Xoja Jaloluddin Fazlulloh Abu-l-Laysiydan ta'lim olgan. Lekin 1480-yillarga qadar ilmiy yoki adabiy faoliyat bilan shug'ullanmagan, balki saroy xizmati va harbiy ishlarga jalb qilingan, Shohruk va Sulton Husayn Boyqaroning ko'pgina harbiy yurishlarida ishtirok etgan. U so'nggi marta Sulton Boyqaro bilan Sulton Mahmud (Hisori shodmon va Badaxshon hokimi) o'rtasida Chakmansaroy (Afg'onistonning Andxoy viloyatida joylashgan manzil) da bo'lgan jangda qatnashgan. Bu jang, Xondamirning ma'lumotlariga qaraganda, 875-1471-yilda sodir bo'lgan. Davlatshoh Samarqandiy 60-yilga yaqin umr ko'rib, 1495-yili vafot etgan.

Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" asarini yozishda juda ko'p manbalardan: o'zidan oldin yozilgan tazkiralardan, xususan Abu Tohir Xotuniyning "Manoqib ush-shuaro", Avfiyning "Lubob ul-albob" kitoblaridan, tarixiy va geografik asarlardan, xususan, Istaxriyning "Kitob masolik ul-mamolik", Gardiziyning "Zayn ul-axbor", Abulfazl Bayhaqiyning "Tarixi oli Sabuktakin" va boshqalardan, shuningdek, tazkirada qayd etilgan shoir va adiblarning asarlaridan keng foydalangan.

Tazkirada VII-XV asrlarda yashab ijod etgan 155 shoir haqida qisqacha, lekin nihoyatda qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. To'g'ri, har qanday ilmiy asarda bo'lgani kabi, Davlatshoh Samarqandiy tazkirasи ham ayrim juz'iy kamchiliklardan xoli emas. Masalan, ayrim hollarda sanalar, u yoki bu shoirning tug'ilgan joyi noto'g'ri berilgan, ayrim hollarda keltirilgan ma'lumotlar chalkashib ketgan. Shunga qaramay, asarning ijobiy tomonlari ko'p. Bu asar juda katta davr - qariyb sakkiz yil

mabaynida Eron va Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan shoir va adiblar faoliyatini tadqiq qilib olgan.

“Tazkirat ush-shuaro” yoki “Tazkirai Davlatshohiy” muqaddima, xotima va yetti qism (tabaqa) dan iborat.

Muqaddimada asarning yozilish sabablari, VII-X asrning birinchi yarmida yashab o’tgan arab shoirlardan Labid (VII asr), Abu Nuvos (vafoti tah 814), Abu Tayyib al Mutanabbiy (vafoti-963), Abu A’lo al-Maarriy (973-1058) va boshqalar haqida ma’lumot keltirilgan.

Birinchi va ikkinchi qism X-XI asrlarda Eron va Markaziy Osiyoda yashab o’tgan 21-yirik shoirning qisqacha tarjimai holi va ijodiga bag‘ishlangan.

Uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi qismlarda Xorazmshohlar - Anushteginlar (1077-1231), Elxoniylar (1258-1349) va Muzaffariylar (1315-1393) zamonida ijod etgan 54 shoir haqida ma’lumot bor.

So‘nggi ikki tabaqa Temur va Temuriylar zamonida Markaziy Osiyo, Eron va Iroqda yashagan 41 shoir ijodiga bag‘ishlangan.

Xotimada esa mazkur tazkira muallifi bilan zamondosh mashhur allomalar Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xoja Afzaliddin Muhammad, Amir Ahmad Suxayliy, Xoja Shahobiddin Abdulloh Marvarid hamda Xoja Osafiy haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Davlatsuh Samarqandiy tazkirasida jamlangan shoirlarning asarlari sharq mumtoz adabiyotining umumiyo yo‘nalishi, uning taraqqiyot yo‘llari, Sharq she’riyatida keng qo‘llanilgan ruboiy, qasida, g‘azal, hajv janrlarining paydo bo‘lishi va takomillashuvi, tarsi’, tajnis, tarji’band, murabba’ singari she’riy shakllarni o‘rganish hamda tadqiq etishda muhim rol o‘ynaydi.

Qolaversa, ular orasida Javhariy Zargar, Xoja Kirmoniy, Jalol Tabib, Xoja Ismatullo Buxoriy, Aminiddin Nuzulobodiy singari dostonchilik janrining yetuk namoyandalari, nazm va nasrga oid “Tarjimon al-balora” (“Notiqlikni tushuntirib beruvchi

kitob”) asari bilan mashhur Farruxiy (vafoti-tah. 1037-1038), “Chahor maqola” kitobi bilan shuhrat topgan.

Nizomiy Aruziy Samarcandiy (XII asr), fors tilining sharhli lug‘atini tuzgan Qatron ibn Mansur Termiziy (XII asr), “Hadoiq as-sehr” (“Sehr bog‘lari”) asari bilan dong taratgan xorazmlik Rashididdin Vatvot (1088-1182), “Nigoriston” asari muallifi Muiniddin Juvayniy, “Shabistoni xayol” kitobi muallifi Yahyo Sebak Nishopuriy, “Javohir ul-asror” (“Sirlar javohiri”) asarini butun Sharqqa manzur eta olgan Shayx Ozariy (1382-1462), musiqa ilmining mashhur namoyandalaridan Sohib Balxiy, xat va xattotlik ilmining piri Simiy Nishopuriy ham borki, bular ijodi mumtoz adabiyot hamda O‘rtta asr Sharq fani taraqqiyoti tarixida muhim o‘rin egallaydi.

Kitobda ta’rifi keltirilgan shoirlardan aksariyati davrining malik ush-shuarosi bo‘lgan. Ularning qariyb hammasi oxir-oqibatda ta’magir va hasadchi, ig‘vogarlar maskani - shohlar saroyini tark etganlar. Avhadiddin Anvariy (XII asr), Rashididdin Vatvot, Buxoroda mulammah (bir she’rni ikki tilda yozish) an’anasini boshlab bergen, hajv janri rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Hoja Ismatullo Buxoriy (1365-1426) ana shunday shoirlar jumlasidandir.

Tazkirada jahonga mashhur faylasuf shoir va olim Nosir Xusrav (1004-1088), Sharq mumtoz she’riyati daholaridan va musiqashunos Xusrav Dehlaviy (1253-1325), shoir va yirik tarixchi olim Faxriddin Banokatiy (vafoti - 1329), Kamol Xo‘jandiy (1318-1401), Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy bilan birga mehnatkash xalq orasidan chiqqan nozimlar ham qayd etiladi.

Asli dehqon tabaqasidan, Nizomiy Ganjaviyning “Mahzan ul-asrori”ga ming baytdan iborat javob yozgan Jamoliddin ibn Ja’far Farrahoniy; bir umr qo‘sh qo‘shib, dehqonchilik kashtan, she’rni ketmon dastasiga bitib yurgan ko‘histonlik Muhammad Hisomiddin; avom un-nos (oddiy xalq)dan chiqib, shoirlilik, xattotlik va naqqoshlikda nomi chiqargan Simiy Nishopuriy; bo‘yra to‘qib kun kechirgan samarcandlik Bisotiy haqidagi

ma'lumotlar shular jumlasiga kiradi. Shuningdek, tazkirada o'z she'rlari bilan shohlar va hokimlar, noiblar va qozilar kirdikorlarini fosh etgan Yaminiddin Faryumadiy va uning o'g'li Amir Mahmud (ibn Yamin), Ubayd Zakoni, Burunduq Buxoriy hamda Bobo Savdoyi Abivardiy kabi shoirlar zikri ham keltirilganki , bu hol asar qimmatini yanada oshiradi.

Davlatshoh Samarcandiy asarining yana bir fazilati unda ayrim muhim tarixiy voqealar bayonining ham keltirilganidir. Chunonchi, Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Eron xalqlarining sulton Jaloliddin Manguberdi (Mangiburni) boshchiligidagi 1221-1232-yillari mug'ul bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashi tarixidan ayrim lavhalar; 1337-yili Xurosonda bo'lgan sarbadorlar qo'zg'oloni hamda shu qo'zg'olon natijasi o'laroq Xurosonning kattagina qismida bunyod topgan sarbadorlar davlatining (1337-1381) qisqacha tarixi ham asarda aks ettirilgan. Shuningdek, kitobda keltirilgan Xuroson va Markaziy Osiyo janubiy qismining XV asr 40-yillaridagi siyosiy hayoti bilan bog'liq tafsilotlar, yirik tarixiy shaxslar - vazir va olim Nizomulmulk, ulug' shoir va olim Umar Hayyom, ismoiliylar tariqati asoschisi Hasan Sabboh buyuk munajjim Mirzo Ulug'bek hayotiga oid voqealar ham alohida qimmatga ega.

Davlatshoh Samarcandiyning mazkur tazkirasiga jamoatchilik e'tiborini ko'pdan beri tortib kelmoqda. 1819-yildan buyon asarning ayrim parchalari Rossiyada (V.A.Jukovskiy va F.Erdman), Fransiyada (Silvestr de Sasi), Angliyada (E.Broun va A.Falko-ner), Turkiyada (Faxim Sulaymon afandi), Germaniyada (Xammer) hamda Gollandiyada chop etilgan.

1900-yili birinchi bor Xivada Muhammad Rafe tomonidan eski o'zbek tiliga (Xorazm shevasida) ag'darildi. 1967-yili B.Ahmedov "Tazkirat ush-shuar" tazkirasidan Markaziy Osiyo va xurosonlik 32 va 1981-yili 50 dan ortiq shoir hayoti hamda ijodiga oid ayrim parchalarni o'zbek tiliga tarjima qilib, "Davlatshoh Samarcandiy" nomli kitobiga ilova qilgan.

Kamoliddin Husayn Voiz Koshify

XV asrning ikkinchi yarmida Xurosonda Alisher Navoiy atrofida to‘plangan alloma, shoir va donishmandlar orasida mashhur va qomusiy talant egalaridan biri Voiz Koshifydir. Kamoliddin Husayn Voiz Koshify tahminan 1440-yillarda Xuroson viloyatidagi Sabzavor shahrining Bayhaq kentida tug‘ilgan, uning ota-onasi, bolaligi haqida hozircha hech qanday aniq ma’lumot yo‘q.

Bizningcha, u boshlang‘ich ma’lumotni Sabzavorda olgan. U arab, fors, turkiy tili, matematika, astronomiya, kimyo, musiqa, adabiyot, fiqhdan to‘liq ma’lumotga ega bo‘lgan. Yoshligidanoq voizlik - so‘z san’ati bilan shug‘ullangan. Koshify Sabzavorda tez orada ko‘zga ko‘ringan voiz - notiq bo‘lib tanilgan. Keyinchalik Nishopurda 1455-1468-yillarda esa Mashhadda yashab, voizlik qilgan. 1468-yilning oxirlarida Abdurahmon Jomiyning tavsiyasi bilan Husayn Voiz Koshify Xirotga keladi va qolgan umrini asosan Xirotda Temuriylar rahnamoligida o‘tkazadi.

Ma’lumki, XV asrning ikkinchi yarmida Temuriylar, xususan Husayn Boyqaro davrida Xirot Sharqning madaniyat markazi edi. Tarixchi olim Sayyid Nafisiyning aytishicha, Koshify umrining oxirida Hindistonga qilgan safari haqida ham deyarli ma’lumot yo‘q. Husayn Voiz Koshifiyning ikki qizi va bir o‘g‘li bo‘lib, o‘g‘li Fahriddin Ali as-Safiy o‘z davrining katta shoiri, yozuvchisi va olimi (“Rashohoti ayn al-hayot” asari bilan mashhur) bo‘lib yetishgan. Ali as-Safiyning islom tarixiga, payg‘ambarlar hayotiga, adabiyotga, Xo‘ja Ahrorga, axloqda, kimyoga bag‘ishlangan o‘ndan ortiq ilmiy va badiiy asarlari bor. Husayn Voiz Koshify 1505-yilda Xirotda vafot etadi.

Kamoliddin Husayn - allomaning ism-sharifi, voiz (notiq) - laqabi, Koshify (kashf qilmoq, yaratmoq) - adabiy taxallusidir. Husayn Voiz Koshify asarlarini o‘z davrining ilmiy tili - fors tilida yozgan bo‘lib, undan ko‘pgina ilmiy, badiiy tarjima asarlari ham meros qolgan. U falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosat, tarix, kimyo, astronomiya, matematika, musiqa, voizlik,

she'r san'ati, din tarixi, fiqh, tibbiyot kabi fanlarga oid 200 dan ortiq asar yozganligi manbalardan ma'lum. Koshifiyning O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik va H.Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar institutlarida 45 nomdagi asarlarining 197 qo'lyozma va 75 toshbosma nusxalari saqlanmoqda.

Bundan tashqari u o'z davrining ko'zgako'ringan iloxiyotchi olimi bo'lib, hadisni, Qur'oni Karimni yoddan bilgan, hatto Qur'onga to'rt kitobdan iborat sharh ham yozgan. Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", "Risolai Xotamiya", "Anvori Suxayliy", "Futuvvatnomai Sultoniy", "Tavsiri Husayniy", "Javohirnoma" kabi undan ortiq asari arab, tatar, eski o'zbek, o'rdu, turk, nemis, ingлиз, fransuz va boshqa tillarga tarjima qilingan. Hozirgi kunda Koshifiy asarlari Parij, London, Berlin, Sankt-Peterburg, Moskva kabi shaharlarda, Iroq, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Bangladesh va boshqa sharq mamlakatlarining kutubxonalarida saqlanmoqda. Chet mamlakatlarda Koshifiy asarlariga qiziqish XVIII-XIX asrlardayoq kuchli bo'lib, G'arbiy Ovro'paning X.G.Kin, M.Duayt, D.D.Donalson, E.Braun, A.A.Arberri, E.S.Kennedi, E.Rozental, X.Masse, K.S.Lambton, R.Levi, A.M.Shasteri kabi mashhur olimlari Markaziy Osiyo va Eronning XIV-XV asrlardagi madaniyati tarixini atroflicha o'rganishga harakat qilganlar va Koshifiyning ijodi, merosiga yuqori baho bergenlar.

Koshifiy ijodini o'z davrining yirik tarixchisi Xondamir "Xulosat ul-axbor" asarida: "Ul janob nujum ilmida ham zo'r mahoratga ega edi, chunonchi uning ta'birlari Qazo o'qi singari bexatar bo'lardi. Uning balog'atoyotlik hamda fasohatsifatlik kitoblari ko'p va behisob bo'lib, ularning ko'pi oliymaqom amir Alisherning atoqli nomi bilan ziynatlangan. Amir Alisherning inoyati va iltifoti ul janobning hol sahifasiga hamma vaqt tushib turardi..." - deb ta'riflaydi. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarining to'rtinchi majlisida: "Mavlono Husayn Voiz –

“Koshify” taxallus qilur, Savzavorlikdur. Yigirma yilga yaqin borkim, shahardadur va Maylono zufunun va rangin va purkor voqe’ bulubtur. On fan bulg‘aykim, dahli bo‘lmagay. Xususan va’z, insho va nujumki, aning haqidadur va har qaysida muttayyin va mashhur ishlari bor...” - deb yuksak baholagan.

Husayn Voiz Koshify Xirot madrasalarida talabalarga ta’lim-tarbiya bergan, Xuroson shaharlarda axloq-odobdan va’z aytgan. Koshify o‘z asarlarida ijtimoiy-axloqiy hayot, ma’naviyat masalalariga katta o‘rin ajratadi, siyosat, davlatni boshqarish, shoh bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabat, jamoani idora etish, yetuk insonni tarbiyalash muammolari uning ijodida katta o‘rin egallaydi. Ularda insonparvarlik, xalqparvarlik, yuqori ma’naviyatga ega bo‘lish, madaniy yuksalish g‘oyalarini ilgari suradi. Uning “Axloqi Muhsiniy”, “Risolai Hotamiya”, “Anvori Sixayliy”, “Axloqi Karim”, “Javohirnoma”, “Lubbo ul-ma’naviy fi-intixobi masna’viy”, “Iskandar oynasi”, “Tafsiri Husayniy”, “Futuvvatnomai Sultoniy” kabi asarlari shular jumlasidandir. Bu asarlardan Xuroson mamlakatida, Xirotda va boshqa shaharlardagi madrasalarda talabalar uchun darslik sifatida foydalilanilgan. Mutafakkir bu asarlarida o‘zining hayotdan olgan soboqlari, tajribalari asosida xalqchillik, insonparvarlik, ijtimoiy hayot,adolat, halollik, sofkillik, poklik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik haqidagi fikrlarini o‘qimishli, qiziqarli hikoyatlar, rivoyatlar yordamida bayon etadi. Bu asarlar Koshify tili bilan aytganda “Xikmati amaliy” asosida yozilganligidan bugungi kunda ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARI

Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li



Munavvarqori, Abdurashidxonov Munavvar qori (1878, Toshkent — 1931.23.4, Moskva) — O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi, XX asr o‘zbek milliy matbuoti va yangi usuldagagi milliy maktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilaridan biri, adib va shoir.

Toshkent shahrining Shayxontohur dahasidagi Darxon mahallasida ziyoli oilada tug‘ilgan. Otasi Abdurashidxon Sotiboldixon o‘g‘li mudarris, onasi Xosiyat otin Xonxo‘ja Shorahimxo‘ja mudarris qizi otinoyi bo‘lgan. U oilada uchinchi o‘g‘il bo‘lgan. Munavarqori ilk saboqni ota-onasidan, mahalla maktabidan olib savodini chiqardi. Shuningdek, katta akalari A’zamxon (1872—1919) va Muslimxon (1875—1954) ham unga muallimlik qilishgan. Otasidan yosh yetim qolgani tufayli dastlabki ta’lim-tarbiyani onasidan olgan.

So‘ng o‘z davrining mashhur o‘qituvchisi Usmon dom-ladan ilmi qiroat va tajvidni o‘rganib, hofizi Qur’on bo‘lgan. Toshkentdagi Yunusxon madrasasida o‘qigan. 1885—1890-yillarda Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil olgan, ammo tahsilni oxiriga yetkazmay, Toshkentga qaytib, imomlik va muallimlik bilan shug‘ullangan. Eshonquli dodxoh madrasasida tahsilni davom ettirgan.

1901-yilda usuli jadid maktabini ochgan va shu maktablar uchun maxsus o‘quv dasturini tuzgan, darsliklar yozgan. 1903-yildan jadid maktablari ochib, dars bergen. Shunday maktablar uchun tovush usulida yozgan “Adibi avval” (“Birinchi adib”, 1907) alifbe kitobi, “Adibi soniy” (“Ikkinchi adib”, 1907). Unda

“Himmatli faqir” she’ri keltirilgan) o‘qish kitoblari bir necha bor nashr qilingan[1]. 1904-yildan ijtimoiy siyosiy, madaniy hayotga aralasha boshlagan. 1906-yildan “O‘rta Osiyoning umrguzaronligi, taraqqiy“, “Taraqqiy” gazetalarida adabiy xodim. Shu yili noshir va muharrir sifatida “Xurshid” gazetasini tashkil etgan. 1908-yil uning “Sabzazor” (to‘plam), “Yer yuzi” (geografiyadan), “Tajvidal Qur’on” (Quronni o‘qish usulini o‘rgatgan) kitoblari ham bosilib, yangi usuldagи maktablarda darslik sifatida qo‘llangan[1]. “Shuhrat” (1907), “Tujjor” (1907), “Osiyo” (1908) gazetalarini g‘oyaviy boshqargan va adabiy xodim vazifasini bajargan. So‘ng “Sadoyi Turkiston” (1914—1915) gazetada mas’ul muharrir muovini, “Al-isloh” jurnali (1915—1917)da maxfiy muharrir, “Najot” va “Kengash” (1917) gazetalarida mas’ul muharrir. Munavvarqori ibn Abdurashidxon turli jamiyat va uyushmalar tashkilotchisi. U “Jamiyat Imdodiya” (1909), “Turon” (1913), “Turkiston kutubxonasasi” (1914), “Umid” (1914), “Maktab” (1914), “Ko‘mak” (1921) jamiyat, tashkilot, shirkat va uyushmalarida muassis, muovin, rais, a’zo. Sho‘rolar hukumati davrida Xalq dorilfununi sho‘rosining raisi, Turkiston Maorif xalq komissarligi turk shu’basining ish yurituvchisi (1918), Toshkent shahri maorif noziri, Sharq xalqlari syezdi (1920, Boku) delegat va hay’ati a’zosi. BXSR Maorif nozirligi vaqf bo‘limi boshlig‘i (1920—1921), Toshkent shahri ijtimoiy tarbiya bo‘limi mudiri (1921), Akademmarkaz raisi (1922), Navoiy nomidagi maktab, Narimonov nomidagi pedagogika texnikumi, ayollar pedagogika institutida muallim (1923—1925), Samarqand shahri muzeyida ilmiy xodim, O‘zbekiston osori-ati-qalarni saqlash qo‘mitasining Toshkent-Farg‘ona bo‘limida mas’ul kotib (1927—1928).

Munavvarqori ibn Abdurashidxon bir qancha darslik muallifidir.

- “Adibi avval” (1907)
- “Adib us-soniy” (1907)
- “Usuli hisob” (1911)

“Tarixi qavm turk” (1911)
“Tajvid” (1911)
“Havoyiji diniya” (1912)
“Tarixi anbiyo” (1912)
“Tarixi islomiya” (1912)
“Yer yuzi” (1916—1917)

4 qismdan iborat O‘zbekcha til saboqligi (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga, 1925—1926, 4-qismi musodara qilingan) darsliklari bir necha marta chop etilgan.

1914-yilda taraqqiyarvar o‘zbek shoirlarining she’rlarini jamlab, “Sabzavor” nomi bilan she’riy to‘plam nashr etgan.

Munavvarqori ibn Abdurashidxon ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham shug‘ullangan. Uning ixcham hikoyalari, talaygina she’rlari o‘sha davrdagi matbuot va o‘zi tuzgan hamda yozgan darsliklarga kiritilgan. Shuningdek, u o‘tkir publitsist adib sifatida tanilgan. Misralarida inson va jamiyat, din va dindorlik, axloq, mustamlakachilik va hurriyat, ziyolilik, uyushma, tashkilot, davlat idorasi masalalariga alohida e’tibor qaratgan.

Munavvarqori ibn Abdurashidxon o‘z faoliyati davomida pedagogik, matbuotchilik, muharrirlik, adiblik bilan cheklanmay, jiddiy siyosiy faoliyat ham olib borgan, shu sababli mustamlaka hukumati tomonidan bir necha bor hibs qilingan.

Yevropa savdo-sanoat, ilm-fanini o‘rganishga chaqirgan, ma’naviy qoloqlikni qoralagan. Chor va sho‘ro hukumatlari olib borgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi izchil kurash olib borgan. Sho‘royi Islom” tashkilotining ideologi, rahbari, shuningdek, “Turk adam markaziyat“, “Ittihod va taraqqiyot“, “Milliy ittihod” , “Nashri maorif” kabi jamiyat, firqa va tashkilotlar faoliyatiga rahbarlik qilgan. U vijdon erkinligini inkor etmagan dunyoviy demokratik davlat tarafidori bo‘lgan. Shu sababli Qo‘qon shahrida tashkil topgan Turkiston muxtoriyatini (1917) qo‘llab-quvvatlagan. Umr bo‘yi o‘z Vatanini mustaqil ko‘rishni istagan.

Munavvarqori 1929-yil 6-noyabrda nohaq millatchilikda ayblanib, qamoqqa olinadi. Moskva shahridagi Butirka qamoqxonasida qatl qilingan va Vagankova qabristoniga dafn etilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy



U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida muftiy oilasida dunyoga keldi. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1780-1785-yillar) Samarqandga kelib qolgan.

Oiladagi muhit undagi ma‘rifat va adabiyotga bo‘lgan qiziqishning tezroq ro‘yobga chiqishiga imkon tug‘dirdi. Behbudiyning otasi islam huquqshunosligi bo‘yicha yirik mutaxassis bo‘lib, bu borada ko‘plab kitob va risolalar yaratgan edi. Bu o‘z navbatida Mahmudxo‘jaga ta’sir o‘tkazmay qolmadidi. U keyinchalik bu haqda so‘zlab, hatto maqolalaridan birida otasi yozgan “Hidoya” (“Islam huquqiga sharhlar”) asarining o‘z taqdirida katta rol o‘ynaganini alohida qayd etgan.

Faoliyatি

Mahmudxo‘ja Behbudiy adabiyot, tarix fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug‘ullandi. Gazeta va jurnallar orqali jahonda sodir bo‘layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib bordi. U Makkaga borish maqsadida arab tilini o‘rganib islam tarixi va nazariyasini bilan shug‘ullandi. U 1899-yilda hajga bordi va muftiy unvoniga ega bo‘lib qaytdi. Haj bahonasida Misr va Istanbul shaharlarida bo‘ldi. Bu yerda davom etayotgan islohotlar so‘zsiz uning dunyoqarashida burilish yasadi. So‘ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo‘lib, Yevropa madaniyati

bilan ham qiziqdi. O'sha davrda Qozon va Orenburgda chiqadigan arab imlosidagi jurnal va gazetalar bilan hamkorlik qildi. Uning qator maqolalari ham mazkur nashrlarda chiqa boshladi. Maktab, maorif va madaniyat masalalari hamda ma'rifatparvarlik g'oyalarining targ'iboti ushbu maqolalarning markazida turdi.

Xususan, qrim tatar allomasi Ismoil Gaspirali (Gasperinskiy) va u bosh muharrir bo'lgan "Tarjumon" gazetasi M.Behbudiyni buyuk ma'rifatchi va o'zbek milliy jadidchilik yo'nalishining otasi darajasiga ko'tardi.

Behbudiyn dunyoqarashida Rossiyadagi eng nufuzli bo'lgan kadetlar partiyasi a'zolari bilan uchrashuv va ular harakatnomalarining ta'siri ham katta bo'lgan.

U 1914-yilda yana Turkiya, Misrga borib, u yerdan muhim kitoblar, o'quv qo'llanmalarini olib keladi, yangi usuldag'i maktab dasturi ustida ishlashga kirishadi. Biroq, u turli to'siq-larga uchrab "jadidlar rahnamosi", "dahriy" deb e'lon qilinadi. Shunga qaramay u tatar mutafakkiri Ismoil Gaspiralining ma'rifatchilik borasidagi ta'limotini qo'llab quvvatlab, o'z o'lkasiga ham shunday ishlarni amalga oshirishga kirishadi va ko'p o'tmay ma'rifatparvar sifatida o'z xalqi hurmatiga sazovor bo'ladi. U bir qator Sharq va G'arb tillari bilan yuksak madaniyat sohibi bo'lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning tolmas targ'i-botchisi ham bo'lgan.

Albatta, Behbudiyning xalq o'rtasida ortib borayotgan obro'-e'tibori nafaqat amirlik rahbarlari, balki bolsheviklarning ham reja va niyatlariga zid edi. 1919-yilning 25-martida Behbudiylar ular chaquvi bilan Shahrisabzda qo'lga olinib, sirli bir tusda Qarshida Said Olimxon farmoni bilan qatl qilindi. Uning qatli haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxt Samarqandga rosa bir yildan keyin xabar qilinadi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutdi.

Sadriddin Ayniy allomaning fojiali vafoti munosabati bilan bunday yozgan: “Jafokash shoir Behbudiyning nomini musulmon Sharqi hurmat bilan tilga oladi, chunki u 20-yil mobaynida o‘zining ongi va insoniy qadru qimmati bilan barcha mavjudotni erkin hayot, nur va ma’rifat uchun kurashga chorlab keldi”.

Behbudiy – publitsist

U 1912-1913-yillarda Behbudiy Samarqandda “Samarqand” gazetasи, “Oyna” jurnaliga asos soladi. Shuningdek, Behbudiy o‘zbek va fors tojik tillarida ikki yuzdan ortiq maqola va asarlar yaratgan. Jumladan, “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (“Aholi geografiya-siga kirish”, 1905), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1903), “Kitob-ul-attfol” (“Bolalar xati”, 1904), “Muxtarasi tarixi islom”–“Qisqacha islom tarixi”(1904). “Amaliyoti islom” (1905), “Rusiyaning qisqacha geografiysi” (1908) kabi darslik va kitoblar yozgan. Uning 1901-yildan boshlab “Turkiston viloyatining gazeti”, “Taraqqiy”, “Xurriyat”, “Turon”, “Sadoi Turkiston”, “Najot”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Tirik so‘z”, “Vaqt”, “Samarqand”, “Oyna” kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalari esa taraqqiyparvar kishilar va ayniqsa, yoshlarning diqqat-e’tiborini qozongan.

Behbudiy - yozuvchi

Behbudiy adib sifatida “Padarkush” dramasini yaratgan. 1913-yilda Samarqand shahrida nashr etilgan bu dramada u yoshlarning (ular xoh kambag‘al, xoh badavlat oilaga mansub bo‘lsin) ilmli, madaniyatli bo‘lishlari lozimligini qayd etgan.

M.Behbudiyning “Padarkush” dramasi 1911-yilda yozilgan bo‘lib, dastlab 1912-yilda “Turon” gazetasida bosilgan. 1911-yilga kelib kitob holida chop etilgan. Shundan so‘ng tez fursatda Samarqand, Buxoro va Toshkent teatri sahnalarida ijro etilgan. Drama kompozitsion qurilishiga ko‘ra oddiy bo‘lgan holda mazmun-g‘oya jihatdan ancha qamrovlidir. Xususan, undagi xarakter va shakl-shamoil mazkur janr talablariga an-

cha mos edi. Dramadagi qahramonlar esa ikki qutbda ikki xil harakat bilan yashaydilar. Bir tomonda boy, o‘g‘li va uning gu-mashtalari bo‘lsa, ikkinchi tomonda domla, ziyoli obrazlar asar g‘oyasini ochishda muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbek dramaturgiyasiga, umuman, teatriga poydevor qo‘ygan bu asar o‘z davrida Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasi , Mirmuhsin Fikriyning “Befarzand Ochildiboy”, Hamza Hakimzoda Niyoziyining “Yangi saodat” kabi qissalarining yaratilishiga turki bergan.

Ulug‘ mutafakkirning xalqimiz oldidagi xizmatlari e’tiborsiz qolmagan, albatta. Qarshi shahri 1926-1937-yillarda Behbudiy nomi bilan atalgan. 1977-yili allomaning “Saylanma” asarlari chop etildi. Asarlari darslik va qo‘llanmalarga kiritilib, Toshkent va Samarqand shahridagi maktab, ko‘cha va mahallalar uning nomiga qo‘yildi. Buyuk ma’rifatparvar sharafiga 2006-yil Samarqand shahrida yodgorlik o‘rnatalgan. Hattoki, Tojikiston Respublikasining Xo‘jand shahridagi gimnaziya Behbudiy nomi bilan ataladi. 2020-yil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni arafasida Behbudiy hayotiga bag‘ishlangan film premyerasi bo‘lib o‘tdi. Hozirgi kunda alloma qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma’rifiy meros o‘z xalqining istiqloliga xizmat etmoqda.



Abdulla Avloniy



Atoqli ma'rifatparvar, iste'dodli shoir va pedagog Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentda kosib oilasida dunyoga kelgan va eski maktabda ta'lim olgan. U tarjimai holida bu haqda shunday yozgan: “12-yoshimdan O‘qchi mahallasidagi madrasada dars o‘qiy boshladim. 13-yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o‘qir edim. 14-yoshimdan boshlab, o‘sha zamonga muvofiq har xil she’rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda “Tarjumon” gazetasini o‘qib, zamondan xabardor bo‘ldim” . Avloniy madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug‘ullandi. O‘qish va o‘qitish usuliga isloh kiritib, yangi tipdagisi maktab tashkil etdi va yosh pedagog-o‘quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, Sharq va G‘arb tillarini o‘rgatish kabi muhim ta’lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirdi.

Abdulla Avloniy maktab o‘quvchilarini uchun “Birinchi muallim” , “Ikkinchi muallim” (1912), “Tarix” , “Turkiy Guliston yoki axloq” (1913) kabi zamonasi uchun hodisa bo‘lgan darsliklarni yozgan. 1895-yildan ijodiy faoliyati boshlangan Avloniy “Qobil” , “Shuhrat” , “Hijron” , “Avloniy” , “Surayyo” , “Abulfayz” , “Indamas” taxalluslari bilan she’r, hikoya, felyeton va kichik hajmli dramatik asarlari yaratgan. Shoir o‘z asarlarida zamonasidagi qoloqlikni, johillikni tanqid qiladi va kishilarni bilimga, ma'rifatga chaqiradi.

Abdulla Avloniy 1917-yilgacha mahalliy xalq orasidan yetishib chiqqan noshir va jurnalist sifatida Toshkentda “Shuhrat” , “Osiyo” kabi gazetalarni tashkil etadi. U “Advokatlik osonmi?” , “Ikki muhabbat” , “To‘y” , “S’yezd” , “Layli va Majnun” , “O‘liklar” kabi dramatik asarlarni yozib, ularda jaholat, bid’at, bilimsizlikning fojeali oqibatlarini, qo‘pol va yaramas

urf-odatlarni fosh etadi. Abdulla Avloniy shoir sifatida ko‘plab she’rlar bitgan. Uning she’rlari xoh eski urf-odatlarga qarshi qaratilgan bo‘ladimi, xoh muhabbat yoki maktab-maorif haqida bo‘ladimi, hamma-hammasida inson, uning axloqiy go‘zalligi va ma’naviy boyligi kuyylanadi. Jumladan, “O‘z mamlakatimizda” she’rida maishat uchun pul-boylikni mo‘l-ko‘l isrof etgan, ammo bola tarbiyasi uchun sariq chaqani ravo ko‘rmagan xasislarni “Ilm uchun pulni ko‘zлari qiymas”, deb qoralaydi. Ayniqsa, uning “Adabiyot” (1915) kitobi bu jihatdan alohida ajralib turadi.

Avloniy 1913-yili “Turon” teatr truppasini tashkil etdi va shu teatr uchun original sahna asarlarini yaratish bilan birga qardosh dramaturglarning pyesalarini o‘zbek tiliga tarjima ham qildi.

Abdulla Avloniy 20-yillarda o‘zbek xalqi maorifi va madaniyati taraqqiyotida ishtirok etibgina qolmay, qo‘shni afg‘on xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotida ham muayyan rol o‘ynagan. U ma’lum muddat Afg‘oniston xalq maorifi vaziri, so‘ng Sho‘rolar Ittifoqining Afg‘onistondagi konsul-elchisi vazifalarida xizmat qilgan.

Avloniy umrining so‘nggi yillarida O‘rta Osiyo Kommunistik universitetida dars berish bilan birga o‘zbek adabiyotidan qator darsliklarni yaratgan. U 1934-yil 24 avgustda 56-yoshida vafot etgan.

Abdurauf Fitrat



Abdurauf Fitrat 1886-yili Buxoroda ziyoli oilasida tug‘ilgan. Dastlabki ta’limni Buxoro, Istanbul madrasalari va dorilfununlarida oldi. U arab, fors, turk tillarini mukammal bilganligi tufayli Sharqning buyuk allomalari ijodini yaxshi o‘zlashtirdi.

Adibning otasi savdo ishlari bilan shug‘ullangan bo‘lib,

1918-yilgacha Qashqarda turib qolgan. U asosan, onasi Mustafo bibi (Bibijon) tarbiyasida bo‘lib, u tufayli Bedil, Navoiy, Fuzuliy, Zebuniso, Uvaysiy kabi ulkan shoirlarning g‘azallaridan xabardor bo‘ldi. Fitrat 1909-yili Turkiyaga o‘qishga borib, 1913-yilgacha Istanbul dorilfununida tahsil ko‘rdi. Turkiyada tashkil topgan “Buxoro ta’limi maorifi” uyushmasida faollik ko‘rsatdi. Uning ilk to‘plami 1911-yilda “Sayha” (“Chorlov”) nomi bilan chop etildi. “Sayyohi hindi”, “Munozara” kabi asarlari ham shu yillarda Turkiyada nashr etildi.

1909-1913-yillarda Turkiya dorilfununida o‘qiyotganida jadidchilik g‘oyalari bilan tanishib, shu g‘oyalari bilan sug‘orilgan asarlar yozdi. U Turkiyadagi tafsili davrida o‘ziga Fitrat (zukko, dono, bilimdon) deb taxallus oldi. Fitrat 1917-yili fevral inqilobidan keyin “Hurriyat” gazetasini tashkil etdi, unda xalqni istiqlol uchun kurashga da’vat etuvchi she’r va maqolalarini e’lon qildi. Uning “Hurriyat” gazetasida bosilgan “Yurt qayg‘usi” nomli she’r va sochmalarida Turkistonning huriyoti uchun kurashga bel bog‘lagan lirik qahramonning “Men sen uchun tug ‘ildim, sen uchun yasharman, sening uchun o ‘larman, ey turkning muqaddas o ‘chog ‘i!” degan da’vati baralla eshitiladi. Uning “Qon”, “Beginon”, “Temur sag‘anasi”, “O‘g‘izg‘on”, “Abo Muslim”, “Hind ixtilochilar”, “Chin sevish” kabi dramalarida milliy mustaqillik uchun kurash mavzuyi tabiiy ifodasini topdi.

1922-yili nashr etilgan “O‘zbek yosh shoirlari” to‘plamida Cho‘lpon, Elbek she’rlari bilan birga Fitratning she’riy asarları ham ilk bor o‘zbek o‘quvchisiga havola etildi. U mazkur to‘plamga kirgan “Mirrix yulduziga”, “Behbudiying sag‘anasini izlab”, “Sharq”, “Shoir” kabi she’rlarida millatparvar va vatanparvarlik pozitsiyasiga qat’iy turganini yana bir bor namoyish etadi. Shoир ijodi va dunyoqarashidagi ana shu hol keyin ham susaymay, u “Abulfayzxon”, “Arslon” va “Vose’ qo‘zg‘oloni”, “Shaytonning tangriga isoni” kabi dramalarini

yaratdi. Uning “**Qiyomat**” kabi hikoyalarida diniy fanatizm ijtimoiy taraqqiyotga to’siq bo‘lgan kuch sifatida fosh etiladi.

Fitrat yirik olim, adabiyotshunos sifatida ham bir qancha asarlar yarattdi. Jumladan, “**Adabiyot qoidalari**”, “**Eski o‘zbek adabiyoti namunalari**”, “**Aruz haqida**” kabi ilmiy kuzatuvlari o‘zbek adabiyotshunoslik fanining shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Shuningdek, uning Umar Xayyom, Firdavsiy, Navoiy, Bedil haqidagi tadqiqotlari adabiyot tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat etdi. U Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy kabi o‘ndan ortiq mumtoz adabiyot vakillari haqida ham maqolalar yozdi.

Fitrat ayni paytda tashkilotchilik faoliyati bilan ham shug‘ullanib, 1921-1923-yillarda Buxoro Xalq Jumhuriyatida maorif xalq noziri bo‘lib xizmat qilgan. 1923-1924-yillarda esa frunzechilar tomonidan quvg‘in qilingan shoir Moskvadagi Sharq tillari institutida ilmiy faoliyat bilan shug‘ullandi. Fitrat 1921-yilda Sharq musiqa maktabini tashkil etgan. Maktabga mumtoz musiqa bilimdonlari bilan birga V. A. Uspenskiy singari musiqashunoslarni ham taklif etgan. Shuningdek, u “Shashmaqom” kuylarini to‘plash va notaga yozib olish ishlariga ham rahbarlik qildi. Uning tashabbusi bilan Buxoro Shashmaqomi Uspenskiy tomonidan ilk bor notaga olinib nashr etildi.

Fitratning o‘zbek tili grammatikasiga oid darsliklari 1925-1930-yillarda besh marta chop etilgan. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari uchun Fitratga o‘zbek olimlari orasida birinchilardan bo‘lib professor unvoni berildi.

Fitrat 1938-yil 4-oktabrda Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon singari yozuvchilar bilan birga otib tashlandi.

1991-yil 25-sentabrda Fitrat o‘zbek adabiyotini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Abdulla Qodiriy



Abdulla Qodiriy (Julqunboy) – yozuvchi, shoir, tarjimon, dramaturg, XX asr o‘zbek adabiyotining ulkan namoyondalaridan biri, o‘zbek romanchiligi asoschisi.

1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrining Eskijo‘va mahallasida tavallud topgan.

Adibning otasi Qodirbobo (1820-1924y) xon, beklar qo‘lida sarbozlik qilgan, rus bosqini paytida Toshkent mudofaasida qatnashgan. Adib o‘z tarjimai holida shunday deydi: “Har holda bemavridroq bo‘lsa kerak, kambag‘al, bog‘bonlik bilan kun kechirguchi bir oilada...tug‘ilg‘onman. Yoshim to‘qqiz-o‘nlarga borg‘ondan so‘ng meni maktabga yubordilar. Maktabda ikki-uch yil chamasi eski usulda o‘qib, keyin vaqtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajhidan o‘n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka berdilar. Xo‘jayinim o‘zi savdogar kishi bo‘lub, o‘rischa yozuv-chizuv bilaturlar on odamga muhtoj edi. Shu ta’ma bo‘lsa kerak, meni o‘ris maktabga yubordi... 1912-yilda manfaktur bila savdo qiluvchi bir kishiga yiliga 50 so‘m barobariga prikazchik bo‘lub kirdim...”

1904-1906-yillarda bo‘lajak adib musulmon maktabida ta’lim oladi.

1908-1912-yillarda rus tuzem maktabida,

1916-1917-yilda Abulqosim shayx madrasasida arab va fors tillaridan saboq oladi,

1924-1925-yillarda V.Ya Brusov nomidagi Moskva adabiy kurslarida o‘qydi.

1918-yil – eski shahar oziqa qo‘mitasining sarkotibi

1919-yil – “Oziq ishlari” gazetasi bosh muharriri

1920-yil – Kasabalar sho‘rosining sarkotibi

1923-1926-yillarda “Mushtum” jurnalni tashkilotchilaridan biri va tahrir hay’ati a’zosi sifatida faoliyat yuritgan.

Adib tarjimai holida adabiy faoliyatining boshlanishini

shunday xotirlaydi: “Shu miyonalardan bozor vositasi bilan tatarlardan chiqadiring‘on gazetalarni o‘qib, dunyoda gazeta degan gap borlig‘iga imon keltirdim. 1913-yilda o‘zbekcha “Sadoi Turkiston”, “Samarqand”, “Oyina” gazetalari chiqa boshlag‘och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg‘ondi.

Adibning ilk chiqishi “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914-yili 1-aprel sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan “Yangi masjid va madrasa” nomli xabari bo‘ladi.

Adibning 1917-yili Oktabr to‘ntarishlaridan keyingi faoliyati asosan matbuot, ya’ni publitsistika bilan bog‘liq. U 1919-1925-yillar oralig‘ida 300 ta turli maqolalar, publitsistik asarlar yaratgan. Abdulla Qodiriy jurnalistik faoliyati haqida: “*Xulosa — boshqalarning xizmati daftар bilan sobit bo‘lsa, menim xizmatlarim matbuot bilan ravshandir...*” deydi.

Abdulla Qodiriy adib va shoир sifatida 1912-yillarda faoliyatini boshlagan. “To‘y” “Ahvolimiz”, “Millatimga”, “Fikr aylagil” kabi she’rlari “Baxtsiz kuyov” dramasi, “Juvonboz” hikoyasi uning ilk asarlaridir. Qodiriy shunday xotirlaydi: “*1913-yilda chiqqan “Padarkush” ta’sirida “Baxtsiz kuyov” degan teatr kitobini yozib yuborg‘animni o‘zim ham payqamay qoldim (1915-yilda). Yana shu yilda teatrлarda chiqib turg‘on hikoya va ro‘monlarga taqlidan “Juvonboz” otliq hikoyachani yozib noshir topilmag‘onidan, o‘zim nashr qilib yubordim. Nikolay taxtdan yiqilg‘ondan keyin oddiy xalq militsiyasiga ko‘ngilli bo‘lib yozildim...*”.

Abdulla Qodiriy “Ahvolimiz” she’rini 21 yoshida yozgan. She’rda ko‘tarilgan muammo o‘zbek xalqi uchun hamon dolzarb. Adibning bu kabi she’rlari millatparvarlik, ma’rifatparvarlik ruhida yozilgan bo‘lib jadidchilik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Muallif unda millatning zabun holatidan kuyinib so‘zlaydi, uyg‘onishga da’vat etadi, fikrlashga undaydi.

Adib qizg‘in yozuvchilik faoliyati bilan birga tarjima bilan ham shug‘ullangan. U 1928-yili tatar fizik olimi Abdulla Shunosiyning “Fizika”asarini, rus yozuvchisi Nikolay Gogolning

“Uylanish”, Anton Chexovning “Olchazor” asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qiladi. 1934-yilda Qozon shahrida nashr etilgan “To‘la ruscha- o‘zbekcha lug‘at”ni tuzishda ishtirok etadi.

Shubhasiz, Abdulla Qodiriyning o‘z asarlari ham bir qancha dunyo tillariga tarjima qilingan. Uning “O‘tkan kunlar” romani 1928-yildayoq ozarbayjon tiliga, “Mehrobdan chayon” asari 1935-yilda tojik tiliga tarjima qilinadi. Abdulla Qodiriyning asarlari ko‘plab Sharq va Yevropa mamlakatlarida e’tirof etiladi. Kitoblari hamon rus, qozoq, uyg‘ur, nemis, tatar, arab, italyan, ingлиз tillariga tarjima qilib kelinmoqda.

Abdulla Qodiriy 1937-yilning 31-dekabrida “xalq dushmani” sifatida hibsga olinadi. 1938-yilning 4-oktabrida yozuvchi 9 oylik xo‘rliklardan so‘ng Cho‘lpon, Fitrat kabi maslakdoshlari bilan birqalikda otib tashlanadi. Toshkentdagi Xo‘ja Alambardor (Kamolon) qabristoniga dafn etiladi.

Adib qamoqqa olingandan so‘ng, uning asarlari “zararli” deb topildi. O‘tda yoqildi, kutubxonalaridan yo‘qotildi, o‘qish taqiqlandi. Kimning qo‘lida “O‘tkan kunlar” romanini ko‘rib qolishsa, darhol qamashdi.

1957-yilda Abdulla Qodiriy rasman oqlandi. Ammo uning otib tashlanganligi haqidagi ma’lumot (o‘limidan so‘ng oqlanganligi haqidagi ma’lumot kabi) uzoq yillar mobaynida sir saqlandi.

Abdulla Qodiriyning Habibullo, Adiba, Anisa, Nazifa, Ma’sud ismli farzandlari bo‘lgan. Abdulla Qodiriya qo‘yilgan “xalq dushmani” tuhmatidan so‘ng, uning to‘ng‘ich o‘g‘li Habibullo Qodiriya 1945-yil 25 kuni “xalq dushmanining o‘g‘li” aybi qo‘yiladi. Uzoq qiynoq va so‘roqlardan so‘ng uni Sibirga surgun qilishadi. 1953-yil Stalin vafotidan so‘ng, Habibullo Qodiriy ozod qilinadi, biroq 2 yil Qozog‘istonning Qarag‘anda viloyatida qolib ketadi, chunki Toshkentga qaytishga ruxsat berilmaydi. 1955-yil Qodiriyning o‘g‘li 37 yoshida nihoyat Toshkentga qaytadi.

Habibullo Qodiriy otasini otgan askar bilan suhbatlashadi. Askarning xotirlashicha, Qodiriy so‘nggi iltijo sifatida askarning tunuka idishidagi suvni so‘raydi. Askar rozi bo‘ladi. Qodiriy suvni ichmaydi, o‘sha bir kaft suv bilan tahorat oladi va ikki rakan nafl namozini o‘qib keyin uni otaverish mumkinligini aytadi. Askarning so‘zlab berishicha, Qodiriy o‘limdan qo‘rqmagan, kiprik ham qoqmagan. Bu xotiralar adibning “*Men haqiqat yo‘lida hech qanday jazodan, qyinoqdan qo‘rqlayman, agar otmoqchi bo‘lsalar ko‘kragimni kerib turaman*” degan so‘zlarini isbotlaydi.

Fayzulla Xo‘jayev



Davlat va siyosat arbobi, Jadidchilar harakatining rahnamolaridan biri. Savdogar oilasida tug‘ilgan. Buxoro madrasasida 2-yil tahsil olgach, 1907-12-yillarda Moskvada xususiy mакtabda o‘qigan. Buxoroga qaytgach, 1912-yildan yosh buxoroliklar partiyasining, 1913-yildan partiya MKning a’zosi bo‘ldi.

Otasidan meros qolgan katta boylikni yangi usul maktablari ochishga, yosh buxoroliklar siyosiy faoliyatini moddiy qo‘llab-quvvatlashga sarfladi. 1917-yildan boshlab Xo‘jayev va Fitrat partiyaning so‘l qanotiga boshchilik qilib, Buxoroda avval konstitutsion monarxiya, so‘ngra demokratik respublika tuzish uchun kurashdilar. Yosha buxoroliklar amir tomonidan ta‘qib qilingach, Xo‘jayev va uning safdoshlari Buxoroni tark etishga majbur bo‘lishdi. Xo‘jayev 1920-yil yanvarda Toshkentda tuzilgan inqilobchi yosh buxoroliklar partiyasi Turkiston Markaziy byurosi raisi, “Uchqun” gazetasi muharriri (1920-yil aprel-sentabr)dir.

1920-yil 14-sentabrda BXSR hukumati - Xalq Nozirlar Sho‘rosi tuzilib, Xo‘jayev hukumat boshlig‘i qilib saylandi.

F. Xo‘jayev BXSR tashqi ishlar noziri (1920-22), harbiy ishlar noziri (1921-24), ichki ishlar noziri (1922), BXSR Mehnat va mudofaa kengashi raisi (1922-24). Shuningdek, Sharqiy Buxoro Inqilobiy harbiy kengashi raisi (1923-24), SSSR Harbiy-Dengiz ishlari xalq komissarligining O‘zbekiston SSR bo‘yicha rasmiy vakili (1925-yildan)dir.

F.Xo‘jayev “Yosh buxoroliklar” g‘oyalari ruhidagi dasturiy hujjat - maromnomani tuzdi va nashr etdi, Xo‘jayev rahbarligidagi “Inqilobchi yosbuxoroliklarning Turkistondagi markaziy byurosi” tashkiloti nufuzli siyosiy kuchlarni o‘zida ifoda etmadi. U O‘rtta Osiyoni butunlay zabit etish va uni bolsheviklar to‘liq rahbar bo‘lgan yangi davlat tarkibiga qo‘sib olish uchun bolsheviklarning kurash vositasiga aylandi. Fayzulla Xo‘jaev rahbarlik qilgan yosbuxoroliklarning birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan Buxoroda to‘ntarish tayyorladilar va amir armiyasini parokandalash bo‘yicha faol ishlar olib borishdi hamda mahalliy aholi orasida tashviquot ishlari yurgizishdi. “Tong” jurnali va “Qutulish” gazetasini nashr eta boshladilar.

Respublika nozirlar kengashining raisi Fayzulla Xo‘jayev Buxorodagi jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan. U yosh buxoroliklar partiyasi rahbarlaridan bo‘lgan. Yevropa sivilizatsiyasini o‘zlashtirgan edi. Hukumat raisligidan tashqari harbiy nozir, tashqi ishlar noziri bo‘lgan. Yosh buxoroliklarning progressiv-demokratik g‘oyalariga amal qilgan. Buxoro rahbariyati 1921-yil mart oyida qator chet mamlakatlar hukumatlariga yo‘llagan murojaatnomasida “Buxoro xalqi... Yosh Buxoroliklar ta’sirida uyg‘ondi”, deb ta’kidladi. BKPni F. Xo‘jayev “Sun’iy tuzilgan partiya”, deb atadi. F.Xo‘jayevning qat’iyati bilan Buxoro Chekasi tugatildi, tribunallar, siyosiy bo‘limlar tomonidan fuqarolarni jazoga tortish vaqtinchalik to‘xtatildi. Islom dini, masjid-madrasalar xizmati, ruhoniylarning faoliyat erkinligi tiklandi, yangi qoziliklar ish boshladi. 1924-

yl yozida F.Xo'jayev aholining qashshoqlashganini e'tirof etib, bundan qutulish tadbirlarini izchil amalga oshirish zarurligini uqtirdi. F. Xo'jayev Rossiya tashqi savdo birlashmasini BXSRdan "hamma narsani olishga, ammo hech narsa bermaslikka qodir..." deb aybladi. Natijada 1922-yil bahorida BXSRga bir qator qurilish materiallari, kerosin, neft, temir mollar, qog'oz, daftar, gugurt, kalishlar olib kelindi. 1924-yil may oyida F.Xo'jayev aholining turmush darajasi pasayganini e'tirof etdi. F.Xo'jayev boshliq Buxoro Xalq Respublikasi hukumati qo'rбoshilar bilan yashirin aloqa o'rnatib, muzokara asosida tinchlik yo'li bilan murosa qilishga intildi. Afsuski, F. Xo'jayev boshchiligidagi Buxoro hukumati tarkibidagi milliy vatanparvar kuchlar (sobiq Yosh buxorolik jadidlar) bilan muxolifatdagi qurolli guruuhlar yo'lboshchilari o'rtasida kelishuv amalga oshmadni. Bu totalitar rejim sharoitida amalga oshishi mumkin ham emas edi.

Xo'jayev BXSRning mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritishiga, iqtisodiy islohotlar o'tkazish va demokratik erkinliklarni joriy qilishga alohida e'tibor qaratib, Sovet Rossiyasidan tashqari Eron, Turkiya, Afg'oniston, Xitoy, Ozarbayjon, XXSR, shuningdek, Germaniya va Yaponiya bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. U talabalarni xorijga jo'natib o'qitishning tashabbuskorlaridan biri bo'lgan. O'zbekiston SSR Inqilobiq qo'mitasi (Revkom) - Muvaqqat ishchi-dehqon hukumati raisi (1924-yil noyabr - 1925-yil fevral), O'zSSR XKS raisi (1925-1937), SSSR MIK raislaridan biri. Xo'jayev o'z faoliyati davomida o'zbek xalqining iqtisodiy va madaniy ravnaqiga xizmat qiluvchi tadbirlarni amalga oshirishga intildi. U VKP MK O'rta Osiyo byurosni va O'zbekiston KPMKga nisbatan muxolifat mavqeida turgan "o'n sakkizlar guruhi" (1925-yil noyab.)ga xayrixoh bo'lgan. U bu guruuning rasmiy a'zosi bo'lmasa ham, aslida ularning g'oyaviy ilhomchisi edi. "Quloq"larni sinf sifatida tugatish siyosatini yoqlamagan.

O'zbekistonda yoppasiga chigit ekilishi paxta yakkahokimligiga olib keladi, deb hisoblagan. O'zbekistonda zamonaviy sanoat inshootlari qurilishida tashabbuskor bo'lgan.

Is'hoqxon Ibrat



U 1862-yili Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Uning ota-onasi Junaydullaxo'ja va Huribibi o'z davrining ancha savodli kishilari bo'lgan. Ishoqxon dastlab onasining qo'lida savodini chiqarib, keyin hijo usuliga asoslangan mahalla maktabida o'qidi. Onasi Huribibi maktabdor bo'lib, o'z maktabida qizlarga yozish va husnixatni o'rgatar edi. Shuning uchun ham Ishoqxon o'z asarlarida onasini ustozи sifatida ko'p ta'riflaydi. Adabiyot va san'atga ixlosi baland Ishoqxonni o'qishni davom ettirishi uchun Qo'qonga yuboradilar. U 1878-1886-yillari Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida o'qiydi. O'sha davrlarda Qo'qon adabiy muhitining yirik namoyandalari Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Nodim, Haziniylar bilan yaqin munosabatda bo'lgan, adabiy mushoiralarda ishtirop etgan.

Madrasani tugatib, To'raqo'rg'onga qaytgan Ibrat o'z qishlog'ida maktab ochadi. Uning maktabi o'sha vaqlarda urf bo'layotgan zamonaviy rus maktablaridagi ilg'or metodikani tatbiq qildi. Ammo bu maktab uzoq faoliyat ko'rsata olmadi. Mutaassiblar uni yopishga muvaffaq bo'ldilar. Chet el hayoti va madaniyati bilan yaqindan tanishishni istagan Isxoqxon Sharq mamlakatlari bo'ylab safarga otlandi. Jidda, Istanbul, Sofiya, Rim kabi Yevropaning markaziy shaharlariда bo'ldi. Ancha vaqt Afg'onistonning Kobul, Arabistonning Jidda shahrida yashadi. Makka shahridan Qizil dengiz va Hind okeani orqali Hindistonga keldi. 1892-1896-yillarda Hindistonning eng katta port shaharlardan Bombey va Kalkuttada yashadi. Bu yerda ko'p

ishlatiladigan arba' lison, ya'ni to'rt tilni: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o'rgandi. 1896-yili Hindistondan Birma orqali Xitoyga, so'ngra Koshg'arga o'tadi va Namanganga qaytib keladi. Chet eldan qaytgach, olti tilni o'z ichiga olgan "Lug'ati sitta alsina" ("Olti tilli lug'at") asarini yozdi. Asar ancha qiyinchiliklar bilan 1901-yili Toshkentda Ilin bosmaxonasida chop etildi. Ilg'or pedagog sifatida 1907-yilda o'z uyida yangi usuldag'i maktab ochdi. Unda 30 nafar qishloq bolalarini o'qitdi.

1907-yili Ibrat Orenburgga boradi va Rizo Faxriddinning "Sho'ro" jurnali faoliyati bilan tanishadi. U Orenburgda Gaufman degan matbaachidan pulini o'n yil mobaynida to'lash sharti bilan 1901-yilda chiqqan litoografik mashina sotib oladi. Ishoqxon litografik mashina va harflarni katta mashaqqatlar bilan Orenburgdan Qo'qonga poyezdda, Qo'qondan To'raqo'rg'onga tuyalarda olib keladi. 1905-yili o'zi qudirgan hammom o'rniда bosmaxona tashkil qiladi va "Matbaai Ishoqiya" nomi bilan ishga tushiradi.

Ishoqxon Ibrat jahon ilmi va madaniyatida yaratilgan har bir ilg'or yangilikdan o'z xalqini bahramand etishga harakat qildi. 1908-yili tashkil qilingan "Fotografiyai Ishoqiya", 1910-yili To'raqo'rg'on aholisi uchun bunyod etilgan istirohat bog'i buni tasdiqlaydi. U otasidan qolgan katta yerni gulbog' qildi. Favvora qudirirdi. 150 tup manzarali daraxtlardan xiyobon yaratdi. Yevropa uslubida katta imorat qudirib, uning arkiga "Xush kelibsiz, Ishoqiya bog'iga" deb yozdirib qo'ydi. To'raqo'rg'on ahli hozirgi kunda ham bu bog'ni shu nomda ataydi.

Ibrat - iste'dodli shoir. U uch – o'zbek, fors va arab tillarida erkin ijod qilgan. O'z she'rlarini to'plab devon tuzgan. Ammo mazkur devon bizgacha yetib kelmagan. Shunga qaramay, shoirning katta hajmdagi she'rlari vaqtli matbuotda bosilib chiqqan, bayozlarga kiritilgan. Ibrat o'z she'rlarining kichik qismini 1909-yili o'z matbaasida bosmadan chiqargan. Bundan tashqari jahon yozuvlari tarixiga bag'ishlangan "Jome'ul-xutut"

(“Yozuvlar majmuasi”) asarlarini yaratdi. Olimning mazkur asari katta hajmda - 132 betdan iborat bo‘lib, 1912-yilda o‘zining bosmaxonasi “Matbaai Ishoqiya” tomonidan nashr qilindi. Bundan tashqari muarrix sifatida “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat”, “Mezonuz-zamon” ilmiy asarlarini yaratdi.

Minglab ziyolilarning yostig‘ini quritgan qatag‘onning dahshatlari kezlari – 1937-yilning ilk bahorida Ishoqxon Ibrat ham qamoqqa olindi. Keksalik sabab ham jismoni, ham ruhiy azoblarga dosh bera olmadi. Sud hukmigacha ham yetib kelolmasdan qamoqxonada ikki oy yotib, hayot bilan vidolashdi. Mustaqillik yillaridan so‘ng Ibrat hayoti va ijodiga katta e’tibor qaratildi. 2005-yilda uning katta hajmda pedagogik hamda adabiy, ilmiy asarlari nashr etildi. 2017-yilda Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida Ishoqxon Ibrat nomidagi barcha zamon talabiga mos keluvchi ijod maktabi ochildi.



VIII BOB. Bilish zarur bo‘lgan “101 savolga – 101 javob”. SAVOL VA JAVOBLAR

1. Avesto qanday kitob va nimalar to‘g‘risida ma’lumot beradi?

Javob: Avesto – Zardushtiylikning muqaddas kitobi. Asosan qadimiy oriy tilida bitilgan. 30 kohin tomonidan 12 ming sigir terisiga yozilgan. Pliniyning (III asr) ma’lumotiga qaraganda, u 2 million baytdan iborat bo‘lgan. Avesto to‘rt qismdan iborat:

1. Yasna – ibodat matnlari va madhiyalar. 72 bobdan iborat, shundan 17 bobi madhiyalar hisoblanadi.

2. Yasht – Axuramazdani ulug‘lovchi madhiyalardan iborat. Bu qism saj yo‘li bilan yozilgan.

3. Vendidad – butun olamni yaratuvchisi sifatida Axuramazdani ulug‘laydi. Jumladan, otashda, ya’ni olovda uning zuhuri mavjudligi aytildi.

4. Visparad – qonunlar majmuasi. 25 bobdan iborat. Pandu nasihatlar va ibodatlar yig‘indisidir.

2. Axborot – nima?

Javob: Axborot – arabcha “xabar” so‘zidan olingan bo‘lib, “darak”, “ma’lumot”, “ovoza” degan ma’nolarni anglatadi. Axborot – deganda, muayyan ob’yektlarni boshqarish jarayonida qarorlar qabul qilishda foydalaniluvchi faktlar, voqealar, jarayonlar va voqealar, muayyan soha ob’yektlarining holati va xususiyatlari tushuniladi. Axborotni – uning turi, qanday ko‘rinishda ifodalanishidan qat‘i nazar – yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va amaliyotda qo‘llanilishida kompyuterning muayyan va aniq roli mavjud. Bu ishtirok quyidagilarda ko‘rinadi:

Birinchidan, ta’lim jarayoniga ilg‘or axborot texnologiyalarini qo‘llash. Bu ba’zan an’anaviy ta’limga zid kelishi ham mumkin. Ammo u ta’limni tezlashtiradi, yutuqlar kafolatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, tinglovchi va bajaruvchi bo‘lgan o‘quvchi-talabani ta’limning sub’yektiga aylantiradi.

Ikkinchidan, taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishonchliligi, birlamchi manbalarga tayanilgan holda tayyorlanishi lozim. Talabalarni ilmiy izlanishlarga yo'naltirish, bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish masalalarini hal etishda, avvalambor, ularga manba tanlashni o'rgatish, internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish zarur bo'ladi. Bunda milliy va diniy qadriyatlarimiz, ajdodlarimiz ilmiy merosi qo'l kelishi mumkin. Ulardan o'rinali, maqsadli foydalanish kutilgan natija beradi. Ma'naviyat pokligi saqlanadi, ilmiy yuksalish tezlashadi – yoshlarning yolg'on ma'lumotlar girdobida qolishi ehtimoli kamayadi.

Eng muhimi, respublikada axborot maydonidan foydalanishning milliy tizimi shakllanadi. Axborot olami ichida yashayotgan bugungi kun kishisi umri davomida ko'pdan-ko'p manbalar, dalillaru raqam- 12 larga murojaat qilishga majbur. "Raqamlar sehri" dan insonlarni ta'sir doirasiga olishning bir usuli sifatida foydalanishi ham shundan. Aslida, bu narsalar insonga atrofda – yurtida va dunyoda sodir bo'layotgan voqeа, hodisa, jarayonlarni anglashi, ularning o'zaro aloqadorligi, munosabati va mohiyatiga chuqr kirib borishi uchun kerak.

3. Axborot urushi" ning asosiy vazifalari nimalarda namoyon bo'ladi?

Javob: Voqeа-hodisa haqida, jarayon haqida yolg'on axborot tarqatish, axborot xurujlarini uyushtirish;

ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish (insonlar ongini aldab boshqarish);

milliy-ma'naviy qadriyatlarni obro'sizlantirish;

g'arbona turmush tarzini zo'rlab singdirish;

insonlar diniy e'tiqodiga ta'sir ko'rsatish;

demokratik qadriyatlarni yoyishga intilish ("demokratiya eksporti");

xalqning tarixiy xotirasini buzish yoki o'zgartirishga urinish.

4. Axborot urushining xususiyatlari nimalardan iborat?

Javob: Axborot urushi axborot va axborot tizimlarining barcha shakllarini qamrab oladi;

Axborot urushi mamlakat pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida ham urush davrida, ham tinchlik davrida cheklanmagan hudud va makonda olib boriladi; Axborot urushi ham ixtisoslashtirilgan harbiy bo‘linmalar tomonidan, ham ijtimoiy (shaxslar ishtirokida) tuzilmalar doirasida olib boriladi.

5. Axborot xavfsizligi – nima?

Javob: Axborot xavfsizligi – bu axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlарining muvozanatlashgan holda himoyalanganlik holatidir. Shuningdek, axborot xavfsizligi – muayyan shaxs, oila, ijtimoiy guruh, mehnat va xizmat jamoasi, davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-madaniy omillar asosida xavf-xatarsiz tarzda normal faoliyat olib borishlari uchun zarur bo‘lgan informatsiyalarni o‘rnatilgan tartibda saqlash va yetkazib berish tizimidir.

6. Axborot xavfsizligini ta’minlashning asosiy vazifalarini nimalardan iborat?

Javob: axborot xavfsizligiga tahdid manbalarini aniqlash, baholash va bashorat qilish;

axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatini ishlab chiqish;

davlat hokimiyyati organlari va axborot xavfsizligini ta’minlash boshqarmalari faoliyatini muvofiqlashtirish.

7. Axloq nima?

Javob: Axloq – (arab. xulqning ko‘pligi; lot. – xulq-atvor) – ma’naviy hayot hodisasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma’naviyat sohasiga oid kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagи o’zaro munosabat, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turadigan barqaror, muayyan me’yor va qoidalar yig‘indisidir.

8. Badiiy g‘oya nima?

Javob: Badiiy g‘oyalar – so‘z san’atining mahsuli sifatida yaratilgan adabiyot va san’at asarlarining asosiy ma’nomazmanini tashkil etadigan, undan ko‘zlangan maqsadga xizmat qiladigan yetakchi fikrlar majmuiga aytildi.

9. Bag‘rikenglik nima?

Javob: Bag‘rikenglik – shaxs, elat, millat, xalqlarning biron bir narsaga nisbatan keng ko‘lamda, chin dildan ochiq ko‘ngillik bilan yondashishlariga aytildi.

10. Biz yot g‘oyalarga qarshi qanday kurashmog‘imiz lozim?

Javob: G‘oyaga qarshi g‘oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma’rifat bilan. Tashqi yot ta’sirlar – xatarlar, tahdidlardan har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar hayotini asrash kerak. Bunda asosiy diqqat-e’tiborni hayotning sog‘liqni saqlash, ilm olish, kasbga yo‘naltirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ma’naviyatni yuksaltirish kabi jihatlariga qaratish maqsadga muvofiq. Chunki ularning har biri inson kamoloti uchun xizmat qiladi va illatlardan himoya qiladi.

11. Bunyodkor g‘oyalar nima?

Javob: Bunyodkor g‘oyalar – jamiyat va odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari yetaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo‘lida bирgalikda harakat qilishga undovchi g‘oyalar majmuiga aytildi.

12. Buzg‘unchi mafkura nima?

Javob: Buzg‘unchi mafkura – jamiyat taraqqiyotining turli sharoitlarida ob‘yektiv zaruriy bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy munosabatlarning buzilishiga sabab bo‘ladi-gan mafkura.

13. Bo'shliq nima?

Javob: Bo'shliq (ma'naviy sohada) – bir siyosiy tizimdan boshqa bir tizimga o'tish jarayonida yoki ma'naviy-ma'rifiy ishlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmagani oqibatida yuzaga keldigan holat. Shaxs ongida bo'shliqning paydo bo'lishi uning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiylashuvining maromiga yetmagani, mustaqil tafakkurining shakllanmagani va fikr qaramligi, siyosiy e'tiqodining zaifligi, huquqiy madaniy saviyasining pastligida namoyon bo'ladi.

14. Vayronkor g'oyalar deganda nimani tushunasiz?

Javob: Vayronkor g'oyalar – inson va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuiga aytildi.

15. Vatan deganda nimani tushunasiz?

Javob: Vatan – arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida “tug'ilib o'sgan joy, ona yurt” degan lug'aviy ma'noni bildirib, kishilar ning kundalik hayotida:

- 1) kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i, yurti, maskani, uyi, diyor;
- 2) kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakati, ona yurti;
- 3) turar joyi, boshpanasi, maskani, uyi;
- 4) biron bir narsaning asli kelib chiqqan yeri, joyini ifodalash uchun ishlatiladi.

16. Vatan manfaati nima degani?

Javob: Vatan manfaati – yuksak ma'naviy tamoyillardan biri; Vatanning ozodligi va mustaqilligi, uning hududida yasha-yotgan xalqning tinchligi va osoyishtaligi, bugungi va kelajak hayotini, huquq va manfaatlarini, barcha milliy boyliklarni asrab-avaylash, boyitish va himoya qilish bilan bog'liq barcha

maqsad-vazifalarni ifoda etadigan tushuncha. Vatan manfaati milliy manfaatlarning ayni ifodasıdır. Dunyodagi har qaysi mustaqil davlatning manfaati uning hududida yashayotgan xalq uchun Vatan manfaatidir.

17. Vatan ravnaqi nima?

Javob: Vatan ravnaqi – har bir insonning o‘zi tug‘ilib o‘s-gan, yashayotgan joyi – ona Vatanini gullab yashnashi, barq urib rivojlanishi, uning husniga husn, ko‘rkiga ko‘rk qo‘sishi, osmondagi quyosh kabi porlab nur sochib turishi uchun fidokorona mehnat qilishi, zahmat chekishi natijasida uni dunyodagi eng go‘zal maskanlardan biriga aylantirish ishtiyoqida qilinayotgan g‘oyaviy fikrlar va amaliy xatti-harakatlar tushuniladi.

18. Vatanfurushlik nima?

Javob: Vatanfurushlik – Vatanga xoinlik qilish, Vatanni sotishni anglatuvchi tushuncha. Bunday harakatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: mamlakat manfaatlariiga xiyonat qilish, o‘z shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab iqtisodiy, siyosiy va boshqa jouslik faoliyati bilan shug‘ullanish, dushman tomoniga o‘tib o‘z xalqi, mamlakatiga qarshi kurash olib borish, qo‘poruvchilik ishlari bilan mashg‘ul bo‘lish va hokazo. Vatanfurushlikning mohiyati vatansizlik, Vatanidan begonala-shish kabi hodisalar bilan solishtirilganda yanada yorqin namoyon bo‘ladi.

19. Vatansizlik g‘oyasi qaysi tushuncha bilan ifodalanadi.

Javob: Kosmonolitizm

20. Vatan tuyg‘usi deganda nimani tushunasiz? Vatanparvarlikning asosiy shartlari?

Javob: Vatan ostonadan, insonning kindik qoni to‘kilgan tuproqdan boshlanadi. Kishining tug‘ilib-o‘s-gan uyi, qishlog‘i, yaqinlari – barchasi Vatan degan tushunchada mujassam. U

keng ma'noda biror xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hududni anglatadi. "Vatan" atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt degan ma'noni bildiradi. Vatan mehri avvalo insonning o'z oilasi, uyi, mahallasi hamda tug'ilib-o'sgan yurtiga mehr-muhabbatida aks etadi. Vatanga muhabbat yuksak insoniy fazilatlardan ekani ko'p zikr etiladi. Bu haqda "Vatanni sevmoq iymondandir" degan hikmatni esga olish kifoya. Vatanni sevish insonga xos tabiiy tuyg'u bo'lgani uchun Islom unga iymonning bir bo'lagi deb qaraydi. Halollik, vijdoniylilik, sadoqatlichkeit, fidokorlik, Ona yurga muhabbat, milliy g'urur tuyg'usi Vatanparvarlikning asosiy shartlaridir.

21. "Vijdon uyg'unligi" nima?"

Javob: Vijdon uyg'oqligi –inson ma'naviyatining tayanch ustunlaridan biri. Korrupsiya va jinoyatchilik jamiyat va davlatni tanazzulga olib keladigan eng xavfli illatdir.

22. Gegemonizm nima?

Javob: Gegemonizm – (yun. gegemoniya – yetakchilik, boshqarish) – turli sohalarda, jumladan, ma'naviy sohada ham ustunlik va o'z hukmiga bo'ysundirishni anglatuvchi tushunchadir. Gegemonizm mohiyatan dunyo barqarorligini ta'minlash yoki uni mustahkamlashga qaratilgan siyosatga zid hodisa bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot, jamiyat barqarorligi va xavfsizligini izdan chiqaradi. Ba'zi davlatlarning barcha sohalarda ustunlik qilish va dunyonи o'z hukmiga bo'ysundirishga intilishi insoniyat tarixinining turli bosqichlarida salbiy oqibatlarni keltirib chiqargan.

23. Geosiyosat nima?

Javob: Geosiyosat – (yun. – yer, hudud yoki davlatni boshqarish san'ati) – siyosiy atama bo'lib, davlatning tashqi va ichki siyosatining yo'nalishi, uning maqsad va vazifalariga, xususan, geografik joylashuvi, mavjud zaxiralar orqali boshqa hu-

dudlarga muayyan darajada ta'sir o'tkazishi kabilar bilan bog'liq tushunchadir. Bir qarashda, geosiyosat ma'naviyat bilan bog'liq emasdek tuyuladi. Aslida esa, muayyan mamlakat geosiyosatini yuqorida tilga olingen omillardan tashqari ijtimoiy, madaniy va ma'naviy jihatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

24. Geostrategik manfaatlar qanday?

Javob: Geostrategik manfaatlar – muayyan mamlakat yoki mintaqaning jug'rofik joylashuvi bilan belgilanadigan ehtiyoj va intilishlar in'ikosi. U istiqbolni anglash bilan bog'liq holda ro'yobga chiqadi.

25. Globallashuv nima?

Javob: Globallashuv – (lot. – Yer sayyorasi) – XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof-muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, axborot-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushunchadir. "Globallashuv" atamasi dastlab amerikalik olim tushuncha Levittning 1983-yili "Garvard biznesrevyu" jurnalida chop etilgan maqolasida tilga olingen edi.

26. Genotsid deganda nimani tushunasiz?"

Javob: (grekcha: γένος [genos] — urug‘, qabila va lotincha: cavdo — o'ldiraman) — xalqaro jinoyatlarning bir turi: irqi, millati, dini, etnik tarkibiga ko'ra, aholi guruhlarini yoppasiga yoki qisman jismonan qirib yuborishga qaratilgan harakat. BMT Bosh Assambleyasining Genotsid jinoyatlarining oldini olish va ularni amalga oshirganligi uchun jazolash to'g'risidagi konvensiyasiga (1948) ko'ra, Genotsid qattiq qoralanadi, ayb-

dor shaxslarga nisbatan xalqaro jinoiy javobgarlik belgilanadi. Bunda mazkur shaxslarning ijtimoiy mavqeい, Genotsid tinchlik yoki urush vaqtida sodir etilganligi hisobga olinmaydi. Konvensiyani imzolagan davlatlar o‘z hududlarida Genotsidni amalga oshiruvchi va unga undovchi shaxslarni jazolash bo‘yicha huquqiy me’yorlarni ishlab chiqish majburiyatini o‘z zimmalariga oladilar. Irqiy kamsitishning barcha shakllarini yo‘q qilish to‘g‘risidagi BMT konvensiyasida (1965) ham Genotsid qattiq qoralanadi. Ikkinchi jahon urushi davrida gitlerchilar Germaniyasining yahudiy millatiga mansub aholi (taxminan 12 mln. kishi)ni ommaviy qirg‘in etishi, Pol Pot va Iyeng Sari to‘dasining Kampuchiya xalqiga qarshi vahshiyona jinoyatlari (ular oqibatida 3 mln. kishi yo‘q qilib yuborildi) va h. k. Genosidning eng ashaddiy ko‘rinishi hisoblanadi.

27. Geopolitika nima va geopolitik maqsad qanday maqsad?”

Javob: Geosiyosat ijtimoiy-geografik fanlar turkumiga kiradi, siyosiy geografiyaning bir qismidir. Bu ikki fan - siyosatshunoslik va sotsiologiya kesishmasida joylashgan fandir. An‘anaviy geosiyosat, yangi geosiyosat (geoqtisodiyot) va yeng yangi geosiyosat (geofalsafa) mavjud. An‘anaviy geosiyosat davlatning harbiy-siyosiy qudratiga va davlatning “geografik aqli” bo‘lgan xorijiy hududlarni egallab olishda geografik omillarning hukmron roliga qaratilgan. Zamonaviy geosiyosiy nazariya uchun davlatlarning texnologik imkoniyatlarini (bunday nazorat shakllari: siyosiy, harbiy, iqtisodiy, sivilizatsiyaday, aloqa, demografik, axborot) hisobga olgan holda koinot ustidan nazorat shakllarini o‘rganish katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda geosiyosiy maqsadlar deyarli ustun rol o‘ynay boshladi. Geosiyosatga kamroq ta’sir o‘tkazishga qodir davlatlar o‘z maqsadlariga erishishning salbiy oqibatlari haqida o‘yaydilar. Dastlab bu fan dunyoning siyosiy tuzilishini o‘rganishga ixtisoslashgan bo‘lib, uning geografiya bilan bog‘liqligini

tushuntirgan. Endilikda geosiyosat ko‘proq global jarayonlar, masalan, super kuchlarning shakllanishi va rivojlanishi bilan shug‘ullanadi.

28. Davlat nima?

Javob: Davlat – butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv apparatiga tayanadigan, barcha uchun qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo‘lgan siyosiy tashkilotni ifodalovchi tushuncha. Davlat jamiyatning hokimiyat kuchiga, shuningdek, ijtimoiy ne’matlar hamda vositalarni taqsimlash imkoniyatlariga ega bo‘lgan qismi hisoblanadi. Har bir davlat betakror ijtimoiy hodisadir. U tarixiy va ma’naviy taraqqiyotning hosilasi, muayyan bir xalqning o‘ziga xos madaniy rivojining natijasidir. Davlat jamiyat rivojining muayyan bosqichida yuzaga kelgan ibtidoiy jamiyatda oqsoqollar, urug‘ va qabila boshliqlari hamda diniy hokimiyat sohiblariga tegishli bo‘lgan ijtimoiy hokimiyat asta-sekin davlat hokimiyatiga aylangan.

29. Davlat bayrog‘i nima?

Javob: Davlat bayrog‘i – har qanday davlatning o‘tmishi, davlatchilik an’analari, siyosiy tuzumi, iqtisodiy salohiyatini ifoda etadigan ramzlardan biri. Davlat bayrog‘i maxsus qonun bilan yoki Konstitutsiya asosida rasmiylashtiriladi. Davlat bayrog‘i mustaqil davlat va unda yashovchi fuqarolar daxlsizligining aniq ifodasıdir. Shuningdek, ayni shu davlatdagi milliy, harbiy va partiyaviy birlik hamda uyushmalarning ham ramziy belgisidir. Davlat bayrog‘i odatda bir rangli yoki ko‘prangli matodan iborat bo‘lib, uning bir tomoni dastaga mahkamlanadi. Matoga ba’zan turli emblema va belgilar tushiriladi.

30. Davlat gerbi nima?

Javob: Davlat gerbi – davlat ramzi; davlatning milliy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy xususiyatlari va davlat tuzumi, jo‘g‘rofik va boshqa belgilarini shartli ravishda ifodalaydigan

tamg‘a-belgi. Gerb davlat muhrida, rasmiy blankalarda, fuqarolik pasportlarida, muhim hujjat, pul va davlat zayomlarida aks ettiriladi. Gerbning barcha xususiyatlari maxsus qonun yoki Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yiladi. Davlat gerbining paydo bo‘lish tarixi mil. av. uch minginchi yillarga borib taqladi. Masalan, Shumer davlatining gerbida sher boshli burgut, qadimgi Rim davlatnikida burgut rasmi tasvirlangan. Davlat gerbi davlatning o‘ziga bo‘lgan ishonchini, o‘z mustaqilligini himoya etishga tayyor ekanini, bunyodkorlik maqsadlarini, davlat va jamiyat hayotining turli jihatlarini shartli rasm, belgi tarzida ifodalaydi.

31. Davlat madhiyasi nima?

Javob: Davlat madhiyasi (gimm – yunon.) – har bir davlatning maqsad-muddaolari she’riy matn va musiqa jo‘rligida tantanali marosimlarda ijro etiladigan, o‘zining qonuniy maqomiga ega bo‘lgan davlat ramzlaridan biri. Davlat gerbi shakli va ma’no-mazmunida muayyan davlatda istiqomat qilayotgan millat va elatlar, ijtimoiy guruh va tabaqalar maqsadlari hamda qarashlari aks etadi. Davlat gerbi g‘oyaviy yo‘nalishi va aks ettirish vositalari bilan boshqa musiqiy asarlardan farq qiladi. Madhiya davlat hayotining barcha sohalarida beqiyos ahamiyat kasb etib, siyosiy tashviqotning muhim vositasi hisoblanadi. Madhiyalar tantanali bayramlar, siyosiy chiqishlar rasmiy davlat qabullari, harbiy paradlar muhim me’moriy yodgorliklar – haykallarning ochilishi, muhim ahamiyatga molik mitinglar, tarixiy sanalarga bag‘ishlangan yig‘inlar, yirik baynalmilal va milliy qadriyatlarga bag‘ishlovlari, turli davlatlar boshliqlarini kutib olish va kuzatish, harbiy qasamyod qabul qilish, xalqaro olimpiada musobaqalari, kinofestivallar o‘tkazish chog‘ida ijro etiladi.

32. Davlat tili nima?

Javob: Davlat tili – har qanday davlatning tarixiy taraqqiyoti negizida vujudga kelgan, o‘zlikni anglash, milliy ong va

tafakkurning in'ikosi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'-liqlik vositasi, mamlakatda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlar yakdilligini ifoda etadigan, davlat doirasida va davlatlara-ro munosabatlarda o'zaro muloqot vositasi hisoblangan, qonuniy maqomga ega bo'lgan hamda qonun bilan himoyalangan rasmiy til. Davlat tili odatda uch yo'l bilan belgilanadi:

1) Tarixiy an'ana asosida muayyan davlat hududida istiqomat qiluvchi barcha xalqlar mavjud tillardan birini umumtil deb tan oladi. U ko'pincha shu davlatdag'i eng ko'p sonli millatning tili bo'ladi.

2) Hukumat, prezident, parlament yoki rahbar organlar tomonidan xalqaro yoki jahon tillaridan biri davlatning rasmiy tili deb e'lon qilinadi. Davlat organlari, hukumat idoralari va rasmiy tashkilotlarda yozishmalar faqat shu tilda qabul qilinadi yoki jo'natiladi, shuningdek, barcha muzokara, muhokama, majlis, sessiya, konferensiya, kongress va shu kabi yig'inlar rasmiy tilda o'tkaziladi.

3) Davlatning qonun chiqaruvchi organi yoki mamlakat prezidenti tomonidan jamiyat hayotining barcha sohalarida qo'lalanishi shart deb e'lon qilingan til.

33. Davlat boshqaruvi nima?

Javob: O'zbekistonda joriy etilgan davlat boshqaruvi prezidentlik usulining mazmun-mohiyati, asosiy tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari, Prezidentning huquqiy maqomi, vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan. Davlat hokimiyati esa qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linadi. Qonun chiqaruvchi – Oliy Majlis, Ijro etuvchi – Vazirlar Mahkamasi, Sud hokimiyati – Oliy, viloyat va tuman (shahar) sudlarini tashkil etadi. Davlat boshqaruvi va jamiyat qurilishi sohalarida tub yangilanishlar joriy etilmoqda. Yangi boshqaruv tizimi va zamonaviy tuzilmalar yaratildi. Davlat boshqaruvida ochiqlik va adolatga asoslangan, xalqparvar qarorlar qabul qilish tizimi shakllanmoqda. (Sh.

Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. 83-bet) Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, qonun ustuvorligini ta’minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Sud-huquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirish ishlari hayotga izchil tatbiq etilmoqda, sud hokimiyatining fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi rolini oshirmoqdamiz.

34. Demokratiyaning hamma xalqlar va mamlakatlar uchun yagona mutlaq andazasi mavjudmi?

Javob: Mavjud emas, chunki har bir davlat geografik joylashuvni, mentaliteti, milliy qadriyatlari jihatidan farq qiladi.

35. Demokratiyaning qanday tamoyillari bor?

Javob: Demokratiyaning – xalqning erkin xohish irodasi, hokimiyat tarmoqlarining taqsimlanganligi, fuqarolarning teng huquqli va inson huquqlarining ustuvorligi kabi tamoyillari mavjud.

36. Din nima?

Javob: Din – (arab. ishonch, ishonmoq) –

1) ijtimoiy-ma’naviy hayot hodisasi, ilohiy kuchlarga ishonch-e’tiqod asosida shakllangan g‘oya va qarashlar tizimi;

2) borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi oliy mavjudot, ya’ni Xudoga nisbatan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmuidir.

37. Daxldorlikni siz qanday tushunasiz?”

Javob: Bu insonning jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarda amaliy ishtirokidir.

38. Demokratiya nima?”

Javob: — (qadimgi yunoncha: δημοκρατία — “xalq hokimiyati”) — barcha insonlar tenglik bilan kollektiv qarorga

kelish imkoniga ega siyosiy tuzum.[1] Bu o‘zbek adabiyotidir. Demokratiyada fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o‘rnatilgan va yuzaga chiqarilgan bo‘ladi. Demokratiya davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi.

Demokratiyaning asosiy talablari ko‘pchilik hokimiysi, fuqarolar teng huquqligi, ular huquq va erkinliklari himoyalanganligi, konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, hokimiyatning bo‘linishi, davlat boshlig‘i va vakolatlari organlarning saylab qo‘yilishidir. Demokratiyaning bevosita demokratiya (asosiy qarorlar yig‘ilishlarda bevosita barcha fuqarolar tomonidan yoki referendumlar yo‘li bilan qabul qilinadi) va vakillik demokratiyasi (qarorlar saylab qo‘yiladigan organlar tomonidan qabul qilinadi) shakllari bor.

Demokratik davlatda inson manfaati, qadr-qimmati, hayoti har narsadan yuqori turadi. Bunday davlat o‘zini o‘zi boshqarish, ko‘p partiyalilik, ommaviy axborot vositalarining erkin bo‘lishi, fikrlar xilma-xilligiga sharoit yaratadi. Biroq demokratiya hamma narsada xohlagancha erkinlik emas, qonunga asoslangan erkinlikdir. Demokratiyaning ajralmas qismi intizom, qonunlarni hurmat qilish, boshqalarning haq-huquqini himoya qilishdir. Demokratiya tartibotlari huquqiy davlatda mukammal rivojlanib boradi.

39. Jadidchilik qanday harakat?

Javob: Jadidchilik – (arab. yangi) XIX asr oxiri XX asrning birinchi choragida yangi zamonaviy maktab, matbaa va taraqqiyotning ilg‘or usul va yo‘llarini yoqlab chiqqan ijtimoiy-ma’rifiy harakat. Jadidchilikni shakllantirishda ko‘plab millat ziyyolilari faol qatnashgan. Jamiyatni o‘rta asr chilik illatlari, qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi. Turkistondagi jadidchilik harakatiga Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho‘lpon, Pahlavon Niyoz Hoji, Abdulla

Avloniy, Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, “ Yosh buxoroliklar” , “Yosh xivaliklar” tashkiloti rahbarlari boshchilik qilishgan. Bu harakat o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra, XIX asr bosqlarida mavjud bo‘lgan diniy islohotchilikdan farq qiladi. Ogahiy, Nodira, Ahmad Donish, Turdi, Maxmur, Furqat, Muqimiy kabi ijodkorlar mansub bo‘lgan avlodning qarashlari asosan ma’rifatparvarlik tamoyiliga tayanar edi. Jadidlar esa na-faqat ma’rifat, balki jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish, mavjud tartiblarni o‘zgartirish yo‘lidan bordi.

40. Jamiyat nima?

Javob: Jamiyat (arab. umumiy) – tabiatning bir qismi, borliqning alohida shaklini ifodalaydigan falsafiy tushuncha; odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o‘rtasida amal qiladigan ko‘plab munosabatlar majmuasi, o‘zida moddiylik va ma’naviylikni, ob’yekтивлик va sub’yekтивликni, tabiiylik va ijtimoiylikni mujassamlashtiradigan tushuncha. Ilmiy bilimlar va falsafiy tafakkurning rivojlanishi bilan jamiyat mohiyatini ilmiy asosda o‘rganish imkoniyati vujudga kelgan. Vatanimizdan yetishib chiqqan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy singari ulug‘ mutafakkirlar jamiyatning paydo bo‘lishi, mohiyati va istiqbollari to‘g‘risida ilg‘or ilmiy qarashlarni ilgari surganlar. Bu borada Farobiyning fozil jamiyatni barpo etish to‘g‘risidagi g‘oyalari, Ibn Sinoning jamiyatning paydo bo‘lishi kishilarning birdamlikka bo‘lgan tabiiy ehtiyojidan kelib chiqqanini, mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi jamiyat taraqqiyotining asosi ekani haqidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi.

41. Jadidchilik harakati poydevori?

Javob: Jadid maktablari

42. Ijtimoiy davlat qanday davlat?

Javob: Ijtimoiy davlat – jamiyat a’zolarining muntazam ravishda o‘sib boradigan sog‘lom ijtimoiy ehtiyojlarini qon-

dirib boradigan, aholi turli qatlamlarining mamlakat ravnaqi yo‘lidagi ijtimoiy mo‘ljallarini quvvatlaydigan, jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlagan davlatdir. Bunday davlatning xususiyatlari Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida quyidagicha asoslangan: “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – fuqarolarning mamlakat ijtimoiy – siyosiy hayotidagi ishtirokini kengaytirish, ularning orzu-tilishlarini ro‘yobga chiqarish, ilg‘or tashabbuslarni amalga oshirish, hayotiy muammolarni hal etish, turmush darajasini yuksaltirish, mustaqil ravishda o‘z moddiy farovonligini oshirishi uchun yetarli va zarur sharoitlarni yaratish deganidir” . Ijtimoiy davlat jamiyatning har bir a’zosidan ijtimoiy faollikni, siyosiy jihatdan bilimdonlikni, tarbiyaviy tomondan kuchli e’tiqodni talab etadi. Shuning uchun bugun har bir fuqaroning shaxsiy tashabbuslari, fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy harakatlari keng qo‘llab-quvvatlanmoqda. Qator harakat, tashabbuslar paydo bo‘lmoqdaki, ular, shubhasiz, bugun O‘zbekistonda ijtimoiy davlatni barpo etish, jamiyatda yangi ma’naviy makonni yaratishdagi dadil qadamlar, deyishimiz mumkin.

43. Ijtimoiy sheriklik nima?

Javob: Ijtimoiy sheriklik – bu davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjalarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir. Shuningdek, davlat organlari va fuqarolik jamiyatni institutlari ijtimoiy sheriklik sub’yektlari hisoblanadi.

44. Indikator so‘zining ma’nosи?

Javob: Indikator – so‘zi lotincha “indicator” degan so‘z dan olingan bo‘lib, “ko‘rsatkich”, “mezon” degan ma’nolarni

bildiradi. U aslida texnik termin bo‘lib, keyinchalik boshqa sohalarda ham qo‘llanila boshlagan. Hozirgi davrda jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini aniqlash maqsadida ham bir qancha mezonlar ishlab chiqilgan. Bunda amalga oshirilayotgan taktik maqsadlar qay darajada strategik maqsadga mos kelayotganligining muhim ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

45. Inson qadri tushunchasiga izoh bering?

Javob: Inson qadri – ulug‘vor, keng, serqatlam, mazmun-mohiyati ulkan tushuncha bo‘lib, inson bu dunyoda o‘z qadriga ega bo‘lib yashagandagina to‘laqonli hayot kechiradi, inson bo‘lib yashaydi. Mamlakatimiz rahbari o‘z nutqida bu tushunchani yanada yorqinroq va yanada ko‘lamliroq ifodaladi: “Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’milashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatlari ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz” .

46. Ijtimoiy-ma’naviy muhit nima?

Javob: Jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhit – keng ma’noda odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarishdagi munosabatlari, ijtimoiy-ma’naviy ongni belgilovchi omillar maj-mui (makromuhit). Tor ma’noda, inson bevosita yashaydigan, mehnat qiladigan oila va jamoa, o‘quv dargohi, ma’naviyat va madaniyat maskanlarini o‘z ichiga oladi (mikromuhit). Demak, bugungi kunda jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma’naviy muhit sog‘-lommi yoki nosog‘lommi degan masala bizni o‘ylantirmoqda. Sog‘lomlik darajasini qanday aniqlaymiz, sog‘lomlashtirish mexanizmini yaratilishi zarurmi kabi savollarga mutaxassislar o‘z javobini berishi kerak. Chunki bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy muhitiga yuqorida keltingan illatlarning ta’sida odamlar o‘rtasida ziddiyatlar kelib chiqishi ehtimoli yuqori.

47. Insonparvarlik g‘oyasi deganda nimani tushunish lozim?

Javob: Insonparvarlik – bu insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to‘g‘risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g‘amxo‘rlik qilishni ifodalovchi g‘oyadir. Ushbu g‘oyaning mohiyatiga ko‘ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilar haqida g‘amxo‘rlik insonparvarlikning asosiy masalasidir.

48. Ilmiy g‘oyalar deb qanday g‘oyalarga aytildi?

Javob: Fan taraqqiyotining samarasi, uning asosiy tamoyillari, ustuvor qoidalarini tashkil qiladigan ilmiy fikrlardir.

49. Konferensiya nima?

Javob: Konferensiya – muayyan mavzuni muhokama qilish uchun tashkilot, mutaxassis, taniqli insonlar ishtirokida o‘tkaziladigan tadbir. 39 Konferensiyada ishtirokchilar uchun tavsiyalar berilib, so‘ngida qaror qabul qilinadi. Xalqaro konferensiylar esa bu ko‘p tomonlama diplomatik muzokaralarni qamrab olgan tadbirdir. Ilmiy jarayonlarda konferensiya akademik masalalarni muhokama qiladigan, sohadagi muammolarga yechim beradigan yoki tadqiqotchi olimlar o‘z ishlarini taqdim etadigan yig‘ilish sanaladi. Konferensiya format jihatidan kattaroq yig‘ilish bo‘lib, odatda u kengroq muhitda bir necha kun davomida bo‘lib o‘tishi mumkin. Konferensiya bir qator tadbirlar (forumlar, seminarlar, hisobot taqdimotlari, debatlar) ni o‘z ichiga olishi mumkin.

50. Konsepsiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi va umumiyy ma’noda qo‘llanilishi?

Javob: Konsepsiya – lotincha “concepsio” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida “to‘plash, birlashtirish”, “majmua”, “tizim” tarzida so‘zma-so‘z tarjima qilinsa-da, “qarashlar, fikr-

lar yo‘nalishi tizimi; fikr yuritish, dunyoni tushunish, anglash usuli” ma’nosini beradi, ya’ni, biror sohaga oid qarashlar, tamo-yillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazari.

51. Korrupsiya nima?

Javob: Korrupsiya bu — jamiyatni turli yo‘llar bilan is-kanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari bузilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to‘sinqilik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kam-bag‘al bo‘lishidan qat’iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi.

52. Mafkura nima?

Javob: Mafkura (arab. – fikrlar majmui) – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlatning manfaatlari, orzulari, maqsadlari ifodalangan qarashlar va ularni amalga oshirish tizimidir. Unda manfaatlari ifodalanayotgan guruh va qatlamlarning o‘tmishi, bugungi kuni va istiqboli o‘z ifodasini topadi. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Insoniyat tarixida turli-tuman mafkuralar bo‘lgan. Turli xalqlar va ijtimoiy kuchlarning g‘oyaviy rahnamolari, mutafakkir va arboblari o‘z-larining 40 manfaat va maqsadlaridan kelib chiqib mafkuraviy ta’limot va dasturlar ishlab chiqqan. Mafkura quyidagi vazifalar ni o‘z oldiga qo‘yadi: – muayyan g‘oyani odamlarning ongiga va ruhiyatiga singdirish;

- aholining turli guruhlarini birlashtirish;
- ko‘zlangan maqsad va niyatlarga erishish uchun odamlarni safarbar etish; – ularni ma’naviy-ruhiy rag‘batlantirish;
- aholini, ayniqsa, yosh avlodni g‘oyaviy tarbiyalash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

– boshqa mafkuraviy va g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilish va shular kabilar

53. Mafkura qanday yaratiladi?

Javob: Mafkura – muayyan falsafiy, diniy ta’limotlar asosida yaratiladi hamda ma’lum ilmiy qarashlar, axloqiy tamoyillarga tayanadi.

Mafkura o‘z mohiyati va ta’sir kuchiga ko‘ra, jamiyatni birlashtirishi yoki uni bir-biriga qarama-qarshi taraf larga bo‘lib yuborishi, davlatning jahondagi obro‘ va mavqeini oshirishi yoki tushirishi, xalqlarni yuksaklikka ko‘tarishi yoki tanazzulga duchor etishi mumkin. Yuksak maqsadlar, bunyodkor g‘oyalarga asoslangan mafkura ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo‘ladi, ma’naviyatni yuksaltiradi, insonlarni ulug‘vor ishlarga safarbar etadi. Ozodlik, erkinlik, mustaqillik, inson qadri, tinchlik, insonparvarlik, hamkorlik g‘oyalari asosida shakllangan, ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkura bunyodkorlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Hukmronlik, mustabidlik, tajovuzkor, bosqinchilik, ekstremistik, aqidaparastlik g‘oyalari asosida shakllangan, millat va xalqlarni asoratga soladigan mafkura vayronkorlik xususiyatiga egadir.

54. Mafkuraviy immunitet deganda nima tushuniladi?

Javob: Mafkuraviy immunitet – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g‘oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimidir.

55. Mafkuraviy plyuralizm – nima?

Javob: Mafkuraviy plyuralizm – turli qatlam, partiya, guruhlar manfaatlarini ifodalovchi g‘oyalari, qarashlar, fikrlar xilma-xilligidir.

56. Mafkuraning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?

Javob: Muayyan tizimga solingan (ilmiy, falsafiy, diniy va boshqa tomonidan asoslangan) g‘oyalari, kategoriylar, tamoyillar

majmui. Mafkuradagi g‘oyalar, kategoriylar va tamoyillarni jamiyatga tatbiq etuvchi sub‘yektiv omillar (mafkuraviy muassasalar va mafkurachi shaxslar). G‘oya va kategoriyalarni jamiyatga tatbiq etish jarayonida qo‘llanilgan yo‘llar, usullar va vositalardir.

57. Mafkuraviy xavfsizlik degani nima?

Javob: Mafkura, g‘oya har qanday jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi. Chunki mafkura mavjud bo‘lmasa, har qanday jamiyat o‘z tanlagan yo‘lini yo‘qotishi mumkin. Qayerda mafkuraviy bo‘shliq vujudga kelsa, o‘sha yerda begona mafkura hukmronlik qiladi.

58. Mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik – u qanday tushuncha?

Javob: Mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik – davlat tuzilmalarida tor guruhchilik manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yadigan uyushmalardir.

59. Ma’naviy barkamol inson deganda qanday odamni tushunish mumkin?

Javob: Ma’naviy barkamol inson – deganda, milliy va umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarni chuqur egallagan va unga amal qilgan ziyoli shaxs tushuniladi.

60. Ma’naviy buzg‘unchilik - nima degani?

Javob: Ma’naviy buzg‘unchilik – umuminsoniy va milliy axloq, qadriyat, madaniyat, din va tarbiya asoslariga zid bo‘lgan, inson shaxsining tubanlashuvi, ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy meyorlarga rioya etmaslik, inkor etish yoxud ularning ildizlarini yemirishga qaratilgan yovuz xatti-harakatlarni anglatuvchi tushunchadir.

61. Ma’naviy meros nima?

Javob: Ma’naviy meros – ma’naviy taraqqiyot mahsuli, inson aql-zakovati bilan yaratilgan. Kelajak avlodni ezgu ta-

raqqiyot sari yetaklash xususiyatiga ega bo‘lgan. Kishilarning ongi va dunyoqarashining o‘sishi, olamni bilish va o‘zlashtirish borasidagi sa’y-harakatlariga kuch-quvvat beradigan ajdodlaridan avlodlarga o‘tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmuini ifodalaydigan tushuncha.

62. Ma’naviy qaramlik degani nimani anglatadi?

Javob: Ma’naviy qaramlik – inson va jamiyat ongu tafakkurining bo‘ysundirilishi, qaram etilishi, ma’naviy tamoyillarning zaiflashuvi, mustaqil rivojlantirish imkoniyatlarining cheklangani, taraqqiyotdan ortda qolish, o‘zgalarning g‘oyaviy-mafkuraviy tazyiqi oqibatida sodir bo‘ladigan salbiy holat va jarayonni ifodalovchi tushuncha.

63. Ma’naviy tahdid nima?

Javob: Ma’naviy tahdid – insonning qalbiga, ichki olamini tubdan o‘zgartirishga, inson qalbi va hissiyotlarini egallashga qaratilgan tahdiddir.

64. Ma’naviy tarbiya deganda qanday tarbiya tushuniladi?

Javob: Ma’naviy tarbiya – yuksak ma’naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma’naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushunchadir. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy xususiyatlarini tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta’minlaydigan qadriyatdir.

65. Ma’naviyat - nima?

Javob: Ma’naviyat – so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, ma’ni, ma’no degan tushunchalarni beradi va insonning ichki olami tuzilmasini, siyratini ifoda etuvchi tushuncha hisoblanadi.

66. Ma’naviyatimiz uchun eng katta xavf – bu?

Javob: Aksariyat odamlardagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganligida.

67. Ma’naviyatli shaxs qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?

Javob: Ma’naviyatli shaxs – deganda qonun ustuvorligiga,adolat prinsiplariga amal qiladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga tayanadigan, insoniylikni qadrlaydigan, o‘zligini anglagan, inson qadr-qimmatini eng oliv qadriyat deb biladigan, qalban uyg‘oq, mustaqillik tafakkuriga, intellektual salohiyatga ega bo‘lgan insonni tushunish mumkin. Shaxsning eng muhim belgilardan biri, uning o‘zini u yoki bu millatga mansubligini va fuqaroligini anglab yetishidir. Ya’ni, o‘zini muayyan millatga mansubligini his etishi orqali milliy o‘zligini anglashi, millat manfaatlarini tushunib yetishidir.

68. Ma’rifat nima?

Javob: Ma’rifat – (arab. – bilish, ma’lumot, tanish, tanishish) – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi bilimlar, ma’lumotlar, ta’lim-tarbiya va maorif tizimi majmuini ifodalovchi tushunchadir. Tor ma’noda ma’rifat bilimli, ma’lumotli, ma’naviyatli insonga nisbatan qo’llanadi. Keng ma’noda kishilarning bilimi madaniyatini oshirishga qaratilgan maorif va ta’lim-tarbiyaga ham ma’rifat deb qaraladi.

69. Mentalitet nima degani?

Javob: Mentalitet – (lot. – aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darjasasi, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan, ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvatini ifoda etuvchi tushuncha hisoblanadi.

70. Milliy mafkura nima?

Javob: Milliy mafkura – ijtimoiy mafkura shakllaridan biri, muayyan millatning etnosotsial birlik sifatida mavjudligi va rivojlantirishi, erkin va ozod taraqqiyotini asoslash, ta'minlashga qaratilgan g‘oyaviy-nazariy qarashlar tizimidir. Milliy mafkurani faqat bir millat yoki xalqning mafkurasi deb tushunish to‘g‘ri emas. U muayyan davlat yoki jamiyatning umumiyligi mafkurasi ham bo‘lishi mumkin. “Milliy” tushunchasi nafaqat muayyan etnik birlik, balki “davlat” ma’nosini ham ifodalash uchun xizmat qiladi.

71. Milliy g‘urur nima?

Javob: Biror millat vakilining millatga tegishli bo‘lgan madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar, milliy qahramonlar, tarixiy shaxslar mavjudligidan mamnunlik hissiyotlaridir.

72. Milliy g‘urur deganda nima tushuniladi?

Javob: Milliy g‘urur – shaxs, ijtimoiy guruhning muayyan millatga mansubligidan faxrlanish hissi. Bu tuyg‘u o‘zini o‘zi anglash shakllaridan biri bo‘lib, ajdodlar qoldirgan moddiy, ma’naviy meros, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shigan hissasi, qadr-qimmati, obro‘-e’tiboridan faxrlanish hissini ifodalaydi.

73. Milliy ong nima?

Javob: Faqat biror millatga xos bo‘lgan milliy ruhiyat, kayfiyat, tuyg‘ular, qarashlar, nazariyalar va g‘oyalilar majmuasidir.

74. “Milliy-ma’naviy qadriyatlar” deganda nima tushuniladi?

Javob: Muayyan millatga tegishli bo‘lgan barcha axloqiy, diniy, badiiy, huquqiy, siyosiy, ma’naviy meros.

75. Mustaqillikning ma’naviy zaminlari deganda nimalar tushuniladi?

Javob: Mustaqillikning ma’naviy zaminlari quyidagilar: milliy ong; milliy his-tuyg‘u; milliy bardamlik; milliy o‘zligini anglash va boshqalar.

76. Ma’naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlarni sanab o‘ting. Ularning qaysilaridan faoliyatningizda foydalanasiz?

Javob: Inson ongiga ta’sir ko‘rsatadigan, uning dunyoqarashi, tafakkur tarzini muayyan yo‘nalishga soladigan, o‘zgartiradigan, jamiyat, millatga xos ma’naviy, madaniy va moddiy asoslar, an’analar, qadriyatlar, meros, turmush tarzi, g‘oyalar va qarashlarni umumlashtiruvchi tamoyillar.

77. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik yo‘nalishida qanday vazifalarni amalga oshiradi?

Javob: Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va ishchi (ekspert) guruqlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va ma’naviy tahdidlarning mohiyatini va aholining turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganib borish vazifalarni amalga oshiradi.

78. Mafkurani kishilar ongiga singdiruv yo‘llari qanday amalga oshiriladi?

Javob: Ta’lim-tarbiya, targ‘ibot-tashviqot, darsliklar, o‘quv qurollari.

79. Milliy o‘zlik nima?

Javob: Milliy o‘zlikni anglash insonning qaysi xalq vakili ekanligini, ulug‘ avlod-ajdodlari, ularning insoniyat taraqqiyotiga qo‘sghan hissasini anglashi, qolaversa, o‘z ota-bobolari, ajdodlari shajarasi, nasl-nasabini bilishni anglatadi. Milliy o‘zlikni anglash - o‘z millati, xalqining urf-odatlari, an’analarini

bilish va undan faxrlanish demakdir. Millatning o‘z-o‘zini anglashi esa o‘z erki va ozodligiga ega bo‘lgan, o‘zgalarga qaram bo‘lman millat sifatida jahon hamjamiyati orasida obro‘-e‘tiborga ega ekanligi, xalqaro munosabatlarda o‘z manfaatlarini himoya qila olish salohiyati bilan belgilanadi.

80. Ma’naviyat va ma’rifat nima? Ularning farqini tushuntirib bering?

Javob: Ma’naviyat — inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Ma’naviyat atamasining asosida “ma’no” so‘zi yotadi. Ma’lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo‘y-basti, ko‘rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqalar kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istiklari, intilishlari, his-tuyg‘ularini o‘z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma’naviyatdir.

Ma’rifat — kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmuasini ham bildiradi. Ma’rifat ilm-u urfon ma’nosida ham ishlataladi. Ma’rifat tushunchasi madaniyat, ma’naviyat tushunchalari bilan bog‘liq. Ma’rifat ma’naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo‘lishga yordam beradi. Ma’rifat li kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo‘ladi. Ma’rifat — bilim va madaniyatning qo‘shma mazmuni bo‘lib, maorif uni yoyish vositasidir. Ma’rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi.

81. Milliy mafkura va milliy g‘oya nima? Ularning farqini tushuntirib bering?

Javob: Milliy mafkura – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad va mudodaolari vazifalari, orzu intilishlari hamda ularni amalga oshirish

tamoyillarini o‘zida mujassam etadigan g‘oyalar tizimidir.

Milliy g‘oya – inson jamiyat hayotiga ma’no mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir.

82. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining yig‘ilishi Respublika kengashi raisidan boshqa yana kimlar o‘tkazish huquqiga ega?

Javob: Respublika Kengashi raisining o‘rinbosari (O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri).

83. Nodavlat notijorat tashkilotlar deganda qanday tashkilotlar tushuniladi?

Javob: Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyorilik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqaradigan tashkilotidir.

84. Radikalizm nima?

Javob: Radikalizm – (lot. – ildiz) – siyosiy tuzum va ijtimoiy inshootlarni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan g‘oya va harakatlarni ifodalovchi siyosiy-diniy oqimdir. Radikalizm umume’tirof etilgan an’analarga butunlay zid munosabatda bo‘lib, keskin harakatlarni yoqlab chiqadi. Tarixda bu atama mo‘tadil islohotlar tarafdarlariga nisbatan ham qo‘llanilgan.

85. Renessans nima? Nega Uchinchi Renessans deyilmoqda?

Javob: “Renessans” – so‘zi fransuzcha “qayta tug‘ilish” degan ma’noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san’atda, ta’lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi

sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o‘rta asrlar mutaassibligidan keyin XV–XVI asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo‘llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o‘zbek tilida Uyg‘onish davri deb yuritiladi. Mustaqillikka erishgandan keyin dastlab milliy tiklanish bilan shug‘ullanishga to‘g‘ri keldi. Endilikda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o‘tish jarayonida, uchinchi Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib qo‘ydi. Haqiqatan tarixan olganda biz ikki Renessansni boshdan kechirdik: birinchisi IX–XII asrlar, ikkinchisi XIV asr oxirgi choragi – XVI asr birinchi choragi. Birinchi Renessansda yurtimizdan Farg‘oniy, Xorazmiy, Farobi, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar – Buxoriy, Termiziyy, mutakallimlar – Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritdi. Ikkinci Renessansda – Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod, buyuk me’morlar, bastakorlar, musavvirlar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdi. Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlar qatorida edik. Ushbu tarixiy 50 an’anani davom ettirish maqsadida mamlakatimizdagi amalga oshirilayotgan barcha islohotlar Uchinchi Renessans poydevorini yaratish va mustahkamlashga qaratilmoqda. Yer yuzidagi ba’zi xalqlargagina nasib etadigan bunday yuksak ko‘tarilish va taraqqiyot zamonlarining o‘ziga xos Uyg‘onish ya’ni Renessans davri, deb atalishining sababi ham shunda. Bu davrlarning odamlarni bir maqsad yo‘lida birlashtiradigan va safarbar etadigan qudratli g‘oyasi, taraqqiyot tamoyillari borligi ham ayni haqiqat. (Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. 5-bet)

86. Strategiya so‘zining lug‘aviy ma’nosи va qo‘llanilishi.



Javob: “Strategiya” – so‘zi yunoncha “strategos” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “generalning san’ati” ma’nosini bildiradi. XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Strategiya – deb, dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga keladigan vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o‘zaro bog‘liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko‘plab tushunchalarda ifodalanadi. Shuningdek, strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat, strategiya va taktika – strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog‘liq uchta mustaqil kategoriyadir. Ularning farqi shundan iboratki, strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qabul qilingan bo‘lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan ob’yektning mayog‘iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarни va ularning yechimi bo‘yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat – bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir.

87. Senat so‘zining lug‘aviy ma’nosi?

Javob: Senat lotincha – qariyalar kengashi degan ma’nlarni anglatadi.

88. Tahdid nima?

Javob: Tahdid – inson, jamiyat va davlat hayoti hamda faoliyatiga nisbatan muayyan davr mobaynida aniq maqsadga yo‘naltirilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va umumsayyoriy salbiy omillarning tajovuzi tufayli aniq makon va zamonda vujudga keladigan xavf-xatar shakli, muayyan beqaror siyosiy-ijtimoiy va tarixiy vaziyatni ifodalovchi tushunchadir.

89. “Uchinchi Renessans” tushunchasining milliy g‘o-yaga bog‘liqligi nimada?

Javob: Milliy g‘oya aslida muayyan xalqning oliy istiqbol maqsadini bir nechta so‘zlarda yoki iborada mujassam 55 ifodalovchi tushunchalar yoki shior, iboradir. U xalqni o‘sha maqsad yo‘lida birlashtiradi, safarbar etadi. Xalq barcha sa'y-harakatlarini, intilishlarini, bунyodkorlik faoliyatini unga muvofiqlashtiradi. Zarur bo‘lsa, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarini, mamlakatning huquqiy, siyosiy, mafkuraviy asoslarini, ta’lim-tarbiya tizimini chuqur isloh qiladi. Milliy g‘oyaning asosiy vazifalaridan biri, xalqning jipsligini, birligini, mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash va mustahkamlashdir. Ikkinchidan, millatning oliy maqsadini, rivojlanish marralarini, mo‘ljallarini umumiy tarzda aniqlaydi. Milliy g‘oya joriy vazifalarni emas, balki strategik oliy maqsadni ifodalaydi. Shu ma’noda Uchinchi Renessans g‘oyasi istiqbolga intilishga juda mos keladi. Mazkur g‘oyaning safarbarlik kuchi, umuman, mafkuraviy salohiyati juda yuqori. Ayni chog‘da o‘tmish tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdodlarimizning bунyodkorlik va ijodkorlik salohiyati bilan bog‘lanadi. Bizga mazkur tushuncha kimlarning vorislari ekanimizni eslatib turadi.

90. “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” degan g‘oya qanday maqsadni ko‘zlaydi?

Javob: “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” degan ulug‘ maqsad davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini kompleks rivojlantirishni nazarda tutadi.

91. Yangi ma’naviy makon nima?

Javob: Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Mening nazarimda, u – biz orzu qilayotgan yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir”. Haqiqatan ham, bugungi yangilanayotgan O‘zbekistonda barcha sohalarda kechayotgan islohotlar 56 taqdiri, milliy taraqqiyotimiz jamiyatning ma’naviy qiyofasiga bog‘liq. Biz bugun yaratayotgan yangi ma’naviy makon qachon o‘z natijasini ko‘rsatadi? Qachonki biz tafakkurdagi hafsalasizlik, ma’naviy hayotdagi mudroqlik, o‘z

shaxsiy maqsadlarimizni jamiyat ijtimoiy mo'ljaliga uyg'unlash-tirishdagi no'noqligimizni bartaraf etsakkina bunday makonga ega bo'lamiz.

92. Yangi O'zbekiston orzusi.

Javob: Har bir xalqning o'z orzu-istiklari bo'ladi. Kelajak uchun rejalar tuzadi. Mana shu orzusi bilan harakatlanadi. Dunyoning eng rivojlangan davlatlarining orzularini mujassam etgan umummilliy harakatlantirish g'oyasi sifatida yillar mobaynida davom etib kelmoqda. Masalan, "Amerika orzusi" , "Yaponiya orzusi" kabilarda ko'rishimiz mumkin. Demak, Yangi O'zbekiston orzusi ham, jahondagi milliy taraqqiyot g'oyalarini o'zida jamlagan boshqa ijtimoiy hodisalar kabi, asrlar davomida shakllanib kelmoqda. Bugungi kundagi Yangi O'zbekistonning orzusi: ma'rifatli jamiyatni barpo etish, har sohada jahon ommasi oldida yuksak yutuqlarga erishish, xalqning erkin va farovon yashashi, yurtning tinch-totuv bo'lishi, millatlararo totuvlikni ta'minlash kabilardir. (Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. 14-bet)

93. Yangi O'zbekiston fenomeni.

Javob: Fenomen so'zi – (yunoncha) "sodir bo'lmoq, ko'r-satmoq" ma'nolarini anglatadi. Ya'ni nooddiy hodisa, noyob fakt, tushunish qiyin bo'lgan holat mazmunini tashkil etadi. Muayyan xalq yoki davlat hayoti uchun g'oyat muhim ahamiyat kasb etadigan biror-bir fenomen yoki u haqidagi tushuncha va tamoyillar o'z-o'zidan, osongina paydo bo'lmaydi va tasodifan dunyoga kelib qolmaydi. 57 Shu ma'noda, har qanday hodisa, tushuncha yoki atamaning o'ziga xos shakllanish jarayoni bor. Yangi O'zbekiston fenomeni ham bundan mustasno emas. Ushbu tushuncha mamlakatimizning zamonaviy qiyofasini shakllantirish, yurtimizda demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi islohotlarimizning tayanch g'oyasini ifoda etadi. Ana shu g'oya asosida yurtimizda "Yangi O'zbekiston – Uchinchi

Renessans sari” degan shior ilgari surilayotgani ham bejiz emas. Biz orzu qilgan va qat’iy intilayotgan Yangi O‘zbekiston, avvalo, xalqimiz o‘z milliy taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘yganini, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallayotgani, bu borada oldimizda ko‘plab yangi imkoniyatlar paydo bo‘layotganini anglatadigan tushunchadir. (Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. 25-bet)

94. “Forum” – bu qanday tadbir va uni o‘tkazishdan maqsad nima?

Javob: Forum – mintaqaviy yoki global muammolarni aniqlash va muhokama qilish uchun o‘tkaziladigan tadbirdir. Forumning asosiy maqsadi – bu muhokama. Ya’ni, forumni muhokama, mushohada maydonchasi deb atash mumkin. Forumda mavzuga oid g‘oyalar ko‘tarilib, fikr almashiladi. Bu tushuncha mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa ko‘plab sohalarida qo‘llanadi. Odatda, forum rasmiy va norasmiy tarzda, asosan erkin formatda bo‘lib, unda har kim o‘z fikrini bildirishi mumkin.

95. Fuqarolik jamiyati nima?

Javob: Fuqarolik jamiyati – jamiyat taraqqiyotining avvalgi bosqichlarida davlat hokimiysi organlari bajarib kelgan bir qancha vazifalarni jamoat tashkilotlari zimmasiga o‘tishi, davlat faoliyati ustidan ijtimoiy nazorat o‘rnatalishidir.

96. Fuqarolarga psixologik bosim o‘tkazishga urinish o‘z ichiga nimalarni qamrab oladi?

Javob: Mish-mishlarni tarqatish, nosog‘lom kayfiyat tug‘-dirish, turli ijtimoiy guruuhlar orasida dushmanona kayfiyatlarni – millatchilik, rasizm, diniy ekstremizm va fanatizmni yuzaga keltirish.

97. Hozirgi davrda mafkuraviy jarayonlar qanday xususiyatlarga ega?

Javob: Interfatsiyalashish, globallashish, differensiyalashish; 60 demokratiyalashish, milliy chegaralar qilib qo‘ymaslik, insonparvarlashish; jamiyat hayotining hamma sohalariga ta’sir ko‘rsatish, siyosiyashish.

98. Huquqiy madaniyat – tushunchasi nimani anglatadi?

Javob: Huquqiy madaniyat – muayyan jamiyatda mavjud huquq normalariga, qonun-qoidalariga, tartibga bo‘lgan munosabat va unga amal qilinishini anglatadi.

99. O‘zbekiston samarali parlamentarizm instituti faoliyati qanday?

Javob: Oliy Majlis – qonun chiqaruvchi organ hisoblanib, u yuqori va quyi palatalarga bo‘linadi. Oliy Majlis qonunlar muhokamasiga keng xalq ommasini jalb qilish, buning uchun zamoniaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, jumladan, Internet tarmog‘ida maxsus “maydon” lar tashkil etilmoqda. Oliy Majlisdagi qonunlar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri internet tarmog‘i orqali uzatilmoqda. Oliy Majlis huzurida Qonunchilik muammolarini va parlament tadqiqotlari institutini parlamentning istiqbollari reja va dasturlari ni ishlab chiqadigan, bu jabhadagi turli takliflarni tahlil qiladigan va zarur tavsiyalar beradigan ilmiy markazga aylantirilmoqda.

100. Hayotdan rozilik deganda nimani tushunasiz?

Javob: Insonlar xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan xursandlik,baxtlilik, shukronalik, minnatdorlik, mamnunlik va ko‘ngli to‘qlik kabi fazilatlar.

101. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti amalda qanday Kengashlarga raislik qiladi.

Javob: Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi.

IX BOB. Muhim va foydali ma'lumotlar

Mustaqillik yilnomasi

- 1991 – “Alisher Navoiy” yili.
1992 – “Hamshiralar” yili.
1993 – “Ahmad Yassaviy” yili.
1994 – “Mirzo Ulug‘bek” yili.
1995 – “Abu Ali Ibn Sino” yili.
1996 – “Amir Temur” yili.
1997 – “Inson manfaatlari” yili.
1998 – “Oila” yili.
1999 – “Ayollar” yili.
2000 – “Sog‘lom avlod” yili.
2001 – “Onalar va bolalar” yili.
2002 – “Qariyalarni qadrlash” yili.
2003 – “Obod mahalla” yili.
2004 – “Mehr-muruvvat” yili.
2005 – “Sihat-salomatlik” yili.
2006 – “Homiylar va shifokorlar” yili.
2007 – “Ijtimoiy himoya” yili.
2008 – “Yoshlar” yili.
2009 – “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi” yili.
2010 – “Barkamol avlod” yili.
2011 – “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” yili.
2012 – “Mustahkam oila” yili.
2013 – “Obod turmush” yili.
2014 – “Sog‘lom bola” yili.
2015 – “Keksalarni e’zozlash” yili.
2016 – “Sog‘lom ona va bola” yili.
2017 – “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari” yili.
2018 – “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo’llab- quvvatlash” yili
2019 – “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili.

2020 – “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish” yili.

2021 – “Yoshlarni-qo’llab-quvvatlash va aholi-salomatliklarini himoya qilish” yili.

2022 – “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla” yili.

2023 – “Inonga e’tibor va sifatlari ta’lim” yili.

2024 – “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash” yili.

Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari

- 1991-yili Navoiy tavalludining 550-yilligi keng nishonlandi. Pushkin nomidagi Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi.

- 1991-yil 18-noyabr - “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

- 1992-yili Sharof Rashidov tavalludining 75-yilligi nishonlandi.

- 1992-yil 14-yanvar - O‘zbekiston Parlamentining “O‘zbekiston hududida joylashgan harbiy qismlar va qo‘sishnlarni o‘z tasarrufiga olish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi va shu asosda O‘zbekistonning o‘z qurolli kuchlari tashkil etildi.

- 1992-yil 2-mart – O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti a’zoligiga qabul qilindi.

- 1992-yil 2-iyul – “O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

- 1992-yil 10-dekabr – “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

- 1993-yili Bahouddin Naqshband tavalludining 675-yilligi nishonlandi.

- 1994-yil 5-may –“O‘zbekiston Qahramoni” unvoni, “Oltin yulduz” medali, “Mustaqillik”, “Do‘stlik” ordenlari, “Jasorat”, “Shuhrat” medallari ta’sis etildi.
- 1994-yil 1-iyul – O‘zbekiston Respublikasining Milliy valyutasi - “So‘m” muomalaga kiritildi.
- 1995-yili Toshkent davlat universiteti (O‘zMU) ning 75-yilligi tantana qilindi.
- 1995-yilda Najmiddin Kubroning 850-yilligi nishonlandi.
- 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660-yilligi O‘zbekistonda va jahonda katta tantana qilindi.
- 1997-yilda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500-yillik yubileyi o‘tkazildi.
- 1998-yil 23-oktabrda Imom al-Buxoriyning 1225-yilligi tantana qilindi.
- 1998-yil 24-oktabrda Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200-yilligi nishonlandi, haykali ochildi.
- 1999-yil 5-noyabrda Xorazmda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800-yilligi tantana qilindi, haykali ochildi. 1999-yil 6 noyabr kuni Termizda “Alpomish” dostonining 1000-yilligi keng nishonlandi.
- 2000-yili Islom olamining ulug‘ huquqshunosi Burhoniddin Marg‘inoniyning 910-yilligi va benazir alloma Abu Mansur Moturidiyning 1130-yilligi keng nishonlandi. Imom Buxoriyning to‘rt jilddan iborat, Imom Termiziyning bir jildli hadis kitoblari chop etildi. Qur’oni Karim sakkiz marta, jami bir million nusxada nashr etildi.
- 2000-yil – Namanganda uch bosqichdan iborat uzlucksiz tizim - “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” sport o‘yinlari tarkibiga kiruvchi talaba-yoshlarning birinchi “Universiada-2000” o‘yinlari bo‘lib o‘tdi.
- 2001-yili Qur’oni Karimning izohli tarjimasi shayx Abdulaziz Mansur tomonidan tayyorlandi va chop etildi.

- 2001-yilda hazrat Alisher Navoiyning 560-yilligiga bag‘ishlangan tantanalar o‘tkazildi.
- 2001-yilda Xorazmda “Avesto” kitobining 2700-yilligi keng nishonlandi. “Avesto” kitobi ilk marotaba o‘zbek tiliga tarjima qilindi va nashr etildi.
- 2002-yilda Termiz shahrining 2500-yilligi, Shahrisabzining 2700-yilligi YUNESKO ishtirokida katta bayram qilindi.
- 2003-yilda Abdulkoliq G‘ijduvoniy tavalludining 900-yilligi, G‘afur G‘ulom tavalludining 100-yilligi nishonlandi.
- 2004-yilda Xoja Ahror Valiyning 600-yilligi bayram qilindi.
- 2005-yilda “Ezgulik arkasi” va “Baxtiyor ona” haykali bunyod etildi.
- 2006-yil 3-noyabr kuni Xiva shahrida Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000-yilligi nishonlandi.
- 2006-yil Qarshi shahrining 2700-yilligi bayram qilindi.
- 2006-yil 19-iyul – O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 15-yil” esdalik nishoni ta’sis etildi.
- 2007-yili Marg‘ilon shahrining 2000 yilligi nishonlandi.
- 2007-yilda Toshkent shahri Islom madaniyatining poytaxti deb e’lon qilindi.
- 2007-yili Samarqand shahrining 2750 yilligi bayram qilindi.
- 2009-yili Toshkent shahrining 2200 yilligi nishonlandi.
- 2016-yil O‘zbekiston Qaxramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 80-yilligi nishonlandi.
- 2017-yili ulug‘ davlat arbobi Sharof Rashidov tavalludining 100-yilligi nishonlandi.
- 2018-yil mustaqilligimiz asoschisi Islom Karimov tavalludining 80-yilligi nishonlandi.

- 2021-yil ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiy tavalludining 580-yilligi keng nishonlandi.
- 2021-yil O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80-yilligi nishonlandi.
- 2021-yil O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Davlat mukofoti sohibi O‘tkir Hoshimov tavalludining 80-yilligi nishonlandi.
- 2021-yil o‘zbek estrada san’atining asoschisi, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85-yilligi nishonlandi.
- 2022-yil otashin o‘zbek shoiri, tarjimoni, dramaturgi Usmon Nosir tavalludining 110-yilligi keng nishonlanadi.

Mamlakatimizdagi teatrlar to‘g‘risida

MA’LUMOT

| № | Teatr larning nomlari | Manzillar | Telefonlar |
|-------------------------------|--|---------------------------------------|--|
| <i>Toshkent shahri</i> | | | |
| 1. | O‘zbekiston Milliy akademik drama teatri | Navoiy ko‘chasi, 34-uy | +99871 244-32-93 |
| 2. | Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqiy teatri | Mahmudjon G‘ofurov ko‘chasi, 187-uy | +99871 245-16-33 |
| 3. | Abror Hidayatov nomidagi O‘zbek davlat drama teatri | M.Uyg‘ur ko‘chasi, 2-uy | +99871 244-13-55 |
| 4. | Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik Katta teatri | Mustafо Kamol Otaturk ko‘chasi, 28-uy | +99871 233-90-81, +99871 233-33-44, +99871 232-19-48 |
| 5. | O‘zbekiston Yoshlar teatri | Navoiy ko‘chasi, 55-uy | +99871 244-10-89, +99871 244-10-87 |
| 6. | O‘zbekiston akademik Rus drama teatri | Mustafо Kamol Otaturk ko‘chasi, 24-uy | +99871 233-81-65 +99871 233-42-10 |
| 7. | O‘zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri | Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 13-uy | +99890 981-87-62 |

| | | | |
|--------------------------|--|---|--------------------------------------|
| 8. | Respublika satira teatri | Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 434 | +99871 264-35-29 +99871 264-32-71 |
| 9. | Toshkent davlat musiqali komediya (operetta) teatri | Cho'pon ota ko'chasi, kvartal "S" | +99871 277-86-11 |
| 10. | "Diydor" teatr-studiyasi | Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 9 | +99871 233-62-12 |
| <i>Sirdaryo viloyati</i> | | | |
| 11. | Musiqali drama teatri | Guliston shahri, Navoiy ko'chasi, 42-uy | +99867 225-14-88 |

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning 1-yanvar holatiga mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan teatrlar soni 50 tani tashkil etgan.

Teatrlar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan bittaga oshgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha:

- drama teatri – 24 ta;
- qo‘g‘irchoq teatri – 11 ta;
- musiqali teatr – 10 ta;
- yosh tomoshabinlar teatri – 4 ta;
- opera va balet teatri – 1 ta.

Yillar kesimida teatrlar soni:

2000-yilda — 40 ta;

2010-yilda — 42 ta;

2020-yilda — 49 ta

Mamlakatimizdagi muzeylar to‘g‘risida

M A ’ L U M O T

| Nº | Muzeylarning nomlari | Manzillar | Telefonlar |
|------------------------|--|------------------------------------|---------------------------------------|
| <i>Toshkent shahri</i> | | | |
| 1. | O‘zbekiston Respublikasi xalq-amaliy san‘at muzeyi | Rakatboshi ko‘chasi, 15-uy | +99871 256-40-42 |
| 2. | O‘zbekiston Respublikasi davlat san‘at muzeyi | Movarounnahr ko‘chasi, 16-uy | +99871 256-40-42 |
| 3. | O‘zbekiston davlat tarix muzeyi | Sh.Rashidov shoh ko‘chasi, 3-uy | +99871 239-17-78 |
| 4. | Temuriylar tarixi davlat muzeyi | Amir Temur ko‘chasi, 1-uy | +99871 232-07-66 |
| 5. | Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi | Navoiy ko‘chasi, 69-uy | +99871 242-02-75, +99871 241-02-75 |
| 6. | O‘zbekiston Qurolli kuchlar markaziy muzeyi | Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 98-uy | +99871 262-41-75 |
| 7. | Olimpiya shon-shuhratni muzeyi | Rashidov shoh ko‘chasi, 4a uy | +99871 244-76-02 +99871 244-76-03 |
| 8. | K. Zoirov nomidagi O‘zbekiston sog‘iqni saqlash muzeyi | Istiqbol ko‘chasi, 30-uy | +998 71 233-40-53 |
| 9. | O‘zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslari davlat muzeyi | Taras Shevchenko ko‘chasi, 11-a-uy | +99871 256-13-41 |

| | | | |
|-----|--|---|---|
| 10. | O'zbekiston kino san'ati muzeyi | O'zbekiston shoh ko'chasi , 98-uy | +99871 245-89-76 |
| 11. | O'zbekiston davlat tabiat muzeyi | Niyozov ko'chasi, 1-uy | <u>+99871 246-95-31</u> |
| 12. | Qatag'on qurbanlari xotira muzeyi | A.Temur ko'chasi | <u>+99871 212-42-46,</u> <u>+99871 212-36-85</u> |
| 13. | Abdulla Qahhor uy-muzeyi | Yunus Rajabiy ko'chasi, 26/1-uy | <u>+99871 256-08-04</u> |
| 14. | G'afur G'ulom uy-muzeyi | Arpapoya ko'chasi, 1-uy | <u>+99871 245-43-94</u> |
| 15. | Yunus Rajabiy uy-muzeyi | Yu.Rajabiy ko'chasi, 20-uy | <u>+99871 256-34-01</u> |
| 16. | Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi | Markaz-1, 15-uy, 25-xona | <u>+99871 233-23-84</u> |
| 17. | Davlat me'morial O'ybek uy-muzeyi | Iftixor 1-tor ko'chasi, 26-uy 00 | <u>+99871 248-09-</u> <u>00</u> |
| 18. | Tamaraxonim xotira muzeyi | Tamaraxonim ko'chasi, 1-uy, 41 -xona | <u>+99871 267-86-</u> <u>90</u> |
| 19. | O'rol Tansiqboyev uy-muzeyi | Burxanov mavzesi(sobiq Cherdansev) - 1,5 | <u>+99871 262-62-30</u> |
| 20. | Sergey Yesenin uy-muzeyi | L.Tolstoy berk ko'chasi, 20-uy | <u>+99871 237-11-79</u> |
| 21. | Sergey Borodin uy-muzeyi | Lashkarbegi ko'chasi, 18-uy | <u>+99871 237-09-82,</u> <u>+99871 237-52-09</u> |
| 22. | O'zbekiston Badiiy akademiyasining Markaziy ko'rgazmalar zali | Sh.Rashidov ko'chasi, 40-uy | <u>+998 71 256-51-46,</u> <u>+998 71 252-26-50</u> |

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekistondagi muzeylar soni 127 tani tashkil etadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi I.V. Savitskiy nomidagi davlat muzeyi;

Temuriylar tarixi davlat muzeyi;

Xivadagi “Ichan-Qal‘a” majmuasi;

Buxoro davlat badiiy me’morchilik muzey qo‘riqxonasi;

Samarqand davlat badiiy muzey qo‘riqxonasi.

Hududlarda quyidagi muzeylar mavjud:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 4 ta;

Andijon viloyati – 2 ta;

Buxoro viloyati – 19 ta;

Jizzax viloyati – 7 ta;

Qashqadaryo viloyati – 10 ta;

Navoiy viloyati – 6 ta;

Namangan viloyati – 2 ta;

Samarqand viloyati – 13 ta;

Surxondaryo viloyati – 8 ta;

Sirdaryo viloyati – 1 ta;

Toshkent viloyati – 5 ta;

Farg‘ona viloyati – 17 ta;

Xorazm viloyati – 3 ta;

Toshkent shahri – 30 ta muzey bor.

Ma’lumot uchun: Xalqaro muzeylar kengashi 1977-yildan beri 18-may kuni “Xalqaro muzeylar kuni” sifatida nishonlanadi. O‘zbekiston muzeylari esa 130 yillik tarixga ega.

Mamlakatimizdagи muqaddas ziyoratgohlar to‘g‘risida
M A ’ L U M O T

| Nº | Ziyoratgohlarning nomlari | Manzillar |
|-----------|--|--|
| 1. | Imom Buxoriy majmuasi | Samarqand viloyati, Payariq tumani, Xo‘ja Ismoil qishlog‘i |
| 2. | Hakim Termiziy ziyoratgohi | Surxondaryo viloyati, Termiz tumani, Ko‘hna Termiz qishlog‘i |
| 3. | Abu Iso Termiziy maqbarasi | Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, U.Turopov jamoa xo‘jaligi |
| 4. | Imom Moturidiy ziyoratgohi | Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Chokardiza qishlog‘i |
| 5. | Shohizinda majmuasi | Samarqand viloyati, Siyob tumani, Usto Umar Jo‘raqulov ko‘chasi |
| 6. | Sohibi Hidoya shahristonzi ziyoratgohi | Farg‘ona viloyati, Rishton tumani, Chin nigoron mahallasi |
| 7. | Qosim Shayx majmuasi | Navoiy viloyati, Karmana tumani, Karmana ko‘chasi |
| 8. | “Chil ustun” va “Ko‘k gumbaz” masjidlari | Navoiy viloyati, Nurota shahri |
| 9. | Xo‘ja Jarroh ziyoratgohi | Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Xudoyzod mahallasi |
| 10. | Dorus-Siyodat me’moriy majmuasi | Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri |
| 11. | Shayx Xovandi Tohur majmuasi | Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Shayxontohur tor ko‘chasi |
| 12. | Takiya ota ziyoratgohi | Surxondaryo viloyati, Qiziriq tumani, Takiya-ota mahallasi |
| 13. | So‘fi Olloyor ziyoratgohi | Surxondaryo viloyati, Oltinsoy tumani, Katta Vaxshivor qishlog‘i |
| 14. | Zangiota majmuasi | Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Zangiota qishlog‘i |
| 15. | Pahlavon Mahmud ziyoratgohi | Xorazm viloyati, Xiva shahri, Ichon qal‘a majmuasi |

O‘zbekistondagi muhim sanalar

- ◆ 1-yanvar “Yangi yil” bayrami.
- ◆ 1-yanvar “Xalqaro tinchlik kuni” (1968).
- ◆ 14-yanvar “Vatan himoyachilari kuni” bayrami (1993).
- ◆ 1-mart “Jahon fuqaro muhofazasi kuni” (1972).
- ◆ 2-mart “O‘zbekiston Respublikasi BMTga a’zo bo‘lgan kun” (1992).
- ◆ 4-mart “Sog‘lom avlod uchun” ordeni ta’sis etilgan kun (1993).
- ◆ 8-mart “Xalqaro xotin-qizlar kuni” bayrami (1910).
- ◆ 14-mart “O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi” faxriy unvoni ta’sis etilgan kun (2000).
- ◆ 15-mart “Xalqaro iste’molchilar huquqlarini himoya qilish kuni” (1961).
- ◆ 21-mart “Navro‘z” umumxalq bayrami.
- ◆ 21-mart “Butunjahon she’riyat kuni” (1999).
- ◆ 24-mart “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentlik lavozimi ta’sis etilgan kun” (1990).
- ◆ 24-mart “O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti saylangan kun” (1990).
- ◆ 27-mart “Xalqaro teatr kuni” (1961).
- ◆ 1-aprel “Kulgi va hazil kuni”.
- ◆ 7-aprel “Xalqaro salomatlik kuni” (1948).
- ◆ 12-aprel “Xalqaro aviatsiya va kosmonavtika kuni” (1969).
- ◆ 15-aprel “O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi Xalqaro Olimpiya qo‘mitasiga a’zo bo‘lgan kun” (1995).
- ◆ 17-aprel “Yong‘indan saqlash xizmati xodimlari kuni”.
- ◆ 18-aprel “Xalqaro yodgorliklarni va tarixiy joylarni asrash kuni” (1983).
- ◆ 19-aprel “Ilm-fan kuni” (1979).
- ◆ 22-aprel “Xalqaro olamni asrash kuni” (1990).

- ◆ 23-aprel “Xalqaro kitob va mualliflik huquqlarini himoya qilish kuni” (1996).
- ◆ 23-aprel Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi tashkil etilgan kun (1994).
- ◆ 24-aprel “Xalqaro yoshlar bidadligi kuni” (1957).
- ◆ 25-aprel O‘zbekiston Respublikasi “Kamolot” YOIH tuzilgan kun (2001).
- ◆ 26-aprel “Amir Temur” ordeni ta’sis etilgan kun (1996).
- ◆ 29-aprel “Xalqaro raqs kuni” (1982).
- ◆ 1-may “O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi” faxriy unvoni ta’sis etilgan kun (1998).
- ◆ 3-may “Jahon matbuot erkinligi kuni” (1991).
- ◆ 5-may “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni va “Oltin yulduz” medali ta’sis etilgan kun (1994).
- ◆ 5-may “Mustaqillik”, “Do‘stlik” ordenlari va “Jasorat”, “Shuhrat” medallari ta’sis etilgan kun (1994).
- ◆ 9-may “Xotira va qadrlash kuni” (2001).
- ◆ 15-may “Xalqaro oila kuni” (1994).
- ◆ 18-may “Xalqaro muzeylar kuni” (1977).
- ◆ 31-may “Xalqaro kashandalikka qarshi kurash kuni”.
- ◆ 1-iyun “Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni” (1949).
- ◆ 5-iyun “Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni” (1972).
 - ◆ 10-iyun “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofoti ta’sis etilgan kun (1999).
 - ◆ 23-iyun “Xalqaro Olimpiada kuni” (1894).
 - ◆ 27-iyun “O‘zbekiston Respublikasi matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni” (1993).
 - ◆ 1-iyul “O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so‘m muomalaga kiritilgan kun” (1994).
 - ◆ 2-iyul “O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi qabul qilingan kun” (1992).
 - ◆ 2-iyul “Xalqaro sport jurnalistlari kuni” (1995).
 - ◆ 20-iyul “Xalqaro shaxmat kuni” (1924).

- ◆ 6-avgust Xalqaro “Dunyo shifokorlari tinchlik uchun kurashda” kuni (1945).
- ◆ Avgust oyining 3-yakshanbasi “O‘zbekiston Respublikasi harbiy-havo floti kuni” (1995).
- ◆ 25-avgust O‘zbekistonda yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Nihol” mukofoti ta’sis etilgan kun (2000).
- ◆ 27-avgust “Xalqaro talabalar ittifoqi tashkil topgan kun” (1946).
- ◆ 28-avgust “El-yurt hurmati” ordeni ta’sis etilgan kun (1998).
- ◆ 28-avgust “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvoni ta’sis etilgan kun (1998).
- ◆ 30-avgust “Jaloliddin Manguberdi” ordeni ta’sis etilgan kun (2000).
- ◆ 31-avgust “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni”.
- ◆ 1-sentabr O‘zbekiston Respublikasining “Mustaqillik” bayrami (1991).
 - ◆ 5-sentabr Toshkentning bosh maydoniga “Mustaqillik maydoni” nomi berilgan kun (1991).
 - ◆ 8-sentabr “Xalqaro savodxonlik kuni” (1966).
 - ◆ 8-sentabr “Xalqaro jurnalistlar birdamlik kuni” (1958).
 - ◆ 9-sentabr “Jahon husn va go‘zallik kuni”.
 - ◆ 10-sentabr “Xalqaro tinchlik kuni” (1981).
 - ◆ 27-sentabr “Xalqaro sayyohlik kuni” (1980).
 - ◆ 1-oktabr “Xalqaro qariyalar kuni” (1991).
 - ◆ 1-oktabr “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” bayrami (1997).
 - ◆ 1-oktabr “Xalqaro musiqa kuni”.
 - ◆ 5-oktabr “Xalqaro o‘qituvchilar kuni” (1954).
 - ◆ 5-oktabr “Xalqaro shifokorlar kuni” (1984).
 - ◆ 21-oktabr “O‘zbekiston Respublikasi Davlat tili” bayrami (1989).

- ◆ 24-oktabr “Xalqaro Birlashgan Millatlar Tashkiloti kuni” (BMT, 1945).
- ◆ 4-noyabr “Yunesko” tashkil topgan kun (1946).
- ◆ 10-noyabr “Xalqaro yoshlar kuni” (1945).
- ◆ 16-noyabr “Xalqaro bag‘rikenglik kuni” (1996).
- ◆ 17-noyabr “Xalqaro talabalar kuni” (1941).
- ◆ 18-noyabr “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun” (1991).
- ◆ 21-noyabr “Xalqaro televideniye kuni” (1996).
- ◆ 26-noyabr “Xalqaro axborot kuni” (1988).
- ◆ 1-dekabr “Xalqaro OITS (SPID)ga qarshi kurash kuni” (1988).
- ◆ 3-dekabr “Xalqaro nogironlar kuni” (1992).
- ◆ 8-dekabr “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun” (1992).
- ◆ 10-dekabr “O‘zbekiston Davlat madhiyasi qabul qilingan kun” (1992).
- ◆ 10-dekabr “Inson huquqlari xalqaro kuni” (1948).
- ◆ 28-dekabr “Xalqaro kino kuni” (1895).
- ◆ “Ro‘za hayiti” va “Qurban hayiti”.

Ma’naviyatimizning buyuk timsollari

| | |
|----------------------------------|----------------------------|
| ◆ Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy | 783-850-yy. |
| ◆ Ahmad al-Farg‘oniy | 797-865-yy. |
| ◆ Abdulloh ibn Amajur at-Turkiy | IX-X asr |
| ◆ Ahmad as-Sag‘oniy | vafoti 990-y. |
| ◆ Imom al-Buxoriy | 810-870-yy. |
| ◆ Abu Iso Muhammad at-Termiziyy | 824-892-yy. |
| ◆ Abu Abdulloh Rudakiy | 860-941-yy. |
| ◆ Abu Mansur al-Moturidiy | vafoti 945-y. |
| ◆ Abu Nasr Forobiy | 873-950-yy. |
| ◆ Abu Bakr Narshaxiy | 899-959-yy. |
| ◆ Kaffol ash-Shoshiy | 903-976-yy. |
| ◆ Abu Bakr al-Xorazmiy | 935-993-yy. |
| ◆ Abu Abdulloh al-Xorazmiy | vafoti 997-y. |
| ◆ Abu Rayhon Beruniy | 973-1048-yy. |
| ◆ Abu Ali ibn Sino | 980-1037-yy. |
| ◆ Yusuf Xos Hojib | XI asrda yashab ijod etgan |
| ◆ Mahmud Koshg‘ariy | XI asrda yashab ijod etgan |
| ◆ Abu al-Mu‘iyn an-Nasafiy | 1027-1114-yy. |
| ◆ Ahmad Yassaviy | 1041-1167-yy. |
| ◆ Ismoil Jurjoniy | 1042-1136-yy. |
| ◆ Mahmud az-Zamaxshariy | 1075-1144-yy. |
| ◆ Burhoniddin al-Marg‘inoniy | 1123-1197-yy. |
| ◆ Najmiddin Kubro | 1145-1221-yy. |
| ◆ Mahmud Chag‘miniy | XII- XIII asr |
| ◆ Bahouddin Naqshband | 1318-1389-yy. |
| ◆ Xoja Muhammad Porso al-Buxoriy | 1348-1420-yy. |
| ◆ Lutfiy | 1366-1465-yy. |
| ◆ Mirzo Ulug‘bek | 1394-1449-yy. |
| ◆ Ali Qushchi | vafoti 1474-y. |
| ◆ Xoja Ahror | 1404-1490-yy. |
| ◆ Sakkokiy | XIV-XV asr |

| | |
|-----------------------------|------------------------|
| ♦ Abdurazzoq Samarqandiy | 1413-1482-yy. |
| ♦ Abdurahmon Jomiy | 1414-1492-yy. |
| ♦ Davlatshoh Samarqandiy | taxminan 1435-1495-yy. |
| ♦ Alisher Navoiy | 1441-1501-yy. |
| ♦ Xusayn Voiz Koshifiy | 1440-1505-yy. |
| ♦ Kamoliddin Behzod | 1455-1537-yy. |
| ♦ Maxdumi A'zam | 1463/64-1542-yy. |
| ♦ Zahiriddin Muhammad Bobur | 1483-1530-yy. |
| ♦ Boborahim Mashrab | 1640-1711-yy. |
| ♦ So'fi Olloyor | 1644-1724-yy. |
| ♦ Turdi Farog‘iy | XVII asrda yashagan |
| ♦ Munis Xorazmiy | 1778-1829-yy. |
| ♦ Uvaysiy | 1779-1845-yy. |
| ♦ Nodira | 1792-1842-yy. |
| ♦ Ogahiy | 1809-1874-yy. |
| ♦ Komil Xorazmiy | 1825-1899-yy. |
| ♦ Ahmad Donish | 1827-1897-yy. |

Ajdodlarimiz qoldirgan saboqlar va o‘gitlar ma’naviy tarbiyada tengi yo‘q maktabdir. Shu boisdan ham nomlari zikr etilgan ulug‘ allomalarimiz hayoti va ijodiy faoliyatlarini o‘quvchilarga ma’naviy-ma’rifiy soatlarda yoritilishi yosh avlodning ilm-fanga qiziqishini oshiradi va teranlik sari chorlaydi.

Jadidchilik harakati namoyandalari, mustaqilligimiz darg‘alari

Hayoti va ijodi yillari

Nishonlanadigan tavallud sanalari

| | |
|--|--------------------|
| Obidjon Mahmudov, 1858-1936 | 2008 – 150 yilligi |
| Ishoqxon to‘ra Ibrat, 1862-1937 | 2007 – 145 yilligi |
| Polvonniyozxoji Yusupov, 1863-1936 | 2008 – 145 yilligi |
| Saidahmadxo‘ja Sidqiy-Ajziy, 1864-1927 | 2004 – 140 yilligi |
| Muhammadsharif So‘fizoda, 1869-1937 | 2004 – 135 yilligi |
| Bobooxun Salimov, 1874-1929 | 2004 – 130 yilligi |
| Abduvohid Burhonov-Munzin, 1875-1934 | 2005 – 130 yilligi |
| Abduqodir Shakuriy, 1875-1943 | 2005 – 130 yilligi |
| Mahmudxo‘ja Behbudiy, 1875-1919 | 2005 – 130 yilligi |
| Abdulla Avloniy, 1878-1938 | 2008 – 130 yilligi |
| Munavvarqori Abdurashidxonov, 1878-1931 | 2008 – 130 yilligi |
| Ubaydulla Xo‘jayev, 1880-1938 | 2005 – 125 yilligi |
| To‘lagan Xo‘jamyorov-Tavallo, 1882-1937 | 2007 – 125 yilligi |

| | |
|------------------------------------|--------------------|
| Saidnosir Mirjalilov, 1884-1937 | 2004 – 120 yilligi |
| Ashurali Zohiriy, 1885-1937 | 2005 – 120 yilligi |
| Abdurauf Fitrat, 1886-1938 | 2006 – 120 yilligi |
| Muso Saidjonov, 1893-1937 | 2008 – 115 yilligi |
| Abdulla Qodiriy, 1894-1938 | 2004 – 110 yilligi |
| Fayzulla Xo‘jayev, 1896-1937 | 2006 – 110 yilligi |
| Abdulhamid Cho‘lpon, 1897-1938 | 2007 – 110 yilligi |

Tavsiya etiladigan filmlar

- “Avesto”
- “Imom al-Buxoriy”
- “Ajr istab”
- “Temur tuzuklari”
- “Buyuk sohibqiron”
- “Ikkinchi umr”
- “Najmuddin Kubro”
- “Ulug‘bek”
- “Alisher Navoiy”
- “Behzod”
- “Nodirabegim”
- “Fikh olamining sultonii”
- “Musavvirlar sultonii”
- “Alpomish”
- “Mashrab”
- “Muhammad Rizo Ogahiy”
- “Istiqlol fidoyilar”
- “Ular Germaniyada o‘qigan edilar”
- “Mahmudxo‘ja Behbudiy”
- “Abdulla Avloniy”
- “Munavvarqori Abdurashidxonov”
- “Fitrat”
- “Abdulla Qodiriy”
- “Fayzulla Xo‘jayev”
- “Cho‘lpon”
- “Abdulla Qahhor”
- “Oybek”
- “Shukur Burhon”
- “Xudoybergan Devonov”
- “Maqsud Shayxzoda”
- “Said Ahroriy”
- “Abdulla Oripov”
- “El suygan adib”
- “O‘zbekiston Qahramonlari”
- “Sehrli ohanglar”
- “Xalq so‘zi – haq so‘z”
- “O‘lim so‘qmog‘i”
- “Akademik Shavkat Vohidov”
- “Muhammad Yusuf”
- “Ibrat”
- “Ilhaq”
- “Chiroq ko‘targan odam”
- “Qo‘rqma”

Izoh: Bu kinofilmlarni O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar kinostudiyasidan olish mumkin.

Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor ko‘chasi, 1a-uy

Telefonlar: 71-177-69-86, 71-177-85-73



O‘zbekiston Respublikasida umumxalq bayramlari doirasida o‘tkaziladigan tadbirlar

- 1-yanvar – Yangi yil bayrami. “Yangi yil – yangi istiqbol”.
- 8-mart – Xotin-qizlar bayrami. “Aylol borki, olam munavvar”.
- 21-mart – Navro‘z bayrami. “Navro‘z – birdamlik bayrami”.
- 9-may – Xotira va qadrlash kuni. “Xotira va qadr mohiyati”.
- 1-sentabr – O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni. “Mustaqillik – eng ulug‘ ne’mat”.
- 1-oktabr – O‘qituvchilar va murabbiylar kuni. “Kuch bilim va tafakkurda”.
- 8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun. “Konstitutsiya, ma’naviyat va mafkura”.
- Ramazon hayiti. “Muqaddas dinimiz – buyuk qadriyat”.
- Qurban hayiti. “Mehr va muruvvat – milliy fazilatimiz”.

O‘zbekiston Respublikasida nishonlanadigan muhim tarixiy sanalar

- 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni. “Vatanni sevish, asrash – muqaddas burch”.
- 9-fevral – Alisher Navoiy tavallud topgan kun. “Alisher Navoiy ijodi – milliy ma’naviy xazinamiz”.
- 14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun. “Buyuk shoir va sarkarda”.
- 1-mart – O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfiya tug‘ilgan kun. “Baxtim shul o‘zbekning Zulfiyasiman”.
- 2-mart – O‘zbekiston Respublikasi BMTga a’zo bo‘lgan kun. “Dunyo tan olgan yurtim”.
- 22-mart – Mirzo Ulug‘bek tavallud topgan kun. “Shoh va olim”.
- 9-aprel – Sohibqiron Amir Temur tavallud topgan kun. “Biz kimmiz, qanday buyuk zotlarning avlodimiz”.
- 10-aprel – Abdulla Qodiriy tug‘ilgan kun. “Qodiriy merosi Vatan e’zozida”.

23-aprel Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi tashkil etilgan kun. “Xalqimiz qalbidagi yengilmas kuch”.

10-may – akademik shoir G‘afur G‘ulom tavallud topgan kun. “Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi”.

12-may – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetiga asos solingen kun. “Buyuk ajdodlarga munosib avlod bo‘laylik”.

27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni. “Demokratiya va ommaviy axborot vositalari”.

1-iyul – O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi so‘m muomalaga kiritilgan kun. “Milliy valyuta – milliy iftixor ramzi”.

2-iyul – O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi qabul qilingan kun. “Davlat gerbi –iftixorimiz timsoli”.

1-avgust – O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e’lon qilingan kun. 2005. “Hayot – eng buyuk mukofot”.

Avgust oyining birinchi haftasi – mahalla kuni. “Vatan ichra Vatan mahallam”.

31-avgust – Qatag‘on qurbanlarini yod etish kuni. “Vatanim, xalqim deganlar”.

Bahouddin Naqshband tavalludining 692 yilligi. “Naqshbandiya – ma’naviy barkamollik ta’limoti”.

20-avgust – O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining yangi tahriri va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingan kun. “Ta’limning taraqqiyotga ta’siri”.

4-sentabr – Abu Rayhon Beruniy tavallud topgan kun. “Biz Beruniy avlodlarimiz”.

17-sentabr – O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor tug‘ilgan kun. “Abdulla Qahhor asarlarida ma’naviyat targ‘iboti”.

23-sentabr – Burhoniddin Marg‘inoniy tavallud kuni. “Burhoniddin Marg‘inoniyning ma’naviy merosi”.

18-oktabr – Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochilgan kun. “Milliy g‘urur, iftixor koshonasi”.

21-oktabr – O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun. “Til – millat ko‘rki”, “Til, taraqqiyot va ma’naviyat”.

25-oktabr – O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari xodimlari kuni. “Tinchlik va osoyishtalik posbonlari”.

Noyabr oyining ikkinchi yakshanbasi – O‘zbekiston Respublikasi tibbiyot xodimlari kuni. “Sog‘lom avlod – millat tayanchi”.

18-noyabr O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun. “Bayrog‘imiz – faxrimiz, g‘ururimiz”.

10-dekabr – O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qabul qilingan kun. “Madhiyamiz – faxrimiz”.

28-dekabr – Mustaqillik va ezgulik monumenti ochilganining 5-yilligi. “Eng ulug‘, eng aziz maydon”.

O‘zbekiston Respublikasida xalqaro sanalar bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlar

21-fevral Xalqaro ona tili kuni. “Tillar, ellar, elatlar”.

1-mart – Xalqaro giyohvandlik, giyohvand moddalar bilan savdo qilishga qarshi kurash kuni. “Giyohvandlik – umr zavoli”.

27-mart – Xalqaro teatr kuni. “Teatr – bu ibratxonadir”.

2-aprel – Xalqaro bolalar kitobi kuni. “Kitoblar – ezgulikka yetaklar”.

7-aprel – Jahon salomatlik kuni. “Sog‘lom avlod – kelajagimiz poydevori”.

18-aprel – Xalqaro yodgorliklar va tarixiy joylarni asrash kuni. “Tariximiz – baxtimiz”.

22-aprel – Xalqaro olamni asrash kuni. “Olamni asrang, do‘sstar!”.

24-aprel – Xalqaro yoshlar birdamligi kuni. “Dunyo yoshlari do‘sligi – barqarorlik omili”.

29-aprel – Xalqaro raqs kuni. “Milliy raqs va ma’naviyat”.

3-may – Juhon Matbuoti erkinligi kuni munosabati bilan “Demokratiya va ommaviy axborot vositalari”.

12-may – Xalqaro hamshiralar kuni. “Salomatlik fidoyilari”.

15-may – Xalqaro oila kuni. “Oila – jamiyat ustuni”.

18-may – Xalqaro muzeylar kuni. “Muzeylar – jonli tariximiz ko‘zgusi”.

22-may – Umumjahon bioxilma-xillik kuni munosabati bilan “Ona tabiat – rang-barangligi bilan go‘zal”.

31-may – Xalqaro kashandalikka qarshi kurash kuni. “Beg‘ubor yoshlik sururi, baxtli keksalik gashti”.

1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni. “Bolalarimiz – baxtli kelajagimiz”.

14-iyun – Butun jahon donorlik kuni. “Jismoniy barkamollik – salomatlik garovi”.

11-iyul – Jahon xalqlari kuni. “O‘zbekiston – ahil oila”.

20-iyul – Xalqaro shaxmatkuni. “Shaxmat – donishmandlik va ma’naviy kamolot maktabi”.

21-sentabr – Xalqaro tinchlik kuni. “Tinchlik – eng buyuk ne’mat”.

16-noyabr – Xalqaro bag‘rikenglik kuni. “Dinlararo bag‘rikenglik – milliy g‘oyamiz”.

1-dekabr – Butun jahon OITSga qarshi kurash kuni. “OITS – ajal elchisi”.

3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni. “Muruvvat – boricha bermakdur...”.



X BOB. FESTIVAL, FORUM, KO'RIK-TANLOV, VA LOYIHALAR MA'NAVIYAT MARAFONI

Loyiha doirasida quyidagilar amalga oshiriladi:

“Erkin yosh avlodlar senga zo‘r qanot!” loyihasi doirasida barcha ta’lim muassasalarida birinchi darsni O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi bilan boshlash, maktab hovlisida bayroq ko‘tarish tadbirlari o‘tkaziladi.

“Baxtli bolalik”, “Assalomu alaykum” loyihasi doirasida maktabgacha ta’lim va maktab muassasalarida sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish, o‘z salohiyatlari doirasida ma’lum bir yutuqlarni qo‘lga kiritib, tengdoshlari orasida namuna va ibrat bo‘lishga ulgurgan tarbiyalanuvchi va o‘quvchi bolalar ishtirokida salomlashish odobi va yaxshi xulqlarni targ‘ib etishga qaratilgan tarbiyaviy interfaol o‘yinlar uyushtiriladi.

“Kitob – bilim bulog‘i”, “Kitob – mening eng yaqin do‘stim”, “Inson kitob bilan, kitob inson bilan tirik” mavzularida muassasa hovlisidagi, ichki yo‘laklardagi monitorlarda animatsion filmlar namoyishi tashkil qilinadi, film taassurotlari haqida bolalar bilan davra suhbatlari o‘tkaziladi.

“Bu kitobni har bir inson o‘qishi kerak” g‘oyasi ostida kitoblar ko‘rgazmalari tashkil etiladi va ommalashgan adabiyotlar haqida taniqli shoir, yozuvchilar ishtirokida “Mahorat darsi” uyushtiriladi.

“O‘zbekiston — mening Vatanim!” mavzusida o‘quvchilar o‘rtasida insholar, ijodiy ishlar tanlovi o‘tkaziladi.

“Onamdayin mehribon Vatan” – o‘quvchi yoshlar o‘rtasida Ona-Vatanga bag‘ishlangan she‘r va qo‘shiqlar ijrosi bo‘yicha eng yaxshi ijrochilar bellashuvni o‘tkaziladi.

“Vatanim bayrog‘ini baland ko‘taraman” loyihasi doirasida estafeta bayrog‘i uchun yugurish musobaqasi o‘tkaziladi. G‘olib guruhlarga O‘zbekiston ko‘chma bayrog‘i va rag‘batlantiruvchi sovg‘alar beriladi.

O‘quvchilarning kasb-hunarga qiziqishlarini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish maqsadida “Barkamol avlod” o‘quv-markazlari hamda to‘garak a’zolari o‘rtasida tashkil

etiladigan “**Kasb-hunar olimpiadasi**” g‘oliblari taqdirlanadi.

“**Ajdodlar mardona ruhi senga yor!**” shiori ostida buyuk ajdodlarimiz merosi, jasorati haqida o‘quvchilar o‘rtasida she’rlar va rasmlar ko‘rgazmali tanlovlari, viktorinalar o‘tkaziladi.

“**Milliy qadriyatlar**” loyihasi doirasida maqom va folklor qo‘sishlari, milliy musiqalar ijrolari tashkil etiladi, amaliy san‘at namunalari, xalq o‘yinlari namoyishlari, milliy liboslar ko‘rgazmalari o‘tkaziladi.

Barcha umumta’lim maktabida sobiq o‘quvchilar ishtirokida “**Qadrdon maktabimga kitob sovg‘a qilaman**”, “**Kitob – mening taqdirimda**”, “**Yosh ijodkor**”, “**Targ‘ibotchining bir kuni**” aksiyalari o‘tkaziladi.

“**Salomlashish — eng ulug‘ qadriyat**”, “**Fazilatli qiz**”, “**Fazilatli yigit**”, “**Hayo — qiz bolaning ziynati**”, “**Or-nomus — yigitning ko‘rki**” mavzularida o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida davra suhbatlari o‘tkaziladi.

“**Baxtli bo‘lish o‘z qo‘limizda**” loyihasi doirasida o‘quvchi yoshlar, talabalar, yosh kadrlar o‘zi orzu qilgan kasb-hunar haqidagi kreativ fikrlarini ifodalovchi taqdimotlar o‘tkaziladi.

O‘quvchilar, kasb-hunar maktablari talaba va o‘quvchilari, to‘garak qatnashchilari, korxona-tashkilotlarning yosh xodimlari o‘rtasida “**Eng yaxshi ixtiro va kashfiyot**”, “**Eng yaxshi ijodiy ish**”, “**Eng yaxshi mahsulot**” mavzularida ijodiy ko‘rgazmalar tashkil etiladi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida “**Ma’naviyat va ma’rifat markazi kubogi**” uchun “**Zakovat**” intellektual o‘yini tashkil etiladi.

“**Yoshlar – yoshlar haqida**”, “**Ma’rifat kuni haqida**” ekspress ijtimoiy so‘rovnomalari o‘tkaziladi.

“**Ma’naviy ekskursiya**” loyihasi doirasida barcha ta’lim muassasalari, korxona-tashkilotlar, uyushmagan yoshlarning teatr va muzeylarga sayohatlari uyushtiriladi.

“**Kasbdosh izdoshlari**” loyihasi doirasida har bir tashkilot va idoralarda ustoz-shogird an’anasiga asosan faxriylar va yoshlar uchrashuvlarini qamrab oluvchi “ma’rifat soatlari” tashkil etiladi.

“**Ajdodlar merosi**” loyihasi doirasida tashkilot va idoralarda

tizimi xodimlarining farzandlari, nabiralari hamrohligida tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolarga tashrifi uyushtiriladi.

tashkilot va idoralar o‘quv muassasalari o‘rtasida ekomadaniyatni shakllantirish, kasb-korlariga, ish joylariga muhabbat tuyg‘usini oshirishga qaratilgan “**Ustoz-shogird bog‘chasi**” nominatsiyasi bo‘yicha musobaqa o‘tkaziladi, ko‘rkam bog‘chalar baholanadi va rag‘batlantiriladi.

“**Milliy qadriyatlar – millat ko‘rki**” shiori ostida milliy liboslarimiz targ‘ib qilinadi. Milliy libos kiygan taniqli adabiyot va san’at vakillari ishtirokida suhbatlar uyushtiriladi.

“**Ota-onalarga ehtirom**” loyihasi doirasida ota-onalarni yo‘qlash, holidan xabar olish, maroqli dam oldirish, farzandlar va nabiralar tomonidan e’zozlash kabi ma’naviy tadbirlar tashkil etiladi.

Mavjud bozorlar, xiyobonlar, mahalla guzarlarida radiotarmoqlarida milliy qadriyatlarimizni, mumtoz kuy-ko‘sishlarimizni, milliy maqom san’ati namunalari, yor-yor va allalarni, aksiya san’atini targ‘ib etuvchi eshittirishlar tayyorlanadi.

“**Xalq sayli**” loyihasida madaniyat va istirohat bog‘larida dorbozlar, polvonlar chiqishlari uyushtiriladi. Milliy kurash musobaqalari, milliy xalq o‘yinlari, qo‘g‘irchoq teatrлari namoyishi tashkil etiladi.

“**Fazilatli xalq**” loyihasi doirasida barcha tashkilot va muassasada “**Xushmuomalalik — inson ziynati**” tadbirlari o‘tkaziladi. Ushbu tadbirlarda muomala madaniyatiga oid suhbatlar tashkil qilinadi.

O‘tgan ajdodlarimizni xotirlash, qabristonlarini hashar yo‘li bilan tozalashga qaratilgan keksa va yosh avlod hamkorligida “**Ziyorat**” hamda “**Ajdodlarga ehtirom**” loyihalari amalga oshiriladi.

“**Mahallada duv-duv gap**” loyihasi doirasida davlat va jamoat tashkilotlari, homiylar tomonidan “**Saxovat**” uylaridagi qariyalar holidan xabar olinadi, madaniy tadbirlar uyushtiriladi, “**Oilaviy mehribonlik uylari**” tarbiyalanuvchilari yo‘qlanadi, “**Inson aziz**” loyihasi doirasida kattalar va bolalar shifoxonalarida

davolanayotgan bemorlarni yo‘qlash tadbirlari amalga oshiriladi, Mehr-muruvvat, saxovat, e’zoz kabi aksiyalar amalga oshiriladi.

“Sport — do‘st, sport — hamroh” loyihasi doirasida mashhur sportchilar ishtirokida sport musobaqalari (shaxmat, shashka, stol tennisi) tashkil etiladi.

“Odob — adabiyotning asoslisidir”, “Men sevgan kitob”, “Mushoira”, “G‘azalxon yoshligim” - mavzularida taniqli yozuvchi va shoirlarning, yosh ijodkorlarning gulxan atrofidagi badiiy kechasi tashkil etiladi. Ijodiy suhbatlar, bahr-u bayt, aytishuvlar uyuşhtiriladi.

Milliy maqom va estrada yo‘nalishida ijod qilayotgan yosh xonandalar ishtirokida “Men — yoshlikman!” ma’naviy-ma’rifiy musiqiy dasturi tashkil qilinadi.

Ko‘chalar, xiyobonlar, bozorlar, yirik savdo markazlarida LED ekranlarda milliy qadriyatlarimiz targ‘ibotiga qaratilgan videoroliklar, qisqa hujjatli va animatsion filmlar namoyishlari yo‘lga qo‘yiladi.

Ma’naviyat marafoni tadbirlaridan reportajlar televideniya orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga yoritiladi.

“MILLIY O‘YINLAR FESTIVALI”

“Yoshlar milliy o‘yinlari” festivalini o‘tkazish tartibi bo‘yicha NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom Sirdaryo yoshlari o‘rtasida “Yoshlar milliy o‘yinlari” festivalini (keyingi o‘rinlarda – festival deb yuritiladi) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu festival 10-yoshdan 30-yoshgacha (*31-yoshga to ‘Imagan bo‘lishi kerak*) bo‘lgan yoshlар o‘rtasida yakka yoki jamoaviy tarzda milliy qadriyatlarimiz hamda milliy o‘yin turlarini keng namoyon etishga xizmat qiladi.

1.3. Tashkiliy qo‘mita festival nizomiga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish vakolatiga ega.

II. Festivalning maqsad va vazifalari

2.1. **Festival maqsadi:** Yurtimizda yosh avlodni Vatanga sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, mehr-oqibat, insoniylik, bag‘rikenglik va bунyodkorlik, xayr-sahovat muhitini yanada mustahkamlash, milliy o‘yinlarni keng targ‘ib etishdir.

2.2. Festivalning asosiy vazifalari:

- yoshlarni har tomonlama sog‘lom, jismonan baquvvat, ma’nан zukko va topqir bo‘lib ulg‘ayishlariga ko‘maklashish;

- bugunda unutilib borayotgan qator milliy o‘yinlar va xalq og‘zaki ijodini kengroq targ‘ib etish yo‘li bilan yoshlарimizni sog‘lom turmush tarziga targ‘ib etish;

- yoshlarda xalqimizga xos bag‘rikenglik, jamoaviylik, jipslik tamoyillarini qaror toptirish;

- yoshlarning xalqimiz tarixi, madaniyati va ko‘hna

qadriyatlariga oid bilim-malakalarini oshirish, bu orqali ularning qalblarida iftixor tuyg‘ularini uyg‘otishdan iborat.

III. Festival ishtirokchilarining huquq va majburiyatları

3.1. Festival ishtirokchilari quyidagi huquqlarga ega:

- 10-yoshdan 30-yoshgacha mazkur Nizomning 1.2. bandida ko‘rsatilgan yoshlari festivalda ishtirok etadi.

3.2. Festival ishtirokchilarining asosiy majburiyatları quyidagilardan iborat.

- 18-yoshgacha bo‘lgan ishtirokchining qonuniy vakili ota-onasi (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar)ning festival Nizomi, shartlari bilan to‘la tanishgan va uni qabul qilgan holda bolaga festivalda ishtirok etishiga ruxsat berilishi so‘ralgan arizasi;

- mazkur Nizomga zid harakatlarni amalga oshirmaslik;
- festival o‘tkaziladigan kunlarda belgilangan muddatlardan kech qolmaslik.

IV. Festivalni tashkil etish tartibi va bosqichlari:

4.1. Festival to‘rt bosqichda o‘tkaziladi.

- Festivalning 1-bosqichi mahallalarda yoshlari yetakchilari, maktabning ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, sport murabbiylari, madaniyat bo‘limi xodimlari boshchiligidagi mazkur mahallaning markazida joylashgan maktabning ochiq maydonida 1-5 mart kunlari o‘tkaziladi;

- Festivalning 2-bosqichi har bir sektorda eng katta maydon tanlanib 10 mart kuni sayl tarzida o‘tkaziladi;

- Festivalning 3-bosqichi (mahalliy bosqichi) tuman (shahar) Navro‘z ayyomi davomida sayl tarzida tuman (shahar) markazidagi katta maydonda (*bolalar-o‘smirlar maktabi maydonida tashkil etish maqsadga muvofiq*) o‘tkaziladi;

- Festivalning 4-hududiy bosqichi aprel oyida o‘tkaziladi. Festivalning o‘tkazish muddati viloyat tashkiliy qo‘mitasi tomonidan kamida 10 kun oldin e’lon qilinadi.

4.2. Festival shartlari tashkilotchilar tomonidan belgilab berilgan milliy xalq o‘yinlari, xalq og‘zaki ijodlari asnosida o‘tkaziladi. Quyi, mahalliy bosqichda qo‘srimcha tarzda milliy xalq o‘yinlari va xalq og‘zaki ijodi namunalari har bir hududning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, qo‘srimcha o‘zgartirishlar kiritish mumkin bo‘ladi.

4.3. Festivalning barcha bosqichlarida quyidagi milliy xalq o‘yinlari o‘tkaziladi.

- Varrak uchirish
- Chillak
- Qarab tep (lanka)
- Besh tosh
- Xo‘rozlar jangi
- O‘rtaga tushar
- Yelkada kurashish (ot mindi)
- Eshak mindi
- Milliy kurash
- Tosh ko‘tarish
- Arqon tortish

4.4. Har bir milliy xalq o‘yinlari o‘tkazish tartibi va ishtirokchilar soni qat’iy belgilangan bo‘lib, festival ishtirokchilari rioya etishlari shart. Har bir bosqich g‘oliblari keyingi bosqichga yo‘llanmani qo‘lga kiritishadi.

V. Festival doirasida o‘tkaziladigan milliy xalq o‘yinlari va ularning shartlari

5.1. “Varrak uchirish” o‘yini.

“Varrak uchirish” o‘yinida 10-15-yosh toifasidagi 3 nafar (*1 nafar qiz, 2 nafar yigit*) yoshlar ishtirok etadi.

O‘yinni o‘tkazish qoidalari:

varraklarni yasash uchun 1 soat vaqt ajratiladi, ipning uzunligi 100 metrdan oshmasligi lozim.

ishtirokchilar tomonidan yasalgan varraklar osmonda 20 daqqa vaqt ichida yuqorilashi va havoda muallaq tura olishi lozim.

G‘olibni aniqlash: Varrak g‘altagidan chiqqan ipidan to varrakkacha bo‘lgan masofani o‘lchash orqali ipning uzunligiga qarab o‘yin g‘olibi aniqlanadi.

5.2. “Chillak” o‘yini.

“Chillak” o‘yinida 12-13-yosh toifasidagi 3 nafardan yoshlар ishtirok etadi.

O‘yinni o‘tkazish qoidalari:

ishtirokchilar ikki jamoaga bo‘linadi;

jamoalardan bir nafardan o‘yinchilar hakamning buyrug‘i bilan uzun tayoq yordamida chillakni havoda eng ko‘p urib turganini hisobga olib, o‘yinni boshlab beradi;

yerga kovlangan chuqurchaning ustiga kichik cho‘p tashlab qo‘yilib, ishtirokchi qo‘lidagi kichik tayoq bilan cho‘pning bir tomonini mo‘ljallab uradi hamda cho‘p uzoqlikka uchirib yuboriladi. Galma galdan har bir ishtirokchi ushbu amalni bajaradi.

G‘olibni aniqlash: Cho‘pning eng uzoqqa uchish masofasiga qarab o‘yin g‘olibi aniqlanadi.

5.3. “Qarap tep” (lanka) o‘yini.

“Qarap tep” o‘yinida 12-16-yosh toifasidagi 3 nafardan yoshlар ishtirok etadi.

O‘yinni o‘tkazish qoidalari: o‘yinchilar guruh bo‘lib o‘ynaydi. 5—10 ta oddiy tepishdan so‘ngra 5—10 sach, 5—10 lurdan boshlanishi kerak. Bular hammasini tushirmsandan bajarib bo‘lgandan keyin keyingi o‘yin boshlanadi. Agarda o‘yinchi qo‘yilgan vazifani oxirigacha yetkaza olmasa, o‘yinni navbatdagi o‘yinchi boshlashi mumkin.

Har bir harakat ketma-ketlikda bajariladi. Shuningdek, o‘yin davomida dam olib yoki ilib olish bilan bajarish man etiladi.

G‘olibni aniqlash: Jamoaning barcha a’zolari tomonidan jami tepgan lankalar soniga qarab g‘olib jamoa aniqlanadi.

5.4. “Besh tosh” o‘yini.

“Besh tosh” o‘yinida 14-15-yosh toifasidagi 1 nafardan yoshlар ishtirok etadi.

O‘yinni o‘tkazish qoidalari: ushbu o‘yinda qizlar ishtirok etishadi. 5 ta toshni bir qo‘lda har xil harakatlar, har bir barmoq orasidan o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Ishtirokchilar beshta toshni navbatи bilan havoga otib ularni ketma-ketlikda bittadan beshtagacha toshni ilib olishi hamda har bir otilgan toshning sonini ketma ketlikda oshirgan holatda bajariladi.

G‘oliblarni aniqlash: o‘yin g‘olibi har bir tushirib yuborilgan toshlarga jarima hamda barcha amallarni ketma-ketlikda bajargan ishtirokchiga har bir amalga ball berish orqali aniqlanadi.

5.5. “Xo‘rozlar jangi” o‘yini.

“Xo‘rozlar jangi” o‘yinida 14-15-yosh toifasidagi 3 nafardan yoshlар ishtirok etadi.

O‘yinni o‘tkazish qoidalari: O‘yin uchun aylana chiziladi. Har bir jamaodan navbatи bilan bittadan “jangchi xo‘roz” qo‘llarini orqaga qilgan holda aylana ichiga kirib, bir oyoqda hakkalab bir-birlarini yelkalari bilan turtadilar. Qaysi ishtirokchi jismonan baquvvat bo‘lsa raqibini aylanadan turtib chiqarib yuboradi. Jang paytida jangchi xo‘rozlar doiradan bir vaqtning o‘zida chiqib ketsa, o‘yin boshqatdan boshlanadi.

G‘olibni aniqlash: Ikki oyoqda turib olgan yoki doiradan chiqib ketgan xo‘roz mag‘lubiyatga uchragan hisoblanadi. Shu orqali jami jamoalarning umumiy mag‘lubiyati hamda yutug‘i orqali g‘olib aniqlanadi.

5.6. “O‘rtaga tushar” o‘yini.

“O‘rtaga tushar” o‘yinida 15-17-yosh toifasidagi 6 nafardan (3 nafar qiz, 3 nafar yigit) yoshlар ishtirok etadi.

O‘yinni o‘tkazish qoidalari: O‘yin 2 bo‘limga bo‘linib

jamı 10 daqıqa o'yin bo'ladi. Birinchi jamoa 10 metr oralig'idagi 2 ta chiziqqa joylashadi. Ikkinci jamoa markazda chizilgan chiziqda joylashadi. O'yinda birinchi jamoa to'pni otgan holatda ikkinchi jamoaga tekkizishi kerak. Hakam hushtak chalgan paytdan birinchi jamoa 5 daqıqa ikkinchi jamoa a'zolariga ko'proq to'pni tekkizishi va har bir tekkizgan to'pi uchun 1 balldan olishi kerak. O'yin qura tashlangan holatda to'p uruvchilar va o'rtaga tusharlar aniqlab olinadi. Agar o'rtaga tushgan jamoa a'zolari to'p uruvchilarning to'pini ushlab olsa jamoa o'z joyini almashadi. O'rtaga tushgan o'yinchilar belgilab berilgan chiziqdan chiqib ketmasligi kerak.

G'olibni aniqlash: O'yin davomida eng ko'p ball olgan jamoa g'olib deb topiladi.

5.7. "Yelkada kurashish" (ot mindi) o'yini.

"Yelkada kurashish" (ot mindi) o'yinida 15-17-yosh toifasidagi 4 nafardan yoshlар ishtirot etadi.

O'yinni o'tkazish qoidalari: O'yinni oddiy kurashdan farqi-kurashning o'zi faqat tepada, ya'ni ikkinchi qavatda bo'ladi. Yelka kurashda faqat tepadagilar olishadi, pastda ishtirot etayotgan o'yinchining vazifasi tepe o'yinchining tizzalaridan quchoqlab olib, mahkam ushlab kurashga ko'maklashishdir. O'rtada turgan hakam hushtak chalishi bilan tepe kurashchilar kurashadi. Qaysi birlari birinchi bo'lib to'shakka raqibni ag'darib tushirsa, ular yutgan hisoblanadi va jamoasiga ochko keltiradi.

G'olibni aniqlash: O'yin davomida raqib jamoa a'zolarini ko'p marta yiqitgan g'olib deb topiladi.

5.8. "Eshak mindi" o'yini.

"Eshak mindi" o'yinida 16-17-yosh toifasidagi 5 nafardan yoshlар ishtirot etadi.

O'yinni o'tkazish qoidalari: Ishtirotchi jamoalar suvoriylar hamda ulovlar guruhiга qura tashlash yo'li bilan bo'linadi. Ulovlar guruhi paravoz shaklida bir-birlarining bellaridan quchgancha engashib turadi. Suvoriylar guruhi esa navbatи bilan, uzoqdan yugurib kelib ularning ustiga sakraydi. Agar "suvoriy" sakrash chog'ida qo'pollik qilsa o'yindan

chetlashtiriladi. Barcha “suvoriy”lar ulovlar guruhi ustiga sakrab bo‘lgach, hakamning ishorasi bilan paravoz shaklida yura boshlaydi. Ulovdagilar “paravoz”ni uzmasdan hakam belgilagan manzilgacha “suvoriy”larni ko‘tarib borishi kerak. Agar manzilga yetmasdan “ulov”lar ajralib ketsa yoki raqib jamoa yiqilib tushsa o‘yin qaytadan boshlanadi. ular belgilangan manzilga yetsa jamoalar o‘rin almashadi. Ya’ni ulovlar guruhi endi suvoriylar, suvoriylar esa ulovlar guruhiga aylanadi. O‘yin shu tariqa davom etadi.

G‘olibni aniqlash: O‘yindavomida qaysi jamoa belgilangan manzilga yetkazib borolmasa ushbu mag‘lub hisoblanib, raqib jamoa g‘olib deb topiladi.

5.9. “Milliy kurash” o‘yini.

“Milliy kurash” o‘yinida 16-30-yosh toifasidagi 6 nafar (*o‘g‘il bolalar - 55-57 kg, 58-61 kg, 70-75 kg, qizlar – 48-50 kg, 52-54 kg, 56-58 kg*) yoshlari ishtirok etadi.

O‘yinni o‘tkazish qoidalari: Kurash tushuvchilar 14x14 metrdan 16x16 metrgacha bo‘lgan kurash gilamida yoki tik turgan holatda bellashadi. Kurashda bo‘g‘ish, raqibga og‘riq beruvchi usullar qo‘llashga ruxsat etilmaydi. Kurash bellashuv vaqtiga 3 daqiqaligida qilib belgilanganadi. Ishlatilgan usullarga bajarilishiga mos ravishda “chala”, “yonbosh”, “halol” baholari, qoidaga zid harakatlarga esa “tanbeh”, “dakki”, “g‘irrom” jazolari beriladi.

G‘olibni aniqlash: Kurashuvchi “halol” bahosini olsa (yoki raqibi “g‘irrom” bilan jazolansa) bu uning g‘alabasini bildiradi. Ikki bor “yonbosh” bahosini olish (yoki raqibining ikki bor “dakki” deya jazolanishi) ham g‘alabani anglatadi. “Chala” baholari hisobga olib boriladi, baholar tengligida oxirgi baho olgan kurashchiga g‘alaba beriladi, kurashchilarining baho va jazolari soni teng holatda baho ustunlikka ega bo‘ladi, jazolar soni teng bo‘lsa oxirgi jazo olgan mag‘lub hisoblanadi, agar barchasi teng (*yoki baho va jazo olinmagan*) bo‘lsa, g‘olib hakamlarning ko‘pchilik ovoziga ko‘ra e’lon qilinadi.

5.10. “Tosh ko‘tarish” o‘yini.

“Tosh ko‘tarish” o‘yinida 18-30-yosh toifasidagi 3 nafardan yoshlар ishtirok etadi.

O‘yinni o‘tkazish qoidalari: O‘yin uchun 16 kg toshdan foydalaniladi. Ishtirokchilar har biri ketma ketlikda saflanadi. Bosh hakamni ishorasi bilan bellashuvga kirishishadi. Ushbu o‘yinda har bir jamoadan dastlab bиринчи, keyin ikkinchi va uchinchi ishtirokchi toshni yelkaga ko‘targan holatda tosh ko‘tarishadi. Ishtirokchilarni tosh ko‘tarish vaqtida belgilangan qoidalarga zid ravishda bajarilgan urinishlari hisobga olinmaydi. Ishtirokchilar toshni yelkaga olgandan so‘ng toshni tushirmagan holatda ko‘tarishi lozim. Toshni yelkadan tushirgan, yoki toshni yelkaga qo‘ygan holda 5 soniyadan ko‘p dam oлган ishtirokchining bundan keyingi ko‘targan toshlari hisobga olinmaydi.

G‘olibni aniqlash: O‘yinning g‘olib jamoasi eng ko‘p qoidaga asosan tosh ko‘targan jamoaga qarab aniqlanadi.

5.11. “Arqon tortish” (tortishmachоq) o‘yini.

“Arqon tortish” (tortishmachоq) o‘yinida 27-30-yosh toifasidagi 5 nafardan(o‘g‘il bola) yoshlар ishtirok etadi.

O‘yinni o‘tkazish qoidalari: O‘rtaga chiziq chizilib, chiziq o‘rtasiga arqon qo‘yiladi. Arqonning qоq o‘rtasiga rangli latta bog‘lanadi. Hakam signal berishi bilan ikkala jamoa o‘yinchilari arqонни o‘z tomonlariga tortadi. Har bir jamoa arqонни talashayotgan vaqtда uning rangli lattagacha bo‘lgan bir qismidan, ya’ni arqonning yarmidan ushlashi mumkin. Arqon faqat qо‘l bilan tortiladi. Oyoqni tirash uchun yerni yumshatish, chuqurchalar o‘yish, qо‘llar bilan yerga tayanish, arqонни oyoqlar orasiga qistirish, yerga o‘tirish yoki yotish mumkin emas. Shu qoidalarni buzib, arqонни o‘z tomoniga tortib o‘tkazgan jamoaning yutug‘и hisobga olinmaydi.

G‘olibni aniqlash: O‘yinning g‘olibi raqib jamoa a’zolarini belgilangan chiziqdan tortib o’tgan jamoa g‘olib hisoblanadi.

VI. Hakamlar hay’ati tarkibini shakllantirish

Festivalning hakamlar hay’ati tarkibini shakllantirishda Xalq ta’limi boshqarmasi, Madaniyat boshqarmasi, Yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi, “Barkamol avlod” bolalar maktabi va boshqa hamkor tashkilot vakillarini jalg qilish maqsadga muvofiq.

Hakamlar hay’ati tarkibiga ishtirok etadigan jamoalarga aloqasi bo‘lмаган vakillar kiritilishi lozim.

VII. G‘oliblarni taqdirlash

Festivalda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan ishtirokchi g‘oliblar tashkilotchilar tomonidan maxsus diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.



“MAHALLADA DUV-DUV” GAP LOYIHASI

“Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!”
shiori ostida o‘tkaziladigan “Mahallada duv-duv gap”
ma’naviy-ma’rifiy va madaniy-musiqiy tadbiri
S S E N A R I Y S I

O‘tkaziladigan joy:

O‘tkaziladigan vaqtি:
2024-yil “__”-yanvar
Soat : 11:00 da

*Tadbir sanitariya-epidemiologiya qoidalariga qat’iy rioxaliga qilingan holda
Ichki ishlar va Milliy gvardiya xodimlari tomonidan aholi xayfsizligi
to‘liq ta’minlangan holda o‘tkaziladi.*

Ekranda “Yangi O‘zbekiston” roligi namoyish etiladi.

Boshlovchilar

va

Birinchi boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, nuroniylar otaxonlar onaxonlar!

Ikkinci boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar, hurmatli mehmonlar!

“Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!”
shiori ostida o‘tkaziladigan “Mahallada duv-duv gap”
ma’naviy-ma’rifiy va madaniy, musiqiy tadbirimizga xush kelibsiz!

Birinchi boshlovchi: Aziz do’stlar! Vatanimiz madhiyasi – qalbida o‘z Vataniga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bor har qanday kishida milliy g‘urur, o‘ziga xos faxr, eng muhimi yurtga mehr uyg‘otadi.

Ikkinci boshlovchi: Bu milliy timsolda xalqimizning o‘tmishi, buguni va kelajagi, shuningdek, ziynati, orzu-o‘yi, maslak-maqsadlari mujassam. Keling, tadbirimizni Vatanimizga

bo‘lgan cheksiz hurmatimiz ifodasi sifatida Davlat madhiyasi bilan boshlaylik.

Birinchi boshlovchi: Sahnaga _____
ansamblini taklif etamiz.

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi ijro etiladi.
“Vatan madhi” videoroligi namoyish etiladi**

Bu dunyoda jannatmonand yerlar bisyor,
Bu dunyoda oqu qaro ellar bisyor,
Ammo yo‘qdir bu dunyoda sendek diyor,
Jonim ichra jonimdursan, O‘zbekiston

Tuprog‘ingda ajdodlarim izi qolgan,
Bobolarim terlarining tuzi qolgan,
Har gardida momolarim ko‘zi qolgan
onim ichra jonimdursan, O‘zbekiston.

Ikkinci boshlovchi: Aziz do‘sstar, tadbirimizning
asosiy qismini boshlash uchun sahnaga shahar hokimi **Otabek
Nosirovning** tabrik so‘zları bilan boshlaymiz. Marhamat!

O‘zbek elim, nuri diydam, qarog‘imsan,
O‘zbek elim, osmonimu tuprog‘imsan,
Ham quvonchim, ham baxtimu firog‘imsan,
Jonim ichra jonimdursan, O‘zbekiston.

Beshikingda allalading dunyolarni,
Dunyo ochgan necha-necha daholarni,
Bolam deding yuraklariadolarni,
Jonim ichra jonimdursan, O‘zbekiston.

Birinchi boshlovchi: “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zosi, _____ ni sahnamizga taklif etamiz. Marhamat!

Ikkinci boshlovchi: Mamlakatimizda barcha sohalar qatori, ma’naviy-ma’rifiy yuksalish yo‘lida ham samarali ishlar olib borilmoqda.

Keling, avvalo ushbu shaharda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tayyorlangan videorolikni birgalikda tomosha qilsak. **“Yangiyer taraqqiyoti”** rolik namoyish etiladi. Marhamat!

Birinchi boshlovchi: Tabrik uchun so‘z “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zosi, _____ ni sahnamizga taklif etamiz, Marhamat!

Ikkinci boshlovchi: Sahnamizga Yangiyer shahari Bosh imom Xatibi **Isayev Xidoyatulla Ikromovichni** taklif etamiz. Marhamat!

Birinchi boshlovchi: _____ ijrosida **“Sohibqiron Amir Temur”** spektaklidan parcha namoyish etiladi. Marhamat!

Ikkinci boshlovchi: Aziz mehmonlar, tadbirimizning muhim jarayonlarini boshlaymiz ya’ni navbat **“Viktorina”**ga savollarni o‘qib eshittiraman, savollarga to‘g‘ri javob bergen g‘oliblarimiz nodir kitoblar jamlanmasi bilan taqdirlanadilar.

Diqqat qilamiz savolni o‘qiymen:

Savol: Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning mashhur asarlarini sanab bering?

Javob: “Hindiston”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Saydana” .

Savol: Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning “Hamsa” asaridagi besh dostonni sanab bering?

Javobi: “Hayrat ul-Abror”, “Farxod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy”.

Savol: “Haq olinur, lekin berilmas” iborasi qaysi ma’rifatparvar jadid bobomizning ilmiy-ijodiy merosiga mansub?

Javob: Muhmudxo‘ja Behbudiya.

Birinchi boshlovchi: Haqiqatdan ham, ma’naviyay-ma’rifiy yuksalish borasidagi islohotlar Yangi O‘zbekiston strategiyasida jamiyatning ruhini belgilab beruvchi eng muhim yo‘l sifatida bejiz tanlanmagan. Tashkil qilinayotgan bunday tadbirlarning asosiy maqsadi ham xalqimizni ulug‘ maqsadlarimiz yo‘lidagi hamjihatlikni yanada mustahkamlashdan iborat.

Milliy kuy va qo‘shiqlarimiz eng katta ma’naviy boyligimiz hisoblanadi. Keling, endi navbatni ana shunday qo‘shiqlarga beraylik.

Ikkinchi boshlovchi: Katta ashula: “**Bog‘ aro**” – Ijro etadi _____ va _____ lar.

Marhamat, kutib oling – sahnaga “**Ko‘zmunchoq**” bolalar folklor jamoasini taklif etimiz. Marhamat!

Hurmatli tadbir ishtirokchilari marhamat kutib oling, sahnada “**Ayajonlar**” folklor jamoasining chiqishlari.

Marhamat, kutib oling – sahnaga xonanda _____ ni taklif etamiz.

Sohibqiron qo‘llarida qalqon bo‘lding,
Ulug‘bekning nigohida osmon bo‘lding,
Mirzo Bobur yuragida armon bo‘lding,
Jonim ichra jonimdursan, O‘zbekiston.

Qo‘li qadoq dehqon elim, sulton elim,
Ko‘ksi yurtga doim balogardon elim,
O‘z yurtiga sohibqiron xoqon elim,
Jonim ichra jonimdursan, O‘zbekiston!

Birinchi boshlovchi: Aziz yurtdoshlar! Shuning bilan
“Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” shiori
ostida o‘tkazilgan **“Mahallada duv-duv gap”** tadbirimizni
yakunlaymiz.

Ikkinci boshlovchi: Vatanimiz tinch, osmonimiz hamisha
musaffo bo‘lsin. **Yangi-2024-yil butun xalqimizga muborak
bo‘lsin!**

E’tiboringiz uchun rahmat!

“MA’NAVIY OLAM SEHRI” TANLOVI

“TASDIQLAYMAN”

Badiiy ijodkorlar uyushmasi
viloyat bo‘limi rahbari
A.Boybekov

2023-yil 6-yanvar

“TASDIQLAYMAN”

Ma’naviyat va ma’rifat markazi
viloyat bo‘limi rahbari
M.Xaitov

2023-yil 6-yanvar

**Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Sirdaryo
viloyat bo‘limi hamda Madaniyat boshqarmasi bilan
hamkorlikda yoshlarni qishki ta’til davrida bo‘sh vaqtlarini
mazmunli tashkil etish maqsadida
“Ma’naviy olam sehri” tanlovini o’tkazish to‘g‘risidagi
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu tanlov 2023-yil 7-12 yanvar kunlari yoshlarning qishki ta’til davrida bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida yosh rassomlar va havaskor 10-25 yoshlar o‘rtasida o’tkaziladi.
2. Ishtirokchilar “Ma’naviy olam sehri” mavzusida qo‘lda chizilgan rasmlarni taqdim etadilar.
3. Tanlovni tashkil etish va o’tkazish jarayoni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi hamda Sirdaryo viloyat Madaniyat boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

5. Tanlovning asosiy maqsadi — yoshlarni Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, 5 tashabbus doirasida bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, yetuk rassomlar ijodini o‘rganish, yosh ijodkorlarni aniqlash, tasviriy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirish, yoshlarning iste’dodlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish

hamda yoshlarni tizimli rag‘batlantirishdan iborat.

III. Tanlovni o‘tkazish bosqichi va muddatları

6. “Ma’naviy olam sehri” rasmlar tanlovi ikki bosqichda o‘tkaziladi:

- birinchi bosqichda ijodiy ishlar 2023-yil 7-11-yanvar qadar Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining tegishli tuman va shahar bo‘linmalarida qabul qilinadi.

- ikkinchi bosqichda ijodiy ishlar 2023-yil 12-yanvar kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limida qabul qilinadi.

6.1. G‘oliblar 12-yanvar kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limida ikkinchi bosqich g‘oliblari aniqlanadi va rag‘batlantiriladi, shuningdek g‘oliblar nomlari ijtimoiy tarmoqlaridagi rasmiy kanallari orqali e’lon qilinadi.

IV. Tanlovni tashkil etish va g‘oliblarni aniqlash tartibi

7. Tanlovning o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash bo‘yicha soha mutaxassislardan iborat tarkibda Hakamlar hay’ati tuziladi.

8. Yoshlarning ijodiy ishlari Hakamlar hay’ati tomonidan tanlov shartlari asosida baholanadi.

9. Tanlov shartlari:

a) rasmlar qo‘lda chizilgan bo‘lishi kerak;

b) qalam, akvarel, guash va boshqa buyoqlardan foydalanishga ruxsat etiladi;

v) format A3 va undan kattaroq bo‘lgan asarlar qabul qilinadi.

10. Chizilgan rasmning orqa tomonida Ishtirokchi-o‘quvchining ismi, sharifi va otasining ismi, o‘qish joyi, va mobil telefon raqami to‘liq ko‘rsatiladi. Pasport nusxasi alohida ilova qilinadi.

11. Jami ijodiy ishlar Hakamlar hay’ati a’zolari tomonidan ko‘rib chiqiladi hamda g‘oliblar aniqlanadi.

12. G‘oliblarni aniqlashda Hakamlar hay’ati quyidagi

mezonlarga e'tibor qaratadi va ball qo'yish orqali baholaydi:

- rasmning mavzuga mosligi va mazmun-mohiyati to'laqonli ochib berilganligi - 10 ball;

- muallifning rasm yaratilishida Yangi O'zbekistonni madh etish, Vatan tinchligi, yurtga sadoqat va shukronalik, o'ziga xos ijodkorlik xususiyatlarining ifoda etilganligi, ishning plagiat (boshqa tayyor ijod namunasidan foydalanish) talabiga javob berishi - 10 ball.

Jami 20 ball.

13. Tanlovda 3 ta 1-o'rin, 3 ta 2-o'rin va 3 ta 3-o'rin , jami 9 nafar eng maksimal ball olgan yoshlar g'olib deb topiladi.

V. Tanlov g'oliblarini taqdirlash.

14. G'oliblar 2023-yil 12-yanvar kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, Madaniyat boshqarmasi hamda Badiiy ijodkorlar uyushmasi viloyat bo'limining maxsus diplomi va sovg'alar bilan taqdirlanadi.

“YOSH KITOBXON” TANLOVI

“Yosh kitobxon” tanlovini tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom yoshlar o'rtasida “Yosh kitobxon” Respublika tanlovini (keyingi o'rinnarda – Tanlov) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Tanlov yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirishga yo'naltirilgan.

3. Tanlovni yuqori saviyada o'tkazish uchun Yoshlar ishlari agentligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va

maktab ta’limi vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tashkiliy-amaliy ishlar bo‘yicha, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-ijodiy ishlar bo‘yicha mas’ul tashkilotlar etib belgilanadi.

4. O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va tilidan qat’iy nazar 10-yoshdan 30-yoshgacha bo‘lgan barcha yoshlar (2023-yilgi bosqichda “Yosh kitobxon”, “Yosh kitobxon oila” tanlovlaringin 2022-yilgi respublika bosqichi g‘oliblari (2024-yildan 2023-yilgi) (1, 2, 3-o‘rinni egallagan g‘oliblar) qatnasha olmaydi) Tanlovda ishtirok etish huquqiga ega. Ishtirokchilar talabidan kelib chiqib, ularning Tanlov jarayonida qoraqalpoq va rus tillaridan foydalanishiga ruxsat beriladi.

5. Respublika ishchi guruhi Tanlov nizomiga o‘zgartirish va qo‘sishmchalar kiritish vakolatiga ega.

II. Tanloving maqsad va vazifalari

6. Qadimiy va betakror diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma’naviy merosini, umumbashariy sivilizatsiya, madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shtigan ulug‘ ajdodlarimizning noyob asarlarini asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, ularning nodir merosini, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, yoshlarimizni o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish maqsadida tashkil etiladi.

7. Tanlovnin tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko‘zda tutiladi:

yoshlarning barcha qatlamlarini kitob o‘qishga da’vat etish hamda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish va intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, joylarda adabiy muhit shakllanishiga erishish;

yoshlar ongida Vatanimiz tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy hayot haqidagi tushuncha va bilim-ko'nikmalarini yanada yuksaltirish;

qadimiy va betakror diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma'naviy merosini, umumbashariy sivilizatsiya, madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning noyob asarlarini asrab-avaylash;

yoshlarni o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish.

III. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi, baholash mezonlari

8. Tanlovni tashkil etish va uni o'tkazish vazifasi Respublika ishchi guruhi zimmasiga yuklatiladi.

Respublika ishchi guruhi:

tanlovnin o'tkazish borasida qaror qabul qiladi;

tanlovnining asosiy bosqichlari va tartib-qoidalari haqida ishtirokchilarni xabardor qiladi;

barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlarni yaratadi;

tanlov o'tkazish borasida oshkoraliqni ta'minlaydi;

tanlov ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etadi;

mazkur Nizomga asoslangan holda tanlovni o'tkazilishini tashkil etadi.

9. Tanlovga ishtirokchilar onlayn tarzda ariza topshirish orqali qabul qilinadi.

10. Tanlovda yoshlar o'zлari yashayotgan yoki o'zлari o'qiyotgan (ishlayotgan) muassasasi joylashgan hududdan ishtirok etadi.

11. Tanlov quyidagi uchta yosh toifasi bo'yicha alohida-alohida tartibda o'tkaziladi:

10-yoshdan 14-yoshgacha bo‘lgan yoshlar (2023-yilgi bosqichda 2009–2013-yillar oralig‘ida tug‘ilganlar);

15-yoshdan 19-yoshgacha bo‘lgan yoshlar (2023-yilgi bosqichda 2004–2008-yillar oralig‘ida tug‘ilganlar);

20-yoshdan 30-yoshgacha bo‘lgan yoshlar (2023-yilgi bosqichda 1993–2003-yillar oralig‘ida tug‘ilganlar).

2024-yilgi bosqichlardan yosh toifasi bo‘yicha tug‘ilish yili ham o‘sib boradi.

12. Tanlov besh bosqichda tashkil etiladi.

Birinchi bosqich tanlovning arizalar qabul qilish va mahalla bosqichi bo‘lib, unda tanlovida ishtirok etish istagini bildirgan yoshlardan arizalar qabul qilinadi va ishtirokchilar test sinovi asosida saralanadi.

Tanlovga arizalar 1-sentabrga qadar onlayn qabul qilinadi. Test sinovi sentabr oyining ikkinchi o‘n kunligida o‘tkaziladi. Unda ariza topshirgan yoshlar ilmiy-ommabop, o‘zbek va jahon adabiyotiga, buyuk adiblarimiz hayoti va ijodiga oid 25 ta test savollariga javob berishadi.

Har bir to‘g‘ri javob uchun 4 balldan belgilanadi. Test natijalariga ko‘ra mahallalar kesimida har bir yosh toifasi bo‘yicha eng ko‘p ball to‘plagan 1 nafar ishtirokchi (1 tadan ko‘p ishtirokchi o‘rtasida qayta test olish orqali saralanadi) keyingi (ikkinchi) bosqichda ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi.

Ikkinci bosqich tanlovning sektor bosqichi bo‘lib, oktabr oyining birinchi o‘n kunligida o‘tkaziladi, unda ishtirokchilar ilmiy-ommabop, o‘zbek va jahon adabiyotiga, buyuk adiblarimiz hayoti va ijodiga oid 25 ta test savollariga javob berishadi.

Har bir to‘g‘ri javob uchun 4 balldan belgilanadi. Test natijalariga ko‘ra mahallalar kesimida har bir yosh toifasi bo‘yicha eng ko‘p ball to‘plagan 3 nafar ishtirokchi (3 tadan ko‘p ishtirokchi o‘rtasida qayta test olish orqali saralanadi)

keyingi (uchinchchi) bosqichda ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi.

Uchinchi bosqich tanloving tuman (shahar) bosqichi bo‘lib, oktabr oyining uchinchi o‘n kunligida quyidagi 1 ta shart asosida o‘tkaziladi:

“Tezkor savol-javob” sharti.

Ushbu shartda Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan adabiyotlardan tuzilgan 4 ta savolga 4 ta javob berish so‘raladi. Ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida Hakamlar hay’ati tomonidan qo‘srimcha savollar berilishi mumkin.

Ishtirokchilar savollarni bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko‘rish uchun vaqt ajratilmaydi, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

Har bir yosh toifasi bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritgan ishtirokchilar (har bir yosh toifasi bo‘yicha 1 nafardan jami 3 nafar) to‘rtinchi (hududiy) bosqichga yo‘llanma oladi.

To‘rtinchi bosqich tanloving hududiy (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar) bosqichi bo‘lib, noyabr-dekabr oylari davomida quyidagi 2 ta shart asosida o‘tkaziladi:

“Badiiy asarlar bilimdoni” sharti.

Ushbu shartda Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan o‘zbek va jahon adabiyotiga oid kitoblarning mazmun-mohiyati, g‘oyasi va ahamiyatini ishtirokchilardan sharhlab berishi so‘raladi. Sharplash jarayonida ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida Hakamlar hay’ati tomonidan qo‘srimcha savollar berilishi mumkin.

Ishtirokchilar badiiy asar nomini bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko‘rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

“Tezkor savol-javob” sharti.

Ushbu shartda Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan adabiyotlardan tuzilgan 5 ta savolga 5 ta javob berish so‘raladi. Ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida Hakamlar

hay’ati tomonidan qo’shimcha savollar berilishi mumkin.

Ishtirokchilar savollarni bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko‘rish uchun vaqt ajratilmaydi, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

Har bir yosh toifasi bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritgan ishtirokchilar (jami 3 nafar) Respublika bosqichiga yo’llanma oladi.

Beshinchi bosqich tanlovning Respublika bosqichi bo‘lib, dekabr oyining ikkinchi o‘n kunligida teletanlov shaklida, quyidagi 5 ta shart asosida o‘tkaziladi:

1-shart. “Badiiy asarlar bilimdoni” sharti.

Ushbu shartda biror asardagi syujetga oid epizod o‘qib eshittiriladi.

Ishtirokchidan ushbu asar nomini topishi hamda uning mazmun-mohiyati, g‘oyasi va ahamiyati to‘g‘risida sharhlab berishi so‘raladi. Sharhlash jarayonida ishtirokchining bilimini tekshirish maqsadida Hakamlar hay’ati tomonidan qo’shimcha savollar berilishi mumkin.

Tayyorgarlik ko‘rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi. Asar nomi to‘g‘ri topilganda 50 ball qo‘yiladi (topilmasa 0 ball) hamda ishtirokchiga asar nomini topaolmasa ham sharhlash imkoniyati beriladi va 50 ballgacha baholanadi.

2-shart. “Tezkor savol-javob” sharti.

Ushbu shartda Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan adabiyotlardan tuzilgan 5 ta savolga 5 ta javob berish so‘raladi. Ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida Hakamlar hay’ati tomonidan qo’shimcha savollar berilishi mumkin.

Ishtirokchilar savollarni bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko‘rish uchun vaqt ajratilmaydi, savol o‘qilishi bilan 10 soniya ichida javob berishi lozim, javoblar uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

3-shart. “Buyuk mutafakkir va adib” sharti.

Ushbu shartda ishtirokchilar ulug‘ allomalar, o‘zbek va jahon adabiyoti namoyondalari nomini bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko‘rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi.

Ishtirokchilardan ulug‘ allomalar, o‘zbek va jahon adabiyoti namoyondalari hayoti, faoliyati va ijodi haqida ma’lumot berishlari so‘raladi. Ishtirokchining bilimini tekshirish maqsadida Hakamlar hay’ati tomonidan qo’shimcha savollar berilishi mumkin.

Har bir ulug‘ allomalar, o‘zbek va jahon adabiyoti namoyondalari to‘g‘risida ma’lumot bergenlik uchun 100 ballgacha baho beriladi.

4-shart. “She’riyat” sharti.

Ushbu shartda ishtirokchilar Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan she’riy parchani davom ettirishi hamda mazmun-mohiyatini sharhlab berishi so‘raladi.

Ishtirokchilarga tayyorgarlik ko‘rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

She’riy parchani topgani uchun 50 ball (aks holda 0 ball) hamda ishtirokchiga she’riy parchani topaolmasa ham sharhlash imkoniyati beriladi va 50 ballgacha baholanadi.

5-shart. “Insho yozish” sharti.

Ushbu shartda ishtirokchilar mavzulardan birini bilet tortish orqali tanlaydi va ushbu mavzu yuzasidan o‘z fikrini yozma ravishda bayon etishi so‘raladi. Insho yozishda ishtirokchi mavzuning mazmun-mohiyatini ochib berishi, imlo va uslubiy qoidalarga rioya etgan holda 3-5 (10-14-yosh 3, 15-19-yosh 4, 20-30-yosh 5) sahifadan kam bo‘lmasligiga e’tibor qaratishi lozim.

Ishtirokchilarga insho yozishi uchun 60 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

13. Tanloving tuman, hududiy va Respublika bosqichlari

bo‘lib o‘tadigan joyi, sanasi Respublika ishchi guruhi tomonidan belgilanadi hamda 3 kun oldin ishtirokchilarga ma’lum qilinadi.

14. Tanlovlар jarayonida foydalaniladigan savollar va testlar majmuasi Ekspertlar komissiyasi tomonidan tanlovnинг barcha bosqichlari uchun alohida tuziladi, maxsus konvertlarga solinib, muhrlanadi hamda joylarga yetkaziladi.

15. Tanlovnинг Respublika bosqichida yuqoridagi shartlar mavzusi saqlangan holda, shartlar mazmuni va tartibi teletanlovga moslashtirilgan shaklda o‘tkazilishi mumkin.

16. Tanlovnинг har bir bosqichida shoir-yozuvchilar, o‘qituvchilar, jurnalistlar va boshqa mutaxassislardan iborat Hakamlar hay’atlari tuziladi.

Hakamlar hay’ati ishtirokchilarni baholashda ularning belgilangan kitoblarni o‘qiganini tekshiradi hamda mohiyatini to‘g‘ri tushungani, til qoidalariga amal qilishi, aniq raqam va tahlillarga asoslanishi, fikrini bayon qilish qobiliyatini inobatga oladi.

17. Tanlovnинг saralash bosqichi o‘tadigan kundan kamida bir oy oldin belgilangan kitoblar ro‘yxati e’lon qilinadi hamda kitoblar ro‘yxatini tuzishda ishtirokchilarning yosh toifasi inobatga olinadi.

18. Barcha shartlar bo‘yicha umumiylar qo‘sib hisoblanganda eng yuqori ko‘rsatkichga erishgan ishtirokchi tanlov g‘olib deb topiladi. Agar ishtirokchilar o‘rtasida umumiylar to‘plangan ballar teng kelib qolgan taqdirda, I, II va III o‘rnlarni taqsimlash Hakamlar hay’ati a‘zolari tomonidan hal etiladi. Bunda ballari teng kelib qolgan ishtirokchilarga qo‘sishimcha 5 tadan test savollari beriladi. Shundan so‘ng ham ularning javoblari bir xil chiqsa, bu jarayon g‘olib aniqlangunga qadar davom etadi.

19. Hakamlar hay’ati tomonidan qabul qilingan qarorga nisbatan qaror nusxasi berilgan sanadan boshlab 3 kunlik muddat ichida manfaatdor shaxs Respublika ishchi guruhiga apellyatsiya tartibida shikoyat kiritish huquqiga ega.

20. Respublika ishchi guruhi 10 kunlik muddat ichida murojaatni ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi va qaror nusxasini murojaat qilgan shaxsga yuboradi:

shikoyatni qanoatlantirishni rad etib, Hakamlar hay'atining qarorini o'zgarishsiz qoldirish;

shikoyatni qanoatlantirib, Hakamlar hay'ati qarorini qisman yoki butunlay bekor qilib, yangi qaror qabul qilish.

21. Respublika ishchi guruhi apellyatsiya tartibida shikoyatni ko'rib chiqishi

bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

IV. G'oliblarni taqdirlash

22. Tanlov g'oliblari quyidagi tartibda taqdirlanadi:

Tanloving tuman (shahar) bosqichi g'oliblari:

uchta yosh toifasida 1-o'rinni egallagan ishtirokchilarining har biri bir donadan

maxsus to'plam, hududiy bosqichiga yo'llanma, diplom bilan;

uchta yosh toifasida 2-o'rinni egallagan ishtirokchilarining har biri bir donadan

maxsus sovg'a, diplom bilan; uchta yosh toifasida 3-o'rinni egallagan ishtirokchilarining har biri bir donadan maxsus sovg'a, diplom bilan taqdirlanadi.

Tanloving hududiy (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar) bosqichi g'oliblari:

uchta yosh toifasida 1-o'rinni egallagan ishtirokchilarining har biri Respublika bosqichiga yo'llanma, diplom bilan;

uchta yosh toifasida 2-o'rinni egallagan ishtirokchilarining har biri noutbuk, diplom bilan;

uchta yosh toifasida 3-o'rinni egallagan ishtirokchilarining har biri planshet, diplom bilan,

Tanloving Respublika bosqichi g'oliblari: uchta yosh toifasida 1-o'rinni egallagan ishtirokchilarining har biri "Prezident sovg'asi" yengil avtomobil (yoki 100 million so'm pul mukofoti)

va diplom bilan;

uchta yosh toifasida 2-o‘rinni egallagan ishtirokchilarning har biri 50 mln (ellik million) so‘m pul mukofoti va diplom bilan;

uchta yosh toifasida 3-o‘rinni egallagan ishtirokchilarning har biri 30 mln (o‘ttiz million) so‘m pul mukofoti va diplom bilan;

Respublika bosqichining qolgan barcha ishtirokchilari 10 mln (o‘n million) so‘mdan pul mukofoti va sertifikat bilan taqdirlanadi.

V. Yakuniy qoidalar

23. Tanlovni o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi:

Yoshlar ishlari agentligi mablag‘lari;

mas‘ul ijrochilarning budget va budgetdan tashqari mablag‘lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar

“Yosh kitobxon” tanloviga qo‘yilgan kitoblar ro‘yxati

12-14-yosh doirasi uchun:

1. Xudoyberdi To‘xtaboyev “Sariq devni minib”

2. Tohir Malik “Alvido, bolalik”

3. Abdulla Qahhor “O‘tmishdan ertaklar”

4. Jyul Vern “O‘n besh yoshli kapitan”

5. Jonatan Swift “Gulliverning sayohatlari”

6. Aziz Nesin “G‘aroyib bolalar”

7. Ivan Turgenev “Mumu”

8. Xalq og‘zaki ijodi “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostoni

15-16-yosh doirasi uchun:

1. Javlon Jovliyev “Qo‘rqma”

2. Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar”

3. Maqsud Qoriyev “Spitamen”

4. Mixail Lermontov “Zamonamiz qahramoni”

- 
5. Ernest Xeminguey “Chol va dengiz”
 6. Mixail Bulgakov “Ityurak”
 7. Abduqayum Yo‘ldoshev “Puankare”
 8. Xalq og‘zaki ijodi “Sarvinoz” dostoni
17-18-yosh doirasi uchun:
 1. Habibulla Qodiriy “Otam haqida”
 2. Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar”
 3. Abdulla Avloniy ” Turkiy guliston yoxud axloq”
 4. Sadriddin Ayniy “Sudxo‘rning o‘limi”
 5. Alixonto’ra Sog‘uniy “Turkiston qayg‘usi”
 6. Lev Tolstoy ” Hojimurod”
 7. Shukur Xolmirzayev “O‘n sakkizga kirmagan kim bor?”
 8. Xalq og‘zaki ijodi “Rustamxon” dostoni

19-25-yosh doirasi uchun:

1. Xalq og‘zaki ijodi “Malikayi ayyor”
2. Alisher Navoiy “Lison ut-tayr”
3. Normurod Norqobilov “Qora quyun”
4. Oybek “Navoiy”
5. Shoyim Bo‘tayev “Sho‘rodan qolgan odamlar”
6. Tohir Malik “Murdalar gapirmaydilar”
7. Jek London “Martin Iden”
8. Onore de Balzak “Gorio ota”
9. Ernest Xemenguey “Alvido, qurol”
10. Stendal “Qizil va qora”
11. Asqad Muxtor ” Chinor”
12. Chingiz Aytmatov “Asrga tatigulik kun”
13. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”
14. Ulug‘bek Hamdam “Muvozanat”
15. Ivan Turgenev “Otalar va bolalar”

“YOSH KITOBXON OILA” TANLOVI NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom yosh oilalar o‘rtasida “Yosh kitobxon oila” tanlovini (keyingi o‘rinlarda- Tanlov deb yuritiladi) o‘tkazish tartibini belgilaydi.
2. Ushbu Tanlov yosh oilalar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirishga yo‘naltirilgan.
3. Tanlovnii yuqori saviyada o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi mas’ul tashkilotlar etib belgilanadi.
4. O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va tilidan qat’iy nazar 30-yoshgacha bo‘lgan barcha yosh oilalar Tanlovida ishtirok etish huquqiga ega. Ishtirokchilar talabidan kelib chiqib, ularning Tanlov jarayonida qoraqalpoq va rus tillaridan foydalanishiga ruxsat beriladi.
5. Respublika ishchi guruhi Tanlov nizomiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish vakolatiga ega.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

6. Tanlov yosh oilalar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, har bir oila a’zosini kitob mutolaasiga keng jalg etish, ular o‘rtasida uzaro mehr-oqibat, odob-axloq; fazilatlarini rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi.
7. Tanlovnii tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko‘zda tutiladi:
Yosh oilalarning barcha qatlamlarini kitob o‘qishga da’vat etish hamda kitob kishiga bo‘lgan qiziqish va intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, joylarda adabiy muhit shakllanishiga erishish; yoshlar ongida Vatanimiz tarixi, milliy vazifalarini

qadriyatlar, ijtimoiy hayot haqidagi tushuncha va bilim-ko‘nikmalarini yanada yuksaltirish;

qadimiy va betakror diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma’naviy merosini, umumbashariy sivilizatsiya, madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shtgan ulug‘ ajdodlarimizning noyob asarlarini asrab-avaylash;

yoshlarni o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish.

III. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish tartibi, baholash mezonlari

8. Tanlovni tashkil etish va uni o‘tkazish vazifasi Respublika ishchi guruhi zimmasiga yuklatiladi.

Respublika ishchi guruhi:

Tanlovni o‘tkazish borasida qaror qabul qiladi;

Tanloving asosiy bosqichlari va tartib-qoidalari haqida ishtirokchilarni xabardor qiladi;

barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlarni yaratadi;

tanlov o‘tkazish borasida oshkoraliqni ta’minlaydi;

Tanlov ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etadi;

mazkur Nizomga asoslangan holda Tanlovni o‘tkazilishini tashkil etadi.

9. Tanlovga ishtirokchilar onlayn va an’anaviy tarzda (mahalladagi yoshlar yetakchisi orqali) ariza topshirish orqali qabul qilinadi.

10. Tanlovda yosh oilalar o‘zлari doimiy yoki vaqtincha yashayotgan mahalladan ishtirok etadi.

11. Tanlovda 1992-2004-yillar oraligida tug‘ilgan yosh oilalar (er va xotin) ishtirok etish huquqiga ega.

12. Tanlov besh bosqichda tashkil etiladi.

Birinchi bosqich tanlovning mahalla bosqichi bo‘lib, unda tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan yosh oilalardan arizalar qabul qilinadi.

Tanlovga arizalar 2022-yil 28-aprel kuniga qadar qabul qilinadi.

Arizalar oila a’zolaridan birining (er yoki xotin) nomidan topshiriladi.

Bir mahalladan 2 va undan o‘rtik yosh oila ishtirok etish uchun ariza topshirgan bo‘lsa, 29-30-aprel kunlari mahallada mavjud ta’lim muassasasi yoki kutubxonada savol-javob asosida saralanadi va bitta yosh oila sektor bosqichiga yo’llanma oladi.

Ikkinci bosqich tanlovning sektor bosqichi bo‘lib, may oyining birinchi o‘n kunligida mahalla bosqichida g‘olib bo‘lgan bittadan yosh oilalar o‘rtasida quyidagi shart asosida o‘tkaziladi:

“Badiiy asarlar bilimdoni” sharti.

Ushbu shartda Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan o‘zbek va jahon adabiyotiga oid kitoblar (ro‘yxat ilova qilinadi) mazmun-mohiyati, g‘oyasi va ahamiyatini ishtirokchilardan sharhlab berish so‘raladi.

Sharhlash jarayonida ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida hakamlar hay’ati tomonidan qo‘srimcha savollar berilishi mumkin.

Ishtirokchilar badiiy asar nomini bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko‘rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 3 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

Savollar tuman (shahar)da shakllantirilgan Ekspertlar komissiyasi tomonidan tuziladi.

Uchinchi bosqich tanlovning tuman (shahar) bosqichi bo‘lib, har yili 15-may kuni barcha tuman, shaharlar miqyosida sektor bosqichida 1- o‘rinni qo‘lga kiritgan (har bir sektordan bittadan oila) yosh oilalar o‘rtasida quyidagi 2 ta shart shart asosida o‘tkaziladi:

“Badiiy asarlar bilimdoni” sharti.

Ushbu shartda Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan o‘zbek va jahon adabiyotiga oid kitoblarning mazmun-mohiyati, g‘oyasi va ahamiyatini ishtirokchilardan sharhlab berish so‘raladi. Sharhlash jarayonida ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida hakamlar hay’ati tomonidan qo‘srimcha savollar berilishi mumkin.

Ishtirokchilar (bu shartda faqatgina ayollar ishtirok etadi) badiiy asar nomini bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko‘rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 3 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

“Tezkor savol-javob” sharti.

Ushbu shartda Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan kitoblardan tuzilgan 2 ta savolga 2 ta javob berish so‘raladi. Ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida hakamlar hay’ati tomonidan qo‘srimcha savollar berilishi mumkin.

Ishtirokchilar (bu shartda faqatgina erkaklar ishtirok etadi) savollarni bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko‘rish uchun vaqt ajratilmaydi, javob berish uchun 1 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

G‘oliblikni qo‘lga kiritgan 1 ta oila vakillari hududiy bosqichga yo‘llanma oladi.

Savollar hududlarda shakllantirilgan Ekspertlar komissiyasi tomonidan tuziladi, maxsus konvertlarga solib muhrlanadi va tuman (shahar)larga yetkaziladi.

To‘rtinchı bosqich tanloving hududiy (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar) bosqichi bo‘lib, may-iyun oyida quyidagi 3 ta shart asosida o‘tkaziladi:

“Badiiy asarlar bilimdoni” sharti.

Ushbu shartda biror asardagi syujetga oid epizod yoki she’riy parcha o‘qib eshittiriladi. Ishtirokchidan ushbu asar nomini yoki she’riy parchada tushirib qoldirilgan so‘zni topishi

hamda uning mazmun-mohiyati, g‘oyasi va ahamiyati to‘g‘risida sharhlab berishi so‘raladi. Sharhlab jarayonida ishtirokchining bilimini tekshirish maqsadida hakamlar hay’ati tomonidan qo‘srimcha savollar berilishi mumkin.

Tayyorgarlik ko‘rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi. Asar nomi yoki she’riy parchadagi so‘z to‘g‘ri topilganda 50 ball qo‘yiladi (topilmasa 0 ball) hamda ishtirokchiga asar nomini yoki she’riy parchadagi so‘zni topaolmasa ham sharhlab imkoniyati beriladi va 50 ballgacha baholanadi.

“Tezkor savol-javob” sharti.

Ushbu shartda Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan kitoblardan tuzilgan 4 ta savolga 4 ta javob berish so‘raladi. Ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida hakamlar hay’ati tomonidan qo‘srimcha savollar berilishi mumkin.

Ushbu shartda Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan adabiyotlardan tuzilgan 4 ta savolga 4 ta javob berish so‘raladi (oila a’zolaridan 2 ta savolga er, 2 ta savolga xotin javob berishi shart).

Ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida hakamlar hay’ati tomonidan qo‘srimcha savollar berilishi mumkin.

G‘oliblikni qo‘lga kiritgan 1 ta oila vakillari respublika bosqichiga yo‘llanma oladi.

Savollar Respublikada shakllantirilgan Ekspertlar komissiyasi tomonidan tuziladi, maxsus konvertlarga solib muhrlanadi va hududlarga yetkaziladi.

Beshinchi bosqich tanlovning Respublika bosqichi bo‘lib, iyun oyida teletanlov shaklida, quyidagi 3 ta shart asosida o‘tkaziladi:

1-shart. “Badiiy asarlar bilimdoni” sharti.

Ushbu shartda biror asardagi syujetga oid epizod o‘qib eshittiriladi.

Ishtirokchidan ushbu asar nomini topishi hamda uning

mazmun-mohiyati, g‘oyasi va ahamiyati to‘g‘risida sharhlab berishi so‘raladi. Sharhlash jarayonida ishtirokchining bilimini tekshirish maqsadida hakamlar hay’ati tomonidan qo‘srimcha savollar berilishi mumkin.

Tayyorgarlik ko‘rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi. Asar nomi to‘g‘ri topilganda 50 ball qo‘yiladi (topilmasa 0 ball) hamda ishtirokchiga asar nomini topaolmasa ham sharhlash imkoniyati beriladi va 50 ballgacha baholanadi.

2-shart. “Tezkor savol-javob” sharti.

Ushbu shartda Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy ommabop adabiyotlardan tuzilgan 5 ta savolga 5 ta javob berish so‘raladi.

Ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida hakamlar hay’ati tomonidan qo‘srimcha savollar berilishi mumkin.

Ishtirokchilar savollarni bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko‘rish uchun vaqt ajratilmaydi, javoblar uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi.

Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

3-shart. “Erkin mavzu”.

Ushbu shartda ishtirokchilar Ekspertlar komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mavzulardan birini bilet tortish orqali tanlaydi va ushbu mavzuda monolog yoki ma’ruza tayyorlash orqali uz fikrini bayon qilib berishi so‘raladi.

Ishtirokchilarga tayyorgarlik ko‘rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

Savollar Respublikada shakllantirilgan Ekspertlar komissiyasi tomonidan tuziladi.

IV. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash

13. Sektor bosqichi g‘oliblarini taqdirlash tartibi

Birinchi o‘rin - 300 ming so‘m pul mukofoti, diplom

Ikkinchi o‘rin - 200 ming so‘m pul mukofoti, diplom

Uchinchi o‘rin - 100 ming so‘m pul mukofoti, diplom
Sektor bosqichining qolgan barcha ishtirokchilari maxsus sertifikat bilan taqdirlanadi.

14. Tuman (shahar) bosqichi g‘oliblarini taqdirlash tartibi
Birinchi o‘rin - 500 ming so‘m pul mukofoti, diplom
Ikkinchi o‘rin - 400 ming so‘m pul mukofoti, diplom
Uchinchi o‘rin - 300 ming so‘m pul mukofoti, diplom
15. Hududiy bosqichi g‘oliblarini taqdirlash tartibi
Birinchi o‘rin - 1 500 000 (Bir million besh yuz ming) so‘m pul mukofoti, diplom

Ikkinchi o‘rin - 1 200 000 (Bir million ikki yuz ming) so‘m pul mukofoti, diplom

Uchinchi o‘rin - 1 000 000 (Bir million) so‘m pul mukofoti, diplom qolgan barcha ishtirokchilari 10 donadan badiiy kitob va maxsus sertifikat bilan taqdirlanadi.

16. Respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash tartibi
Birinchi o‘rin “Prezident sovg‘asi” 1 dona yengil avtomashina, kitoblar to‘plami, diplom

Ikkinchi o‘rin 50 000 000 (ellik million) so‘m pul mukofoti, kitoblar to‘plami, diplom

Uchinchi o‘rin 30 000 000 (o‘ttiz million) so‘m pul mukofoti, kitoblar to‘plami, diplom

Qolgan barcha ishtirokchilar 10 000 000 (un million) so‘mdan pul mukofoti, kitoblar to‘plami, sertifikat bilan taqdirlanadi

“ZAKOVAT” TANLOVI

Mahallalar o‘rtasida “Zakovat” intellektual o‘yinining Respublika turnirini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

“Zakovat” intellektual o‘yini – jamoaviy musobaqa bo‘lib, unda jamoalar belgilangan vaqt doirasida mantiqiy savollarga javob berish bo‘yicha musobaqalashadi. O‘yin davomida jamoalarning maqsadi raqiblarga qaraganda ko‘proq savollarga to‘g‘ri javob berishdan iborat. Yoshlar ishlari agentligi, “Zakovat” intellektual klubi nodavlat notijorat tashkiloti turnir tashkilotchilari hisoblanadi.

II. Turnirni o‘tkazish tartibi

2.1. Turnir 5 bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich – mahalla bosqichi;

2-bosqich – sektor bosqichi;

3-bosqich – tuman (shahar) bosqichi;

4-bosqich – hududiy bosqich;

5-bosqich – Respublika bosqichi.

Mahalla bosqichi: ko‘chalarda (ko‘p qavatli uylar) kesimida jamoalar ro‘yxati shakllantiriladi va telegram bot orqali ro‘yxatdan o‘tkaziladi; ko‘chalar kesimida shakllangan jamoalar o‘rtasida saralash bosqichlari tashkil etiladi hamda mahalla bosqichida ko‘chalar kesimida saralangan jamoalar o‘zaro bellashadi; mahalla bosqichida g‘olib bo‘lgan jamoa keyingi bosqichga yo‘llanmani qo‘lga kiritadi.

Sektor bosqichi: mahalla bosqichida g‘olib bo‘lgan jamoalar sektor bosqichida o‘zaro bellashadi;

intellektual o‘yinda 1, 2, 3-o‘rinni qo‘lga kiritgan g‘olib jamoalar keyingi bosqichga yo‘llanmani qo‘lga kiritadi (istisno tariqasida sektorda 4 tadan kam MFY mavjud bo‘lsa, bunda

jamoalar tuman (shahar) bosqichida ishtirok etishi mumkin).

Tuman (shahar) bosqichi: sektor bosqichida g‘olib bo‘lgan jamoalar tuman (shahar) bosqichida o‘zaro bellashadi.

intellektual o‘yinda 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan g‘olib jamoa keyingi bosqichga yo‘llanmani qo‘lga kiritadi.

Hududiy bosqich

- tuman (shahar) bosqichida g‘olib bo‘lgan jamoalar hududiy bosqichda o‘zaro bellashadi.
- intellektual o‘yinda 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan g‘olib jamoa keyingi bosqichga yo‘llanmani qo‘lga kiritadi.

Respublika bosqichi

- hududiy bosqichda g‘olib bo‘lgan jamoalar Respublika bosqichida o‘zaro bellashadi.
- intellektual o‘yinda 1-2-3-o‘rinni qo‘lga kiritgan g‘olib jamoalar Respublika bosqichi g‘olibi sifatida taqdirlanadi.

III. Turnirda ishtirok etuvchi jamoalar

3.1. Turnirda o‘z arizasini topshirgan va 7 nafardan iborat (6 nafar asosiy, 1 nafar zaxira) tarkibdagi barcha 16-yoshdan 30-yoshgacha bo‘lgan yoshlar ishtirok etishi mumkin.

3.2. Turnirda ishtirok etishni istagan MFYlar tuman (shahar) Yoshlar ishlari agentligi rahbari nomiga ariza hamda jamoa tarkibi va jamoa murabbiyi haqidagi ma’lumotlarni mahalliy Tashkiliy qo‘mita elektron manziliga yuborishlari lozim.

3.3. Ariza va jamoalar MFY raisi tomonidan imzolagan hamda muhr bilan tasdiqlangan ko‘rinishda PDF formatida yuborilishi lozim. Fayl nomi hamda xat mavzusiga MFY nomi ko‘rsatilishi kerak.

3.4. Jamoa tarkibiga kiritilgan yoshlarning haqiqatdan ayni shu MFYda yashashi MFY ma’muriyati tomonidan kafolatlanishi lozim.

Agar jamoa tarkibiga kiritilgan ishtirokchi ushbu MFYda istiqomat qilmasa, unda jamoa turnirdan chetlatiladi. (jamoa

a'zosi turnirga ishtirok etishidan 6 oy oldin MFYda vaqtinchalik yashayotgan bo'lsa ham jamoa tarkibida ishtirok eta oladi)

3.5. Jamoa a'zolari turnirda ishtirok etish uchun pasportini bevosita tashkiliy qo'mitaga ko'rsatishi shart. Ushbu hujjatlar taqdim etilmasa, ishtirokchi turnirga qo'yilmaydi.

3.6. Turnir davomida jamoaning asosiy tarkibida ko'pi bilan 6 nafar, kamida 5 nafar ishtirokchi qatnashishi mumkin. Har bir tur yakunlangach, jamoa 1 a'zolari o'zgartirilishi mumkin. Bu haqida tashkiliy qo'mitani ogohlantirish lozim.

3.7. Jamoalarning asosiy tarkibida bir paytda 2 nafardan ortiq professional bilimdonlar ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi. Professional bilimdon deganda, oxirgi 3-yil ichida "Zakovat" intellektual ko'rsatuvining ekran o'yinlarida ishtirok etgan bilimdonlar tushuniladi.

3.8. Hududiy bosqichdan muvaffaqiyatli o'tib, Respublika bosqichiga yo'l olgan jamoalar o'z tarkibini o'zgartirishlari mumkin. Bu haqida tashkiliy qo'mitani elektron manziliga xabar yuborish orqali ogohlantirish lozim bo'ladi.

IV. Turnirni tashkil etish va o'tkazish tartibi

4.1 Turnirni tashkil etish va uni o'tkazish bo'yicha mas'ul tashkilotchilarning vakillaridan tarkib topgan Tashkiliy qo'mita zimmasiga yuklatiladi.

4.2 Tashkiliy qo'mita tarkibiga mahalliy va hududiy hokimliklarning Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha hokim o'rinnbosari, Yoshlar ishlari agentligi mahalliy va hududiy rahbarlari, hududdagi oliy ta'lim muassasalarining birinchi prorektor (direktorning birinchi o'rinnbosari)lari "Zakovat" intellektual klubi nodavlat notijorat tashkiloti hududiy koordinatorlari hamda kiritiladi.

4.3 Tashkiliy qo'mita tanlovni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq barcha bosh masalalarni hal etadi, shu bilan birga ariza, shikoyat va takliflarni ko'rib chiqadi. Shuningdek,

“Zakovat” intellektual o‘yinini o‘tkazish bo‘yicha savollar tarkibini tasdiqlaydi va sir tutilishini ta’minlaydi.

V. Savol-javob jarayoni

5.1. Jamoalarga jami 20 ta savol (10 ta savoldan 2 ta tur), Respublika bosqichida ham jami 30 ta savol (10 tadan 3 ta tur) beriladi.

5.2. Savollar o‘zbek tilida, mantiqiy mazmunga ega, “Nima? Qayerda? Qachon?” o‘yinlarining xalqaro standartlariga javob beradigan ko‘rinishda bo‘ladi.

5.3. Jamoalarga bir paytda bir xil savol beriladi, jamoalar o‘z javoblarini maxsus javob blankalariga yozib berishlari lozim bo‘ladi. Maxsus javob blankining yuqori qismida albatta jamoa nomi, tur va savol raqami ko‘rsatilishi kerak. Ushbu ma’lumotlar hamda jamoaning javob varianti maxsus javob blankning bir tomonida bo‘lishi kerak.

5.4. Har bir savolni o‘ylash uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. Boshlovchi 50 soniya bo‘lganda vaqt tugashiga 10 soniya qolgani haqida ogohlantiradi.

5.5. 1 daqiqa vaqt tugagach, jamoalar o‘z javoblarini maxsus javob blankalariga yozishlari uchun yana qo‘srimcha 10 soniya beriladi. Bunda boshlovchi 10 dan gacha ovoz chiqarib sanaydi.

5.6. Jamoalar savol berilib, “vaqt ketdi” ishorasi bildirilgan so‘ng jami 1 daqiqa-yu 10 soniya ichida javob variantlarini yozib, maxsus javob blankni baland ko‘targan holda turishlari lozim.

5.7. Jamoalarning javob variantlari oldindan maxsus tayinlangan sekundantlar tomonidan yig‘ib olinadi va hisob-komissiyasiga topshiriladi. Javob blanklarini jamoa a’zolari tomonidan mustaqil olib kelinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

5.8. O‘z vaqtida javob blankini ko‘tarishga ulgurmagan jamoaning javobi qabul qilinmaydi. Bunda jamoaning javobi garchi to‘g‘ri bo‘lsa ham, ochko berilmaydi. Kechikkan jamoaning javob blankiga kechikkanligi to‘g‘risida maxsus belgi qo‘yiladi.

5.9. Javob varianti tushunarli husnixat bilan yozilgan bo‘lishi va aniq javobni ko‘zlashi lozim. Mantiqiy tugallanmagan javob varianti qabul qilinmaydi.

5.10. Javob blankida faqat 1 ta javob varianti aks etishi lozim. Ikki yoki undan ortiq variant yozilgan javob variantlari, garchi ulardan biri to‘g‘ri bo‘lsa ham, qabul qilinmaydi va jamoaga ochko berilmaydi.

5.11. Ustiga chizilgan, ustidan bo‘yalgan yoki qavsga olingen javob variantlari hisobga olinmaydi. Masalan, savolning to‘g‘ri javobi “Qulf va kalit” deylik. Bunday vaziyatda jamoa javob blankiga “qulf” so‘zini yozdi va qavs ichida “(kalit)” deya qo‘sib qo‘ydi. Bunday holatda jamoaning javobi aniq javob sifatida qabul qilinmaydi va ochko berilmaydi.

5.12. Jamoalar turnir davomida qo‘sishimcha manbalardan (telefon, planshet, shpargalka va h.k.) foydalanishi taqiqlanadi. Kuzatuvchilar tomonidan bunday holat aniqlangan taqdirda jamoa a’zolari to‘liq tarkibi bilan turnirdan chetlatiladi va ularning barcha ochkolari bekor qilinadi.

5.13. Jamoa a’zolari savollarga javob izlash jarayonida ularga chetda turgan tomoshabinlar yoki boshqa shaxslar tomonidan javob variantlarini aytish qat’iyan taqiqlanadi. Kuzatuvchilar tomonidan bunday holat aniqlangan taqdirda javob variantini aytishga uringan tomoshabin turnir o‘tayotgan bino hududidan chiqarib yuboriladi, javob varianti aytilgan jamoaning esa ushbu savol uchun bergen javobi qabul qilinmaydi.

5.14. Savol-javoblar o‘ynalayotgan jarayonda jamoa a’zolarining o‘rnidan turishi, joy almashishi, boshqa jamoa vakillari yoki boshqa shaxslar bilan gaplashishi, baland ovozda, boshqalarga xalaqit beradigan darajada shovqin qilishi va o‘yin jarayoniga oid bo‘lmagan boshqa xatti-harakatlar qilishi taqiqlanadi, favqulodda holatlar bundan mustasno. Bunday holat aniqlangan taqdirda jamoaga ogohlantirish berilishi yoki 1 ochkodan 3 ochkogacha jarima ochkosi ushlab qolinishi mumkin.

Agar ogohlantirish va jarima ochkolaridan keyin ham ushbu holat takrorlanaversa, jamoa turnirdan chetlatiladi va ularning barcha ochkolari bekor qilinadi.

VI. G‘olibni aniqlash tartibi

6.1. Har bir savolga bir ochkodan beriladi. Turnirda eng ko‘p ochko olgan jamoalar g‘olib sifatida topiladi. Bunda jamoalarning apellyatsiya natijasida olgan ochkolari ham inobatga olinadi.

6.2. Agar sovrinli o‘rinlar uchun ikki yoki undan ortiq jamoalar bir xil ochko olsa, unda ular o‘rtasida birinchi to‘g‘ri/ noto‘g‘ri javobgacha qo‘srimcha savollar beriladi. Sovrinli o‘rnlarga da‘vogarlik qilmaydigan bir nechta jamoalar o‘rtasida qo‘srimcha o‘yin o‘tkazilmaydi.

VII. Apellyatsiya tartibi

7.1. Turnirda yuzaga keladigan bahsli vaziyatlarni hal qilish uchun Apellyatsiya hay’ati (keyingi o‘rinlarda – AH) tashkil etiladi.

7.2 Turnir yakunida jamoalar natijalari e’lon qilingach jamoalar AHga murojaat bilan chiqishi mumkin. Turlar o‘rtasida yoki turnir davomida apellyatsiya berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

7.3. Quyidagi mazmundagi apellyatsiyalar qabul qilinadi:

1) javobni to‘g‘ri deb hisoblash bo‘yicha apellyatsiya – jamoaning hisob komissiyasi ochko bermagan savol(lar)ga bergen javobini hisoblash uchun qilgan murojaati;

2) savolni noto‘g‘ri deb hisoblash bo‘yicha apellyatsiya – jamoaning savol matnida yoki javobida faktik xatolar borligi uchun savolni hisobdan chiqarish to‘g‘risida qilgan murojaati.

Boshqa mazmunda berilgan apellyatsiyalar (masalan, boshqa jamoalarning javobini hisoblash yoki hisoblamaslik bo‘yicha qabul qilinmaydi).

7.4. Apellyatsiyalar faqat jamoa sardorlari tomonidan AHga yuzma-yuz murojaat orqali beriladi.

7.5. Tur o‘rtalarida hamda turnir yakunlangach jamoalarning barcha natijalari e’lon qilinadi. Shunga ko‘ra, jamoa sardorlari aynan qaysi turda berilgan javob varianti qabul qilinmaganligini

aytib, murojaat qilinadi.

7.6. Apellyatsiya berish uchun jamoadan 2-yoki undan ortiq vakilning AH oldiga kelishi, yaqinlashishi, apellyatsiya jarayoniga asralishishi qat’iyan man etiladi.

Ushbu holatlar aniqlanishi bilan jamoa apellyatsiya berish huquqidan mutlaqo mahrum etiladi va shu holat yuz bergungacha apellyatsiya natijasida hisoblangan ochkolari ham bekor qilinadi.

7.7. Apellyatsiya maxsus tayinlangan AH tomonidan ko‘rib chiqiladi. Ushbu jarayonga boshqa shaxslarning aralashishi taqiqlanadi.

7.8. AH 3 nafar a’zodan iborat bo‘ladi.

7.9. AH ochiq ovoz berish yo‘li orqali qaror qabul qiladi. Bunda oddiy ko‘pchilik ovoz qoidasi amal qiladi. Ya’ni 3 kishidan 2 kishi “ha”, 1 kishi “yo‘q” deb ovoz bergen bo‘lsa, unda o‘sha javob qabul qilinadi yoki aksincha. AH a’zolari betaraf qolishi mumkin emas.

7.10. Agar savolning noto‘g‘riliqi uchun apellyatsiya tushmagan bo‘lsa, unda AH savolni o‘z tashabbusi bilan hisobdan chiqarish huquqiga ega emas.

7.11. Agar AH qarori natijasida noto‘g‘ri savol hisobdan chiqarilsa, unda o‘sha savol uchun barcha jamoalarning ochkolari bekor qilinadi va o‘sha savol bo‘yicha apellyatsiyalar ham ko‘rib chiqilmaydi.

7.12. Javobni to‘g‘ri deb hisoblash bo‘yicha apellyatsiya kelib tushmagan bo‘lsa ham, AH xuddi shu savol bo‘yicha berilgan boshqa apellyatsiya natijasida jamoalarga ochko yozishi mumkin. Masalan, savolning to‘g‘ri javobi “chiston”. Bir jamoa “she’riy topishmoq” degan qabul qilinmagan javob variantiga apellyatsiya berdi. AH tomonidan ushbu javob varianti to‘g‘ri deya qabul qilindi va jamoaga ochko berildi. Bunday vaziyatda apellyatsiya bergen yoki bermaganidan qat’i nazar, “she’riy topishmoq” variantini yozgan barcha jamoalarga ochko taqdim etiladi.

7.13. Apellyatsiyani ko‘rib chiqish jarayonida aniqlashtirish uchun internet vositalari yoki boshqa manbalardan foydalanish mumkin.

VIII. G‘oliblarni taqdirlash

8.1. Intellektual turnirda ishtirot etgan barcha jamoalarga maxsus sertifikatlar topshiriladi.

8.2. Barcha bosqich g‘olib jamoa a’zolari diplom bilan taqdirlanadi.

8.3. Respublika bosqichida ikkinchi va uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritgan jamoalar qimmatbaho va esdalik sovg‘alari hamda diplomlar bilan taqdirlanadi.

8.4. Respublika bosqichida champion bo‘lgan jamoaga qimmatbaho va esdalik sovg‘alari, diplom hamda maxsus kubok topshiriladi.

IX. Tashkiliy guruh va hisob-komissiyasi

9.1. Turnirni saviyali o‘tkazish maqsadida tashkiliy guruh shakllantiriladi.

9.2. Tashkiliy guruhga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- turnirni sifatli savollar bilan ta’minlash;

- savollarning maxfiyligini kafolatlash;

- turnirdagi fors-major holatlarini odilona baholash;

- turnir nizomiga bo‘ysunmagan jamoalarni qoida bo‘yicha jazolash huquqiga ega bo‘ladi.

9.3. Turnirda jamoalar tomonidan berilgan javob variantlarini hisoblash maqsadida hisob-komissiyasi tashkil etiladi.

9.4. Hisob-komissiyasi jamoa tomonidan berilgan javob variantini aniq javobga to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini mustaqil baholab, jamoaga ochko berish masalasini hal qiladi va turnir natijalari hisobini olib boradi.

9.5. Hisob-komissiyasining qarori apellyatsiya natijasida o‘zgartirilishi mumkin.

X. Yakuniy qoidalar

10.1. Turnir davomida mazkur Nizomda nazarda tutilmagan holatlar yuz bersa, bunday holatlar tashkiliy guruh tomonidan ijtimoiyadolat nuqtayi nazaridan hal etiladi.

10.2. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Bu haqida turnir boshlangunga qadar barcha jamoalar ogohlantirilishi kerak.

“OILA MA’NAVIYAT”

Avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'l mish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizdir.

Sh.Mirziyoyev

Oila-muqaddas dargoh! Oila-nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati. Nega deganda, bashariyatning tirikligi, uzuksizligi-oilandandir. Yoshlar tarbiyasi, ma'naviyati aynan oilada shakllanadi.

Oila – jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi.

Oila uchun hayotdagi asosiy qadriyatlar, barcha oila a'zolarining hamjihatligini, ishonchini va sevgisini mustahkamlaydigan muayyan axloqiy tamoyillarga rioya qilishga intiladi.

Yosh oila boshqa oilaviy qadriyatlarni qo'lllab-quvvatlashi kerak:

- oilaning har bir a'zosi uchun ahamiyatga ega bo'lgan ma'no - har bir oila muhtojlik, sevgini bilishi kerak;

- **o‘zaro hurmat** - boshqa shaxsning fikrlarini, hissiyotlarini va ehtiroslarini qabul qilish;

- **halollik** - agar oilada bunday qiymat bo‘lmasa, u boshqa shaxsning shaxsini hurmat qilmaslik deganidir;

- **kechirish** - xato qilgan odamlarni kechirishni o‘rgatish muhimdir;

- **saxovatlilik** - oilada o‘zingiz qabul qilgan narsalar haqida o‘ylamasdan berish kerak.

- **mas’uliyat** - bu qadriyat boshqa oila a’zolarining xotirjam bo‘lishlari uchun zarurdir, chunki ular ishonadigan kishilar borligini biladilar;

- **muloqot** - bu qiymat oilani mustahkamlashga yordam beradi, muloqotni susaytirishi noto‘g‘ri tushunishga va oilani buzishga olib keladi;

- **urf-odatlar** - bu oilaning eng muhim qadriyatlaridan biridir, bu sizning va yaqinlaringiz uchun xos bo‘lgan o‘ziga xoslikdir.

Zamonaviy oilada oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishning ahamiyati

Bolalar uchun oila deyarli butun dunyo. Oilaviy qadriyatlar va urf-odatlar hayotning dastlabki yillarda nafaqat jismoniy dunyo, balki his-tuyg‘ular dunyosi haqida ham bilimning asosiy manbai hisoblanadi. Bolaning oilasida o‘rganadigan har bir narsa o‘zining dunyoqarashiga asos bo‘ladi. Shuning uchun baxtli oilalar jamiyat uchun sog‘lom avlodning manbai hisoblanadi.

“MA’NAVIYATGA TA’RIFLAR

Ma’naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Ma’naviyat atamasining asosida “ma’no” so‘zi yotadi. Ma’lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo‘y-basti, ko‘rinishi,

kiyinishi, xatti-harakati va boshqa kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istiklari, intilishlari, his-tuyg‘ularini o‘z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma’naviyatdir.

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir!”

Sh.Mirziyoyev

Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak

Sh.Mirziyoyev

Biz - g‘ururi, oriyati ma’naviyati baland xalqmiz!

Sh.Mirziyoyev

“Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak!”

Sh.Mirziyoyev

Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.

Sh.Mirziyoyev

“Hajga, Umraga borib kelgan har bir yurtdoshimiz ma’naviyat targ‘ibotchisi bo‘lishi, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerak!”.

Sh.Mirziyoyev

“Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezbilik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan.

Sh.Mirziyoyev

“Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”.

Sh.Mirziyoyev

“Agar kimdir, ma’naviyat masalasi – bu faqat Ma’naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o‘ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir”.

Sh.Mirziyoyev

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: 2021.
2. Sh. M. Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezhgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. “Tasvir” nashriyot uyi. – T.: 2021.
3. Ma'naviyat, asosiy tushunchalar izohli lug'ati. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T.: 2016.
4. Muhammad Quronov. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. – T.: 2021.
5. Daminov I. O'zbekiston buyuk allomalar yurti. – T.: 2019.
6. Jabborov X., Azimova F., Sultonov A. Targ'ibot tadbirlarining ilmiy-amaliy ta'sirchanligini oshirish mexanizmlari. – T.: 2019.
7. A.Sa'dullayev “Mahalla yoshlari o'rtasida Ma'naviyat va kitobxonlikni targ'ib qilish bo'yicha uslubiy qo'llanma” – Zarvaraq nashriyoti – T.: 2022.
8. R. Mahmudov “Kasbiy ma'naviyat” Metodist nashriyoti – T.: 2023.
9. R. Mahmudov “Notiqlik san'ati va nutq madaniyati” Mumtozso'z nashriyoti – T.: 2021.
10. R. Mahmudov “To'ra Sulaymon saboqlari” Innovatsiya g'oya nashriyoti – T.: 2023.
11. M.Kaxarova, I.Suvonov. Ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarga oid: 111 savolga 111 javob. “Ma'naviyat” – T.: 2022.



MUNDARIJA

| | |
|---|------------|
| Kirish..... | 3 |
| Ma’naviyat masalasi – hayot mamot masalasi..... | 5 |
| I. Bob. O‘zbekiston Respublikasi Davlat ramzları | |
| O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i | 8 |
| O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi | 10 |
| O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi | 11 |
| O‘zbekiston tarixi va buguni..... | 12 |
| II.Bob. Prezident ma’ruzalari va kitoblari | |
| Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak..... | 50 |
| Yakuniy So‘z | 75 |
| “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobining beshinchi “Ma’naviy taraqqiyot” ishi..... | 77 |
| III.Bob. Prezident qaror va farmonlari | |
| O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagи “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 5040-sonli.. qarori. | 111 |
| O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida..... | 118 |
| “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 100 ta maqsadi.. | 132 |
| IV.Bob. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi faollari va bir guruh ma’rifat targ‘ibotchilarining O‘zbekiston xalqiga MUROJAATI | 123 |

| | |
|--|-----|
| V.Bob. Mahallada Ma’naviyat va ma’rifat kengashi faoliyatini tashkil etish | |
| Ma’naviyat va ma’rifat kengashi nizomi | 132 |
| Korxona va tashkilotlarda ma’naviyat va ma’rifat kengashining namunaviy tuzilishi..... | 136 |
| Kengash yig‘ilishi bayonining namunaviy shakli..... | 137 |
| “Ma’rifat” Kitob Javoni uchun Badiiy-Siyosiy Adabiyotlar Ro‘yxati | 140 |
| VI. Bob. Mahallalarda ma’naviy-ma’rifiy, tashkiliy ishlar | |
| “Ma’naviyat xonasi”ni tashkil etish tartibi | 159 |
| “Ma’naviyat burchagini”ni tashkil etish tartibi..... | 161 |
| “Ma’rifat” radiouzelini tashkil etish tartibi..... | 163 |
| “Ma’rifat” kitob javonini tashkil etish tartibi..... | 164 |
| “Ma’rifat” kitob javoni uchun siyosiy-badiiy adabiyotlar ro‘yxati..... | 167 |
| Mahallalar uchun tavsiya etiladigan matlubot nashrlari ro‘yxati | 171 |
| VII. Bob. Birinchi, ikkinchi Renessansi allomalari, jadidchilik harakati namoyandalari. | |
| Birinchi renessans allomalari..... | 174 |
| Ikkinchi renessans allomalari..... | 224 |
| Jadidchilik harakati namoyandalari | 274 |
| VIII. Bob. Bilish zarur bo‘lgan “100 savolga – 100 javob” | |
| Savol va javoblar..... | 294 |
| IX.Bob. Muhim va foydali ma’lumotlar. | |
| Mustaqillik yilnomasi | 327 |

| | |
|--|-----|
| Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari..... | 328 |
| Mamlakatimizdagi teatrlar to‘g‘risida ma’lumot | 332 |
| Mamlakatimizdagi muzeylar to‘g‘risida ma’lumot | 335 |
| Muqaddas ziyyoratgohlar..... | 338 |
| O‘zbekistondagi muhim sanalar | 339 |
| Ma’naviyatimizning buyuk timsollari..... | 343 |
| Jadidchilik harakati namoyandalari, mustaqilligimiz darg‘alari..... | 345 |
| Tavsiya etiladigan filmlar | 347 |
| O‘zbekiston Respublikasida xalqaro sanalar | 348 |

X.Bob. Festival, forum, ko‘rik-tanlov va loyihalar

| | |
|--|-----|
| “Ma’naviyat marafoni..... | 352 |
| “Milliy o‘yinlar festivali” | 356 |
| “Mahallada duv-duv gap” loyihasi | 365 |
| “Ma’naviy olam sehri” tanlovi..... | 370 |
| “Yosh kitobxon” tanlovi | 372 |
| “Yosh kitobxon oila” tanlovi | 383 |
| “Zakovat” tanlovi..... | 390 |
| “Oila ma’naviyati” | 398 |
| Ma’naviyatga ta’riflar | 399 |
| Foydalanilgan adabiyotlar..... | 402 |

MAHALLALARDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL

ETISH YUZASIDAN TAVSIYA

QO‘LLANMA

Muharrir: Y. Inog‘omov

Texnik muharrir: S. G‘ofurov

Sahifalovchi: A. Asrorov

Nashriyot litsenziyasi № 002750. 07.05.2021.

Bichimi: 60x84 1/16. Ofset bosma.

Times garniturasi. Shartli b.t. 5.6. Nashr b.t. 4,0.

Adadi: nusxa. Buyurtma Bahosi shartnomaga asosida.

“ZAMIN NASHR” nashriyotida
chop etildi.

Toshkent shahar, Bog‘ishamol ko‘chasi, 160-uy.

